

M.M. VAXITOVA, SH.R. MIRZAYEV

ME'MORCHILIK

-

ISBN 978-9943-372-30-6

9 789943 372306



M.M. VAXITOV, SH.R.MIRZAYEV

ME'MORCHILIK

I QISM. ME'MORCHILIK TARIXI





ta.
V-30


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

M. M. VAXITOV, SH.R.MIRZAYEV

ME'MORCHILIK

I QISM. ME'MORCHILIK TARIXI

«TAFAKKUR» NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2010



BBK 85. 11#73

UDK: 72 (075)

V-30

Vaxitov, M. M.

Me'morchilik: darslik / M. M. Vaxitov, Sh. R. Mirzayev; O'zbekiston Respublikasi oliv va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: Tafakkur.

Qism I. : Me'morchilik tarixi. -368 b.

UDK: 72 (075)

O'zbekiston Respublikasi oliv va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-yil 26-fevraldagi 51-sonli buyrug'i bilan darslik sifatida nashr etishga tavsija etilgan

Taqrizchilar: arxitektura doktori, prof. T. F. Qodirova (TAQI)

t.f.n., dost. X. R. Ro'ziyev (BuxOOvaESTI)

Ushbu darslik oliv o'quv yurtlarining 5140900 – «Kasb ta'lifi (Binolar va inshootlar qurilishi)» va 5580200 – «Binolar va inshootlar qurilishi» yo'nalishlari o'quv dasturlariga mos holda yaratilgan, u uch qismdan tashkil topgan.

Darslikning ushbu I qismi – *Me'morchilik tarixi* ikki bo'limdan iborat bo'lib, 1 - bo'limida jahon me'morchilik tarixi, 2 - bo'limida O'zbekiston milliy me'morchilik tarixi masalalari bayon etilgan.

Kitobning II qismi – *Fuqarolik binolari* to'rtta bo'limni o'z ichiga oladi, uning 1 - bo'limida binolarni loyihalash asoslari, 2 - bo'limida turar - joy binolari, 3 - bo'limida fuqarolik binolarining konstruksiyalari va 4 - bo'limida jamoat binolarining loyihaviy va konstruksiyaviy masalalari bayon etilgan.

Darslikning III qismi – *Sanoat binolari* uch bo'limdan iborat bo'lib, 1 - bo'limida sanoat binolarini loyihalash asoslari, 2 - bo'limida binolarning konstruksiyalari, 3 - bo'limida me'morchilik fanini o'qitish metodikasi yoritib berilgan.

Kitobning barcha qismlari tarkibidan mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar ham o'rinn egallagan.

ISBN 978-9943-372-30-6

© M.M. Vaxitov, Sh.R.Mirzayev, 2010-y.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik sharofati bilan o'z taraqqiyotining yangi davriga kirdi. Xalqimiz o'zining boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosiga ega bo'ldi. Ming-ming yillik me'morchilik va shaharsozlik tariximizni, hattoki borib ko'rish ta'qiqlangan arxitekturaviy yodgorliklarni nafaqat ziyorat qilishga, balki ularni o'rganishga va restavratsiya qilishga ham keng imkoniyatlar yaratildi. Vatanimizda qadim zamonlardan boshlab yaratilgan nodir me'moriy obidalarni, shaharsozlikning yaratilish tarixini, qurilish usullari va qoidalarini talabalarga xolisona o'rgatish zamoni keldi.

Samarqand shahrining 2750 yillik, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlarining 2500 yillik, Shahrisabzning 2700 yillik, Toshkent shahrining 2200, Marg'ilon shahrining 2000 yillik yubileyлari nishonlandi. Buyuk sohibqiron va atoqli davlat arbobi Amir Temur, jahonga mashhur vatandoshlarimiz Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Marg'inoniy, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Najmuddin Kubro, Imom al-Moturdiy, Jaloliddin Manguberdi singari jahonga mashhur kishilarning qadamjolari mamlakatimizning bosh me'mori – davlatimiz Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning tashabbuslari va rahbarliklarida zamonamizdan kelajak avlodga meros bo'lib qoladigan darajada restavratsiya qilindi, tubdan qayta qurildi va yangidan tiklandi. 2007-yilda Islom madaniyatining poytaxti deb tan olingen Toshkent shahrida ulug'ver inshoot – Hazrati Imom masjidi bunyod etildi.

Zamonaviy materiallar va konstruksiyalar asosida, milliylikni o'zida jo etgan, umumiylilik bilan uyg'unlashgan ko'plab turar-

joy, jamoat hamda sanoat binolari va inshootlari qurildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yo'lida mamlakatimizda yuksak me'morchilik san'ati darajasida akademik litseylar, kasbhunar kollejlari, maktablar, sport inshootlari, zamonaviy tibbiyot muassasalari, yangicha qishloqlar yaratildi. Ko'plab maydonlar, bog'-rog'lar, oromgohlar xalqqa in'om etildi. Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari, zavodlar, fabrikalar ishga tushdi. Neft va gaz, gidrotexnika, energetika inshootlari, yangi yo'nalishdagi avtomobil yo'llari, temir yo'llar, ko'priklar, estakadalar va ko'plab boshqa turdag'i inshootlar bunyod etilib, foydalanishga topshirildi.

Yurtboshimiz tarixsiz kelajak yo'qligini, vatandoshimiz Abdulla Qodiriylar ta'biri bilan aytganda, moziyga qaytib ish ko'rmoq kerakligini e'tiborga olib talaba yoshlarga – bo'lajak quruvchi muxandislarga me'morchilik, shaharsozlik va qurilish tarixini, ularning sir-asrorlarini o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Ushbu darslik ana shu maqsadni ko'zlab yaratilgan bo'lib, yoshamiziga me'morchilik sirlarini o'rgatishga qaratilgandir.

Me'morchilikning vazifasi inson hayoti va faoliyati uchun munosib fazoviy muhitni tashkil qilishdir. Bu vazifa moddiy struktura – qurilayotgan va ta'mirlanayotgan binolar va inshootlar orqali hal etiladi. Arxitekturaning ijtimoiy va g'oyaviy rivojlanish jarayonida uning funksiyasi binolar, konstruksiyalar orqali turlicha ifodalanadi. Konstruksiyalar va arxitekturaviy – badiiy ifodalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik me'morchilik rivojlanishining muhim muammosi bo'lib kelgan. Konstruksiya aniq funksional va estetik masalalarga mos holda qo'llanilganligi uchun arxitekturaviy asar elementi ahamiyatiga ega bo'lgan. Konstruktiv shaklning proporsional, hajm-fazoviy va plastik ifodalanishi bino va inshootlar tektonikasining xususiyatlarni tashkil etadi va bu arxitekturaviy kompozitsiyaning bir muhim vosisidir.

Me'morchilik fani hamma vaqt ijtimoiy, siyosiy va g'oyaviy omillarni hisobga olgan, ularga mos holda rivojlangan. Muhandis quruvchilar arxitekturaning, asosan texnik masalalari bilan ish ko'rib, konstruksiyalar va qurilish usullarini o'ziga jo etgan estetik imkoniyatlarini yaqqol tasavvur qilishlari kerak bo'ladi. Bu jihatdan

qaraganda, arxitektura tarixiy tajribasi nafaqat keng ma'lumotlar beradi, shuningdek, u muammoni nazariy o'ylashga o'rgatadi, konstruksiyalar va badiiy shakllarning o'zaro bog'liqligiga oid ko'p qirrali nazariy masalalarni hal qilishga yordam beradi.

Kitobning birinchi qismini birinchi bo'limida tarixiy-arxitekturaviy ma'lumotlar, umumiylar, tarixiy izohlar, konstruktiv shakllarning rivojlanishi, tektonik xususiyatlar, ikkinchi bo'limda o'zbek milliy me'morchiligi yoritilgan. Darslikning ikkinchi qismi bino va inshootlarni loyihalash asoslariga, turar joy binolariga, fuqarolik binolarining konstruksiyalariga va o'ziga xos jaomoat binolariga bag'ishlangan. So'nggi uchinchi qismida esa sanoat binolarni loyihalash va konstruksiyalarini o'rganish masalalari yoritilgan.

Boblar va bo'limlar ichida materialni joylashtirish tartibi bino va inshootlarning konstruktiv asoslaridan boshlanib, so'ngra arxitekturaviy yechimning boshqa tomonlarini yoritishga o'tilgan. Bu usul arxitekturaga muhandislik nuqtai-nazardan yondoshishni bildiradi. Kelgusi muhandis, quruvchi, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoni ijtimoiy siyosiy va g'oyaviy tarbiya bilan ham bevosita bog'liqligini inobatga olib, kitobda bu masalaga ham e'tibor berilgan.

Darslikning o'ziga xos jihatlaridan biri «Kasb ta'limi (Binolar va inshootlar qurilishi)» hamda «Binolar va inshootlar qurilishi» yo'nalishlari bo'yicha me'morchilik fani dasturiga mos holda uning o'zbek tilida keng hajmda birinchi marta yaratilishidir. Shuning uchun ham ushbu kitob mualliflar e'tiboridan chetga chiqib qolgan ba'zi kamchiliklardan xoli bo'lmasligi mumkin. Mualliflarga bildirilgan darslik bo'yicha har qanday kamchilik samimiyat bilan qabul qilinadi va keyingi tahrirlarda uning sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

Ushbu darslikni tayyorlash jarayonida texnik yordam ko'rsatganliklari va o'z xizmatlarini ayamaganliklari uchun S. F. Hasanova va A. X. Hojiyevlarga mualliflar o'z minnatdorchiliklarini izhor etadilar.

I BO'LIM. ME'MORCHILIK TARIXI

I-bob. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Me'morchilik xalq arxitekturasida bino va inshootlarning qurilish san'atini ifodalovchi atamadir. Me'morchilik bino va inshootlar qurishning o'ziga xos texnikasini, san'atini, xalq tarixini, uning ijtimoiy-siyosiy quadratini, diniy va dunyoviy qarashlari ni, madaniy-maishiy hayotini ma'lum shaklda mujassam etadi. Me'mor – binokor usta; bino va inshootlarning loyihasini yaratuvchi va ularning qurilishini nazorat qilib boruvchi bosh mutaxassisidir.

Arxitektura (lot.) me'morchilik san'ati inson ijodiy faoliyatining qurilish bilan bog'liq bo'lgan alohida turidir, u me'morchilik san'ati tarixi, qonuniyatları, nazarivasi, binolarning turi va uslubi, kompozitsiyasi kabi qator masalalarni o'rganuvchi fandir. U jamiyatning ijtimoiy-maishiy va g'oyaviy-badiiy ehtiyojlariga xizmat qiladi. Turli-tuman binolar, ularni loyihalash va qurish, inshootlar, shahar va qishloqlar keng ma'noda arxitektura nomi bilan yuritiladi.

Arxitektura kishilik jamiyatı taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq paydo bo'lган. Ibtidoi odam tabiat kuchlaridan o'zini muhofaza qilish uchun hayotiy zarurat tufayli oddiy mag'ora va chaylalar yasagan. Inshootning ko'rkiga ham e'tibor berib, go'zallik qonunlari asosida ijod eta boshlagan.

Arxitektura quldarlik jamiyatı davrida tez taraqqiy topgan. Jamiatning sinfiy talablariga munosib uy-joy va jamoat binolari yaratilgan. Qadimiy Sharqda piramida, zikkurat kabi ulkan diniy inshootlar kompleksi, murakkab rejali saroylar va boshqa inshootlar barpo etilgan. Fanning ba'zi nazariy va amaliy masalalari ishlab

chiqilgan. Qadimgi Yunonistonda maktab, stadion, teatr, ibodatxona, amfiteatr kabi turlari paydo bo'lgan.

Ellinizm davriga kelib order sistemasi arxitekturaning konstruktiv va badiiy asosiga aylangan. Qadimgi Rimda beton ishlatalishi davri ravoq va gumbazlar arxitekturasining rivojlanishiga olib kelgan. Forum, Zafar darvozasi kabi harbiy qudrat g'oyalarini namoyish etuvchi yangi inshootlar paydo bo'lgan. Binolar bezagiga e'tibor ortgan.

O'rta asrlar arxitekturasida roman (X – XII asrlar) uslubi, keyinroq gotika (XII – XV asrlar) uslubi alohida o'rin tutgan. Gotika arxitektura uslubiga xos bo'lgan cho'ziq ravoqlardan iborat konstruksiyali binolar ichida monumental ibodatxonalar diqqatga sazovor ho'lgan.

Uyg'onish davri – Renessans (XV asr oxiri – XVI asr boshlari) uslubi negizini qadimgi klassik arxitektura prinsiplarining yangi davr talablari asosida rivojlantirishni tashkil etgan. Bu davrda keng ko'lamdagi va murakkab ko'rinishdagi inshootlar yaratilgan. XVI asr o'rtalarida uslub o'zgargan. Binolar haddan tashqari bezakdor (barokko uslubi) qurilgan.

XVII–XIX asrlarda bu serahasham voz kechishga intilish boshlangan. Klassik va Renessans arxiteturasining usul va prinsiplarini yangi zamonga tatbiq etish natijasida klassisizm uslubi paydo bo'lgan.

Markaziy Osiyo arxitekturasi ham o'ziga xos Uyg'onish davrini bosib o'tgan. Arxitektura uslubida naqsh va rangga alohida e'tibor berilgan. binolarnig yangi turlari va kompozitsiyalari ijod qilingan. Buddha dini tarqalgan yerlarda Buddha haykallari bilan bezatilgan ibodatxonalar bunyod etilgan. Rus arxitekturasida yetuk inshootlar, ularning komplekslari va ansabllari qurilgan.

Kapitalistik jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yangi tipdag'i inshootlarni bunyod etishga olib kelgan. Fabrika, zavod, elektr stansiya, vokzal, aerovokzal, garaj, elevator, birja, firma singari bino va inshootlar qurila boshlangan. Temirbeton, metall konstruksiyalari va boshqa qurilish materiallari (oyna, plastmassa va hokazo) arxitektura uslubida tubdan o'zgarish yaratgan. Yangi

texnika va uslublar yaratilgan. Bular hammasi ko'p qavatli binolar va inshootlar barpo etish imkoniyatini yaratgan. Namunaviy yechim va standartlar ishga tusha boshlagan. Yangi material, texnika, yangi tamoyil va talablar yangi arxitekturani yaratgan. Natijada fanda turli oqimlar paydo bo'la boshlagan.

Funksionalistlar binoning go'zalligi uning shakli va funksiyasining uzviyligi, konstruksiyaning nafis va materiallarning tabiiy bo'lishiga bog'liq deb ta'kidlasalar, boshqa bir guruh arxitektorlar yangi arxitekturada bezatuvchilikka umuman o'rin yo'q deb aytganlar. Qurilish texnikasining yutuqlari va imkoniyatlariga asoslanib, faqat shakl bilan qiziqib, arxitekturaning g'oyaviybadiiy sifatlarini inkor etish natijasida konstruktivizm oqimi paydo bo'lган. Elektika va modernga qarshi chiqib, inshootlarning sodda, ehtiyojni qondiradigan, tejamli bo'lishini talab qilganlar. Bu oqim namoyandalari zamonaviy qurilish materiallarining (temirbeton, oyna) badiyilagini ko'rsatishga uringanlar, bezaklardan voz kechganlar, devorlarda derazalarning behad keng bo'lishiga ahamiyat bergenlar.

Keyingi davr arxitekturasi har bir xalqning milliy an'analari, turmush sharoiti, madaniyati, tabiiy sharoiti va mavjud qurilish materiallariga qarab bino va inshootlarning o'ziga xos shakl va turlarini yaratgan. Arxitekturada turar-joy, madaniy oqartuv binolari, teatr, muzey, maktab, stadion, mudofaa inshootlari, savdo rastalari, sanoat va transport inshootlari, diniy binolar va ko'plab boshqa inshootlar, ko'cha, maydon, bog' kabi sahnlar orqali o'zaro bog'lanib, mahalla, guzar, daha, tuman, shahar kabi komplekslarni tashkil etgan.

Arxitektura inshootlari jamiyatning moddiy ehtiyojlardan tashqari, o'sha davr ijtimoiy hayotidagi asosiy g'oyalarni ham ifoda etgan. Masalan, ulug' bobomiz Amir Temur ulkan arxitektura binolari va inshootlari orqali ham (masalan, Shahrsabzdagi Oqsaroy) o'z qudratini namoyish etgan.

Amaliyotda arxitektor mavjud imkoniyatlar asosida bino barpo qiladi. Binoning o'rni va mavqeiga qarab uning badiiy obrazini yaratadi. Buning uchun u fanning yutuqlarini chuqur o'rgangan

bo'lishi, mahalliy va tabiiy sharoitlar, xalqning milliy va badiiy an'analari, did va talablarini hisobga ola bilishi kerak. Ayni vaqtida O'zbekiston milliy arxitekturasi jahon arxitekturasi yutuqlaridan foydalangan holda, zamonaviy qiyofaga kirib rivojlanmoqda, yuksaklikka intilmoqda.

2-bob. IBTIDOIY JAMOA DAVRI ME'MORCHILIGI

Qurilish faoliyatining boshlanishi paleolit zamonasiga borib taqaladi. U davr insonlarning tashqi muhit noqulayliklari va yovvoyi hayvonlarning ta'sirlaridan o'zlarini muhofaza qilish uchun oddiy tosh qurollari yordamida dastlabki turar-joylarni tiklashlari bilan bog'liqdir. Yog'och mavjud bo'lgan hududlarda, odatda, shox-shabbalar bilan yopilgan yerto'lalar, ikki qiyali yoki konussimon shakldagi yopmalardan iborat alohida turuvchi chaylalar qurilgan.

Me'morchilik faoliyati so'nggi paleolit zamonasida boshlangan deyiladi. Bu davrda qurilish texnikasi oddiy utilitar masalani yechuvchi texnik faoliyatdan insonlarning oddiy ma'naviy ehtiyojlarini qoniqtiruvchi murakkab tartibdagi masalalarni yechuvchi faoliyatga o'ta boshlaganligi bilan xarakterlangan.

Oddiy konstruktiv elementlar va tizimlarni estetik fikrlash tektonika bilan bog'liq bo'lган. Keyinroq aniq g'oyaviy-badiiy mazmunni rivojlanishi badiiy texnik qurilish davrini, ya'ni arxitektura davri boshlanganligini bildiradi. Bu davr bilan inson faoliyatining yangi qirrasi – badiiy san'atni paydo bo'lish jarayoni ham bog'liqdir.

Neolit davrida toshdan yasalgan, takomillashgan mehnat qurollari paydo bo'lgan va u insonning moddiy imkoniyatlarini yanada kengaytirgan. Olov bilan bolta yaxlit daraxtdan hatto qayiq, uy-joy uchun g'o'la va taxta tayyorlash imkoniyatini bergen. Uzunligi 30 m va maydoni 150 kvm ni tashkil etgan konsentrik aylanalar bo'ylab joylashgan (diametri 170 m bo'lgan katta aylana bo'ylab katta, kichik aylana bo'ylab kichik) uylar qurilgan.

Neolit davrining eng rivojlangan qurilishlariga yog'och qoziqqa tayantirilgan binolar kiradi. Bular, odatda daryo, dengiz va botqoq

joylarda qurilgan. Ular mudofaa va baliq ovlab hayot kechirish maqsadida shunday joylarda tiklangan.

Bronza asriga kelib metalldan yasalgan ish qurollari mehnat unumdarligini keskin ko'targan. Megalitik inshootlar – yirik toshlardan tayyorlangan imoratlar, plitalar, tik ustunlar yuzaga kelgan. Bu inshootlarning vazifasi, asosan diniy marosimlar va xotira hodisalari bilan bog'liq bo'lган.

Megalitik inshootlarning menger, dolmen va kromlex nomli uch asosiy turi topilgan. Mengerlar marhumlar xotirasiga qo'yilgan katta o'Ichamdag'i (odatda 4-5 m ni tashkil etgan, ammo balandligi 20 m gacha, vazni 300 t gacha bo'lganlari ham bor, masalan, Franstiyada) tik toshlardir.

Dolmenlar ustiga bostirma-yopma qo'yilgan bir necha tik o'rnatilgan toshlardan iborat inshootlar (ularning dastlabki o'Ichamlari – uzunligi 2 m gacha, balandligi 1.5 m gacha, keyinchalik o'Ichamlari kattalashgan).

Kromlex (Angliya, Stanxendjda saqlangan) uzun yo'lak yoki halqasimon to'siqdir, diametri 30 m bo'lib, devorlari tik toshlardan iborat bo'lган. U yotiqliklar bilan yopilgan.

Yodgorlik va diniy inshootlar bilan bir qatorda, ibtidoiy jamao tuzumining so'nggi bosqichlarida yangi tur inshootlar – tosh va yog'och qal'alar tiklana boshlangan. Dastlabki qal'alar bitta devor bilan, keyinroq esa, ichkaridagi ark (stitodel) atrofi ikkinchi devor bilan o'ralgan.

Mehnat turlarini yuzaga kelishi va dehqonchilikdan hunarmand-chilikni ajralishib chiqishi bilan qabilalar orasidagi nizolar kuchaygan. Xususiy mulkni paydo bo'lishi bilan mulkiy farqlar kattalashgan. Qo'l mehnatini ahamiyati oshib, qarindoshchilik tuzumini yemirilishiga olib kelgan va quidorlik davlatlari paydo bo'la boshlagan.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Me'mor deganda kimni tushunasiz?
2. Me'morchilik to'g'risida o'z fikringizni bayon eting.

3. Arxitekturaning rivojlanish tarixini qisqacha izohlab bering.
4. Ibtidoiy jamoa davri me'morchiligin sharhlab bering.
5. Megalitik inshootlar to'g'risida nimalarни bilasiz?
6. Tosh va yog'och qal'alarning shakllanishini izohlab bering.

3-bob. QULDORCHILIK DAVLATLARINING ME'MORCHILIGI VA SHAHAR QURILISHI

Ibtidoiy jamoa tuzumini yemirilishi bilan Misr va Old Osiyoda qullarning mehnatidan foydalanishga asoslangan quldorlik davlatlari paydo bo'lgan. O'troqqa aylanish va bu hududlarda davlatlarini paydo bo'lishi yirik daryolar bo'ylab loyli yerlarda irrigatsiya tizimlarini rivojlanishiga sabab bo'lgan. Issiq va quruq iqlim sharoitidagi yerlarni sun'iy sug'orish masalasi dehqonchilik va chorvachilikni rivojlanishiga asos solgan.

Murakkab sug'orish sistemasini barpo etish va undan foydalanish ishlanadigan yerlarni bo'lib olishni mumkin qilmay qo'ygan va mulkka egalik bir kishi – podshoh (fir'avn) qo'liga o'tib qolgan. Katta davlatni siyosiy vositalar va podshohni xudoning yerdagi vakili deb e'lon qilingan bosh diniy g'oya orqali boshqarish mustahkamlangan. Shu sababli dindorlar alohida imtiyozlardan foydalanadigan bo'lganlar.

Davlat va boylikni podshoh va uning yaqinlari qo'lida to'planishi qadimgi sharq quldorlik tuzumining farqli tomoni bo'lgan. Hokimiyatni markazlashuvi ko'p qullar mehnatini yodgorliklar (ibodatxonalar, qasrlar, maqbaralar) qurish uchun to'plashga imkon yaratgan.

3.1. Qadimgi Misr arxitekturasi

Nil vodiysining shimoliy va janubiy rayonlarini birlashtirgan yagona Misr davlati eramizdan avvalgi III minginchi yillarda tashkil topgan.

Misr davlati me'morchiligi tarixi quyidagi to'rt davrga bo'lingan: erta podsholik (eramizdan oldingi III minginchi yillikning


boshlanishi); qadimgi podsholik (eramizdan oldingi 2800 – 2400 yillar); o'rta podsholik (eramizdan oldingi III minginchi yillikning oxiri – eramizdan oldingi XVII asrlar); yangi podsholik (eramizdan oldingi XVI – XI asrlar).

Qadimgi Misr monumental qurilishlari ichida, xususan maqbaralar, ya'ni piramidalar (qurilishlarni eng yuqori cho'qqiga chiqqan payti qadimgi podshohlik davriga to'g'ri keladi) va ibodatxonalar komplekslari (rivojlanishi yangi podsholik davriga to'g'ri keladi) ajralib turadi.

Qurilish usullari va konstruksiyalari. Misrda qurilish texnikasining rivojlanishi uchun muhim faktor bo'lib doimiy irrigatsiya inshootlariga bo'lgan zaruriyatning mavjudligi xizmat qilgan. Gidrotexnik komplekslar tarkibiga suv omborlari, to'g'onlar, suv o'tkazgichlar, suvni ko'tarish uchun xizmat qiladigan quduqlar va boshqa injenerlik inshootlari kirgan.

Ommaviy qurilishda asosiy material sifatida xom g'isht (o'lchamlari $14 \times 36 \times 11$ sm), monumental binolar va yodgorliklarda esa tog' jinslari (granit, ohaktosh, bazalt, qumtosh va boshqalar) ishlatalgan. Tarkibi ohak, qum va loydan tashkil topgan qorishmalar yordamida toshlar terilgan. Yog'och kam bo'lganligi uchun u kam va zaruriy hollardagina (yopmada, tomda, ba'zi tayanchlarda) ishlatalgan. Gumbaz konstruksiyalar ham deyarli ishlatilmagan. Tosh konstruksiyalar binolar va inshootlarning asosiy elementlari bo'lib xizmat qilgan. Devor va ustun – to'sin sistemasi yodgorliklarning asosiy konstruktiv tizimi hisoblangan (3.1 - rasm).

Qadimgi Misr binolari va me'morchilik komplekslari. Monumental maqbara inshootlarining eng oddiylari mastaba bo'lib, shakli kesilgan piramidaga o'xshaydi. Bu xil inshoot ikki qismidan, ya'ni yer usti qismi (bitta yoki ikkita marosim xonalari mavjud) va yer osti qismi (qabr xonasi) dan iborat bo'lgan. Bu tipdagi inshootlarga Sakkaradagi Joser pog'onali piramidasи (eramizdan oldingi 2780 - yillar) misol bo'la oladi. Inshoot asosining o'lchami $109,2 \times 121$ m ni, balandligi 60 mni tashkil etgan.



3.1 - rasm Qadimgi Misrda ustun - to'sin konstruktiv tizimi.

*1 - Karnakdagi Amon ibodatxonasi (eramizdan avvalgi XIV – XIII asrlar);
a-tom konstruksiyalari; b- ko'ndalang qirqim; 2- qadimgi Misr ustunlari*

Oddiy qurilish usullarida minglab qullar mehnatidan foydalaniolib, qo'pol yorilgan toshlar yoki qorishma bilan terilgan g'ishtlar asosida piramidalar yaratilgan. Inshootning tashqi tomoni yo'nilgan kvadratlar va plitalardan qorishmasiz terilgan. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, qurilish jarayonida pog'onali piramidaning avval tashqi tomoni terilgan, keyin ichki qismi to'ldirilgan. Bunda zinalar materiallarni ko'tarish va terish uchun oraliq maydoncha vazifasini bajargan degan fikrlar mavjud.

Maqbara inshootlarining eng katta kompleksi qadimgi podsholik davriga mansub bo'lган Gizadagi uchta piramidadir (3.2 - *rasm*); fir'avn Xeops piramidasi, uning balandligi 147 m, asosi kvadrat shaklida bo'lib, tomonlari 233 m ni, umumiy hajmi 2,6 mln m³ ni tashkil etadi; fir'avn Xefren piramidasining balandligi undan 8 m pastdir; Mikerin piramidasining balandligi Xeops piramidasidan qariyb ikki marta kichikdir. Piramidalarnig shakli o'zining qirralari bilan cheksiz yerga ketgan, tuzilishining oddiyligi va shaklining statikligi podshoh – fir'avnni abadiylik va baquvvatlik ramzini bildirgan. Fir'avn Quyosh xudosining o'g'li, narigi dunyo xudosining taxt vorisi hisoblangan. Piramidalar fir'avnning yodgorligi va uning vafotidan keyingi uyi deb hisoblangan.



O'rta podshohlik davriga kelib fir'avnlarning siyosiy hukmronligi kuchsizlanib, yirik piramidalarni qurish to'xtatilgan. Ammo ibodatxonalar va maqbaralar qurilishi rivoj topgan. Bu davrda qurilgan binolarga «Deyr - el-Baxri» vodiysidagi tog' manzarasiga juda mos tushgan ibodatxonalar ansambli namuna bo'la oladi (3.3-rasm). Bu inshootni barpo etishda geometrik to'g'ri shakldagi orderlardan samarali foydalanilgan.



3.2- rasm *Gizadagi piramidalar kompleksi*
(Eramizdan oldingi III ming yillik)



3.3 - rasm. *Deyr-el-Baxri vodiysidagi ibodatxonalar kompleksi*




34 - rasm Yangi podsholik davrida qurilgan Karnakdagı Xonsu ibodatxonasi (fasad, reja va qirqim)



a



b



v

3.5 - rasm. Qadimgi Misr ibodatxonalarini (eramizdan avvalgi XV – XIII asrlar):
a – Karnakdagagi Amon (Quyosh xudosi) ibodatxonasi, b – Luksordagi Amon
ibodatxonasi, v – Karnakdagagi ibodatxonalarining aksionometriyasi

Ibodatxonalar qurilishining yuksalishi yangi podsholik davriga to'g'ri keladi (3.4 – 35-rasmlar). Bu davrda ibodatxonalar qurilishida ochiq, yarim ochiq va yopiq fazoli chuqurlik qoidasiga rioya qilingan. Inshootlarning qurilishida simmetriya qoidasiga katta e'tibor berilgan. Fasad kirish peshtoqi bo'lgan massiv devorlardan tashkil topgan. Binoning ichkari qismi kolonnalar bilan o'ralgan kichik hovli (peristol), qator ustunlar bilan yopilgan zal va xonalardan tashkil topgan.


Karnakdagi Xonsu ibodatxonasi rejada 4 qismga bo'lingan: binoga boraverishda sfinkslar galareyasi, darvoza oldida simmetrik ravishda fir'avnning monumental haykallari o'rnatilgan. Binoga kirish qismida bezaklar bilan pardozlangan peshtoq joylashgan, so'ngra ustunlar bilan o'ralgan hovli orqali marosimlar o'tkazish xonasiga, undan keyin esa muqaddas xonaga kirilgan. Ustunlarning balandligi 20 m gacha, diametri 3 m gacha bo'lgan, ustunlar orasidagi masofa 2–3 m ni tashkil qilgan. Ustunlarning massivligi va og'ir vazni odamlarga ruhan salbiy ta'sir ko'rsatib, ularni ruhan ezgan.


3.2. Qadimgi Yunon arxitekturasi

Antik dunyo deb, eramizdan avvalgi XII – VIII asrlardan boshlab eramizning IV – V asrlarigacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga olgan Yunon (Gretsiya) va Rim sivilizatsiyasi davriga aytildi.

Antik Yunon arxitekturasi, asosan eramizdan oldingi VIII – I asrlarda rivojlanib, uchta davrga bo'lib o'rganiladi. Bular: arxaik, klassik va ellistik davrlardir. Arxaik davri eramizdan oldingi VIII–V asrlarning boshlariga to'g'ri kelib, diniy va boshqa jamoat binolari turlarining shakllanishi bilan xarakterlidir. Ikkinchisi davr o'z ichiga eramizdan oldingi 480 – 400 - yillardan boshlab IV asrning oxirlarini olib, arxitekturaning eng rivojlangan davri hisoblanadi. Uchinchi davr eramizdan oldigi 320 - yillardan boshlab eramizning I asrigacha davom etib, Yunon - Sharq davlatlarining yuzaga kelishi va ellistik madaniyatning Kichik Osiyo va Misr mamlakatlariga tarqalishi bilan xarakterlidir.

Qurilish usullari va konstruksivalari. Yunonlar fanning ko'pgina muhim tarmoqlariga (geometriya, mexanika va statika) asos






3.6 - rasm. Qadimgi Yunon arxitekturasida konstruksiya va orderlar (tartib).
 1,2 – Parfemon (qızlar uchun xona) ning rejasi va ko'ndalang qirqimi (eramizdan oldingi 447–438 - yillar); 3, 4 – Erexteyonning rejasi va ko'ndalang qirqimi (eramizdan oldingi 421 – 406 - yillar); 5 – Parfemonning dorik orderi; 6 – Erexteyonning ionik orderi; 7 – Niki Apteros ibodatxonasining ionik orderi detallari (eramizdan oldingi 449 – 421- yillar); 8 – dorik order va uning yog 'och prototipi; 9 – Erexteyonning tom konstruksiyasi; 10 – devor, ustunlarini terish va bloklarini bir - biriga birkitish

solganlar. Bu esa muxandislik fanlarining rivojlanishiga olib kelgan. Muxandislik fanlarining yutuqlari esa dengiz qirg' oqlari inshootlari, shaharlar, ko'priklar, to'g'onlar va boshqa inshootlarda tadbiq etilgan.

Asosiy qurilish materiallari bo'lib xom g'isht, pishgan g'isht, yog'och va monumental binolar qurilishida esa tabiiy tosh, ohaktoshlar xizmat qilgan. Ohaktoshlar juda ham yuqori darajada saqlanib, qorishmasiz, devor va ustunlar qilib terilgan. Ba'zi hollarda konstruksiyani, bardoshligini oshirish uchun bu tosh bloklar bir - biriga biriktirilgan.

Ustun - to'sin konstruksiyalar yangi tektonik sistemaning yuzaga kelishiga asos bo'lган. Bu sistemaning yuzaga kelishiga asosiy sabab har tomonlama ratsional va badiiy jihatdan mukammal bo'lган kompozitsiyalarni yaratish bo'lган. Sistemada har bir konstruktiv element va dekorativ bezaklar o'zining aniq va ma'lum joyini topgan. Sistema keyinchalik klassik order nomini olgan (3.6 - rasm).

Qadimgi Yunon binolari va me'morchilik ansamblari. Qadimgi Yunoniston shaharlarining rivojlanishi asosan jamoat binolarining, bиринчи navbatda ibodatxonalarining asosiy turlarining shakllanishi bilan bog'liqidir. Qadimgi yunonliklar ibodatxonalarini xudolarning uyi sifatida tasavvur qilganliklari uchun ularning shakllanishiga qadimgi turar-joy binolari katta ta'sir ko'rsatgan.



3.7 - rasm Qadimgi Yunon ibodatxonalarining tiplari.

a - prostil, b - amfiprostil, v - peripter. Grek me'morchiligining yuqori yuksalishi - «oltin davri» Afina demokratiyasining dohiysi Perikl davriga to'g'ri keladi
(Bu davrda Afina grek madaniyatining markaziga aylangan)

Yunon uylari (megaron) xonadon (ichida haykali bor) va uning oldidagi ayvondan iborat bo'lgan. Arxitektura, qurilishning rivojlanishi va klassik orderlarning yuzaga kelishi ibodatxonalarining bir necha xil turlarda qurilishiga sabab bo'lgan (3.7-rasm).

Yunon arxitekturasining rivojlanishi va uning yutuqlarini Afina Akropoli (balandlikda joylashgan shahar qal'asi, shaharning diniy - siyosiy markazi: uzunligi 300 m va eni 150 m ni tashkil etgan) misolida ko'rish mumkin. Bu qal'asimon ansamblidagi Parfenon, Erechteyon va Niki Apteros ibodatxonalarining arxitekturasidan o'sha zamon klassik orderlari, binolar tektonikasi, qurilish texnikasi haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish mumkin (3.8 - rasm).





2

3



4

3.8 - rasm. Afina Akropoli (shahar qal'asi) ansamblı, eramızdan əvvalgi V asr. Umumiyyət körinishi (rekonstruksiyadan so'ng) va rejasi: 1- Parfenon (qızlar uchun xona), eramızdan oldingi 447–438- yillar; 2- Erextalon (Erextey nomi), eramızdan oldingi 421 – 406- yillar; 3- Niki Apteros (Qanotsiz g'alaba) cherkovi , eramızdan oldingi 449 – 421- yillar; 4- propiley (akropolga tantanali kirish joyi)

Akropolning asosiy ibodatxonasi Parfenonning (asosi $30,9 \times 69,5$ m, old fasadi balandligi 10,4 m bo'lgan 8 ta ustundan tashkil topgan) g'arbiy tomonida asosiy kirish darvozasi – propiley joylashgan. Akropolda Afina va Poseydon xudolariga atab Niki Apteros va Erextalon ibodatxonalarini keyinroq barpo etilgan.

Parfenon ibodatxonasi o'zining badiiy ifodasi, geometriyası, konstruksiyalari va bezaklari bilan uyghunlashgan holda klassisiem davrining yetuk me'morchilik asariga kirgan.


3.3. Qadimgi Rim me'morchiligi

Qadimgi Rim arxitekturasining rivojlanishi ikkita asosiy davrga bo'linadi. Bular respublika va imperatorlik davrlari arxitekturalaridir.

Eramizdan oldingi IV asrdan eramizning 30 - yillarigacha Rim respublikasi kichkina shahar - davlatdan jahon quldorchilik imperiyasiga, poytaxt Rim millionlar shahriga aylangan. Juda ko'p shaharlar, harbiy lagerlar, inshootlar, qal'alar, ko'priklar va yo'llar qurilgan. Keng savdo - sotiq va dengizda suzish, kemalarni qabul qiladigan qirg'oq inshootlari, omborxonalar, bozorlar, do'konlar va boshqa shunga o'xshash bino va inshootlar qurilishini rivojlanishiga olib kelgan. Ibodatxonalar bilan birga jamoat binolari qurilishi ham rivojlangan. O'sha davrning jamoat binolariga forumlar, teatrlar, amfiteatrlar, sirklar, termalar, devonxonalar, arxivlar, sud - majlislar o'tkaziladigan bazilika binolari misol bo'la oladi. Bundan tashqari, me'morial inshootlar – zafar arkalari, kolonnalar, maqbaralar va sag'analar qurilgan.

Nazariv meros. Rim davri quruvchilar oldiga yechilishi kerak bo'lган juda ko'p amaliy muammolarni qo'ygan. Bu muammolarni yechimini topish uchun esa oldingi va o'sha davr qurilish merosini umumlashtirish kerak bo'lган. O'sha davrdan bizgacha yetib kelgan me'morchilik kitoblardan biri, bu Sezar va Avgust (eramizdan oldingi I asr) davrida yashab o'tgan Vitruviyning "Arxitektura haqida o'n kitob" asaridir. Bu kitobda Vitruviyning arxitektura va qurilish ishlari bo'yicha ensiklopedik ma'lumotlari keltirilgan. unda juda ko'p mavzular yoritilgan. Katta ahamiyatga ega bo'lган bu kitobda arxitektura estetikasining asosiy kategoriyalari, bino va inshootlar asosiy ko'rinishlarining klassifikatsiyasi, shahar va qal'a inshootlarining qurilishlari (I kitob), qurilish materiallari (II kitob), ibodatxonalar va orderlar (III – IV kitoblar), jamoat inshootlari - forumlar, bazilikalar, teatrlar, hammomlar va boshqalar (V kitob), individual uylar (VI kitob), pardoz ishlari (VII kitob), akveduklar, suv va uning xossalari (VIII kitob), astronomiya, quyosh va suv soatlari (IX kitob), qurilishda foydalilaniladigan mexanikaning asosiy tushunchalari, mexanizmlar, suv ko'targich mashinalari, harbiy mashinalar va hokazo (X kitob) lar bayon etilgan.

Arxitekturaning umumiylarida arxitekturaning uch asosiy tomonini (mustaxkamlik, foyda va go'zallik) sintez qilgan holda me'morchilikni tushunish tavsiya etilgan.




3-9 - rasm. Qadimgi Rim arxitekturasida konstruksiyalar. 1, 2, 3 – qirqim, Pantheon portiki order va rotondalarining konstruktiv sxemasi (125-yil); 4 – gumbazlarning asosiy qurilishi; 5, 6 – g'isht - beton gumbazlarini tiklash texnikasi; 7 – Konstantin baziликасининг silindrik gumbazı (312-yil); 8 – xoj ko'rinishdagi gumbaz; 9 – aylana gumbaz; 10 – g'ishi bilan pardozlangan beton devor, 11 – devorlarni pardozlash usullari.

12 – tosh kvadratlardan qilingan arka konstruksiysi;
13 – beton - tosh aralash konstruksiya (amfiteatr, Kolizey, I asr); 14 – Pantheon portiki stropila konstruksiysi; 15 – Trayan ko'prigining yog'och konstruksiysi

Qurilish usullari va konstruksiyalari. Qadimgi Rimda yunonlarga ma'lum bo'lgan, devor va ustun - to'sin konstruksiyalari ishlatilib rivojlantirilgan. Shu bilan birga, yangi arxitektura muammolariga javob bera oladigan shakllarini izlash rimliklarni arkalar va gumbazsimon konstruksiyalarni qo'llashga olib kelgan (3.9 - rasm). Bu esa arxitekturaga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan.

Qurilish materiallarining xilma - xilligi bilan Rim quruvchilari Yunonlardan ancha ilgarilab ketganlar. Eramizdan oldingi II asrlarda monolit devor va gumbazlarni ko'tarishning yangi texnikasi yuzaga kelgan. Bu davrda Rim betoni (qorishma va mayda toshlar-to'ldiruvchilar asosida tayyorlangan) keng qo'llanila boshlangan. Beton texnikasi gumbaz konsruksiyalarning rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratgan. Ishni tashkil etish yuqori darajada amalga oshirilgan. Qisqa muddatlarda yirik inshootlar barpo etilgan (masalan, Kolizey 5 yil davomida qurilgan).




3.10-rasm. Qadimgi Rim arxitekturasida order sistemalari.

1 – Rim orderlari (Palladio bo'yicha): a – toskan; b – rim - dorik; v – ionik; g – korinf; d – kompozit; 2 – orderlarning yarus sistemasi (Rimdagi Kolizey); 3 – yarim kolonnali order; 4 – orderli arkada; 5 – kolonnali arkada; 6 – kompozit ordering detallari; 7 – kompozit orderi antablementi detallari

Orderlar va ularning devor va arka - gumbaz konstruksivalari bilan birgalikda rivojlanishi. Rim axitekturasida orderlara yunon orderlari asosida rivojlanib, badiiy bezaklarni asosi bo'lib qolavergan. Yunonistondan farqli, Rim arxitektursida besh xil ko'rinishdagi orderlar ishlatila boshlangan (3.10 - rasm).

Binolar, inshootlar va arxitektura ansamblari. Rim shaharlari ansamblarining xarakterli kompozitsiyasi – forumlar o'zida yunon arxitekturasi va aholi uylari kompozitsiyalarini mujassamlashtirgan. Ular uzunchoq uchastkada joylashgan bo'lib, ko'cha tomondan vopiq devor bilan chegaralangan. O'zining o'lchamlari, ajoyibligi, ulug'vorligi va kompozitsiyasining murakkabligi bilan ajralib turgan. Imperator Trayan forumi Rim shahar forumlari (3.11-rasm) haqida tasavvurga ega bo'lishni yetarlicha ta'minlaydi (arxitektor Apollodor Damasskiy, eramizning 112–117 - yillari).



3.11 - rasm. Qadimgi Rim forumlari (imperatorlar saroyi).
1- Romanum forumi. 2- Trayan forumining rejası; 3- Troyan ustuni

Qadimgi Rim memorial inshootlarining ko'p tarqalgan turi bu g'alaba arkalaridir. Bunga misol qilib, 315 - yil qurilgan Konstantin arkasini olish mumkin, uning balandligi 21,5 m, eni 25 m ni tashkil etadi. Bundan tashqari, u o'zining bezaklarga boyligi bilan boshqalardan ajralib turadi (*3.12 - rasm*).




3.12-rasm. Rimdagi Konstantin arkasi


Rim arxitekturasida teatr va amfiteatr qurilishi ham juda rivojlanib, Yunon teatridan farqli ravishda alohida turgan hajmiy kompozitsiyali binolarda o'z aksini topgan. Bunga misol qilib, eramizning 75 – 80 - yillarida qurilgan, gladiatorlar urushi va boshqa musoboqalar uchun mo'ljallangan Rim amfiteatri – Kolizeyni olish mumkin (*3.13-rasm*). Kolizey rejada elliptik shaklda bo'lib, o'lchamlari 156x188 m ni, balandligi 48,5 m tashkil etadi. U o'zida 50 ming tomoshabinni sig'dira olgan. Kolizeyning tashqi ko'rinishi monumental bo'lib, devorlari ko'p yarusli order arkadalaridan tashkil topgan.



1



3




2

3.13 - rasm. Rimdagi Kolizey amfiteatri.


1 – umumiy ko'rinish; 2 – qirqimi; 3 – reja

Rim arxitekturasida ja'moat binolarining yana bir turi, bu termalardir (ko'p funksiyali hammomlar). Rimda o'n bitta katta imperator termalari va 800 ga yaqin shaxsiy termalar qurilgan. Bu larning ichida eng mashhuri Karakalla termalaridir (206–216- yillar). Bu termaning o'lchamlari juda ham katta bo'lib, rejada 216×120 m ni tashkil etgan (3.14 - rasm).




3. 14-rasm. Karakalla termasi
(murakkab strukturali gumbazli hammom binosi)

125-yillarda Rimda qurilgan Panteon ibodatxonasi, o'sha davr ibodatxonalariga va yuksak rivojlangan qurilish texnikasiga misol bo'la oladi (3.15-rasm). Ibodatxona gumbazining diametri 43.2 m ni tashkil etgan.



3.15-rasm. Rimdagi Panteon ibodatxonasi

Bunday katta proletli gumbazlar XX asrgacha hech qayerda qurilmagan. Rim qurilishlarida muhim o'rnlardan birini yopiq zallar, bazilikalar egallaydi (3.16 - rasm). Bu zallarda tribunal yig'ilishlar va turli xil majlislar o'tkazilgan.



3.16-rasm. Rimdagi Pyetr bazilikasi (diniy binosi)

Rim jamiyatida ijtimoiy kontrastlar paydo bo'lgach, bu vaziyat shaharsozlikda o'z aksini topgan. Asosiy aholi zich joylashgan turar-joy kvartallarida ko'pchilik bo'lib yashagan. Shu sabab bo'lib ko'p qavatli daromadli uylar (insullar) qurishga kirishilgan. Ularning balandligi 18–21 m, binodagi qavatlar soni 4 va undan ortiqni tashkil qilgan. Birinchi qavat, odatda, savdo rastasi uchun mo'ljallangan.

III – IV asrlarda Rim quldarlik jamiyatida ijtimoiy munosabatlар keskinlashgan, jamiyat boylar va kambag'allarga bo'lingan. Tashqi va ichki qabilalar orasidagi ziddiyatlar va janglar imperiyani hamda jamiyat tuzumini kuchsizlashtirgan va nihoyat tuzumni yemirilishiga olib kelgan. Shu asosda feodalistik tuzum paydo bo'lgan va me'morchilik ham u tuzumga mos rivoj topgan.


Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Quldarlik davri arxitekturasining shakllanishini izohlab bering.
2. Bu davr arxitekturasining bosh g'oyasi nimadan iborat bo'lgan?
3. Qadimgi Misr arxitekturasi to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
4. Qadimgi Misrdagi qurilish usullari va konstruksiyalarini izohlang.
5. Qadimgi Misr me'morchiligidagi xarakteristika bering.
6. Qadimgi podshohlik davridagi Gizadagi piramidalarga izoh bering.
7. Yangi podshohlik davridagi yodgorlik inshootlarini tushuntiring.
8. Qadimgi Yunon (Gretsiya) arxitekturasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
9. Qadimgi Gretsiya qurilish usullari va konstruksiyalarini izohlang.
10. Qadimgi Yunon me'morchilik ansambllariga xarakteristika bering.
11. Afina Akropoli me'morchiligidagi izoh bering.
12. Qadimgi Rim me'morchiligidagi munosabatingizni bildiring.
13. Vitruviyning "Arxitektura haqida o'n kitob" asarini tarkibiy qismlarini izohlab bering.
14. Qadimgi Rim arxitekturasini izohlab bering.
15. Orderlar to'g'risida nimalarni bilasiz?

4-bob. FEODALIZM DAVRI ME'MORCHILIGI

4.1. Sharqiy Yevropa mamlakatlari va Vizantiya arxitekturasi (V – XIV asrlar)

IV asrning oxirlarida Rim imperiyasi yemirilgandan so'ng, imperator Konstantin tomonidan poytaxt Yunon Vizantiyasiga, ya'ni Konstantinopolga ko'chirilgan. Vizantiya arxitekturasi tarixi uch davrga bo'linadi: erta Vizantiya (V – VIII asrlar); o'rta Vizantiya (VIII – XIII asrlar); kech Vizantiya (XIII – XV asrlar) arxitekturasi. Vizantiya arxitekturasining gullagan payti bиринчи davrga to'g'ri keladi. Antik dunyo arxitekturasi an'analarini davom ettirish bilan birga, u o'zida Sharq mamlakatlari xalqlarining arxitektura yutuqlarini ham mujassamlashtirgan.




4.1 - rasm Vizantiya arxitekturasida struktura va konstruksiya turlari.

- 1 – Markaziy gumbaz-strukturasi – Sergey cherkovi (527- yil); 2 – gumbazimon bazilika – Konstantinopoldagi Sofiya ibodatxonasi (532 – 537-yillar); a – reja, b – bo'ylama qirqim, v – konstruktiv tizimi; 3 – xoj gumbazli struktura – reja, b – markaziy qismning konstruktiv sistemasi; 4 – parussimon gumbazlar sxemasi; 5 – vizantivacha g'isht terish tartibi

Qurilish usullari va konstruksiyalari. Vizantiya arxitekturasi Rimdan arka – gumbazsimon konstruksiyalarni me’ros qilib olsada, ammo beton texnikasidan voz kechib, konstruksiyalar asosan g’isht va tabiiy toshlardan bajarilgan. Tomlar, asosan gumbazsimon konstruksiyalardan qilingan. Eng ko’zga ko’ringan konstruktiv yutuqlardan biri, bu to’rt ustunga tayanadigan, parus shaklidagi gumbazni yaratilishi bo’lgan (4.1 - rasm).

Asosiy qurilish materiallari bo’lib, yassi g’isht - plinf xizmat qilgan. Uning o’lchamlari $35,5 \times 35,5 \times 5,1$ sm bo’lgan. Tabiiy toshlarga boy bo’lgan Sharqiy rayonlarda esa, devor terishda yo’nilgan toshlardan foydalanilgan. Qorishmaga ohak ishlatilgan bo’lib, unga maydalangan g’isht qo’shilgan. Gumbazsimon konstruksiyalarni yengillashtirish maqsadida g’ovakli tabiiy toshlar pemzalardan foydalanilgan. Tomlar cherepitsalar yoki qo’rg’oshin tunikalar yordamida qoplangan.

Tektonika. Asosiy binolar. Vizantiya arxitekturasi yutuqlarining eng cho’qqisi deb Yunon arxitektorlari – Anfim va Isidor tomonidan 532 – 537 - yillarda Konstantinopolda qurilgan Sofiya soborini tan olishadi. Sofiya sobori Vizantiya imperiyasining asosiy bo’limi bo’lib, rejadagi o’lchamlari $74,8 \times 69,7$ m ga teng gumbazdir. Gumbazning diametri 31 m, balandligi 23 m ni tashkil etgan, u 4 ta pilonga tayangan (4.1-4.2-rasmlar).




4.2 - rasm Konstantinopoldagi Sofiya sobori (532 – 537 - yillar)

4.2. Roman arxitekturasi

Roman arxitekturasi deb, odatda, XI – XIII asrlardagi g'arbiy Yevropa arxitekturasiga aytiladi, chunki u Rim arxitekturasining ba'zi ko'rinishlari va qurilish usullarini me'ros qilib olgan hamda Roman xalqlari yashaydigan hududlarda keng tarqalgan bo'lган. Rim imperiyasi yemirilganidan keyin, g'arbiy Yevropa hududida arxitektura turg'unlikka uchragan (V – X asrlar). XI asrdan boshlab arxitektura yana rivojlana borib, bu rivojlanish feodallar uylari va qal'alarida o'z aksini topgan.

Qurilish usullari va tektonika. Erta feodal davrlarida qurilgan Roman arxitekturasida binolarning tomlari yog'ochdan bo'lganligi sababli ular yong'inlar natijasida tez - tez yonib, buzilib ketgan. Shuning uchun Roman arxitekturasining asosiy vazifalaridan biri, bu qurilishda yog'och konstruksiyalarini tosh materiallar yordamida gumbazsimon konstruksiyalarga almashtirish bo'lgan (4.3-rasm).




4.3. – rasm. Roman arxitekturasining strukturna tiplari va tektonik xususiyatlari.

1 – roman bazilika tipdag'i ibodatxonaning ko'ndalang qirqimi (Shpeyerdagi sobor, XI – XII asrlar). 2 – ibodatxonalar konstruktiv sistemalarining evolutsiyasi:
 a) – Reymsdag'i Sen Remi cherkovi (X asr); b) – Puatedagi cherkov. (XII – asr);
 v) – Vezledagi cherkov (XII - asr oxiri XIII asr boshi); 3 – devorni yarim kolonnalar bilan bo'lish (Sen Remi sobori); 4 – Bazilikal ibodatxonalarini ichki bo'linishi; 5 – 9 - kech Rim me'morchiligidan yetuk Roman arxitekturasigacha bo'lgan davrgacha tayanch ustunlarining evolutsiyasi

Roman me'morchiligi rivojlanishining asosiy yakuni bo'lib, devorlarni devor va ustunlarga (kontrofoslarga) ajratishdir. Bu konstruktiv sxema Gotik sistemaning rivojlanishiga asos solgan.

Binolari va arxitektura komplekslari. Roman arxitekturasi shakllari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Unda g'arbiy Yevropaning turli hududlarida yuzaga kelgan juda ko'p yo'nalishlar mavjud (4.4 - rasm).




4.4-rasm. Roman arxitekturasi namunalari. 1- Klyunidagi monastr kompleksi XI – XII asrlar; 2- Vormsedagi sobor binosi (XI – XIII); 3-O'rta asrlar qal'alari. Fransiyadagi Gizor qal'asining umumiy ko'rinishi va Loshadagi qal'aning donjon qismining qirqimi


4.3. Gotika arxitekturasi

XII asrning ikkinchi yarmi va XIII asrlarda shaharlarda savdo - sotiq va hunarmandchilikning rivojlanishi g'arbiy Yevropa

arxitekturisining eng yuqori cho'qqilarga chiqishiga olib kelgan. Qurilish ishlari monastrlarning qaramog'idan ketib, haqiqiy quruvchi professionlarning ixtiyoriga o'tgan. Bu davrlarda quruvchilar konstruksiyalarni yengillashtiruvchi va qurilish materiallarini iqtisod qiluvchi yangi qurilish usullarini qidira boshlaganlar. O'tgan davrdagidek, Gotika arxitekturasining rivojlanishida Fransiya arxitekturasi maktablari yana yetakchi o'rnlarda qolgan.



4.5-rasm. Gotika arxitekturasida konstruksiyalar va shakllarining plastik ishlaniishi. 1 – Reymsdag'i sobor (XIII asr): a – reja; b – ko'ndalang qirqim; v – asosiy nefning bo'linishi va dekor; g – yon tomon fasadining fragmenti; 2 – tirkagich va shamol bosimining tarqalish sxemasi; 3 – strelka shaklidagi xojsimon gumbaz; 4 – gumbazning nervyuralari; 5 – yog'och konstruksiyalardan gumbazning ko'tarilishi; 6 – ibodatxonaning tashqi devori bo'yicha qirqimi; 7 – g'isht terimi ichining to'ldirilishi; 8 – gotika detallari: a – fial; b – deraza - atirgul; v – nervyur profili, g – ikki proletli arkbutan; d – yon tomon fasadining derazasi; 9 – o'rta asr uyining yog'och faxverk konstruksiyasi



4.6 - rasm. Parij xudo onasi sobori



4.7 - rasm. Reyms sobori

Qurilish usullari va konstruksiyalari. Bu davrning eng katta texnik yutuqlaridan biri bu gotika – bazilika ibodatxonalarining konstruksiyalaridir (4.5-rasm). Gotika arxitekturasi ustalari Roman arxitekturasi yutuqlarini rivojlantirib, sifat jihatidan yangi karkas sistemasini yaratganlar. Bu sistema binolarining devorlarini va umuman o‘zini ancha yengil bo‘lishiga olib kelgan.

Gotika karkasining asosiy elementlari bu gumbazning arka qovurg‘alari – nervyuralar, gumbazning vertikal tayanchlari (tashqariga chiqarilgan) kontrofoslari va qiya elementlari – arkbutanlardir.

Binolar va arxitektura komplekslari. Gotika arxitekturasining eng ko‘zga ko‘ringan, ajoyib yodgorligi Parij xudo onasi sobori bo‘lib, buning qurilishi 1163-yilda boshlanib XIV asrning o‘rtalarida tugallangan (4.6 - rasm). Hashamatli besh nefli soborning uzunligi 129 m, nefning balandligi 32,5 m, minoralarning balandligi esa 69 m ni tashkil etadi.

Gotika uslubi XIII asrga kelib o‘zining eng rivojlangan davriga o’tigan. Bunga misol qilib Reyms soborini ko‘rsatish mumkin (4.7-rasm).

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Feodalizm davri arxitekturasining shakllanishi izohlab bering.
2. Feodalizm davri arxitekturasi to‘g‘risida fikringizni bildiring.
3. Feodalizm davri qurilish usullari va konstruksiyalarini tushuntiring.
4. Feodalizm davri arxitekturasida tektonikani o‘rnini nimadan iborat?
5. Roman arxitekturasi to‘g‘risida fikringizni bildiring.
6. Roman qurilish usullari va tektonikasini izohlab bering.
7. Roman binolari va arxitektura komplekslariga misollar keltiring.
8. Gotika (Yevropa) arxitekturasi to‘g‘risida fikringizni bildiring.
9. Gotika qurilish usullari va konstruksiyalarini izohlang.
10. Gotika binolari va arxitektura komplekslariga tavsif bering.


5-boh. XV – XIX ASRLARDA YEVROPA ME'MORCHILIGI

5.1. XV – XVI asrlar Italiyada uyg'onish davri me'morchiligi

Tug'ilib kelayotgan burjuazianing o'rta asr feodalizmi din, axloq-odobning shakli va huquqga nisbatan kurashi keng progressiv harakat – gumanizm yo'nalishiga asos soldi. Gumanistlar o'z ijodlarida ko'pincha, antik dunyo madaniyatiga tayanganlar. Shuning uchun XV – XVI asrlarda Italiyadagi madaniy yo'nalish Renessans yoki uyg'onish deb atalgan. Gumanistik dunyoqarash shaxsni rivojlanishiga asos bo'lган. Bu davrlarda bir qator ajoyib arxitektorlar, haykaltaroshlar va rassomlar dunyoga kelgan. Bunga misol qilib Brunelleski, Leonardo da Vinchi, Bramante, Rafael, Mikelandjelo, Palladio va boshqalarni nomlarini keltirish mumkin. Bu davrning nazariy me'rosi qilib anchagina me'morchilik asarlarini ko'rsatish mumkin. Leon Battisti Albertining «Me'morchilik haqida o'n kitob», Andrea Palladioning “Arxitektura haqida to'rt kitob”, Jakomo Barostti da Vinolining “Arxitekturaning beshta order qoidaları”. Leonardo da Vinchining asarlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Qurilish usullari va konstruksivalari. Uyg'onish davrida binolarining qurilish texnikasi Gotika davridan farq qilgan. Bu davrda antik Rim arxitekturasi an'analari davom ettirilgan. Gotika usuliga mansub bo'lgan strelkasimon gumbazlar o'rnini yana yarim sirkulli gumbazlar egallagan (5.1- rasm).

Binolar va arxitektura komplekslari. Uyg'onish davri arxitekturasi Italiyada uchta asosiy davrga bo'lingan: erta, baland va kechki. Ertalarning markazi Florensiya bo'lib XV asrning o'rtalariga to'g'ri keladi.



5. 1-rasm. Uyg'onish davri arxitekturasining konstruksiyalari va qurilish usullari. 1 – Florensiyadagi sobor gumbazi (Fore sobori, 1420–1471 -yillar). a – qirim va fasad; b – gumbaz konstruksiyasi; 2 – Rimdag'i avliyo Pyotr soborining gumbazi (XVI asr ikkinchi yarmi); 3 – Florensiyadagi Pastst'i kapellasi, qirqim; 4 – gumbazlar; 5 – osma shift detallari; 6, 7 – devorlarni pardozi usullari; 8 – devor bo'shlig'larini beton bilan to'ldirish (avliyo Pyotr sobori)

Filippo Brunelleschi (1377 – 1446-yillar) uyg'onish davrining birinchi eng buyuk arxitektorlaridan bo'lgan. Uning eng ko'zga ko'rningan va shu davr arxitekturasi yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan binolari Florensiyadagi tarbiya uyi (1419 – 1444-yillar) va Pastst'i kopellasidir (5.2-rasm).




5.2 - rasm. Filippo Brunelleski binolari.

Leon Battisti Alberti (1404–1472) Florensiyada 1446–1451 yillarda Ruchelai palaststosini yaratgan (5.3 - rasm).



5.3-rasm. Ruchelai palatsososi (1446 – 1451-yillar)

Baland uyg'onish davri arxitektorlariga Donato Andjelo Bramante (1444 – 1514), Mikelandjelo Buonarroti (1475 – 1564) va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Bu arxitektorlarning qurdirgan binolari 5.4 – 5.5-rasmlarda keltirilgan.




5.4-rasm. Palladio qurilishlari: Rostonda villasi, 1551-yil; umumiy ko'rinish (a), reja (b) va qirqim (v)




1




2



3



4



7

8

5.5-rasm. Uyg'onish davri arxitektura yodgorliklari. 1 – Rimdagi Tempetto binosi (1502-yil); 2 – Rimdagi Kanchelleriya palaststosi (1502-yil); 3, 4 – Rimdagi Farneze binosi (1589-yil Fasad va ichki hovli); 5, 6 – Rimdagi Petr saroyi (1520-yil); 7 – Florensiyadagi Medichi kapellasi (1520-yil). 8 – Soborlar rejası (1520-yil)

5.2. Barakko me'morchiligi

Me'morchilikda Barokko usulining yuzaga kelishi XVI asrning 70 – 80-yillariga to'g'ri keladi, ammo bu usulning boshlanish

irmoqlari uyg' onish davriga, aniqrog'i Mikelandjelo ijodiga borib taqaladi. Shuning uchun ham Mikelandjeloni «Barokkoning otasi» deb atashadi.

Barokko usulida formalarning kengligi, ma'lum simmetrik bo'laklarga bo'linish o'rniغا plastik monolitlik, dinamik harakatchan massalar keldi. Order shaklni asosiy bo'laklarga bo'luvchi bo'lib qolsada, uning konstruktiv xossasi butunlay yo'qolgan.

Barokko usuliga mansub bo'lgan birinchi asarlar qatorida arxitektor Jakomo de Iya Porta loyihasi bilan qurilgan Il-Jezu darvishlar orderingin bosh cherkovi binosini keltirish mumkin (5.6-rasm).



5.6-rasm. Rimda Il-jezu cherkovi (1575-yil)

Barokko usulining eng ko'zga ko'ringan ustalaridan biri bu Lorensto Bernini (1598 – 1680-yillar) edi. Uning eng katta arxitektura asarlaridan biri bu avliyo Pyotr soborining tantanavor darvozaxonasi bo'lgan (5.7-rasm). Fasadda peshtoq alohida buyuk qilib ajratilgan. U arxitektorming yirik ishlaridan biri Pyetr sobori oldidagi yirik kolonnalar inshootidir (5.8-rasm).



5.7-rasm Barokko usuliga mansub arxitektura yodgorliklari
San Karlo (1) va San-Andrea (2), 1638 – 1640 va 1653 – 1658-yillar



5.8-rasm. 1- Rimdagi Pyetr sobori (XVI- XVII asr o'rtalari). Kolloniadalar tomonidan umumiy ko'rinishi

Yangi klassisizm usuli XVII asrda kapitalistik rivojlanishi kuchga kirib borayotgan yangi milliy davlatlar uchun xarakterlidir (Gollandiya, Angliya, Fransiya). Tarafdorlari uyg'un jamoat tuzumini antik dunyoda ko'rardilar, shuning uchun o'zlarining jamoa - etik va estetik ideallarini tasvirlash uchun antik klassika misollariga murojaat qilganlar. Bu uslubga mansub bo'lgan birinchi arxitektura asarlaridan ingliz arxitektori Inigo Jons (1573 – 1652-yillar) tomonidan qurilgan Grinvichdagi Kuins – Xaus (malika uyi) binosidir (5.9-rasm).



5.9 - rasm. Grinvichdagi Kuins Xaus binosi (1616- yil)

Klassizm arxitekturasining rivojlanishiga juda ko'p arxitektorlar o'z hissasini qo'shgan. Bularga misol qilib Kristofer Renani, Fransua Mansarni, Klod Perroni, Andre Lenotrungi, Gabrielni, J. Sufloni va boshqa ko'pgina arxitektorlarni keltirish mumkin. Bu arxitektorlar loyihasi asosida qurilgan binolar klassisizm usuliga yorqin misol bo'lib, o'z davrining eng qimmatli arxitektura yodgorliklari hisoblanadi va ular hozirgi kungacha saqlanib kelinmoqda (5.10–5.11- rasmilar).



1



2



3

5. 10-rasmı. Klassizm arxitekturasi. 1 – Parijdagi Luvra sarayı (1667-yıl);
2 – Parijdagi Panteon (1760 – 1780 -yillar); 3 – Versal ansamblı (1661 – 1708- yillar)



5.11 - rasm. Klassizm arxitekturasi. 1 – Londondagi Pavle sobori (1675 – 1717- yillar); 2 – Parijdagi Kelishuv maydoni (1750–1760 yillar)

5.3. Rus me'morchiligi

Rus me'morchiligi 2 davrga bo'lib o'rganiladi, bular XIV asrdan XVII asrgacha va XVII asrdan XIX asrgacha bo'lgan arxitektura davrlardir.

X asrga kelib Sharqiy Yevropa hududida Rus davlati vujudga kelgan. Bu davrda suv yo'llari bo'yalarida juda ko'p shaharlar, mustahkamlangan istehkom va qal'alar quriladi. X asr oxiri XI asr boshlarida Kiev Rus davlati rivojlanishining yuqori cho'qqilarida edi. 1036 – 1052- yillarda Rus shaharlarida juda ko'p ibodatxonalar quriladi. Bularga misol qilib, Kievdagи Sofiya soborini va boshqa bir qancha arxitektura yodgorliklarini keltirish mumkin (5.12 - rasm).



5.12-rasm X – XIII asrlarda Rus davlati me morchiligi


1 – Novgoroddagi Sofiya sobori (1045 – 1052 yillar); 4 – Nerlidagi Pokrov ibodatxonasi (1165-yil)

Markazlashgan Kiev rus davlatidan keyin, feodal tarqoqlik yuzaga kelib, arxitekturaning rivojlanish markazlari alohida feodal

knyazlik markazlariga ko'chadi. XII – XIII asrning boshlarida uchta mintaqada arxitekturaning rivojlanishi kuzatiladi, bular shimoli – g'arbiy (Novgorod va Pskov), janubi – g'arbiy (Dneper bo'yllari, Ryazan va Galitso - Volin yerlari) va shimoli – sharqiy (Vladimir – Suzdal Knyazligi).


Qurilish usullari va konstruksiyalari. Rus davlatlariga Vizantiya imperiyasidan xristian dini bilan birga ularning qurilish usullari va konstruktiv sistemalari ham kirib keladi. Ibodatxonalarning konstruktiv tiplari xoj – gumbaz sistemasi asosida rivojlanadi. Devorlarni terishda g'isht, tabiiy tosh va ohakli qorishma ishlataladi. Poydevorlar 90 – 120 sm chuqurlikda bo'lib, asosan qum - tosh va ohaktoshlardan bajariladi.

Moskva davlati arxitekturası (XIV – XVII asrlar). Bu davrlarga kelib, toshdan qurilgan binolar qatorida yog' och arxitekturasi ham rivojlanib, o'zining yuksalish cho'qqisiga chiqadi (5.13 – 5.14-rasmlar).




5.13 - rasm. Qadimgi rus turar – joy binolari va ularning konstruktiv detallari.

1 – 3 - reja va umumiyo'k rinish; 4 – derazaga ishlov berish; 5 – balkon;
6 – koryokning detallari, 7 – krovli; 8 – karniz detallari




5.14-rasm. Qadimgi rus arxitekturasida yog'ochdan tayyorlangan diniy inshootlarning konstruktiv shakllari. 1-ikki qiyali oddiy cherkov binosi; 2-cherkov va qo'ng'iroq inshootlari; 3-yopma konstruksiyasi bochka va kubsimon bo'lgan cherkov inshootlari; 4-cherkov binosi qirqimi

Ko'rib chiqilayotgan zamон me'morchiligi asosan uch davrga bo'lingan: erta Moskva, Novgorod va Pskov me'morchiligi



5.15 - rasm. XII – XV asr o'rtalarida Moskva, Pskov va Novgorod arxitekturalarining tektonik xususiyatlari va strukturaviy tiplari.
1- uch parrakli yopma; 2- ibodatxona rejasi; 3-Vasiliy ibodatxonasi;
4- zina gumbazli ibodatxonalar; 5-Uspenskiy sobori

(XIV – XV asr o'rtalari); XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrlarda Moskva me'morlighigi; XVII asr arxitekturasi. 5.15 – 5.17- rasmlarda bu davrlar arxitekturasidan misollar keltirilgan.



5.16 - rasm XV-XVII asrlarda Moskva davlati arxitekturasida struktura tiplari va tosh binolar konstruksivalari




5.17 -rasm. Rus me'morchiligi yo'sinidagi ibodatxona

XVIII asrning boshlari va XIX asrda Rossiyada kechki feodalizm davrida kapitalistik shakllanishlar yuzaga keladi. Bu davrda ijtimoiy va g'oyaviy rivojlanish o'zining yangi shakllariga kira boshlaydi. cherkovning roli jamiyatda sustlashib, davlat idoralarining ta'siri kuchaya boradi. Fan, madaniyat, texnika, arxitektura va boshqa sohalar rivojlanib o'zining yangi bosqichiga chiqadi. Jamoat arxitekturasi rivojlanadi.

Rossiya arxitekturasining bu davri ikkiga bo'linib o'rganiladi: birinchisi – XVIII asrning o'rtalari – rus barokkosining yuzaga kelishi va rivojlanishi; ikkinchisi – XVIII asrning oxirlari va XIX asrning boshlari – klassisizm arxitekturasining rivojlanishi.

Qurilish usullari va konstruksiyalari. Asosiy qurilish materiallari bo'lib yog'och va g'isht xizmat qilgan. Yog'ochdan samoviy konstruksiyalar ishlab chiqilgan. XIX asrning boshlarida metall konstruksiyalar ishlab chiqish yo'lga qo'yilgan. O'sha davr arxitekturasidagi konstruktiv sistemalarni 5.18- rasmida ko'rish mumkin.




5.18-rasm. XVIII asrning oxirlari va XIX asrning boshlaridagi Rus arxitekturasida qo'llanilgan konstruksiyalar

Barokko va klassisizm uslubiga mansub bo'lgan arxitektura yodgorliklarini 5.19 - rasmda keltirilgan.



1



2



3

5.19 - rasm XVIII asr va XIX asrning boshlarida qurilgan arxitektura yodgorliklari. 1 - Sarskoe selodagi katta saroy (arx. V. V. Rastelli, 1752 – 1757-yillar); 2 - Peterburgdagi qishki saroy (arx. V. V. Rastelli, 1754 – 1764-yillar); 3 - Peterburgdagi Birja binosi (1804 – 1810-yillar)




Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. XV va XVI asrdagi Italiya me'morchiligi to'g'risida fikringizni bildiring.
2. Italiyada uyg'onish davrining qurilish tizimlarini izohlab bering.
3. Italiyada uyg'onish davrida barpo etilgan binolar va arxitektura komplekslariga misollar keltiring.
4. Barokko me'morchiligi to'g'risida fikringizni bildiring.
5. Rus me'morchiligi to'g'risida nimalarni bilasiz?
6. Moskva davlati arxitekturasi bo'yicha fikringizni bildiring.

6-boʻb. KAPITALISTIK DAVLATLAR ARXITEKTURASI (XIX – XX asrlar)

Kapitalizm davri arxitekturasining boshlanishi XIX asrning o'rtaclariga to'g'ri keladi. Bu davrning yuzaga kelishiga XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab sanoatda, ishlab chiqarishda tubdan to'ntarish yuzaga kelganligi sabab bo'lgan. Yevropa va Amerikaning yetakchi davlatlarida kapitalizm ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan mustahkam o'rnashib olgan. Kapitalizm rivojlanishi bilan arxitekturaning ijtimoiy bazasi ham o'zgarib borgan. Binolarning yangi tiplarining yuzaga kelishi, qurilish masshtabining keskinlik bilan o'sishi, yangi texnik yechimlarni talab qila boshlagan. Bu esa qurilish fani va texnikasi rivojlanishini tezlashtirgan.



Qurilish fani va texnikasining rivojlanishi. Texnik inqilob va sanoat to'ntarilishi qurilish texnikasining rivojlanishiga, yangi qurilish materiallari va konstruksiyalarning yuzaga kelishiga katta turtki bo'lgan. Yangi konstruksiyalarning yuzaga kelishi, inshootlar nazariyasi, ularni hisoblash usullarini yaratish zaruriyatini tug'dirgan. Katta proletli tomlarni ustini yopish uchun ishlatiladigan ferma, arka va boshqa turdag'i konstruksiyalarning, temirbeton, metall konstruksiyalarning paydo bo'lishi binolar arxitekturaviy ifodasini tubdan o'zgartirib yuborgan.



1



2




3

6. 1 – rasm. 1 – XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida arxitekturada metall konstruksiyalar, 2 – temirbeton karkas va uning tektonikadagi aksi:
3 – ikkinchi jahon urushi davrigacha bo'lgan arxitekturada temirbeton gumbazlar va arka konstruksiyalari

Shuning uchun ham XIX asr “temir va metall asri” deb yuritiladi. Bu asr olamshumul metall va temirbeton konstruksiyalarini qurilishga taqdim etgan (*6.1 -rasm*).


X asr o'rtalari va XX asr boshlariga kelib arxitekturada ma'lum bir yo'nalish yoki usullar bo'lmaganligi sababli, arxitektorlar binolarni loyihalashda o'tgan davr arxitektura usullariga murojaat qilishga majbur bo'lganlar va ularga taqlid qilganlar (bu yo'nalish arxitekturada “Elektika” deyiladi). Bu davrning mashhur injinerlari va arxitektorlariga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin: L. Salliven (1856 – 1924-yillar), inj. M. Kotansen, inj. Eyfel, M. Dyute, arx. F. Uebba, arx. U. Morris, (1834 – 1896-yillar), arx. A. Gaudi, arx. F. Shextel, arx. P. Berens, arx. A. Loos, arx. O. Perre va boshqalar. Bularning asarlaridan namunalarni *6.2 – 6.3-rasmlarda* keltirilgan chizmalardan ko'rish mumkin.



6.2-rasm. Kapitalistik davlatlarda osmono par bino va inshootlar:
1-Nyu-Yorkdagi Krevsler binosi (1929); 2- Nyu-Yorkdagi Iulvorta binosi (1913);
3- Rimdagi Pyotr sobori (XVII-XVIII asrlar); 4-Kelndagi sobor
(XIII – XIX asrlar); 5 – Parijdagi Eyfel minorasi (1889); 6- Misrdagi Xeops
piramidasi (eramizdan avvalgi III mil yillik); 7- Nyu-Yorkdagi Empayr
Steyt Bilding binosi (1931)




1



2



3






4

6.3-rasm 1 - Kapitalistik davlatlardagi osmono 'par bino va inshootlari
1 - Chikagodagi univermag binosi (1899-1904-yil); 2 - Parijdagi garaj binosi
(1905-yil); 3-Berlindagi Stevner uyi (1910-yil); 4-Parijdagi mashinalar
galereyasi (1889-yil)

Birinchi jahon urushidan keyin kapitalistik davlatlarning kuchli industriyasi va ularning texnikalari quruvchilar ixtiyoriga to'liq o'tadi. Yangi temir – beton konstruksiyalarning qurilishga tadbiq etilishi va ularning tiplashtirish, standartlash prostessi qurilishni keng ko'lamda olib borishga yo'l ochib beradi. Bu konstruksiyalarning estetik imkoniyatlarini ochib berish maqsadida juda ko'p eksperimentlar o'tkaziladi. Karkas konstruktiv sistemasining tadbiq etilishi bino planirovkasini rejalashda arxitektorlar oldida keng imkoniyatlarni yaratadi. Bu davr arxitekturasi yo'naliishlarini tasavvur etish uchun buyuk arxitektor Le Korbyuze (1887 – 1965-yillar) tezislarini ko'rib chiqish kifoyadir:

1. Yuk ko'taruvchi va himoya konstruksiyalarining funksiyalari bir - biridan ajratilgan ekan, binolarni ustunlarga o'rnatish kerak. bu esa birinchi qavat va atrof - muhitni bir - biri bilan bog'lash imkoniyatini yaratadi.
2. Karkas konstruksiyalarga mos erkin planirovka har qavatda, funksional prostessga qarab, peregorodkani binoning turli joylariga o'rnatish va kerak bo'lganda o'zgartirish imkoniyatini beradi.
3. Devorlarning karkasdan ajratilishi binolar fasadlarining erkin va yangi kompozitsiyaviy yechimlarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi.
4. Maqsadga muvofiq deraza shakli gorizontal tasmadir, bu mantiqan bino konstruksiyasi turidan kelib chiqadi.
5. Binoning tomi gorizontal tekis bo'lishi kerak, bu foydali maydonni oshirish imkoniyatini beradi.

Bu davrning iqtidorli arxitektorlariga misol qilib Le Korbyuze, Yakob Aud, Volter Gropius, Mis van der Roe, F. L. Rayt, E. Mendelsen, A. Aaltolarni keltirish mumkin. Ularning arxitektura asarlaridan namunalar 6.4 - rasmda keltirilgan




3



4



5



6



7


6.4 - rasm. Birinchi jahon urushidan so'nggi arxitekturaga misollar.

- 1 – Puassisidagi Savoy villasi, arx. L. Korbyuze (1929); 2 – "Fagus" fabrikasi, arx. V. Gropius (1911 – 1912); 3 – Dessauidagi Bauhaus binosi, arx. V. Gropius (1925 – 1926); 4 – Bernsborg vaqnidagi villa, arx. A – Aalto (1938);
5 – Brnodagi Tugendxat uyi, arx. Mis van der Roe (1930); 6 – Kaufman uyi rejası, arx. F. L. Rayt; 7 – Xuk Van Xollanddagi turar-joy binosi, arx. Ya. Aud (1924)


Ikkinci jahon urushidan so'ng Yevropaning ko'pgina shaharlari vayronaga aylanganligi sababli keng ko'lamda shaharlar qurilishlari va ularning rekonstruksiyalari olib boriladi. Temirbeton karkas sistemalarining keng tadbiq etilishi bilan birga, metall karkas konstruksiyalari va samoviy temirbeton konstruksiyalari ham qurilishga tadbiq etila boradi (*6.5 – 6.7 - rasmlar*).




1



2




3.





4.

6 5-rasm. Ikkinci jahon urushidan so'nggi kapitalistik davlatlar arxitekturasiga misollar. 1—Yel universiteti xokkey stadioni, arx. E. Saarinen (1957); 2—Kofudagi "Yamanasi" binosi, arx. K. Tange (1967); 3—Otaniemidagi politexnika instituti binosi, arx. A. Aalto; 4—Braziliya milliy kongress binosi, arx. O. Nimeyer (1960)



6.6 - rasm. Ikkinci jahon urushidan so'nggi kapitalistik davlatlar arxitekturasiga misollar : 1 – Parijdagi YUNESKO binosi zalining temirbeton tom yopmasi (1958); 2 (a,b,v,g) – giparlar asosidagi temirbeton qobiq shakllari; 3 – Fransiyadagi bozorning temirbeton tom yopmasi (1955); 4 – AQSh (Rouli)dagi vintli tom yopma (1950–1952); 5 – Bryusseldagi ko'rgazma paviloni tom yopmasi (1958); 6 – velosiped g ildiragi shaklidagi tom yopma; 7 – Tokiodagi sport zalining vintli tom konstruksiyasi (1964); 8 – AQSh ko'rgazma zalining geodezik gumbazi; 9 – metall sterjenli tom yopmasi



2

6.7 - rasm. Ikkinci jahon urushidan so nggi kapitalistik davlatlar arxitekturasiga misollar. 1 – Tokioda Yoyogi olimpiya kompleksi, arx. K. Tange, inj. I. Suboi (1964-yil); 2 – AQShdag i ma'muriy bino, arx F. Jonson, (1978-yilgi loyiha)

Yevropadagi jahon urushlari sababli ko'pgina mashhur arxitektorlar va injelerlar Amerikaga ko'chib ketganlar, natijada Amerikada me'morchilik tez rivojlanan boshlagan. Bu davrlarda Osiyo mamlakatlarida ham arxitektura taraqqiy qilib, milliy an'analar zamonaviy bino va inshootlarda o'z aksini topa boshlagan.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. XIX – XX asrlarda kapitalistik davlatlar arxitekturasining rivojlanishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Birinchi va ikkinchi jahon urushlaridan keyingi kapitalistik davlatlarning arxitekturasi to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
3. Arxitektor Le Korbyuze (1887 – 1965 yillar) tezislarini tushuntiring.
4. Ikkinchi jahon urushidan so'nggi kapitalistik davlatlarning arxitekturasi to'g'risida nimalarni bilasiz?

7-bob. 1920 – 1990-YILLARDAGI SOTSIALISTIK MAMLAKATLAR ARXITEKTURASI

Ushbu darslikda mavzuga oid faqat ba'zi mamlakatlarning arxitekturasiga doir ayrim misollar keltirilgan va ularga tegishli izohlar berilgan. Bu davrda qurilishda asosiy materiallar bo'lib g'isht va yog'och xizmat qilgan. 1930-yillardan boshlab sanoat qurilishini industriallashtirish va tipizatsiyalash yo'nalishi yangi qurilish materiallarini ishlab chiqishga turtki bo'lган. G'isht va yog'och konstruksiyalari o'rnnini metall va temirbeton konstruksiyalari egallay boshlagan. Zamonaviy qurilish materiallari va konstruksiyalari asosida yangi konstruktiv shakllar, sistemalar va sxemalar yuzaga kelgan.

O'z g'oyasiga mos va funksional jihatdan yangi bino va inshootlar ham yaratilgan. Bunga misol qilib, kommunal turar-joy binolari, pionerlar uylari, yotoqxonalar va boshqa jamoat binolarini keltirish mumkin.

Kitobda eng avvalo, u tuzumda birinchi bo'lgan, ayni vaqtida parchalanib ketgan sobiq Ittifoq arxitekturasiga bir necha misollar keltirilgan. Mamlakatning poytaxti Moskva shahri bo'lgan, uning

markazi Kremlda joylashgan. Moskva shahri hozir Rossiya davlatining poytaxtidir.

Moskva Kreml shaharning eng qadimgi qismi, mamlakat poytaxtining bosh kompleksi bo'lgan. Moskva Kreml Neglinnaya daryosining Moskva daryosiga quvilish joyida – Borovistk tepaligidagi posyolkada kichik bir istehkom sifatida yuzaga kelgan. Bu joy grad Moskva deb atalgan, XIV asrdan Kreml nomini olgan.

Ta'kidlash joizki, feodalizm davrida Kreml rus shaharlarining markaziy qismida, balandroq joyga qurilgan qal'a bo'lgan. U yerda knyaz yoki podshohlarning qarorgohi, sobor, boyarlar uyi va boshqa binolar joylashgan, shu sababli mustahkam qo'rg'on va minoralar bilan o'rالgan bo'lgan. Kremlar dastlab yog'ochdan, keyinchalik tosh va g'ishtdan qurilgan. XIX asrda o'zining harbiy mavqeini yo'qtib, faqat ma'muriy markaz sifatida rivojlangan.



7.I-rasm. Moskva Kremlining besh qirrali yoqut yulduzlar o'rnatilgan minoralaridan biri

1156-yilda knyaz Yurii Dolgorukiy buyrug'i bilan bu yerda hududi Kremlidan 5–6 marta katta bo'lgan shahar barpo etiladi. 1237-yilda mo'g'ul-tatar hujumida Moskva Kremlini vayron bo'lgan. Keyinchalik shahar yana rivojlangan. 1339- yilda maydoni 18 ga gacha kengayib, atrofi yog'och devor va minoralar bilan o'rالgan. Keyinchalik devor oq toshdan qayta ishlangan. 1404-yilda ilk bor minora soatlari o'rnatilgan. 1485–1495 - yillarda maydoni yana kengaytirilib (27,5 ga), atrofiga italiyalik me'morlar loyihasi bo'yicha pishgan g'ishtdan yangi (hozirgisi) devor qurilgan. Devor tepasi kungurador paraped bilan bezatilgan. Devor uzunligi 2,25 km, balandligi 5–19 m, qalinligi 3,5–6,5 m ni tashkil etadi, uning 18 ta minorasi bo'lgan, shundan 6 tasida darvoza o'rnatilgan.

1487 - yilda «Granovitaya palata» buniyod etilgan, u ikki qavatlil, kvadrat rejali, zalining umumiyligi maydoni 500 m², gumbaz ravvoqlari ustunlarga ulangan. 1680 - yilga kelib o'rta asrdagi eng yaxshi rus shahri ansamblsi sifatida to'la shakllangan. 1776–1787- yillarda klassizm uslubida Senat yaratilgan. Uning rejasi uchburchak shaklida bo'lib, markaziy qismi gumbaz bilan yopilgan.



7.2-rasmi. Soborning umumiyligi ko'rinishi

Kreml katta saroyi 1839–1849- yillarda, uning 2500 o'rinli zali 1933–34 -yillarda qurilgan. 1918 - yil 12 - martda hukumat Petrograddan Moskvaga ko'chgan. Keyinchalik Kreml s'ezdlar saroyi qurilgan. 5 ta minoraga besh qirrali yoqut yulduzlar o'rnatilgan (7.1-rasm). Moskvadagi Qizil maydonda noyob arxitektura inshootlaridan hisoblangan Pokrovskiy sobori (1555–1560) joylashgan (7.2-rasm).

Moskva Kreml soati 1625 - yilda Spassk minorasiga o'rnatilgan. 1706 - yilda soat Gollandiyadan sotib olingen hozirgi soat bilan almashtirilgan. Bu soat ko'p marta shikastlanib, ta'mirlangan. 1918 - yil avgust oyida ta'mirlangan, sentabrdan soat yana ishlay boshlagan. U har chorak soatda va har soatda bong uradi. Soat stiferblatining diametri 6,12 m, raqamlar bo'yisi 0,72 m. mayatnigining uzunligi 1,5 m. vazni 32 kg.

Moskva Kreml sobiq Ittifoq hayotidagi eng yirik voqealar bilan bog'langan bo'lган. Moskvada ham, mamlakatning boshqa shaharlarida ham ko'plab, turli xildagi binolar, inshootlar, ularning komplekslari yaratilgan. Quyida ana shularga ba'zi misollar keltirilgan:




7.3 - rasm. Moskvadagi Ostankino telemisorasi (1960–1968-yillarda qurilgan, balandligi 540 m, 370 m balandlikda uchta restoran joylashgan)

U davr arxitekturasining rivojlanishini quyidagi rasmlarda keltirilgan sur'atlardan ko'rish mumkin. Bu davrda arxitektura o'ziga xos yo'nalishlar bo'yicha rivojlangan. Arxitekturaviy konstruktivizm, sostalistik va milliy klassistizm shular jumlesi-dandir.


Kalinin nomli prospekt to'g'ri magistral orqali shahar markazini uning g'arbiy rayonlari bilan bog'laydi. Qisqa muddatda bu yerda ma'muriy, savdo va jamoat binolari majmuasidan iborat yirik ko'p funksiyali binolar kompleksi yaratilgan.



74-rasm Moskva Kalinin nomli prospektning boshlanish joyi



7.5-rasm. Moskva. Kalinin nomli prospekt sxemasi (1962–1968-yillarda barpo etilib, foydalanishga topshirilgan)



7.6 - rasm. Sobiq Ittifoq arxitekturasiga misollar (konstruktiv shakllar).

- 1 – 1930 -yillardagi katta blokli konstruksiyalar; 2 – 1950–1960-yillarda katta bloklardan qurilgan uy; 3 – 1960-yillar oxirida qurilgan yirik panelli turar-joy binosi; 4 – 1930-yillarda qurilgan marten stexining metall konstruksiysi; 5 – metalldan bajarilgan ko'pri (1935 -yil); 6 – Moskvadagi planetariyining temirbeton gumbazi (1930 - yillar); 7-sirk binosining yog'och gumbaz konstruksiysi (1934 yil); 8 – yog'och konstruksiyalar (1920–1930- yillar); 9 – quyma temirbetondan qurilgan GES binosi fragmenti (1950 - yillar); 10 – Moskvadagi yuqori qavatlari binoning metall karkasi (1950-yil); 11 – Bryussel Ekspo ko'rgazmasidagi pavilion binosining konstruktiv sxemasi; 12 – Moskvadagi telesentr minorasi, (1960–68 -yillar).



1



2



3

7.7- rasm. Sobiq Ittifoq arxitekturasiga misollar.

1 – Moskvadagi olimpiya sport kompleksi (1980 -yil); 2 – Moskvadagi Kalinin nomli prospekt (1962 – 1968- yillar); 3 – Qozondagi sirk binosi (1967 -yil)



7.8-rasm. Moskvadagi «Salyut» mehmonxonasi va u joylashgan prospektidagi turar-joy binolari




7.9-rasm. Sankt-Peterburgdagi «Pribaltiyskaya» mehmonxona binosi



7.10-rasm. Kievdagи «Ploshad Slavi»dagi mehmonxona binosi



7. 11-rasm. Bakudagi «Azerbaydjan» mehmonxonasi (1972–1975-yillar)



7. 12-rasm. Voroshilovgrad Kostyubinskiy məvdnidagi turar-joy binolari



7.13-rasm. Voroshilovgrad. Kostyubinskiy maydoni. turar-joy binolari



7.14-rasm. Kisheniov. Tinchlik prospektidagi turar-joy binolari (1975–1986-yillar)



7.15-rasm Kishenov. Tinchlik prospektidagi 20 qavatli turar-jay binolari
(1980-yil)




7.16-rasm Sankt-Peterburgdagi yirik panelli bolalar bog chasi
va turar-jay binolari (1980-yillar)



7.17-rasm. Sankt-Peterburgdagagi yirik panelli maktab binolari
(1980-yillar)



7.18-rasm Kiev. P.Tichin ko'chasi dagi turar-joy binolari (1982-yil)



7.19-rasm. Sankt-Peterburg vilovati. Pushkin shahridagi podshoh saroyi
(1980-yilda ijodiy ruhda restavratsiya qilingan)



7.20-rasm. Moskvada barpo etilgan Luzniki sport stadioni



7.21-rasm. Klaydedagi maktab va turar-joy binolari



7.22-rasm. Vilnyus shahri. Lazdinaydagи turar-joy rayoni



7.23-rasm. Tolyatti shahri. Avtozavod rayonidagi ko'p qavatli yangi kvartallar




7.24-rasm. Tolyatti shahri. Avtozavod rayonidagi ko'p qavatli yangi kvartallar



7.25-rasm. Vladivostokdagi zamonaviy bolalar lageri (1975-yil)



7.26-rasm Sankt-Peterburg. Jambul ko'chasi dagi noyob shakldagi bolalar bog'chasi binosi



7.27-rasm. Yerevan. Sport-konsert kompleksi (1980–1984-yillari)

Yerevandagi bu zamonaviy me'morchilik kompleksi (7.27-rasm) noyob shakldagi majmua tabiat manzarasi bilan uyg'unlashtirilib qurilgan. u katta ichki hajmga ega.

7.28 – 7.31-rasmlarda Tojikiston arxitekturasiga doir misollar keltirilgan.



7-28-rasm. Dushanbe shahrining markaziy qismidagi ma muriy bino



7-29-rasm. Dushanbe shahrining markaziy qismidagi ma muriy bino



* 30-rasm. Dushanbe shahrining S. Ayniy ko chasidagi turar-joy binolari



7.31-rasm. Dushanbe shahrining markaziy ko'chasi dagi turar-joy binolari



7.32-rasm. Kievdagagi Rusakov turar-joy massivi (1963–1972-yillar)

7.34 - rasmda sobiq sotsialistik mamlakatlardan biri – Bolgariyaning dengiz sohili me'morhiliga doir birgina misol keltirilgan.



7.34-rasm. Bulgariya. «Solnechnyy bereg» kurort kompleksi

O'ziga xos sotsialistik orientatsiyadagi yirik mamlakatlardan biri Xitoydir. Xitoyning shakllanishiga 5 ming yildan oshgan. U yerda 1 mlrd dan ortiq aholi yashaydi. Poytaxti Pekin shahri, unda 10 mln dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Pekin 1950-yillardan boshlab yangicha qiyosa olgan, so'nggi yillarda shaharning qiyofasi uch marta shakllangan. Shaharning qadimiy va yangi qismlari ajralib turadi. Yirik va zamonaviy shaharlari ko'p, shu jumladan Shenchjen. Chjuxae. Shanxay (aholisi 12 mln dan oshib ketgan) va hokazo. Xitoya tarixiy yodgorliklar ham benihoya ko'p. Eng noyob me'moriy obidalari qatoriga Buyuk Xitoy devori, Osmon ibodatxonasi singari inshootlarni ta'kidlab o'tish joiz (7.35 – 7.40 -rasmlar).



7-35-rasm. Buyuk Xitoy devori bir bo'lagining umumiy ko'rinishi

Buyuk Xitoy devori milodan avvalgi IV – III asrlarda ko'chmanchi xunn qabilalari hujumlaridan saqlanish maqsadida mamlakatning shimoli va shimoliy-g'arbida bunyod etilgan mudofaa devoridir. Qurilishiga 300 ming askar, 2 mln harbiy asir va turli «jinoyatchilar» jalb etilgan. Shanxayguan shahridan boshlanib, g'arb tomonga davom etadi va Pekindan 40–45 km shimoli-g'arbdan o'tadi. So'ngra u janubi-g'arbga burilib, Suchjou shahridan g'arbda Gansu viloyatidagi Szyanyuyguan qal'asida tamom bo'ladi. U 10 yil mobaynida qurib bitkazilgan degan ma'lumotlar bor.

Buyuk Xitoy devorining uzunligi 6700 km, balandligi 6,6–10 (ko'pchilik joyi 7–8) m, kengligi asosda 6,5 m va tepe qismida 5,5 m. Uni dunyoning «Eng uzun qabristoni» deb ham atashadi. Yo'nilgan granit toshlar, xom g'isht va loydan ko'tarilgan. Devor bo'ylab har 60–100 m ga mustahkam burjlar (minoralar), ba'zi joylarda istehkomlar qurilgan. U bir necha marta qayta tiklangan.

Osmon ibodatxonasi Sinyanszin shahrida 1420-yilda qurilgan. Aylana shaklida, 3 qavatlari tomi glazurli koshinlar bilan qoplangan, stropila (to'sin) ishlatilmagan. Uni to'sinsiz bino deb ham atashadi.



7.36-rasm Osmon ibodatxonasi binosining umumiy ko'rinishi (1420-yil)



7.37-rasm. Pekindagi zamona viy osmono'par binolarning umumiyo ko'rinishi



7.38-rasm. Xitoydagi osmono'par zamona viy binolar



7.39-rasm Shanxay shahridagi zamonaviy osmono par binolar



7.40-rasm Sanoati eng rivojlangan Shanxay shahri bir qismining umumiyo
ko 'rinishi

Yer yuzida ikkinchi o'rinni egallagan binolardan biri «Taipei 101» Xitoydadir. Baland binolar ko'pligi jihatdan ham jahonda ikkinchi o'rinni Xitoy egallaydi. Yuzlikka kirgan 22 ta eng baland Xitoy binolaringin 9 tasi Gonkongda, 4 tasi Shaxayda barpo etilgan. Poytaxt Pekinda ushbu shaharlar binolari bilan «bellashadigan» imoratlar yo'q.

2010-yilda Birlashgan Arab Amirliklarida dunyodagi eng baland bino barpo etildi. Osmono'par imorat loyihasi hayratlanarli darajada ishlangan. Nomi «Burj» (Minora) bo'lган inshootning balandligi 828 m ni tashkil etadi. «Burj»ni Dubayda qurilayotgan Yangi ishbilarmonlar shaharchasining bosh minorasiga aylantirildi. «Burj» qurilishini «Emaar» investitsion-qurilish korporatsiyasi amalga oshirdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 162 qavatli binoning pastki 40-qavatigacha mehmonxona va savdo markazlari. 45–110-qavatlarida shinam turar-joylar, undan yuqori qavatlarida esa muzey, tomosha maydonlari va qator kompaniyalarning idoralari joylashgan. Asosiy bino ustiga o'rnatiladigan hamda barcha telekommunikatsion uskunalar bilan jihozlanadigan minora nafaqat arxitektura bezagi, balki aloqa qabul qilish va tarqatish vazifasini ham o'tamoqda.

Xitoyning Taypey shahrida barpo etilgan sayyoramizning eng baland inshootlaridan biri «Taipei 101» o'z o'mini «Burj» ga topshirdi. «Taipei 101» ning balandligi 509 metrdan iborat. Bu balandlikka 2003-yilning kuzida 101 qavatli inshootning tomiga 60 metrli minora o'rnatilishi natijasida erishildi. Shu tariqa zamonaviy arxitekturaning noyob namunasi Malayziya poytaxti – Kuala-Lampurdagi mashhur «Egizaklar» – 452 metrli «Petronas Towers» tomonidan o'rnatilgan rekordni yangilangan edi.

«Taipei 101» ham e'tiborga loyiq bino. Uning 12 ming nafar kishiga boshpana bo'la olishi, 7 balli zilzila va kuchli dovulga dosh berishi, tezkor listlar mijozlarni binoning 90-qavatiga bor - yo'g'i 40 soniyada chiqarib qo'yishini ta'kidlash joiz.

Quyidagi jadvalda jahondagi eng baland binolar 10 taligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan:

Osmono'par binolar o'ntaligi

No	Nomi	Shahar	Davlat	Sana	Qavat	Metr
1	Burj	Dubay	BAA	2010	162	828
2	Taypey	Taypey	Tayvan	2004	101	509
3	Petronas Tover 1	Kuala-Lampur	Malayziya	1998	88	452
3	Petronas Tover 2	Kuala-Lampur	Malayziya	1998	88	452
4	Sears Tove	Chikago	AQSh	1974	110	442
5	Jin Mao Bilding	Shanxay	Xitoy	1999	88	421
6	Tu Interneyshnl Finans Sentr	Honkong	Xitoy	2003	88	415
7	Sitis Plaza	Guanchjou	Xitoy	1996	80	391
8	Shun xing Skver	Shenchjen	Xitoy	1996	69	384
9	Empayr – Steyt – Bilding	Nyu-York	AQSh	1931	102	381
10	Sentral Plaza	Gonkong	Xitoy	1992	78	374

AQSh baland binolar ko'pligi bo'yicha hamon yetakchilardan biridir. Eng baland 100 ta binodan 40 tasi o'sha yerda bunyod etilgan. Nyu Yorkda 12 ta. Chikagoda 10 ta. Atlanta va Xyustonda 3 tadan. Filadelfiya, Los-Anjeles va Dallasda 2 tadan, San-Fransisko, Klivlend, Sietl, Pittsburg. Sharlot hamda Indianaporlisda bittadan. Vashingtonda Kapitoliy binosidan baland imorat qurish qonun yo'li bilan taqiqlangan.

Qavatlar soni bo'yicha esa ro'yxatni 1974-yilda Chikagoda qurilgan 110 qavatli (balandligi 442 m) «Sears Tower» binosi boshlab bergen. 1931-yilda foydalanishga topshirilgan, o'sha yillari jahonning eng yuksak namunasi bo'lган Nyu-Yorkdagи Empayr-Steyt-Bilding eng «kekса» osmono'par imorat hisoblanardi, hozir u mavjud emas. 2005 yilning sentabr oyida terroristlar tomonidan samolyot bilan urilishi oqibatida qulab tushgan.

Hozir 100 ta eng baland bino 18 ta davlatlarda qad ko'targan. Shundan AQSh da 40 ta, Xitoyda 22 ta, Birlashgan Arab Amirliklari-da 5 ta. Malayziya, Singapur va Yaponiyada 4 tadan, Tayvan, Janubiy Koreya va Kanadada 3 tadan, Germaniya, Avtraliya, Tailand va Saudiya Arabistonida 2 tadan to'g'ri keladi. Rossiya, Shimoliy Koreya, Indoneziya, Filippin va Isroilda 1 tadan bino ro'yxatga olin-gan. Qit'alar bo'yicha olganda, yuzlikning 53 tasi – Osiyo, 42 tasi – Amerika, 3 tasi – Yevropa va 2 tasi Avstraliyada bunyod etilgan.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. XX asrdagi sotsialistik mamlakatlar arxitekturasi to'g'risida nimalar deya olasiz?
2. 1920–1990-yillardagi sobiq Ittifoqda arxitektura asosan qaysi yo'nalishlar bo'yicha rivojlangan?
3. Arxitekturadagi konstruktivizm, sotsialistik va milliy klassisizm yo'nalishlari to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
4. Bu mamlakatlarda yaratilgan noyob arxitekturaviy binolar va inshootlardan qaysi birlarini bilasiz?
5. 1920–1990-yillardagi sobiq Ittifoqda turar-joy va jamoat binolari qurilishi bo'yicha sizning fikringiz?
6. Buyuk Xitoy devori va Osmon ibodatxonasi to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
7. Xitoyning zamonaviy arxitekturasi to'g'risida nimalar deya olasiz?

II – BO'LIM. O'ZBEKISTON MILLIY ME'MORCHILIK TARIXI

8-bo'b. UMUMIY MA'LUMOTLAR

O'zbekiston Respublikasi hududida me'morhilik va binokorlik qadim zamonlardan – miloddan avvalgi III minginchi, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, X minginchi yillardan boshlangan.

Juda ko'p arxeolog qazilmalar bu yurtda otashparastlar va budda dinlariga mansub bo'lgan ibodatxonalar qurilganligidan dalolat beradi. O'sha davrlarda qal'alar qurilishi ham keng rivojlangan. Qal'alar balandlik joylarida qurilib, tashqi yovlardan mudofaa vazifasini o'tagan. Hozirgi kunda ham 400 ga yaqin qal'alarning goldiqlari O'zbekiston hududida mavjuddir.

Mamlakatimiz hududida topilgan eng qadimiy san'at yodgorliklari (Zarautsoy sur'atlari) mezolit davriga mansubdir. Kaltaminor madaniyati namunalari neolit davrining san'ati haqida tasavvur beradi. So'x (Farg'on'a) vodiysidan topilgan ikki ilonning boshi bir-biriga qaratib, bilaguzuksimon qilib ishlangan yirik tosh haykal miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlari — miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida yaratilgan. O'sha davrlarda sodda chizma (uchburchak, archasimon, yo'l-yo'l) bilan bezatib sopol idishlar tayorlangan. Turar-joylar tosh davrida g'orlardan (Teshiktosh g'ori) hamda daraxt shoxlari va poxoldan ishlangan konussimon chaylalardan iborat bo'lgan.

Aholining bir qismi ko'chmanchilikdan o'troqlikka o'tgach, tosh, guvala, paxsa, sinchli uylar qurila boshlangan. Bronza davrida O'zbekiston hududining janubida (Sopollitepa) murakkab

arxitektura komplekslari vujudga kelgan. Bronza, kumushdan nafis zargarlik buyumlar, idishlar tayyorlangan, sopol idishlar bo'yalib geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Buxoro vohasida Qizilqirdan (miloddan avvalgi II ming yillik) va Farg'ona vodiysidagi Chustdan topilgan sopol buyumlar (shakl jihatdan turli-tuman: qozon, xurmacha, xum piyola, qadah, krujka va boshqalar) kulollik charxining yordamisiz qo'lida tayyorlangan. Ilk temir davrida to'g'ri to'rtburchak (Qiziltepa, Bandixon), aylana (Kuchuktepa: milodan avvalgi III asrda bunyod etilgan Qo'yqirilgan qal'a ham aylana tarhda) qal'a-shaharchalar qurilgan. Afrosiyobdan topilgan arxitektura inshootlarining xaroba va qoldiqlari, ulardag'i san'at asarlari Axmaniylar (Eron) san'atiga yaqindir.

Milodgacha bo'lgan I ming yillikda Baqtriya, So'g'd, Xorazm kabi haqiqiy shaharlar vujudga kela boshlaydi. Qal'alar yarim doira shaklidagi minoralar, devor ichi yo'llari, tiyrandoz o'qchilar uchun mo'ljallangan ko'pgina tuyruklar bilan qurila boshlangan. To'g'ri burchakli yoki doira shakliga ega konstruksiyalar qal'a devorlarini mustahkmlagan. Surxondaryo viloyati hududidagi qadimgi Qiziltepa, Bandixon, Talashkan va boshqa shaharlar bunga misol bo'la oladi. Bu shaharlarning barchasida qo'rg'on va alohida ma'muriy hukumat komplekslari, devor ortida esa xavfli harbiy harakatlar kunlarida shahar aholisini boshpana va himoya bilan ta'minlash mumkin bo'lgan inshootlar bunyod etilgan. Qishloqlarda alohida qo'rg'onlar bunyod etilgan.

Miloddan avvalgi IV asr – milodiy IV asrlarda O'zbekiston hududida mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan qo'rgon, shahar-qal'alar bunyod etila boshlangan (Jonbosqal'a, Dalvarzintepa, Termiz, Tuproqqal'a). Binokorlikda, asosan, yog'och va loydan (paxsa, guvala, xom gishtdan) foydalilanilgan.

Xorazmdagi Tuproqqal'a, Buxoro yaqinidagi Varaxsha, Termiz yaqinidagi Bolaliktepa, Fargona vodiysidagi Quva qal'a binolari monumental san'at asarlari (devoriy rasm, yirik haykal va relyeflar) bilan serhasham qilib barpo etilgan. Soqchilar turadigan minoralar baland (30 m ga yaqin), saroylar ikki qavatli, zallar baland (masalan, Varaxshada 6 m gacha) qilib qurilgan.

Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoning bir qismini zabit etganidan keyin, bu yerlarda yunon madaniyati ta'sirida antik badiiy madaniyat vujudga kelgan (miloddan avvalgi III asr – milodiy III asrlar). Kumush, sopol idishlarga yunon va mahalliy syujetlar aks ettirilgan bezaklar ishlangan.

Grek-Baqtriya podsholigi davrida zarb qilingan kumush, bronza tangalar yuksak san'at bilan ishlangan, ulardagi portretlar o'zining realistik ruhi bilan muhimdir.

Kushon podsholigi davrida kumush va bronza tangalar zarb qilish bilan birga terrakota haykalchalar tayyorlash san'ati keng avj olgan. Sopol, kumush idishlar relyef bilan badiiy ishlov berilgan.

Miloddan avvalgi VI – VIII asrlarda qadimgi O'zbekiston hududida Baqtriya (Surxondaryo viloyati hududi uning tarkibida bo'lgan), So'g'd (Qashqadaryo – Zarafshon va Sirdaryo oraliqlari: hozirgi Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari hududlari), Xorazmiya (Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimi) va Parkana (Farg'ona vodiysi) sivilizatsiyasi shakllangan davlatlar sifatida shakllangan.

Grek-Baktriya va Kushon podsholiklari davrlarida qurilgan saroylar hashamatli va murakkab kompozitsiyaga ega bo'lgan (markaziy zali yoki hovlisi turli maqsadlarga xizmat qiladigan ko'p sonli xonalar bilan o'ralgan, bino fasadlarida ko'p ustunli ayvonlar tutash qilib qurilgan). Milodning dastlabki asrlarida O'zbekistonning janubida buddizm dini tarqalishi bilan Buddha ibodatxonalar qurila boshlangan (Qoratepa, Fayoztepa monastrlari, Termizdagi Zurmala supasi). Ibodatxonalar Buddha rivoyatlari syujetlari aks ettirilgan haykallar bilan bezatilgan. Shu din bilan bog'liq badiiy uslub – yo'nalishlar ham yurtimizga kirib kelgan. Hindistonning shimoli-g'arbiy viloyati Gandhara badiiy uslubi janubga keng tarqalgan (Surxondaryoning ko'pgina shahar va qishloqlaridan topilgan haykaltaroshlik asarlari, devoriy rasmlarning qoldiqlari bunga misol bo'la oladi).

Amudaryo o'rta qismining o'ng sohilida topilgan va zaxirasi ko'p bo'lgan ohaktosh arxitektura bezaklarida, haykaltaroshlikda ko'p ishlatilgan. Qadimgi Xorazmda (Qo'yqirilgan qal'a) terrakota haykaltaroshligi rivoj topgan. Loydan tayyorlab, qizdirib pishirilgan

haykallar, shuningdek, devoriy rasmlar xorazmlik san'atkorlarning yuksak mahoratidan darak beradi. Bu esa, ularni ellistik Sharq madaniyati yutuqlaridan xabardor bo'lganliklaridan guvohlik beradi.

VI – VIII asrlarning boshlarida ko'shk, qo'rg'onlar, shaharlarda ibodatxona, saroylar qurilgan. Bu davrda binolarni bezashga ham e'tibor qilingan (Afrosiyob, Varaxsha, Yumaloqtepa). Sug'dda koroplastika (loydan ayollar haykalchasini yasash) rivoj topgan.

Qadimgi me'morchilik san'atining yuksak namunalaridan bo'lgan uch minorali Xorazm xoqonlarining saroyi, ko'pincha katta zallari va xonalari bilan ajralib turadi. Afrosiyob, Varaxsha, Panjikentdag'i arxeologik qazish ishlari turar-joy binolarining aralash tartibda qurilganligini ko'rsatdi. Uylar 2–3 qavatli, ularni bezashda boy devoriy tasvir, tasviriy hamda naqshinkor usuldag'i yog'och o'ymakorligi qo'llanilgan, yashashga mo'ljallangan qismi va qabulxona, mehmonxona bir-biridan ajralib turgan.

Bizning davrimizgacha saqlanib kelgan Afrosiyob shaharchasidan topilgan chorsи saroy devorlaridagi naqshu nigorlarda Chag'oniyon elchilari, og'ir yukli karvon, son-sanoqsiz parrandayu jonivorlar tasviri aks ettirilgan. Tasvirlardagi odamlar va ularning liboslari musavvirlar tomonidan o'ta aniqlik bilan aks ettirilgan. O'sha olis zamonlarda kechgan tarixiy voqealarni aks ettirgan musavvir so'g'd tasviri san'atining tom ma'nodagi durdonasini yaratgan.

Varaxsha shaharchasi saroy devoridagi sur'atlar o'zining ov manzaralarini naqadar aniq tasvirlash bilan tomoshabinda chuqr taassurot qoldiradi. Sur'atlar shon-shavkat va mardonavorlik timsolini o'zida aks ettirgan. Chipor qoplonlar va jangovor fillar tasviri o'zining ijrosidagi nazokati va betakror nafosati bilan kishini hayratga soladi.

O'zbekiston hududi me'morchiligidagi V – VI asrlardan aylana yoki kvadrat asosga o'rnatilgan gumbazlar konstruksiyalari takomillashtirilgan, maqbara, masjidlar gumbazli qilib bunyod etila boshlangan. Tasviriy san'at rivojlangan.

O'zbekiston hududi me'morchiligining uzoq tarixidan 8. I-rusmda keltirilgan tasvir ham guvohlik beradi. Bu rasmida kumush idishga chizilgan VI – VII asrlarga mansub bo'lgan qal'aning fragmenti tasvirlangan.



8.1 - rasm. Kumush idishga chizilgan qal'a fragmenti

VII – VIII asrlarda yurtimizga arablar kelgach, bu yerdagi ba'zi arxitektura yodgorliklari, tasviriy san'at asarlarini yo'q qilib tashlangan, shaharlarga shikast yetkazilgan. Natijada milliy san'atda sal kam bir asrgacha tushkunlik hukm surgan.

Arablar istilo qilgan yerlarida dastlab masjidlar qurishga, qadimiy ibodatxonalarini masjidlarga aylantirishga e'tibor berganlar. Shu asosda me'morchilik va binokorlikda jonlanish boshlangan. Shaharlar shahriston va rabotlarga ajratilib qurila boshlangan.

Qurilish texnikasi takomillashgan binolar IX – X asrlarda asosan pishiq g'ishtdan bunyod etilgan. Monumental binolarda toq-gumbaz konstruksiyalari keng qo'llanilgan. Islom dini tirik mavjudotni tasvirlashni man etganligi tasviriy san'atning o'sishiga keng imkon bermagan, biroq naqqoshlik rivoj topa boshlagan. Masjid, maqbara, saroy, madrasalar naqsh bilan bezatila boshlangan (jumladan Varaxsha saroyi, 775 – 782-yillar).

VIII – IX asrlarda, ayniqsa, Buxoro me'morchiligidida badiiy uslub rivoj topgan. XII – XIII asrlarda yirik shaharlarda shisha ishlangan rivojlangan, sopolga sir berish usuli ixtiro qilingan. Afrosiyob sopol idishlarida naqsh, gul va baliq, qush kabi jonivorlarning tasvirlari ishlangan, ular har xil ranglarda sirlangan. Binokorlikda an'anaviy ganch, yog'och o'ymakorligi bilan bir qatorda g'isht qalab naqsh hosil qilish san'ati ham rivojlangan. XII asrda me'morchilikda o'yma terrakotadan, sirli g'ishtdan foydalanilgan, monumental binolarning devor, gumbazlari koshin bilan qoplanib bezatilgan, bino intererlari ganch o'ymakorligi, bo'yama naqshlar bilan ham jozibadorlashtirilgan, (masalan, Termizshohlar saroyi ana shunday ishlangan).

IX – X asrlardan girih san'ati yuksalgan, arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko'tarilgan. X asrdan kufiy, XI – XII asrlardan nasx yozuvi me'morchilikda ko'p ishlatila boshlagan. IX – XI asrlarda Termizda Qirqqiz saroyi, Navoiyda Mirsaid Bahrom maqbarasi. Sulton Saodat ansamblı, Malik karvon saroyining saqlangan qismlari me'morchilikning yuksak darajaga ko'tarilganini, inshootlar badiiy hunarmandlar tomonidan jozibador bezatilganligini ko'rsatadi. Ilk o'rta asrlarda saroylar shahar qal'asidan tashqarida qurilgan bo'lса. X asrdan boshlab saroylar shahar tarkibida barpo etilgan. Masalan, Buxoroda qal'a oldida. Urganchda shaharning bosh maydonida, Samarqandda registon maydonida). Saroy me'morchiligidida yog'och konstruksiyalardan ko'p foydalanilgan. XI – XII asrlarda Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz va boshqa yirik shaharlar hunarmandchilik markazlari sifatida shuhrat qozongan.

Somoniylar davrida amaliy-bezak san'ati, ayniqsa kulollik, shishasozlik, yog'och o'ymakorligi yaxshi suratlari bilan rivojlangan. Monumental me'morchilikka katta e'tibor berilgan. turar-joylar, hunarmandlarning ustaxonaları, saroylar, ma'muriy binolar, savdo rastalari, hammom, masjid, maqbara, minora, madrasalar qurilgan. Qurilishda, asosan, pishiq g'ishtdan foydalanilgan. Ba'zan bino devorlari xom g'ishtdan, tomi - gumbazi tashqi tomonidan pishiq g'ishtdan ishlangan, xom g'ishtdan ishlangan devor pishiq g'isht bilan qoplangan va mustahkamlangan.

Mo'g'ullar istilosiga qo'shingga shaharlar (ayniqsa Buxoro, Samarqand, Termiz, Urganch kabi yirik shaharlar) vayron bo'lgan. Mo'g'ullar bosqini tasviriy san'atga ham, arxitektura, amaliy-bezak san'ati rivojiga ham to'sqinlik qilgan.




8.2-rasm. Samarqanddagi qadimgi qal'a qoldiglari

XIV asrdan me'morchilik yana rivojlana boshlagan. Arxitekturada yangi uslub vujudga kelgan (masalan, Bayonqulixon maqbarasi). O'sha davrning me'morchilik namunalarini Shohi Zinda kompleksida saqlangan. Me'morlik bilan birga naqqoshlik san'ati ham yuksalgan. Xo'ja Ahmad, Qussam ibn Abbas, Turkan oqa, Tug'luq Tekin, Amirkzoda, Ali Nasafiy maqbaralari yog'och o'ymakorlik hamda koshinkorlik usullari bilan jozibador bezatilgan.

XIV asr oxirlarida Samarqandda o'ziga xos me'morchilik uslubi shakllangan. Shahrisabz qal'adan shaharga aylantirilgan, shahar devori har 50–60 m da burj bilan mustahkamlangan, mudofaani yaxshilash maqsadida devor tashqarisi xandaq bilan o'rab olingan. Oqsaroy, Ko'k gumbaz, Shamsiddin Kulol maqbarasi, Gumbazi Sayidon, Hazrati Imom masjidi va Jahongir maqbarasi, Dor ut-

tilovat, Dor us-siyodat va boshqalar monumentalligi bilan hamon diqqatga sazovordir.



*8.3-rasm Buxoro qal'asi devorining qoldiqlari
(2009-yilda bu devor ta'mirlanib, yangilangan)*

Amir Temur davrida Samarqand ham baland (8 m gacha) devor bilan (8.2-rasm) o'rab olingan. Bu davrda shaharni kesib o'tadigan Buxoro – Farg'ona yo'li kengaytirilgan, savdo rastalari, timlar singari inshootlar qurish ishlari rivoj topgan.

Yirik shaharlarda arxitektura ansamblari (Samarqandda Shoxi Zinda, Registon ansamblari, Buxoroda Labi hovuz ansambl) vujudga kela boshlagan. Monumental binolar an'anaviy tarzda pishiq g'ishtdan qurilib, koshin va o'ymakorlik bilan bezatilgan. XIV asrdan kulollik yana tez suratlar bilan rivojlangan.

XIV – XV asrlarda masjidlarning hovlilari ko'p ustunli ayvonlar bilan o'ralgan (Bibixonim masjidi, masjidi Kalon), madrasalar peshtoqli qilib qurilgan. Kvadrat, to'g'ri to'rtburchak tarhli hovli atrofi ko'p ustunli ayvon va hujralar bilan o'ralgan.

Maqbaralar (masalan, Shohi Zinda) endi to'g'ri to'rtburchak yoki kvadrat tarhli yolg'iz xonadangina emas, balki markaziy zalga tutash qo'shimcha xonalardan ham iborat qilib qurila boshlangan. masalan Ishratxona yodgorligi ana shunday bunyod

etilgan. Amur Temur va Ulugbek davrlarida miniatyura san'ati yüksalsan, hunarmandlik (ayniqsa, kulollik, kandakorlik) rivoj topgan. Ahmad Yassaviy maqbarasida eshikka o'yib naqsh solingen (1397-yil).

XVI asda arxitektura inshootlari turlari yanada takomillashgan, ko'plab jamoat binolari va inshootlar (karvonsaroylar, ko'prik, sardoba, shaharlarda hammom, tim va boshqa savdo rastalari) qurila boshlangan, monumental binolarning tarhi, qiyosasiga o'zgartishlar kiritilgan. Buxoro shahri qalin va baland (10 m gacha) devor bilan o'ralib, unda shahar darvozalari o'rnatilgan (8.3-rasm). Yirik binolarda (masalan, Mir Arab madrasasi, Xo'ja Zayniddin masjid-xonaqosi) xalq me'morligi an'analaridan foydalanilgan, monumental binolar shahar tashqarisida ham qurila boshlangan (masalan, Chorbakr nekropoli).

XVI – XVII asrlar me'morchilikida binolar konstruksiyalari yanada takomillashtirilgan. Jome' masjidlari saroy tipida serhasham qilib barpo etilgan, guzar-mahalla masjidlari qishlik va yozlik - katta ayvonli qilib qurilgan. Madrasalar peshtoqli, keng darsxonali, minorali qilingan, hovlilari to'rt tomondan ayvon va hujralar bilan o'ralgan (masalan, Buxoro va Toshkentdag'i Ko'kaldosh madrasalari (XVI asr); Sherdor Madrasasi (XVII asr), ko'p toq-gumbazli savdo rastalari va timlari, sardobalar bunyod etilgan. Binolarning tashqi bezaklarida jozibadorlik ancha susaygan, lekin binolarning intererlari ilgarigidek serhasham qilib bezatilgan.

XVII asr boshlarida Markaziy Osiyoda avj olgan o'zaro feodal nizo va urushlar. Eronning Xivaga qilgan hujumi va boshqalar arxitektura va binokorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Ko'pgina musavvirlar bu yerlardan Hindistonga. Boburiylar saroyiga ketishga majbur bo'lganlar.

XVIII asr oxirlaridan boshlab me'morchilik va amaliy-bezak san'ati yana rivoj topa boshlagan. XVIII asr va XX asr boshlarida an'anaviy tiplarda masjidlar (masalan, Buxoroda Bolohovuz masjidi), maqbaralar (Namanganda Xo'jamning qabri), madrasalar, karvonsaroy, timlar (Xivada Olloqulixon karvon saroyi va timi), ma'muriy binolar va saroylar (Xivada Toshkovli, Nurullaboy saroyi,

Qo'qonda Xudoyorxon o'rdasi. Buxoro yaqinida Sitorai Mohi Xosa va boshqalar) qurilgan. Saroy qurilishlarida xalq me'morchiligi kompozitsiya uslublaridan keng foydalanilgan (ichkari hovli, hovuz, ko'p ustunli ayvon, sinchli imoratlar).

XVIII – XIX asrlarda monumental binolarning, ayniqsa, ichki qismlarini koshin, tosh, ganch, yog'och o'ymakorligi bilan bezatish (masalan, Xivada Pahlavon Mahmud maqbarasi, Qo'qonda Dahmai shohon va boshqalar) davom etgan. Naqqoshlikda, ayniqsa, islimiyl naqshi rivoj topgan. O'ymakorlikda turli uslublar shakllangan. XIX asr oxiri XX asr boshlaridan Rossiyadan arzon mahsulotlarining keltirilishi, mahalliy sanoat va badiiy hunarmandlik rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekiston hududining Rossiyaga qo'shib olinishi (1860 – 1880-yillar) mahalliy me'morchilikka rus uslublari ta'sirini kuchaytirgan. Yangi shaharlar reja assosida qurila boshlagan (masalan, Skobelev, hozirgi Farg'ona shahri), eski shaharlar atrofdagi bo'sh yerlar hisobiga ular ma'lum reja bilan kengaytirilgan (Samarqand, Toshkent, Andijon va boshqalar), shahar ko'chalarini ko'kalamzorlashtirishga ahamiyat berilgan. Ammo shaharlarning eski qismlari o'rta asrlardagi qiyofada qolaverган.

Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida me'morchilikda, turar-joylar arxitekturasida mahalliy uslublar shakllangan. Farg'ona vodiysida hovlilar ishkomli, bo'yama naqshlar bilan bezatilgan mehmonxona va ayvonli qilib qurilgan. Samarqand va Buxoroda hovlilar imorat va paxsa devor bilan o'ralib, bir necha qismlarga bo'lingan, darvoza qarshisida hovuz, chorborg' bo'lishiga ahamiyat berilgan. Xorazmda hovli baland paxsa devor bilan o'ralib, uylar baland qurilgan, ustunlar o'ymakorlik naqshlari bilan bezatilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida me'morchilikda rus rassomlarining ta'siri ham bilingan. Masalan, Sitorai Mohi Xosa saroyida kirish eshigi oldida sher haykallari o'rnatilgan, Farg'ona xona devorlarida tabiat manzaralari ishlangan. Naqqoshlikda qush va hayvonlarning tasvirlari ko'paygan, sur'atkashlik san'ati kirib kelgan.

1920-yillarda elektrostansiyalar (Bo'zuv), sanoat korxonalari (paxta, yog' zavodlari), maktab, kasalxona, poliklinikalar, ma'muriy bino, klublar qurilgan. Ular eklektizm, ayrimlari konstruktivizm ruhida bunyod etilgan. Ba'zi arxitektorlar zamonaviy arxitektura shakllarini Markaziy Osiyoning an'anaviy uslublari bilan uyg'unlashtirganlar. Masalan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Prezidiumining hozirgi binosi (1928-yil). 1935-yilda Samarqandning bosh rejası tuzilgan (arkitektor M. Bulatov), o'sha yillarda Toshkent, Buxoro, Farg'ona, Andijon va boshqa shaharlarning ham bosh rejaları vujudga kelgan. qishloqlarni ham plan asosida qurishga e'tibor berilgan.

1934-yilda O'rta Osiyo Industrial institutining tashkil qilinishi arxitektorlar, quruvchi-injenerlar va binokorlar yetishtirishda muhim rol o'ynagan. Ko'pgina loyihalash ilmiy-tadqiqot institutlari tashkil etilgan. Yangi shaharlar (Yangiyo'l, Chirchiq va boshqalar), yirik shaharlar tarkibida shaharchalar (Toshkent to'qimachilik kombinatining ishchilar shaharchasi, aviasozlar shaharchasi va boshqalar) bunyod etilgan. Toshkentni rekonstruksiya qilish rejasiga (dastlab 1938-yilda tasdiqlangan) ko'ra shaharning eski va yangi qismlarini uyg'unlashtirishga, ko'cha va maydonlarni ko'kalamzorlashtirishga, yangi maydonlar, xiyobon, sun'iy ko'l va fontanlar vujudga keltirishga ahamiyat berilgan.

1930-yillar jamoat binolari arxitekturasida ko'proq, konstruktivizm va neoklassisizm uslublari qo'llanilgan (Toshkentda Hukumat uyi, Nizomiy nomidagi Toshkent Pedagogika instituti, Temir yo'lchilar Madaniyat saroyi, To'qimachilar madaniyat saroyi, 1939-yil). O'rta asr monumental va xalq me'morchiligi an'analari davom ettirilgan. Binolarning fasad va intererlarini bezashda xalq ustalarining ishtiroti ta'minlangan. Turar-joylar qurilishida ko'p qavatli uylarning yangi tiplari shakllana boshlagan.

1930—40-yillarda Qodiriya (1930—1936), Tovoqsoy, Chirchiq (1934—1941) GES lari, shahar va tuman markazlarida sanoat korxonalari qurilgan. 1944-yilda Arxitektura va qurilish ishlari boshqarmasi tashkil qilingan. Hozirgi Muqimiy nomidagi teatr binosi (1943-yil) qurilgan. Toshkent, Chirchiq, Yangiyo'l, Farg'ona,

Samarqand va boshqa shaharlarda ko'pgina jamoat, tipovoy loyihalar asosida turar-joy binolari bunyod etilgan.

1945-yilda Farhod GESi va metallurgiya zavodi bazasida Bekobod shahri vujudga kelgan. Angren, Ohangaron, Olmaliq kabi sanoat shaharchalari, posyolkalar qurilgan. Alisher Navoiy nomli teatr binosi qurilishi O'zbekiston arxitekturasi tarixida muhim voqeа bo'lган.

1940-yillarning ikkinchi yarmidan shaharlarda katta maydon, keng ko'chalar yaratishga ahamiyat berilgan. Toshkentda Navoiy, Usmon Yusupov, Furqat ko'chalari, Xadra, Komsomol, Teatr maydonlari bunyod qilingan. 1950-yillarda klub, kinoteatr, madaniyat saroylari qurilishida milliy me'morchilik an'analaridan (galereya, terrasa) foydalanilgan.

1950-yillarning ikkinchi yarmidan turar-joylar qurilishi keng ko'lama davom ettirilgan. Toshkentning janubi-sharqiy qismida Chilonzor turar-joy massivi vujudga kelgan. keyinroq, boshqa turar-joy massivlari ham qurilgan. Turar-joy massivlari Samarqand, Buxoro, Farg'on'a, Andijon va boshqa shaharlarda ham bunyod etilgan. Andijon, Namangan drama teatrлari, Samarqand opera va balet teatri qurilgan. Chirchiq, Yangiyo'l, Angren, Yangiyer. Olmaliq kabi yangi shaharlarda ham ko'p qavatli turar-joylar barpo qilingan.

1950-yillarning ikkinchi yarmi, 1960-yillarning boshlarida Toshkentda «Toshkent» mehmonxonasi (1956), hozirgi Prezident devoni kompleksining eski binolari, Markaziy univermag, 2300 tomoshabinga mo'ljallangan San'at saroyi (1962–1964), «Paxtakor» stadioni barpo etilgan. Boshqa shaharlarda ham ma'muriy, madaniy-maishiy xizmat binolari, oliy o'quv yurtlari, mакtablar, kasalxona, poliklinika binolari, savdo markazlari qurish ishlariga e'tibor kuchaygan. 1960-yillarda barpo etilgan Navoiy, Zarafshon shaharlарida ko'p qavatli uylar atrofini ko'kalamzorlashtirishga alohida ahamiyat berilgan (Navoiy shahri hududining 60 foizini ko'kalam joy, ko'l, bog'lar tashkil qiladi).

1960–1970-yillarda qurilishda yangi konstruksiyalar, yangi qurilish materiallaridan foydalanilgan, binolar monumentallashgan, milliy an'analar zamonaviy arxitektura shakllari bilan

uyg'unlashtirilgan. Monumental san'at asarlari (haykaltaroshlik, devoriy rasm, naqsh, koshin va parchindan hosil qilingan tasvirlar) bilan arxitektura sinteziga erishilgan.

1960-yillarda buniyod etilgan Toshkent yirik panel uysozlik kombinati, Samarqand, Buxoro, Andijon, Namangan, Chirchiq, Farg'ona uysozlik kombinatlari qurilishda progressiv metodlarga o'tishda muhim ahamiyatga ega bo'lган. Turar-joylarni tipovoy loyihalar asosida qurishga ahamiyat berilgan.

1966-yilda Samarqand me'morchilik va qurilish instituti ochilgan va u ham mamlakatimizga iqtidorli arxitektor kadrlar va muhandis-quruvchilar yetkazib berishga o'z hissasini qo'sha boshlagan.

1966-yilgi Toshkent zilzilasidan keyin shaharni tiklash va qurishda arxitektura yutuqlaridan, jumladan milliy uslublardan keng foydalanilgan. 1967-yilda shaharning yangi bosh rejası tasdiqlangan. Respublika arxitektorlari, binokorlari, ayniqsa Toshkent markazini loyihalash va qurishda o'z mahoratlarini namoyish etganlar. Markaz 1966–1974-yillarda barpo etildi. Toshkentda poytaxtning bosh maydoni yaratilgan. U maydon poytaxtning turli namoyishlar o'tkaziladigan joyi bo'lган. 1956-yilgacha «Qizil maydon» deb atalgan.

XIX asrning 60-yillarida Anhor yoqasida Turkiston general-gubernatorlari qarorgohi «Oq uy» qurilgan. 1920-yillardan keyin «Oq uy» muzeyga, harbiy maydon esa miting, parad va namoyishlar maydoniga aylantirilgan. Toshkent zilzilasidan so'ng bu bino Alisher Navoiy nomidagi kutubxona, «Bahor» konstert zali va ma'muriy binoga aylantirilgan edi. Hozirgi paytda u binolarning o'rniغا davlatimizning Senat binosi qurilib, foydalanishga topshirilgan.

Poytaxtning Bosh maydoni tubdan yangilandi, maydon hududi xalqning dam olish zonasiga aylantirildi. Maydonning bosh darvozasi sharq tomonda joylashgan. Maydonning janubida Vazirlar mahkamasi, g'arbida Senat binolari, shimoliy tomonida esa Motamsaro ona haykali va ikkinchi jahon urushida qahramonona halok bo'lган o'zbekistonliklar xotirasiga ba'ishlangan me'moriy yodgorlik buniyod etildi.

Markazda qurilgan ko'pgina binolar orasida muzey (1970), vazirliklar joylashgan avvalgi 19 qavatli vazirliklar binosi

(2006–2007-villarda yangidan rekonstruksiya qilinib, bir necha qavati olib tashlandi va badiiy ifodasi bilan Bosh maydonga uyg'unlashtirildi), Matbuot uyi, ma'muriy bino (1999-yilda rekonstruksiya qilinib, zamonaviylashtirilgan hozirgi Vazirlar mahkamasi binosi), «Zarafshon» restorani diqqatga loyiq.

Toshkentda yangi prospektlar, maydonlar, rekonstruksiya qilingan bosh maydon atroflarida 4 qavatlari turar-joylar, ko'p qavatlari jamoat binolari bilan bir qatorda 9 qavatlari turar-joy binolari, ko'p qavatlari maktab, bolalar bog'chalari va yaslilari, mehmonxonalar («O'zbekiston», «Turon»), sirk, bosh univermag va boshqalar qurilgan. Farg'onada markaziy univermag, Samarqandda «Inturist» mehmonxonasi, Navoiyda «O'zbekiston» kinoteatri, «Flora» restorani, Buxoroda pedagogika instituti, mehmonxona binosi va hokazolar barpo etilgan. Me'morchilik birmuncha taraqqiy qilgan, qurilishda estetik sifatga ahamiyat berilgan.

1977-yil 7-noyabr arafasida foydalananishga topshirilgan Toshkent metropolitenining bekatlari arxitekturasi va badiiy bezalishida monumental dekorativ va amaliy san'atning milliy an'analari o'z aksini topgan.

Keyingi yillarda tasviriy san'atda turli badiiy uslublar kuchaydi. Monumental jamoat binolari va turar-joylar qurilishining keng ko'lamda davom ettirilishi, binolarning estetikasiga nisbatan oshgan talab arxitektorlar bilan rassom, haykaltaroshlar hamkorligi kuchayishini taqozo etdi. Maydonlar haykallar bilan, yirik binolarning fasad va intererlari rassomlik, haykaltaroshlik asarlari, naqshlar bilan bezatildi, ayrim yirik eski binolar rekonstruksiya qilindi va bezatildi (masalan, O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi binosi). Rassomlar arxitektorlar bilan hamkorlikda ishlab yaratgan mozaik panno, devoriy rasmlar ko'pgina binolarni serhasham qildi. Qadimdan xalq ijodining keng tarqalgan sohasi — o'ymakorlik (ganch, yog'och, tosh, qisman suvak o'ymakorligi) davr talabiga muvofiq yangi namunalar bilan boyitildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik sharofati bilan o'z taraqqiyotining yangi davriga kirdi. Xalqimiz o'zining boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosiga ega bo'ldi. Arxitektura yodgorliklarini o'rganish, ta'mirlash va restavratsiya qilish ishlari san'ati rivoj topdi.

Samarqand shahrining 2750 yillik, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlарining 2500 yillik, Shahrisabzning 2700 yillik, Toshkent shaharlарining 2200 yillik, Marg'ilon shaharlaring 2000 yillik yubileyлari nishonlandi. Buyuk sohibqiron va atoqli davlat arbobi Amir Temur, jahonga mashhur Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali-ibn Sino, al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Marg'inony, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Imom al-Moturdiy, Jaloliddin Manguberdi singari vatandoshlarimizning qadamjolari zamonamizdan kelajak avlodlarga meros bo'lib qoladigan darajada yangilandi. 2007 yilda Islom madaniyatining poytaxti deb tan olingen Toshkent shahrida milliy bezakchilik san'atini o'zidajo etgan «Hastimom» masjidibunyod etildi.

Zamonaviy materiallar va konstruksiyalar asosida, milliylikni o'zida jo etgan, umumiylit bilan uyg'unlashgan ko'plab turar-joy, jamoat hamda sanoat binolari va inshootlari qurildi. Mamlakatimizda yuksak me'morchilik san'ati darajasida akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, maktablar, sport inshootlari yaratildi. Ko'plab maydonlar, yam-yashil bog'-rog'lar, oromgohlar xalqqa in'om etildi. Yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalari, zavodlar, fabrikalar ishga tushdi. Gidrotexnika, elektroenergetika singari inshootlar bunyod etildi, yangi yo'naliшhdagi avtomobil yo'llari, temir yo'llar, ko'priklar, estakadalar va ko'plab boshqa xildagi inshootlar sifatli qurilib, foydalanishga topshirildi.

O'zbek milliy me'morchiligining tarixiy rivojlanishini chuquроq оrganish uchun qadimiy shaharlardan Samarqand, Buxoro, Xiva va mamlakatimiz poytaxti – Toshkentning me'morchiligi bilan batafsilroq tanishishni maqsadga muvofiq deb topdik. Shuning uchun ushbu darslikda Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlарining arxitekturasi to'g'risida alohida - alohida to'xtalib, ko'proq ma'lumotlar berishga, me'morchilikning o'r ganilgan va o'rganilayotgan qirralarini yoritishga harakat qildik.

9- bob. SAMARQAND SHAHRINING ME'MORCHILIK TARIXI

9.1. Umumiy ma'lumotlar

Samarqand Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biridir. 2007-yilda shahrining 2750 yillik yubileyi nishonlandi. Bu yoshga kirgan shahar Markaziy Osiyoda boshqa yo'q. Shuning uchun ham Samarqand shahrining me'morhiligini qisqacha bo'lsada, uning tarixi bilan uyg'unlashgan holda qarab chiqish mamlakatimizda arxitekturaning shakllanganligi va rivojlanganligini kengroq o'rghanish imkoniyatini beradi.

Samarqandda 290 dan ortiq arxitekturaviy va 2 mingga yaqin arxeologik yodgorliklar mavjud. Tarixchi va adiblar bu shaharni Sharq musulmon dunyosining qimmatli durdonasi, «Sharq Rimi» deb ham ataydilar.

Bu shahar atoqli davlat arbobi, buyuk sarkarda Amir Temur, podshoh va astronom olim Mirzo Ulug'bek, davlatimiz Prezidenti Islom Karimov singari jahonga mashhur insonlarning nomlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Zarafshon vodiysining ko'rkmak va bahavo, so'lim yerida, Movarounnahr markazida geografik qulay joylashganlik Markaziy Osiyo shaharlari ichida Samarqandni birinchi o'ringa ko'targanligi tabiiydir.

Arxeologik qazishmalar natijalari bo'yicha qadim zamonlarda Zarafshon daryosi bo'yida joylashgan Samarqandda paleolit, neolit davrlarida ovchi qabilalari, bronza davrida chorvachilik va dehqonchilik qabilalari yashaganliklari isbotlab berilgan. Odamlar tashqi muhit ta'sirlari va har xil hayvonlar hujumidan o'zlarini muhofaza qilish maqsadida yerto'la va chaylalar qurbanlar va u joylarda yashaganlar.

Strategik qulay yerda joylashganligi uchun rivojlanishning dastlabki bosqichlarida Samarqand (yozma ma'lumotlarda So'g'd davrida Marokand deb nomlangan) mustahkam devor bilan o'ralgan. Dastlab u yerda aholi tarqoq joylashgan.

Samarqand arxitekturasi miloddan avvalgi davrdayoq rivojlana

borgan. Qoldiqlari hozir ham «Devori qiyomat» nomi bilan mashhur bo'lgan voha devorining uzunligi 40 km ni tashkil etgan. O'rta sharqni egallagan quldorlik tuzumi krizisi natijasida Samarqand hududi ham keskin qisqargan.

329-yilda qattiq hujum uyuşhtirib, Aleksandr Makedonskiy Samarqand shahrini bosib olgan. Istilochiga yerli mehnatkash xalq qattiq qarshilik ko'rsatgan va o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan. Uch yil davom etgan qo'zg'olon markazi So'g'diyonada bo'lgan. Ko'p o'tmay bularga Baqtriya aholisi qo'shilgan. So'ngra Aleksandr Makedonskiy o'z qo'shinlarini qaytadan Samarqandga kiritgan. Unga qarshi Spitamen rahbarligidagi mahalliy qabilalar va xalq qo'zg'olon ko'targan. Biroq qo'zg'olon bostirilgan va uning rahbari Spitamen Aleksandr tomonidan qatl qilingan.

Aleksandr Makedonskiydan keyin Movarounnahrning boshqa shaharlari qatori Samarqand ham Salavkiylar davlati ixtiyoriga o'tgan. So'ngra u grek-baqtriylar podshohligi tarkibida faoliyat ko'rsatgan.

V asrda bu yerni Eftalidlar dinastiyasi zabit etadi. Keyingi asrda esa Zarafshon vodiysi samarqandlik hukmronlar qo'liga o'tgan. VI – VII asrda Samarqand shahri g'arbi-turk kaganatlari bilan hamkorlikda ish ko'rgan mahalliy podshoh qo'lida bo'lgan.

VI – VII asrlarga kelib, feudal munosabatlarining qayta rivojlanishi bilan Samarqand shahri hayotida yana jonlanish yuz bergen. Arab istilosи davrida me'morchilik va qurilish ishlari ancha susaygan.

VII asrning oxiri – VIII asrning boshlarida Hutayba ibn Muslim boshchiligidagi arab qo'shinlari Samarqandni ham egallab oladilar. Shundan so'ng Samarqand shahri mahalliy Somoniylar (poytaxti Buxoroda bo'lgan), so'ngra Qoraxoniylar ixtiyoriga o'tadi. Bu davr me'morchiligidagi oid Samarqaddagi me'moriy obidalar bizgacha deyarli yetib kelmagan.

IX asrdan boshlab shahar qayta shakllana boshlagan. Hovlilar, do'konlar, karvonsaroylar, masjidlar qurilishi jadal suratlar bilan rivojlangan. U davrda Samarqand 4 ga bo'lingan: qadimiy qal'a – kuhandiz (markaz), ichki shahar – madinai dahil, mustahkam devor bilan o'ralgan shaharning asosiy qismi – shahriston va asosan

janubdan. qisman shimol hamda sharqdan shahristonga tutashgan shahar tashqarisi – rabot. Samarqandning 12 darvozasi bo'lgan.

1220-yil bahorda Chingizxon qo'shinlari Samarqandni bosib olgandan so'ng rivojlanish ancha to'xtab qolgan. istilochilar tomonidan shahardagi inshootlar yondirib yuborilgan va o'sha davrgacha saqlangan me'morchilik yodgorliklari yer bilan yakson qilingan. Afrosiyobni suv bilan ta'minlovchi jo'yi Aziz mo'g'ul bosqinchilari tomonidan buzib tashlangan. Shundan so'ng Afrosiyob jonsiz tepalikka o'xshab qolgan. Chingizxon qadimgi Afrosiyobni bosib olgandan keyin bu joy vayrona qilinganligi sababli shahar Afrosiyobning janub tomoniga qarab rivoj topadi.

Xalq ommasining bosqinchilarga va feudal zulmiga noroziligi XIV asrning o'rtalari va ikkinchi yarmida kuchli ozodlik harakati-sarbadorlar harakatini kelib chiqishiga olib kelgan va bu harakat oxir-oqibat mo'g'ullarni ketishiga sababchi bo'lgan.

XIV asr oxiri va XV asr o'rtalari Temuriylar davridir (Amir Temur Shahrisabzdan uncha uzoq bo'Imagan Xo'jailg'or qishlog'ida tug'ilgan; uning otasi o'sha yerlik, onasi – Tiginabegim buxorolik bo'lgan). Amir Temur davlati Volgadan Gangagacha. Tyanshandan Bosforgacha bo'lgan hududlarni o'z tarkibiga olgan. Amir Temur tomonidan Turk armiyasi tor-mor qilinib, uning sultoni Boyazid ham asir olingan. Amir Temur podshohligi davrida Samarqand mamlakatning poytaxtiga aylanadi va u shahar jahonga mashhur bo'ladi.

Temur va temuriylar davrida Samarqand o'zini o'nglab olib, shahar birun va rabotga butunlay ko'chib chiqqan va rivojlanish ilgarilab ketgan. Bu davrda ko'p tarmoqlar singari me'morchilik va binokorlik ishlari ham gullab yashnagan. Samarqand nihoyatda obod va ko'kalamzor shaharga aylanadi. Amir Temur o'zining tug'ilgan yurti Shahrisabzni shaharga aylantirgan, u yerda 1380-yilda Oqsaroy qasrini, keyinchalik to'satdan vafot yetgan o'g'li Jahongir maqbarasini qurdirgan. Shahrisabzdagi Oqsaroyni xorazmlik ustalarga qurdirgan. Binoni bunyod etish qariyb 20 yilga cho'zilgan. Uning qurilishi 1403-yillardan kevinroq bitgan. Oqsaroy peshtoqining ikki chekkasi va saroyning bir qismi saqlanib

qolgan. 230 yil muqaddam qulab tushgan peshtoqning eni 22,5 m, balandligi 40 m bo'lgan. Toqi ustidagi ravoplari bilan uning umumiy balandligi 50 m dan oshgan. Qolgan qismining hozirgi balandligi 38 m ni tashkil etadi.

Salobatlilik va go'zallikka g'ishtlarning yaxlit bo'lib ko'rinishini ta'minlash – old va shimoliy devor yuzasini sirkor parchinlar bilan bir tekisda ishlash tufayli erishilgan. Gumbazning ichi va yonlariga, burchaklardagi minoralarga koshin – g'ishtlardan qalqon shaklidagi geometrik naqshlar ishlangan. Bu naqshlar silliqlangan g'isht va feruza rangli sirkor parchindan yozilgan kufiy xatlar fonida ko'k yo'g'on belboqqa o'xhash kompozitsiyani tashkil etgan. Devorlardagi turlituman ranglarning jilosи, koshinkor syujetlar, tarixiy, falsafiy va diniy mavzudagi kufiy, suls yozuvlari, islimiyl, geometrik va o'simliksimon naqshlarning o'zaro uyg'unligi binoga noyob va sehrli mazmun baxsh etgan. Rangining oy yorug'ida jilolanib - oqarib ko'rinishidan bino Oqsaroy deb nomlangan.

Temuriylar davrining ikkinchi bosqichida me'morchilikda qo'sh gumbazlar yaratish odat tusiga kirgan. U davr arxitekturasi shakllarning boyishi, dekorativ elementlarning ko'payishi, rangning ko'p ishlatilishi va devorlarga, ayniqsa inshootlar fasadlariga nihoyatda chiroyli va rango-rang padoz berilishi, serjilo ishlanishi bilan ham xarakterlidir. XV asrning ikkinchi yarmida dekorativ padozlashda yangi texnik padozlash – kundal paydo bo'lgan. Kundalda chinni sopol yoki chinni relyefli bezakka tilla suvi yuritilgan. Monumental me'morchilikda binolarning rejasi murakkablasha borgan.

Buyuk alloma Mirzo Ulug'bek davrida madrasalar, jamaot va fanga taalluqli bo'lgan binolar, inshootlar qurilishi, ayniqsa keng rivojlangan. Markaziy xonalarga katta va baland gumbazlar o'rnatilgan. Temuriylar davrida yaratilgan saroy va maqbaralar shular jumlasidandir.

Go'ri Amir, Shohi Zinda maqbaralari bir qancha inshootlar bilan birlgilikda ansambl ko'rinishini tashkil etgan. Hovlili rejaviy yechim masjid, madrasa, karvonsaroy, qasrlarda qo'llanila boshlangan.

Inshootlar kompozitsiyasida bitta asosiy o'q bo'yicha peshtoqlar, o'zining gumbazi bilan markaziy xona joylashgan.

Amir Temur davrida peshtoqlarning ikki yonboshida minoralar o'rnatila boshlangan. Keyingi inshootlarda bunday yechimdan uzoqlashadi. peshtoq proporsional qilib ishlanaadi.

1405-yilning fevral oyida Amir Temur vafot etgandan keyin ichki ziddiyatlar va janglar qaytadan kuchayadi. Besh yillik urushlar natijasida Movarounnahrni Amir Temurning o'g'li – Shohruh qo'lga kiritadi. Biroq u o'z qarorgohini Hirot deb e'lon qiladi. Movarounnahrni mulk sifatida o'z o'g'li – Ulug'bekka topshiradi.

Mirzo Ulug'bek (1394–1449) 1409-yildan boshlab o'zining fojiali vafotiga qadar 40 yil davomida (ba'zi manbalarda 1411-yildan boshlab 36 yil davomida deyilgan) mamlakatni boshqaradi. Bu davrda Ulug'bek Samarcandni dunyoning ilm, fan, madaniyat va san'ati yuksak darajada rivoj topgan shaharga aylantirgan. Buyuk adabiyotshunos va taniqli olim Alisher Navoiy ham bu yerda 3 yildan ortiq vaqt ichida yashagan va o'qigan.

Fan va madaniyatni rivojlantirish yo'lida Ulug'bek tomonidan Samarcandda, Buxoroda va G'ijduvonda, jami uchta madrasa barpo etilgan, u madrasalar bizgacha saqlangan. Samarcanddagagi Ulug'bek madrasasi (1417–1420-yillarda qurilgan) tantanali kirish qismi – peshtoqdan, ichki yopiq hovli va uning atrofi bo'ylab joylashtirilgan xonalardan iborat.

Mirzo Ulug'bek vafotidan keyin Samarcandga uning o'g'li Abdulatif hukmronlik qilgan. Natijada tinchlik, barqarorlik va rivojlanish davri tugab. ziddiyatlar kuchayib, janjallli davr boshlangan. XVI asr boshida kuchsizlanib qolgan Temuriylar davlati Muhammad Shayboniyxon (1451–1510) tomonidan bosib olingan.

XV–XVI asrlarda Samarcandni qisqa muddatlarda Temuriylar avlodи Zahiriddin Muhammad Bobur bosib olganligi tarixdan ma'lum. Bu qisqa davr ichida Samarcandda arxitekturaviy inshoot barpo etilganligi to'g'risida ma'lumotlar bizgacha saqlanmagan. Biroq, shuni eslatib o'tish joizki, Boburiylardan sulton Shoh

Jahon Hindistonning Agra shahri yaqinida. Jamna daryosi bo'yida Tojmahal arxitektura yodgorligini barpo ettirgan. Inshoot sulton Shoh Jahon va uning rafiqasi Mumtoz Mahal (ma'nosi saroyda beqiyos) maqbarasidir. Bu maqbarani sulton sevimli rafiqasi – Arjumand Bonu begim vasiyatiga muvosiq (1630-yilda vafot etgan) buniyod ettirgan. Ushbu inshoot 1632–1650-yillarda turk me'mori Ustod Muhammad Isoxon afandi boshchiligidagi ustalar bilan qadimgi O'zbekiston, Eron va Janubiy Yevropa me'morchiligining yutuqlaridan foydalangan holda qurilgan. Maqbara oq marmardan, besh gumbazli, devorlari qimmat baho toshlardan (haqiq, marvarid, sadaf, kahrabo, zumrad, yoqt, fil suyagi va boshqalar) mozaika bilan bezatilib ishlangan. Sag'ana qo'yilgan xona katta gumbaz bilan qoplangan bosh bino bo'lib, o'Ichami 104x104x7 m bo'lган supa ustida joylashgan. Supaning to'rt tomonida balandligi 45 m lik to'rtta minora o'rnatilgan. Zinapoyadan supaga chiqilib, o'yma naqshlar bilan bezatilgan marmor eshik orqali maqbaraga kiriladi. Sag'ana Shri Lankaning qora marmaridan ishlangan. Mozaika bilan nafis bezatilgan devorlarda bu ulug'vor inshoot buniyodkorlarining ismlari ham yozilgan, ular ichidan samarqandlik va buxorolik ustalarning nomlari ham o'rin egallagan. Biz yurtdoshlar jahonda bunday beqiyos me'moriy ansamblni barpo ettirgan vatandoshlarimiz nomi bilan har qancha faxrlansak arziyi.

XVII asrning birinchi yarmida Yalangto'sh Bahodir Samarqandda hokim bo'ladi. Uning tashabbusi va rahbarligida bu yerda Sherdor va Tillakori madrasalari qurdirligani. Yalangto'sh Bahodir davrida ashtarkoniylar bosh vaziri Nodir Devonbegi buyrug'i bilan qator yangi monumental binolar qad rostlaydi. Ulardan Namozgoh masjidi (1630-yil), Abdi Birun mozorida xonaqoh (1633 yil) va boshqalar bizgacha saqlangan.

Samarqand XVIII asrning birinchi yarmida Ashtarkoniylar, 1740–1747-yillarda Nodir shoh qo'lida bo'ladi. 1758–1868-yillarda esa Samarqand Buxoro amirligiga itoat qiladi. 1868-yil 2-mayda Samarqandni rus podshosi qo'shnlari bosib olgan.

XVIII asr me'morchiligidagi unchalik yaxshi rivojlanish

bo'Imagan. Turkiston Rossiyaga qo'shib olingach, 1871-yildan keyin Samarqand shahrida yevropacha binolar barpo etila boshlaydi.

XX asrdan boshlab, ayniqsa mustaqillik yillarda Samarqand shahar me'morchiligi va binokorligi juda yaxshi rivojlanadi. Keyingi yillarda Samarqand tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketdi, u yangicha chiroy ochdi, yangicha husnga ega bo'ldi. Milliy ruhda sug'orilgan ko'plab binolar, inshootlar va ularning majmualari yaratildiki, ular o'zbek xalqiga beminnat xizmat qilmoqda. Tarixiy noyob arxitektura yodgorliklari asl holiga qaytarildi. Qadimiy shahar – Afrosiyob har tomonlama chuqur o'rganilmoqda.

Samarqandda hatto tasavvurga sig'maydigan me'morchilikning ijod mahsullari bor. Bular Registon arxitekturaviy ansamblini, Shoxi Zinda, Go'ri Amir va Bibixonim me'moriy yodgorliklari va boshqalardir. Bu me'moriy binolarga yagona badiiy ifoda hisoblangan ornamentlar qo'llanilgan. Ishlatilgan mozaika va yo'nilgan pishgan g'isht arxitektura yodgorliklariga chiroy va go'zallik baxsh etgan.

9.2. Afrosiyob yodgorliklari

Afrosiyob shaharchasi miloddan avvalgi V – VII asrlarda shakllangan deb aytildi. O'sha davr me'morchiligi va binokorligi aholini suv bilan ta'minlash, uzunligi 5,5 km ni tashkil qilgan qal'a devorlarini barpo etish singari o'sha davr uchun murakkab hisoblangan ijtimoiy - iqtisodiy shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan. Miloddan avvalgi VI va milodiy XIII asrlarda topilgan qazilmalar Samarqand shahri to'g'risida to'la moddiy ma'lumotlar beradi.

So'g'd davlatining qadimiy shaharlari safidan o'rin olgan Samarqand dastlab Turon podshosining epik qahramoni Afrosiyob nomini olgan, o'sha davrda uning maydoni 228,9 ga teng bo'lgan.

Shaharning shakllanishini birinchi bosqichi topilgan shahar devorlari bilan ko'rgazma qilinadi. Eramizdan avvalgi V – VII asrlardayoq tiklangan, 80 m uzunlikdagi qoldiqlari topilib tozalangan, balandligi 13 m ni tashkil etgan devor monumental g'ishtdan barpo etilgan. Shahar arki atrofida turar-joy kvartallari.

ibodatxonalar, suv havzalari va bozor maydonlari murakkab tartibda o'tkazilgan ko'cha va yo'laklar, kanallar bilan chirmashib ketgan.

Hozirgi davrda Afrosiyobning VII – XVIII asrlarda qurilgan kvartali to'lar o'rganilgan. Samarqandlik iqtidorli rassomlar tomonidan varatilgan jahonga ma'lum bo'lgan devoriy tasvirlar topilgan (9.1-rasm).



9.1-rasm. Afrosiyob devoridagi tasvirlar


Afrosiyob chorsi saroy devorlaridagi tasvirda Chag'oniyon elchilari, og'ir yukli karvon, son-sanoqsiz parrandayu jonivorlar aks ettirilgan. Sur'atlardagi odamlar va ularning libosi o'ta aniqlik bilan tiniq tasvirlangan. O'sha olis zamonlarda kechgan tarixiy voqealarni bu sur'atda aks ettirgan rassom so'g'd tasviriy san'atining tom ma'nodagi durdonasini bunyod etgan desa xato bo'lmaydi.

Somoniylar davrida Afrosiyob xalqi o'z uy-joylarini qoldirib ketishga majbur bo'lganlar va bu joylarga yangi xo'jayinlar, shu jumladan, hunarmandlar, ganchkor ustalar kirgan. Afrosiyobda Somoniylar davridagi Samarqand shahrining qozisi Xo'ja Abdi Darun qabri ustida qurilgan maqbara bizgacha yetib kelgan.

Afrosiyob Samarcand shahrining shimoli-sharq tomonida joylashgan. Chingizxon bostirib kelguniga qadar qadimgi Samarcand shahri va uning me'morchiligi yomon rivojlanmagan. U hunarmandchilik, savdo va san'ati rivojlangan shahar bo'lган. Uning atrofi uzunligi 70 bosqich (hozirgi 10,5 km) devor bilan o'rالган, shahar markazida ark joylashgan bo'lган.

XV asrgacha qadimgi bu shahar Ko'hna qal'a deb ham aytildi. XVII asrdan qolgan yozma manbalarda Afrosiyob shahri nomi tez-tez uchraydi. Shuning uchun ham bu hudud ilmiy adabiyotlarda va xalq ichida keyinchalik Afrosiyob shaharchasi deb ataladi. Uning noyobligi shundan iboratki, u o'z davrida yirik, mustahkam inshootlarga boy shahar bo'lган.

XVIII asrda Nodir Devonbegi tomonidan barpo etilgan Abdi Birun maqbarasi ham hozirgacha saqlangan. XIX asr o'rtalarida Afrosiyobning janubiy qiyaligida Hazrati Xizr masjidi qurilgan (9.2-rasm).



9 2-rasm. Afrosiyobning janubiy qiyaligida barpo etilgan
Hazrati Xizr masjidi

Afrosiyobning janubiy yon bag'rida, Qussam ibn Abbas mozori yonida ajoyib maqbaralar kompleksi – Shohi Zinda barpo etilgan.

Amir Temur tomonidan mo'g'ul bosqinchilar quvib chiqarilgandan so'ng Samarqandda me'morchilik qayta rivojlangan (XIV asr oxiri va XV asr), arxitekturada yangi yuksalish davri boshlangan.

Buyuk davlat barpo etgan Amir Temur Eron, Iroq, Ozarbayjon, Hindistonlardan ko'plab hunarmandlar, taniqli olimlar, iste'dodli me'morlar, qo'li gul quruvchilar, o'tkir xalq ustalarini Samarqand shahriga olib keladi va ularni arxitekturaviy inshootlar barpo etishga jalb qiladi. Amir Temur Samarqandni har taraflama obodonlashtirish va dunyoda tengi yo'q shaharga aylantirishni orzu qilgan hamda shu maqsadda qurilish va obodonlashtirish ishlarini boshlab yuboradi.

Amir Temur davridan boshlab, Samarqandning rasmiy markazi Registon deb e'lon qilingan. Shahar atrofida uzunligi 7 km ni tashkil etgan va oltita darvozasi bo'lган baland devor barpo etiladi, yirik masjidlar va maqbaralar quriladi. Bibixonim masjidi, Shohi Zinda va Go'ri Amir maqbaralari singari takrorlanmas va ulkan memoriy inshootlar bizgacha yetib kelgan.

9.3. Shohi Zinda arxitekturaviy ansamblı


Shohi Zinda ansamblı (9.3 – 9.6-rasmlar) XI – XIX asrlarda barpo etilgan.



9.3-rasm. Shohi Zinda madaniy meros obyekti (XIV – XV asrlar)



9.4-rasm. Shohi Zinda madaniy meros obyekti (XIV – XV asrlar)



9.5 -rasm Maqbara peshtoqiga ishlangan koshinli bezak



9.6-rasm Samarganddagi Shohi Zinda madaniy meros obvektining so'nggi restavratsiyadan keyingi umumiy ko'rinishi (2009-yil)

Shohi Zinda 25dan ortiq madaniy qatlamni o'ziga singdirgan arxeologik – me'moriy yodgorlik kompleksi hisoblanadi. Shohi Zinda madaniy meros obyekti nafaqat Samarkand, balki butun Movarounnahr me'morchilik maktabi namunalari sifatida turli davrlarda qurilgan 20 dan ortiq arxitektura yodgorliklarini o'z ichiga oladi.

Shohi Zinda ansamblı Muhammad payg'ambarning amakivachchasi Abbasning o'g'li Qussam 676-yilda Samargandga islom dinini targ'ib qilish uchun arab istilochilari bilan keladi. U shu yerda o'ldirilgan va dafn etilgan. Uning atrofida mo'tabar kishilar dafn qilingan. Inshootlarning ko'pchiligi XIV asrga tegishlidir. Arxitektura ansamblining yakunlovchi kirish peshtoqisidarvozaxonasi keyingi davrda tiklangan. Peshtoqqa (9.6-rasm) bu ulkan binoga Amir Temur Ko'ragoniy o'g'li, Shohruux xon o'g'li, Ulug'bek Ko'ragoniy o'g'li Abdulazizxon tomonidan asos solingan deb yozilgan. U Ulug'bek tomonidan 1434–1435-yillarda o'g'li Abdulazizga atab qurdirilgan.

Zinalardan chiqib, tor ko'cha bo'ylab yurganda, kishi uzoq tarix bilan ko'rishganday bo'ladi. Kirishdan uzoqlashgan sari inshootlar qadimlasha boradi. Zinaning chap tomonida XV asr ayvonlaridan

birida ikki gumbazli Qozizoda Rumiy (Ulugbek davrining matematigi va astronomi) va uning yaqinlariga atalgan maqbara joylashgan. O'ttiz olti poyali zinadan ko'tarilgach, galereyaga duch kelinadi.

Bu yerning chap va o'ng tomonlarida Temurning qarindoshlari, shu jumladan uning xotini Tuman oqa va singlisi Shirin beka oqa maqbaralarini joylashgan. Galereya gumbazli arkadan iborat aylana hovlichabidan tugaydi. Gumbazli arka ostida Shoxi Zinda yodgorligi-Qussam ibn Abbasning maqbarasiga eltuvchi yo'lakning naqshinkor eshigi o'rnatilgan. Arablar Samarqandga kirganliklaridan keyin u muqaddas joy deb e'lon qilingan.

Rivoyat qilishlaricha, bu yerda yashagan Qussam ibn Abbas bir vaqt ziyyaratini tugatgach, yelkasidan o'z boshini olib, qo'ltiq ostiga qo'yadi va tor tirqish orqali g'orga yashirinadi. U hozir ham g'orda yashayotgan emish (shoh zinda) degan afsonalar xalq orasida yuradi. Ana shu rivoyatdan bu yerning nomi kelib chiqqan. U maqbara naqshli yog'och panjara bilan o'ralgan, arab yozuvidagi naqshlar bilan pardozlangan.

Umuman olganda, Shohi Zinda XIV – XV asrlarning sayqallangan dekorli, koshinkorli noyob muzejidir. Bu yerda me'morchilikning yarim o'yilgan terrakota, yig'ilgan mozaikaning yo'nilgan g'ishtlardan tayyorlangan go'zal namunalarini topish mumkin. Nozikligi va go'zalligi bo'yicha biror obidaning me'moriy san'ati unga bas kelolmaydi.

9.4. Bibixonim masjidining arxitekturasi

1370-yil mart oyida Keshdan Balxga yurish qilib, Amir Temur Amir Husayn qo'shinlarini yengadi, uning xotinlaridan biri – Movarounnahrning chingiziylaridan bo'lgan sobiq hukmdor Qozonxonning qizi – Saroymulkxonim (Bibixonim) ga uylanadi.

Amir Temur tomonidan sevimli xotini Saroymulkxonimga atalib qurdirilgan Bibixonim masjidi Markaziy Osiyo me'morchilik san'atining klassik namunasi, mahovatli arxitektura inshootidir.



9.7-rasm. Bibixonim masjidining restavratsiyadan avvalgi holati
(1399 – 1404-yillarda qurilgan)

Uning joyini 1399-yil 10-mayda Amir Temur tanlagan. Arxitekturaviy ansambl (9.7- 9.12 - rasmlar) hovlili inshoot bo'lib, uning g'arbida bosh masjid salobat to'kib turadi, shimol va janubda kichik masjidlar qurilgan.



9.8-rasm. Bibixonim masjadi mehroqli binosining restavratsiyadan avvalgi holati




9.9-rasm. Bibixonim masjidining restavratsiyadan keyingi holati
(Registon maydoni tomon dan umumiy ko'rinishi)



9.10-rasm. Masjid peshtoqining restavratsiyadan keyingi holati



9.11-rasm. Bibixonim masjidi mehrobli binosining
restavratsiya davridagi holati



9.12-rasmi. Yuzasi sayqallangan koshinlar rang-barang naqshlar bilan
pardozlangan peshtoqning restavratsiyadan avvalgi ko'rinishi

Hovlisining sahni $63,8 \times 76,0$ m bo'lib, to'rt tarafdan ravoq va peshtoqlar bilan o'ralgan. Uning umumiy sahni 167×109 m, burchaklarida baland minoralar bo'lgan. Bibixonim masjidining poydevori xarsang toshdan, devorlari pishgan g'ishtdan ishlangan (qalinligi 4,4–5 m). Hozir u bir-biri bilan bog'lanmagan bo'laklardan iborat. Hovlining to'rida mehrobli va baland peshtoqli bino, ikki yonida uning kichik nusxasi, poyida masjidning ikkiga bo'lingan peshtoqi va shimoliy g'arbda alohida saqlanib qolningan minora mavjuddir.

Ilgari bu bo'lakchalar uch qator marmar ustunli, yengil ravoqli peshayvonlar bilan birlashgan va ular tepasida 400 ta gumbazchalar bo'lgan. Ustunlar 480 ta (oralig'i 3,5 m) bo'lib, tag kursili, tanasi o'yma naqsh, tepasi rangli koshinlar bilan ishlangan, muqarnaslar bilan bezalgan.

Har biri darvozaga ega bo'lgan to'rtta peshayvoni bor. Bibixonim masjidiga kiraverishda peshtoq bor. Uning tepe qismi 1897-yilda zilzila paytida qulagan (qolgan qismining balandligi 33 m, kengligi 46 m). Peshtoq mahovatlari bo'lib, o'rtasida kengligi 18,8 m li ravoq bor (Shahrisabzdagi Oqsaroy gumbazining diametri bundan bir oz katta – 22 m). Yon tomonlaridagi minoralar peshtoqdan baland. Peshtoqning ichki tomoniga kichikroq ikkinchi ravoq joylashgan. Unda o'yma marmar hoshiyali darvoza bo'lgan.

Bibixonim masjidining asosiy mehrobli binosi Amir Temur zamonasining arxitektura uslublari haqida tasavvur beradi. Asosiy binoning old tomonida peshtoq, markazida ravoq, burchaklarida ikkita ko'p qirrali minora bor. Peshtoq orqasidagi xona oddiy, ammo salobatli geometrik shakllar yig'indisi (kubsimon prizma, xonaning sakkiz qirrali qismi ustiga tushgan baraban va gumbaz) dan iboratdir.

Bino asosining tomonlari 14,6 m. Uning ustida xona devorlari bo'ylab o'tuvchi ravoqlardan iborat sakkiz qirrali prizma bo'lgan. Gumbazning doirali asosiga baraban tutashtirilgan. Baraban sirtiga qur'on oyatlari bitilib, usti feruza koshinli pardozlangan gumbaz bilan bekitilgan. Uning kirish tomonlari ham bosh peshtoq kabi

rang-barang koshinlar bilan qoplangan. Sopol g'ishtchalar yotiq, sirlangan rangli g'ishtchalar tik terilgan. Asosiy naqsh shakllari tiniq g'ishtchalardan terilib, ularning oralig'i zangori g'ishtchalar, oq toshlar bilan to'ldirilgan. Oddiy geometrik shakllar va pechak kabi charmashib ketgan yozuvlar bino bezagining tarkibiy qismini tashkil etadi.

Zinadan yuqoriga kungura ravoqli maydonchaga chiqilib, undan minoraga o'tilgan. Peshtoqning keng yuzasi jiivali koshinlar, rang-barang, qalqon shaklidagi naqshlar bilan bezatilgan (9.12- rasm).

Mehrobli binoning baland minoralari sathi to'rt burchakli kichik pannolarga bo'lingan. Geometrik shakl va o'simliksimon naqshlar (turli ranglarda) pannolarni bezagan. Ular parchinkorlik, koshinkorlik uslubida ishlangan.

Peshtoq devorining yuzasi kesma koshin bilan qoplangan. Koshinkor bezakning har bir bo'lagi, gullarning o'zaklari, kosachalari, poyalari, g'unchalari va barglari maxsus zamin - koshinlar parchasidan alohida kesib olingen, sopolchalar oraliq qoldirilmay bir-biriga mos joylashtirilgan. Bu koshinlar tiniq shisha kabi yaltirab turgan.

Bino ichki qismini pardozlashda naqqoshlik, bezaklari qatorida zarhal bo'rtma gulqog'oz (pape-mashe) lardan foydalanilgan. Ko'p qirrali yulduzlar, uch qavatli xatlar o'yilgan lavhalar jippi muqarnaslar bilan bezalgan. hoshiyalar oq toshdan yo'nilgan. Bibixonimdag'i rang-barang naqshlar o'sha davr xalq ustalarining nozik didi va yuksak mahoratidan darak beradi.

9.5. Amir Temur maqbarasi me'moriy yodgorligi

Samarqand shahrinig eng noyob me'moriy obidalaridan biri Amir Temur maqbarasidir (9.13–9.20 - rasmlar).




9.13-rasm. Amir Temur maqbarasi me 'moriy ansamblining umumiyo ko 'rinishi



9.14-rasm. Amir Temur maqbarasi ansambliga kirish peshtoqi, uning ikki yonida minoralar joylashgan




9.15-rasm. Amir Temur maqbarasiga kirish qismining umumiyo ko'rinishi




9.16-rasm. Amir Temur maqbarasi ansambliga kiraverishdag'i peshtoq gumbazzining ganchkorlik naqshlari



9.17-rasm. Maqbaradagi daxmalar (Amir Temur - to q yashil rangli nefrit toshli sag'ana, uning ikki o g'lì - Shohruh va Mironshoh, nevaralari - Muhammad Sulton va Ulug'bek, g'oyaviy ustoz va muslimmon shayxi Mir Said Baraka va Shoh Xo'jalarning qabri)



9.18-rasm. Amir Temur maqbarasi ustidagi gumbaz va ostidagi ravоqlarga noyoh serjilo naqshlar solinganligi va ularning tepaga qarab chiroyli o'zgarib borishi



9.19-rasm. Go'ri Amir maqbarasi ustidagi gumbaz ostidagi ravoqlariga noyob serjilo naqshlar solingen va ularning tepaga qarab o'zgarib boradi




9.20-rasm. Relyefli bezak qo'llanilgan Amir Temur maqbarasi gumbazi

Bu inshoot 1404-yilda Amir Temur ko'rsatmasi bilan Kichik Osiyoga yurish qilgan vaqtida (1403-yilda) vafot etgan sevimli nevarasi, taxt vorisi Muhammad Sultonga atab qurilgan. Bir oz vaqt o'tgach, 1405-yilning fevral oyida Xitoya yurish qilgan chog'ida Amir Temur vafot etadi va u ham shu yerga dafn qilinadi.

Yuksak shaharsozlik usullariga ega, me'moriy dekor san'atiga boy, koshinkorlik ishlari juda ham sifatli, arka va sferik gumbazlarining arxitekturaviy shakl va proporsiyalari uyg'unlashgan tarixiy yodgorliklarga serob Samarqandda yana bir yangi uslub – relyefli bezak qo'llanilgan (9.20-rasm). Bu usulda ishlangan jahondagi ikkita asar ham shu yerdadir (Bibixonim masjidi va Amir Temur maqbarasi).

Maqbaraning ichki qismi to'rtburchak, tashqi ko'rinishi sakkiz tomonli prizma shaklidida. Prizma ustiga ko'p qovurg'ali gumbazni ko'tarib turuvchi silindr shaklidagi baraban o'rnatilgan. Binoning tepe qismi ko'p qovurg'ali gumbaz bilan yakunlangan. Uning usti, maqbara devorlari zangori, havo rang va oq sirli koshinlar. geometrik shakldagi naqshlar bilan bezatilgan. Barabanning tashqi devorlariga qur'ondan olingen ba'zi suralar bitilgan. Maqbaraning tashqi tomonini ishlashda ustalar gumbazga katta ahamiyat bergenlar. Gumbaz ostki qismining diametri 15 m, balandligi 12,5 m bo'lib. 64 qovurg'ali ishlangan. Gumbazning usti sir berilgan zangori rangli koshinlar bilan qoplangan.

Maqbaraga gumbazli sharqiy peshtoqdan kiriladi. Uning ichi juda aniq rejalanigan va g'oyat nafis bezatilgan. Devorning pastki qismi ko'kimdir shaffof oniks toshidan ishlangan izora (bezak) dir, uning choklari ko'kimdir toshlar bilan bezatilgan. Bezak ustiga ishlangan rang-barang lavhalar xuddi zar aralashtirib to'qilgan gilamga o'xshaydi. Gumbazning ichi, kunjak yaruslari har turli shakllarda bir necha qavat ipak qog'ozdan bo'rttirib (pape-mashe uslubida) ishlangan. Ularga zarhal berilgan va mayda gullar solib naqshlangan. Maqbara ichi rangdor oynali va panjarали to'rt darchadan yorug'lik tushadi. Maqbara ichining balandligi va bezaklarining boyligi kishini hayratga soladi. Maqbaraning



9.19-rasm. Go'ri Amir maqbarasi ustidagi gumbaz ostidagi ravoqlariga noyob serjilo naqshlar solingen va ularning tepaga qarab o'zgarib boradi



9.20-rasm Relyefli bezak qo'llanilgan Amir Temur maqbarasi gumbazi

Bu inshoot 1404-yilda Amir Temur ko'rsatmasi bilan Kichik Osiyoga yurish qilgan vaqtida (1403-yilda) vafot etgan sevimli nevarasi, taxt vorisi Muhammad Sultonga atab qurilgan. Bir oz vaqt o'tgach, 1405-yilning fevral oyida Xitoyga yurish qilgan chog'ida Amir Temur vafot etadi va u ham shu yerga dafn qilinadi.

Yuksak shaharsozlik usullariga ega, me'moriy dekor san'atiga boy, koshinkorlik ishlari juda ham sifatli, arka va sferik gumbazlarining arxitekturaviy shakl va proporsiyalari uyg'unlashgan tarixiy yodgorliklarga serob Samarqandda yana bir yangi uslub – relyefli bezak qo'llanilgan (9.20-rasm). Bu usulda ishlangan jahondagi ikkita asar ham shu yerdadir (Bibixonim masjidi va Amir Temur maqbarasi).

Maqbaraning ichki qismi to'rtburchak, tashqi ko'rinishi sakkiz tomonli prizma shaklida. Prizma ustiga ko'p qovurg'ali gumbazni ko'tarib turuvchi silindr shaklidagi baraban o'rnatilgan. Binoning tepa qismi ko'p qovurg'ali gumbaz bilan yakunlangan. Uning usti, maqbara devorlari zangori, havo rang va oq sirli koshinlar. geometrik shakldagi naqshlar bilan bezatilgan. Barabanning tashqi devorlariga qur'ondan olingen ba'zi suralar bitilgan. Maqbaraning tashqi tomonini ishlashda ustalar gumbazga katta ahamiyat bergenlar. Gumbaz ostki qismining diametri 15 m, balandligi 12,5 m bo'lib. 64 qovurg'ali ishlangan. Gumbazning usti sir berilgan zangori rangli koshinlar bilan qoplangan.

Maqbaraga gumbazli sharqiy peshtoqdan kiriladi. Uning ichi juda aniq rejalanigan va g'oyat nafis bezatilgan. Devorning pastki qismi ko'kimdir shaffof oniks toshidan ishlangan izora (bezak) dir, uning choklari ko'kimdir toshlar bilan bezatilgan. Bezak ustiga ishlangan rang-barang lavhalar xuddi zar aralashtirib to'qilgan gilamga o'xshaydi. Gumbazning ichi, kunjak yaruslari har turli shakllarda bir necha qavat ipak qog'ozdan bo'rttirib (pape-mashe uslubida) ishlangan. Ularga zarhal berilgan va mayda gullar solib naqshlangan. Maqbara ichi rangdor oynali va panjarали to'rt darchadan yorug'lik tushadi. Maqbara ichining balandligi va bezaklarining boyligi kishini hayratga soladi. Maqbaraning

o'rtasiga o'rnatilgan sag'ana toshlarida yozuvarlar bor. Shular orasida Amir Temur qabri ustiga qo'yilgan to'q yashil rangli nefrit tosh diqqatga sazovor. Amir Temur, uning ikki nabirasi (Muhammpad Sulton va Ulug'bek), ikki o'g'li (Shohruh va Mironshoh) va boshqalarning sag'analarini marmar panjara bilan o'ralgan.

Maqbaraning sharq tomonidagi ravoqning pastidagi zinadan maqbaraning ostki qavatidagi daxmaga tushiladi. Daxmaning shipi o'n ikki qirrali gumbaz qilib qiya ishlangan, ichki bezaklari juda soddaligiga ega. Sag'analar yuqorida qanday bo'lsa, bu yerda ham xuddi shu tartibda joylashgan.

Buyuklik va yengillik, rang-barang mozaika, moviy rangdag'i qovurg'ali gumbaz uni noyob me'morchilik san'ati darajasiga ko'targan. Maqbara hajmining aniqligi, shaklining oddiyligi, tashqi va ichki bezaklarning boyligi maqbara arxitekturasining monumental va ulug'verligini ko'rsatadi va uni dunyodagi eng mashhur me'moriy durdonalar qatoriga qo'shgan.

Temuriylar davrida monumental yirik bino va inshootlarni barpo etishda murakkab me'morchilik va qurilish masalalarini yechish bu sohani rivojanishiga turtki bo'lgan. Konstruksiyalar o'lchamlari kattalasha borgan. Ulug' bobomiz Amir Temur bizning kuch-qudratimizni bilmoxchi bo'lsangiz biz yaratgan inshootlarga qarang deb bekorga ishora qilmagan.

Burxaniddin Sagarji maqbarasi

Amir Temur maqbarasidan shimolda XIV asrda vafot etgan Burxaniddin Sagarji maqbarasi joylashgan (9.21-rasm). Ruhobod nomi bilan atalgan bu yodgorlikning qurilgan sanasi ma'lum emas.



9.21-rasm. Burxaniddin Sagarji maqbarasining umumiy ko'rinishi


Shimol tarafdagи relyefli bezak xarakteriga ega bo'lган eshigiga ko'ra bu daxmani XIV asrning ikkinchi yarmida qurilgan, yana boshqa ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra uni Amir Temur davrining qurilishi ham deyishadi.

Markaziy Osiyoning eng noyob tarixiy me'moriy ansamblı deb Samarqanddagi Registon maydonini aytса xato bo'lmaydi. Registon maydoni Samarqand shahrining yuragi hisoblanadi.


9.6. Registon maydonining me'moriy ansamblı

Registon maydonida buyuk va noyob inshootlar (9.22- rasm) – Ulug'bek (1417–1420-yillar), Sherdor (1619–1636-yillar) madrasalari va Tillakori madrasa-masjidi (1646–1647-yillar) barpo etilgan.

Ulug'bek madrasasi (9.23 - rasm) ekspluatasya qilish davrida tashqi tasirlar, zilzilalar va ichki janglar oqibatida jiddiy talofot ko'rgan. Tashqi gumbazlar, ikki minora va ko'pgina yashash xonalari vayron bo'lган. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi gumbazi Sharqda eng katta gumbazlar qatoridan o'rın egallagan.



9.22-rasm. Registon maydonining me'moriy ansamblisi




9.23-rasm. Registondagi arxitektura yodgorliklari. Ulug'bek madrasasining umumiyyat ko'rinishi (1417-1420-yillar)


XVII asrda Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir hashamatli binolar qurishga boshqa beklar bilan raqobat qilib, vayrona holatidagi Ulug'bek xonaqohi o'rniga Sherdor madrasasini (9.24-9.26-rasmlar), Mirzoyi karvonsaroy o'rniga Tillakori madrasa - masjidini (9.27-9.29-rasmlar) qurdirgan. Tillakori va Sherdor madrasalari katta o'lchamlilik, pardoz ishlarining nozikligi bilan ajralib turadi.



9.24-rasm Sherdor madrasasining umumiy ko'rinishi (1619–1636-yillar)



9.25-rasm Sherdor madrasasi darvozaxonasining (1) va tashqi devorining (burchak) sirkor parchinli naqshlari (2)



9.26-rasm. Sherdor madrasasi ravoqining sirkor parchinli naqshlari



9.27-rasm. Tillakori madrasa-masjidining umumiy ko'rinishi
(1646–1647-yillar)



9.28-rasm. Tillakori madrasa-masjidining umumiy ko'rinishi



9.29-rasm. Tillakori madrasa-masjidining mezanası

Mezana (9.29-rasm) minoraning yuqori qismi, azon aytildigani joy. Ko'pincha ravoqsimon darchalar galereyasidan iborat. Ichki devorlari odatda ganch bilan naqshlanadi, tashqi tomoni minoraning umumiyl bezagiga mos holda sirkor parchinlar bilan pardozlanadi. Usti oddiy gumbazcha bilan yopiladi yoki ochiq bo'lishi ham mumkin. Ayrim hollarda guldasta yoki burjlar ham mezana vazifa¹¹ bajargan.

Tillakori madrasasi 1646–1647-yillarda madrasa va jome' masjidiga mo'ljallanib qurilgan. U ansamblidagi Uluo'bek va Sherdor madrasalari bilan muvozanatlashtirib bunning etilgan. Hovlining g'arb tomonidagi masjidga peshtoq orqali kiyadi. Masjid xonasi ikki yonidagi ravoqli gumbazlar galereya¹² tufayli keng ko'rindi. Xona to'ridagi marmar qoplamali mehob, o'ng tarafida marmar zinapoyali minbar bor. Xona o'z vaqtida/zarhal naqshlar bilan jozibador bezatilgan. 1930-yillarda bu yerda maxsus ustaxona tashkil etilib, koshinlarning qadimiy rangini topish yo'lida tadqiqot ishlari olib borilgan. Mustaqillik yillarida inshoot restavratsiyadan chiqdi va avvalgi go'zal holatiga keltirildi Tillakori masjid-

madrasasi katta xonasining ichidagi badiiy bezaklar jilosi halning hamda rango-rang naqshlarning tovlanishiga asoslangan naqshlar me'moriy shakllarning tuzilishiga qarab taqsim etilgan. Burchak-burchaklaridagi mehroblar kundal uslubida islimiyl naqshlar bilan bezatilgan.

XVIII asrda Registon maydonida yana bir monumental inshoot Chorsu (9.30-rasm) – olti qirrali, gumbazli, do'ppi savdo qilish binosi barpo etilgan.



9.30-rasm. Registondagi Chorsu yopiq bozori binosi (XVIII asr)


9.7. Ulug'bek rasadxonasi

14² 8-1429-yillarda Samarqandda Ulug'bek rasadxonasi qurilgan (9.31 – 9.32- rasmlar).



9.31-rasm. Ulug'bek rasadxonasining umumiy ko'rinishi

Rasadxon binosi yo'qolib ketgan bo'lgan. Uni ko'p izlanish va mehnatlar evazida arxeolog Vyatkin 1908-yilda topgan. Doira shaklidagi u tarixiy inshootning diametri 46 m ni, balandligi 30 m ni tashkil etgan (9.32-rasm). Binoning asosini burchak o'lchagich (tik aylana) tashkil etadi. Uning radiusi 40,2 m, yoy uzunligi 63 m ga tengdir. Inshootning asosiy asbobi – Sektant meridian bo'ylab o'ta aniqlikda o'rnatilgan.



9.32-rasm. Ulugbek rasadxonasining burchak o'lchagichi

9.8. Ishratxona arxitekturaviy yodgorligi

Rivoyatlarga ko'ra, bu inshootni (9.33-rasm) Amir Temur xotinlaridan biriga atab maqbara sifatida qurdirgan.



9.33-rasm Ishratxona maqbarasining qoldiglari (1464-yil)

Maqbarani ko'rgani kelgan Amir Temur uni muhtashamligidan hayratlanib, mahbubasiga bu maqbara emas, balki shod-xurramlik uyi – ishratxona bo'lishi lozim degan. Boshqa rivoyatlarga ko'ra, Bibixonim bunyod ettirgan. Maqbaraning nomi Ishratxona emas, Ashratxona (arabcha o'nta xonalii) degan fikr ham bor.

Biroq tarixiy hujjatlar bu inshootni Amir Temur vafotidan keyin bunyod etilganligidan dalolat beradi. 1464-yili Sulton Abu Saidning xotini Xabiba Sultonbeka tomonidan bevaqt vafot etgan qizi Sohib Davlatbeka sharafiga qurilgan. Inshoot vaqt o'tishi bilan qattiq shikastlangan: asosiy gumbazning yuqori qismi va yon tomlari qulab tushgan, koshinlarining ko'p qismi tushib ketgan. 1903-yilgi zilzilada gumbaz tamomila qulagan.

Yodgorlik bir-biriga bog'liq bir nechta murakkab binolardan iborat. Umumiyligi rejasiga to'rtburchak shaklda. Markaziyligi qismida bir vaqtlar bezakdor muhtasham zal bo'lgan. Zalning janubi-sharqiy qanotiga miyon saroy xonalari yondashib turgan. Shimoli-g'arb tarafida ularga simmetrik bo'lib masjid tushgan. To'rtta aylanma

zinapoyadan ikkinchi qavatga chiqilgan. Bu yerda bir qancha hujralar bo'lgan.

Markaziy zaldan pastga – sakkiz qirrali keng xonaga tushiladi. U yerda sag'analar bor. Qachonlardir xonaning devorlari rang-barang naqshlar va toshlar bilan ziynatlangan; o'ymakor marmar sag'analar turgan bu xonaning zamini oq marmar bilan qoplangan.

Ishratxonaning janubi - g'arbga qaragan qismi o'z mutanosibligi jihatdan aniq qubbasimon peshtoq bilan ajralib turadi. Peshtoqning quyi qismi bo'yiga ketgan qambar ravoqchalarga bo'lingan. ikki yonida esa ikki qavatli ayvoncha bor.

Ishratxonaning shimoli - sharqiy tarafi bezakli ravoqlardan iborat bo'lib, ular chetdagi ayvonchalardan boshlanib, markaziy devor ravog'iga qarab ko'paya boradi. Ziynat berishda pushti rang va sayqallangan pishiq g'ishtdan foydalanilgan. Ayrim g'ishtlar orasidagi choklarga lojuvard yoki ko'k sirli koshinlar ishlatilgan. Inshootning turli joylaridagi hoshiyalarga rang - barang naqshli, yumaloq yoki tuxumsimon bezaklar bilan jilo berilgan.

Ishratxona Markaziy Osiyoda yangi uslubda barpo etilgan inshootlardan. Uning konstruksiyasida bir-biri bilan kesishadigan to'rtta ravoq kabi yangi uslub qo'llanilgan. Bu uslub gumbazli binolarni yanada mustahkam bo'lishini ta'minlagan. Turli qismlarida yangi qurilish uslubining o'nlab variantlari ishlatilgan. Bunday katta inshootni bezash. pardozlash, ziynatlashda ham yangi usullardan foydalanilgan. Devoriga naqsh solishda kundal uslubi birinchi bor shu yerda ishlatilgan.

Suv taqsimlagich

Shuningdek, Samarqandda gidrotexnika inshootlari qurilishiga ham e'tibor qaratilgan. Bugungacha saqlanib qolning ana shunday inshootlardan biri quyidagi 9.34-rasmda tasvirlangan suv taqsimlagichdir. U milliy me'morchilik qoidasiga rioya qilingan holda strelkali arka ko'rinishida barpo etilgan.



9 34-rasm Zarafshon daryosi irmog'i ustida qadimda tiklangan suv taqsimlagichi

9.9 XVIII – XIX asrlar arxitekturasi

XVIII asr va undan keyingi davrlarda Samarqand shahri ko'p janglar, shu jumladan Buxoro va Qo'qon xonliklari orasida urushlar natijasida ko'pgina talofotlar ko'rgan, me'morchilik unchalik tez rivojlanmagan.

Ichki feodallar orasidagi munosabatlar keskinlashuvidan foydalangan Rus podshosi XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo shaharlarini bosib olgan. O'sha davrda Turkiston o'lkasining barcha aholi yashaydigan joylari singari Samarqand shahri ham ruslar qo'liga o'tgan. 1887-yildan boshlab Samarqand shahri shu nomli viloyatning markaziga aylangan.

Rus podshohligi davrida Samarcanda bino va inshootlar qurilishi yevropacha tus ola boshlangan. Biroq bu davrda ko'zga yaqqol tashlanadigan arxitekturaviy inshoot barpo etilmagan desa xato bo'lmaydi. 1875-yilda hozirgi SamDU bosh binosi oldida niholchilik bog'i tashkil qilinib, 1881-yildan boshlab u yerdagi Abram bulvariga yosh nihollar o'tkazilgan.

1917-yilning 28-noyabrida Samarqand sovetlar qo'liga o'tgan. Me'moriy obidalarni ta'mirlash ishlariga avvalgiga nisbatan bir muncha ko'proq e'tibor berilib, o'sha davrning taniqli olimlari, muhandislari, me'morlar va xalq ustalari bu ishlarga jalb etilgan.

Unutilgan badiiy bo'yoq tayyorlash retsepti topilgan. Bu holat nafaqat Samarqand, balki Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlaridagi me'moriy yodgorliklarga badiiy restavratsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirgan.

1991-yildan boshlab mamlakatimizning boshqa shaharlari qatori Samarqanddagi madaniy meros obyektlariga munosabat keskin yaxshilandi. Ularni kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazish maqsadida madaniy meros obyektlarini avvalgi holatiga keltirish ishlari rivojlanib ketdi. Me'moriy yodgorliklar mustahkam, tez va soz restavratsiya qilindi va avvalgi shakli keltirilmogda. Mustaqillik yillarda Samarqandda jahonga mashhur vatandoshlarimiz Imom al-Buxoriy, Imom Moturdiy qadamjolarida ularga atab noyob binolar va ularning komplekslari bunyod etildi. Milliy ruh bilan sug'orilgan, zamonaviy me'morchilik uslublari bilan uyg'unlashgan ko'plab zamonaviy binolar va inshootlar yaratildi. Ko'pgina korxonalar qurildi. Bularning barchasi Samarqandga yangicha chiroy berib, uning husniga husn ko'shdi.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Afrosiyobning shakllanishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Samarqand shahrining me'morchilik tarixi bo'yicha o'z fikringizni bildiring.
3. Samarqanda qaysi arxitekturaviy yodgorliklar mavjud?
4. Buyuk sohibqiron va atoqli davlat arbobi Amir Temur to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Amir Temur Samarqand shahrida qaysi me'moriy yodgorliklarni qurdirgan?
6. Amir Temur maqbarasining arxitekturaviy, me'moriy-badiiy yechimlari to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
7. Shohi Zinda arxitekturaviy kompleksiga xarakteristika bering.
8. Shohi Zinda me'moriy kompleksining arxitekturaviy yechimlari to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
9. Ishratxona maqbarasining me'moriy va me'moriy-badiiy yechimi to'g'isida nimalar deya olasiz?

10. Ulug'bek davrida qaysi arxitekturaviy inshootlar barpo etilgan?
11. Temuriylar davridagi me'morchilik ishlariga o'z munosabatingizni bildiring.
12. Samarqand shahrining me'moriy yodgorliklaridagi bezakchilik san'ati to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
13. Registon arxitekturaviy ansamblining yaratilish tarixini izohlang.
14. Registon arxitekturaviy ansambli bo'yicha o'z fikringizni bildiring.
15. XVII asrning birinchi yarmida shaharda qaysi tarixiy obidalar yaratilgan?
16. Ulug'bek madrasasining arxitekturasini to'g'risida nimalar deya olasiz?
17. Tillakori madrasa-masjidi arxitekturasini izohlab bering.
18. Sherdor madrasasining arxitekturasini to'g'risida nimalar deya olasiz?
19. Ulug'bek rasadxonasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
20. Samarqand shahrining XVIII – XIX asrlar arxitekturasini bo'yicha sizning fikringiz?

10-bob. BUXORO ARXITEKTURASI TARIXI

10.1. Umumiy ma'lumotlar

Buxoro qadimgi va me'moriy jihatdan beqiyos shaharlardan biridir. 1997-yilda uning 2500 yillik yubileyi nishonlandi.

Buxoro zardushtiyilar davrida Buxxor – «ilmlar markazi» sifatida mashhur bo'lgan. Islomiyat davrida u «Buxoroyi Sharif» deb ulug'langan, «Qubbatil islom» unvoni bilan sharaflangan. YUNESKO tomonidan Juhon madaniyat merosi xazinasiga kiritilgan. Buxoro zaminida Abu Nasr ibn Muhammad Farobi, Abu Ali ibn Sino, Abdullo Jafar Rudakiy, imom Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiy singari buyuk allommalar, jahonga mashhur ko'plab insonlarga beshik bo'lgan.


Buxoro Markaziy Osiyodagi Buyuk ipak yo'lida joylashgan va jahon madaniyatida, tarixida o'ziga xos qiyofasi, madaniy meros obyektlari,

axitektura yodgorliklari bilan ajralib turadigan eng qadimiy shaharlardan biridir. Buxoro shahri osmon ostidagi ulkan muzey, tirik kitobdir. Uzoq va buyuk ajdodlarimizning ko'plab avlodlari tomonidan o'ziga xos me'morchilik uslublarida barpo etilgan Buxoro shahri millatimiz iftixoridir. Ikki yarim ming yildan ko'proq vaqt ichida yaratilgan yaxlit arxitektura ansamblari Buxoro me'morchilik maktabining mevasidir.


Buxoro shahrining me'morchilik tarixi uning g'arb tomonidan sharq tomoniga qarab davom etadi. Shahar obidalari tarixi g'arbda Ark madaniy meros obyekti va Ismoil Somoniylar maqbarasidan boshlansa. Poyi Kalon me'moriy ansabli, savdo rastalari – «toq» va «tim» lar, Labi hovuz arxitekturaviy ansamblsi va boshqalar orqali borib Chor Minor madrasasiga taqaladi (*10.1–10.3 -rasmlar*).



10.1-rasm. Shahar devori ichida tarixiy shakllangan Buxoroning sxemasi (VIII – XIX asrlar)



10.2-rasm. XIX asr oxiri – XX asr boshida Registon maydonida monumental arxitektura yodgorliklarini joylashish sxemasi



10.3-rasm. Poi Kalon arxitekturaviy ansamblidan Labi hovuzgacha bo'lgan hududda tarixiy binolarning joylashish sxemasi

Buxoroning arxitekturaviy ansamblari yuz yilliklar, ming yilliklar davomida shakllangan bo'lib, ular yagona rejaviy va hajm-fazoviy kompozitsiya bilan bog'liqdir.

Milodning boshida poydevori qo'yilgan Ark qal'asi, IX asrda barpo etilishi boshlangan Somoniylar maqbarasi, XII asr va undan keyingi davrda yaratilgan Poyi Kalon. Labi hovuz me'moriy ansamblari va boshqa ko'plab monumental arxitektura mo'jizalari Buxoro arxitektura maktabining mahsuli bo'lib, binokorlik an'analarining yuksak namunasi sifatida umumjahon madaniy merosi deb tan olingan.

Buxoro me'morchilik maktabi XV – XVII asrlarga kelib o'tgan davrning eng ilg'or qurilish madaniyati an'analarini yanada rivojlantirgan. Ijodkor arxitektorlar, bilimdon binokorlar va muhandislar, qo'li gul ustalar tomonidan keng ko'lamdag'i shaharsozlik ishlari amalga oshirilgan. O'sha davrdagi Buxoro me'morchilik maktabi Markaziy Osiyoda yagona yetakchi kuch sifatida boshqa hududlar me'morchilik va binokorlik maktablarini rivojlantirishga ham katta xizmat qilgan. Buxoroning keyingi davr me'morchilik va binokorlik maktabi usta Shirin Murodov singari XX asrning yirik arxitektorlari tomonidan yanada rivojlantirilgan.

Buxoro shahrini tarixiy-me'moriy muzey-qo'riqxona deb e'lon qilinganligi haqiqatda ham bu yerda naqadar muhim arxitekturaviy inshootlar borligidan dalolat beradi. Buxoroda nafaqat qadimiy masjid, madrasa va maqbaralar, balki qadimiy reja asosida barpo etilgan qator turar-joylar va boshqa turdag'i inshootlar ham juda ko'pdir.

Buxoro viloyati hududida 660 ta madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ularda 997 ta arxitektura yodgorliklari ro'yxatga olingan Shu jumladan, Buxoro shahrida 264 ta madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ularning tarkibida 350 dan ortik arxitektura yodgorliklari bor. Yuqorida ko'rsatilgan 264 obyektdan 183 tasi jamoat, 81 tasi turar-joy binolaridir. Birgina Bahouddin Naqshbandiy madaniy meros obyektida 30 dan ortik arxitektura yodgorliklari mavjuddir.

Buxoro qit'aning o'rtaasida, okeanlardan uzoqlikda, dengiz sirtidan 226 m balandlikda joylashgan. Yog'ingarchilik juda kam bo'ladi. Iqlimi keskin va quruq, yoz fasli juda issiqdir. Iyu'l oyining

o'rtacha harorati 30°C dan yuqori bo'lsada, yozda haroratning 45°C dan yuqori bo'lgan kunlar ham kam emas.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov 2007-yil 13–14-iyul kunlari Buxoro viloyatiga tashrif buyurganlarida, shaharning o'ziga xos qiyofasini saqlab qolish, madaniy meros obyektlarini chuqurroq o'rganish, milliylikni va yozning jazirama issiqligini hisobga olgan holda zamonaviy binolar va inshootlar yaratish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Madaniy meros obyektlarini, arxitektura vodgorliklarini chuqurroq o'rganish hamda mahalliy me'morchilik va binokorlik maktabi an'analarini davom ettirish maqsadida shu yerning o'zida – Buxoroda oliy ma'lumotli arxitektor kadrlar tayyorlashni ham yo'lga qo'yishga e'tiborni qaratdilar. Shunga ko'ra 2008-yildan boshlab Buxoro texnologiya institutida avvaldan tayyorlanib kelinayotgan binokor muxandislar bilan bir qatorda, arxitektorlarni ham o'qishga qabul qilish yo'lga qo'yildi.

Buxoro yuqori shaharsozlik uslublariga ega, me'moriy dekor san'atiga boy, koshinkorlik ishlari sisfatli bajarilgan, ranglari tiniq, ko'rsatkichli arka va sferik gumbazlarining arxitekturaviy shakli va proporsiyalari uyg'unlashgan tarixiy yodgorliklarga serob shahardir. Me'morchilik va binokorlikning noyob ijod mahsullari (Ark madaniy me'ros obyekti, Ismoil Somoni me'moriy obidasi, Poyi Kalon, Labi hovuz arxitekturaviy ansamblari va boshqalar) ham shu yerdadir. Arxitekturaviy binolar va ansambllarga yagona badiiy ifoda hisoblangan ornamentlar qo'llanilgan; mozaika, mayolika va yo'nigan pishgan g'isht, turli xil naqshlar Buxoroning arxitektura yodgorliklariga chiroy va go'zallik baxsh etgan.

Buxoro me'morchiligi va shaharsozligining shakllanishi

Tarixiy manbaalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro shahri Zarafshon daryosining quyi irmoqlaridan birining (yozma tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Zarirudning) ikki qirg'og'ida shakllangan. Miloddan avval uchta alohida aholi punktlaridan iborat bo'lgan. Bulardan biri Buxoro, ikkinchisi Nevmichkak va uchinchisi Faroviz yoki Farobdo'zdir. Abdul Hasan Nishapurining

yozma ma'lumoti bo'yicha Buxoro shahri o'rashgan hudud joyi bilan botqoq, joyi bilan o'simliklar tig'iz joylashgan yer, joyi bilan daraxtzor bo'lgan.

Akademik A. R. Muhammadjonov rahbarligidagi ekspeditsiya tomondan shahar devorlarining qoldiqlarini 15,5 va 18,5 m chuqurlikda mavjud bo'lganligi aniqlangan. Bu esa, o'z navbatida Buxoro qadimda shahar tusini olganligi, mudofaa devori bilan o'ralganligi va hunarmandchilikning markazi bo'lganligidan guvohlik berishi ko'rsatib o'tilgan. Uning shakllanishi to'satdan emas, balki Zarafshon vodiysini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lganligi to'g'risida fikr yuritilgan.

Shahar shakllangandan 100 ming yil ilgari Buxoro vohasining Qoratog' etaklarida avvalgi ajododlarimiz yashaganligi tarixiy ma'lumotlarda keltirilgan. Akademik Y. G'ulomov rahbarligidagi ekspeditsiya ibtidoiy jamoa odamlari turgan joylarining ko'pchiliginini topib, ular tosh asri va neolit davriga (bundan 4 – 6 ming yil ilgari) mos kelishligini aniqlab bergan.

XX asrning 70 - yillarida akademik A. R. Muhammadjonov boshchiligidagi Buxoro arxeologik ekspeditsiyasining I. Axrorov rahbarlik qilgan ilmiy otryadi bevosita Buxoro shahri hududida olib borgan izlanishlari asosida bu yerda undan ham oldinroq yashagan ibtidoiy jamoa odamlarining kremliyidan yasalgan qurollarini (Zarafshonning quyi irmog'i – Shohrud arig'i qirg'oqlaridan) topgan. Bu daliliy ashyolar asosida shahar paydo bo'lmasdan avval, paleolit davrida (bundan 50–10 ming yil ilgari) hozirgi Buxoro shahri hududida aholi yashaganligi ko'rsatib o'tilgan.

VI asrda shahar so'g'dcha Numijgat deb, VII – VIII asrlarda Puxo, Buxo, Buge deb atalgan. Moziyda Buxoro So'g'dning tarkibiga kirgan va bu yerga ham makedoniyalik Iskandarning qo'shinlari yurish qilgan.

O'sha zamonlardayoq Buxoroda shaharsozlik madaniyat shakllangan. Ov san'ati tasvirlangan ajoyib devoriy sur'atlari (*10.4-rasm*) shahardan uncha uzoq bo'limgan (25 km atrofida) joydan – qadimiy Varaxsha qo'rg'onidan topilgan.



10.4-rasm. Varaxsha Saroy devoridagi tasvir (VII–VIII asr)

Akademik A. R. Muhammadjonov boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya olib borgan izlanishlari asosida nisbatan keyingi davrda (ilk o'rta asrdan boshlab XX asrgacha) shahar arkining shimoliy muhofaza devori sakkiz marta ta'mirlanganligi aniqlangan.

Eng tepe qatlama balandligi 1 m va eni 0,5 m atrofida bo'lgan paxsali terimdan ishlangan ta'mirlangan devor topilgan. Undan pastda balandligi 12 m, qalinligi asosda 2 m va ustki qismida 0,5 m bo'lgan g'ilof ko'rinishidagi, o'lchamlari 25–26 x 12 x 6 sm bo'lgan pishgan g'ishtdan bajarilgan devor terimi borligini aniqlangan.

Keyingi devor terimi o'lchamlari 20x12x3 sm bo'lgan pishgan va xom g'ishtlardan tayyorlangan. Bu qatlama devorning qalinligi 3,5 m ni tashkil etgan. Keyingi qatlama devor paxsa terimida bajarilgan. Devor bo'y lab yarim aylana ko'rishiida chiqib turgan minoralar bunyod etilgan. Undan keyingi qatlaman o'lchamlari 31–34 x 20–23 x 9–10 sm li paxsa va xom g'ishtdan ishlangan devor qoldiqlari topilgan. Navbatdagi devor qatlami VI – VII asr boshlariga tegishli. Bundan pastda undan ham erta davrga – 2500 yildan ham avval barpo etilgan devor qatlami mavjudligi to'g'risida arxeologik ekspeditsiya ma'lumot bergen.

Shahristonning shimoliy va janubiy muhofaza devorlarida olib borilgan arxeologik qazishmalar asosida, bu joylar miloddan avvalgi VI – V asrlarda qadimgi buxoroliklar (dehqonlar) tomonidan o'zlashtirilganligi aniqlangan. VI asrning ikkinchi yarmida (turk qabilasi boshlig'i Sheri Kishvar podshohligi davrida) qal'a devorlari ichida Arkdan ajratilgan holda ular alohida yashaganlarliklari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Shahristonning tarhi to'rtburchak shaklda, yer maydoni 35 ga ni tashkil etgan. Atrofi paxsa va o'lchamlari 32–50 x 19–20 x 9–11 sm ni tashkil etgan xom g'ishtdan aralash holda tiklangan devor bilan o'rалган. U davrda shahar uch qismga bo'lingan: ark, shahriston (ichki shahar) va rabot (shahar atrofi). Shahristonning mudofaa devorlari VIII asrning bosqlarigacha mavjud bo'lgan.


VII asrning ikkinchi yarmida Arab xalifaligi Markaziy Osiyoga. shu jumladan Buxoroga ham bostirib kirgan. Xalifalik hukmronligi davrida mahalliy yerliklar tomonidan norozilik qo'zg'oloni ham bo'lib turgan. Mulkiy tengsizlikni yo'qotishni talab qilib chiqqan ana shunday qo'zg'olonalardan biri Hoshim ibn Xakim boshchiligidagi oq choyshab bilan yopingan odamlar – Muqanna qo'zg'oloni tezda Maqsadi ko'pchilikka ma'qul bo'lgan Muqanna qo'zg'oloni tezda Markaziy Osiyo bo'ylab tarqalgan. 783-yilda arab qo'shinlari Muqanna qo'zg'oloni bostirib, uning boshlig'ini o'limga mahkum etganlar.

Arab askarlari Markaziy Osiyo shaharlarini bosib olgandan so'ng shahar markazidagi qal'a va uning old qismida istiqomat qilishgan. Yerli xalqlar shaharning arablar yo'q qismida joylashib, o'z kasbkorlarini davom ettirishlari natijasida shaharning bu qismi tezlik bilan rivojlangan va u shahriston deb atala boshlangan. So'ngra shaharning bu qismi ham qal'a devorlari bilan ishonchli qilib o'rala boshlangan.

Shaharlarning rejasi mahalliy joylarning tabiiy sharoitlariga qarab rivojlana borgan. Shuning uchun Buxoro, Samarkand, Xiva, Toshkent va boshqa tarixiy shaharlar rejasi bir-biriga o'xshamaydi. Shaharlarda saroylar, ma'muriy binolar markaziy maydonlarda (registonda) bunyod etilgan. Shaharlarning markaziy ko'chalar

shahar darvozalaridan boshlab bozorgacha davom etgan. Ko'chalar hunarmandlar joylashgan kasb nomi bilan yuritilgan. Yangi savdo binolari (tim, toq, chorsu), karvonsaroylar, omborxonalar paydo bo'la boshlagan. Shahar tashqarisi – rabotda boy va hukmdorlarning bog'u rog' va saroylari barpo etilgan.

Buxoro dastlab to'rtburchak devor bilan o'rالgan. Shaharning dastlab to'rt, keyinroq yetti darvozasi qurilgan. VIII asrda shahriston kengaytirilib, atrofi o'n bir darvozali devor bilan o'rab olingan (*10.5-rasm*).



10.5-rasm Buxoro qal'asi qoldiqlari «Talipoch» darvozasi bilan (2009-yilgi ta'mirdan avvalgi holat)

IX asrlarga kelib Markaziy Osiyoda mustaqil Somoniylar davlati shakllangan. Somoniylar davlati tarkibiga faqat ikki daryo oralig'i mamlakatigina (Movarounnahr) emas, balki Eron, Afg'oniston va ko'pgina boshqa mamlakatlar ham kirgan. Islom dini ajdodlarimizni yagona xudoga sig'inishga da'vat etgan.

O'sha asrda Ismoil Somoniy nomli donishmand tashabbusni o'z qo'liga olib, xalqni mustaqillik uchun olib borayotgan kurashidan oqilona foydalanib, xalifalikka bog'liq bo'limgan markazlashgan feodal davlati tuzgan. Buxoro shahri ilm, hunarmandchilik va savdoning yirik markaziga aylangan. IX – X asrlarda Buxoro Markaziy va Yaqin Osiyoda eng yirik iqtisodiy va madaniy shaharlardan biri bo'lgan.

Avval ko'rsatib o'tilganidek, o'sha davrda bu yerda Abu Nasr ibn Muhammad Farobi, Abu Ali ibn Sino, Abdullo Jafar Rudakiy

singari buyuk faylasuflar, yozuvchilar, jahonga mashhur olimlar yashab ijod qilganlar. Farobiy ensiklopedist olim, matematik, hakim, faylasuf, bastakor va kompozitor bo'lgan. Uning har qanday ijtimoiy tuzumda inson bosh ishlab chiqarish kuchidir degan qimmatli falsafiy fikrlari bor. Uyg'onish davrining dahosi, buyuk tabibi, donishmand va yirik olim sifatida tan olingen Abu Ali ibn Sino fikriga qo'shilib, Yevropadan chiqqan Mikelanjelo «boshqalarni qo'llab haq bo'lidan ko'ra adashmoq yaxshiroqdir» degan falsafiy fikrni bildirgan.

1220-yilda Chingizzon qo'shinlari Buxoroni bosib olgach, bu yerdagi boyliklar talon - taroj qilingan, ark vayronaga aylantirilgan. Chingizzondan roppa - rosa 700 yil keyin, 1920-yilda Ark qal'asi rus qo'shinlari tomonidan bosib olingen va asrlar davomida to'plangan katta boyliklar bu yerdan olib ketilgan.

XVI – XVIII asrlarda Buxoro arxitekturasi va shaharsozligi gullash davrini kechirgan. XVI asrning birinchi yarmida o'tmishning eng yaxshi an'analarini o'zida mujassam etgan noyob arxitektura inshootlari qad rostlagan. Qoraxoniylardan qolgan masjid o'rnila Juma masjidi – Masjidi Kalon (1514-yil), uning qarshisida Mir Arab madrasasi barpo etilgan.

XVI asrning 40-yillarida shahar devori qayta tiklangan. XVI asrning ikkinchi yarmida shaharga yangi hudud – Jo'ybor qo'shilgan. Chorsularda rasta, gumbaz (toqi), timlar paydo bo'lgan. Modarixon va Abdullaxon, Ko'kaldosh va Govkushon singari madrasalar va ularning ansamblari qurilgan. Buxoro atrofidagi Sumitan qishlog'ida Chor Bakr (1561–1563). Xinduvon qishlog'ida Bahouddin Naqshbandiy me'moriy ansamblari bunyod etilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoroda 12 mahalla, 360 dan ortiq guzar, 250 dan ortiq madrasa, 390 masjid, 150 ga yaqin karvonsaroy, 350 ta hovuz mavjud bo'lgan.

Buxoroning madaniy meros obyektlarini, arxitekturasi tarixini o'rganish yosh mutaxassislarni tarbiyalashda, ularni hayotga yo'llashda muhim ahamiyatga egadir. Quyida Buxoroning

betakror arxitektura yodgorliklari to'g'risida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Ular bilan tanishish talabalarning arxitektura borasidagi bilimlarni yanada mustahkamlashga yordam berishi tabiiydir.


10.2. Ark qal'asi

Eng ko'hna madaniy meros obyektlaridan biri Ark qal'asi (*10.6 – 10.10-rasmlar*) bo'lib, u qadimda Buxoro shahrining markazi hisoblangan. Buxoro arki milodning boshlarida qurila boshlanib. XVI asrda Shayboniylar sulolasi davrida ansambl holiga kelgan.

Ark qal'asining barpo etilishi Eron podshosi va turk ayolining farzandi Siyovush nomi bilan bog'liqdir. Ma'lumotlarda keltirilishicha, Siyovush Samarcand podshosi Afrosiyobdan yengilgach, shu yerda – Zarafshon daryosining quyi irmoqlaridan birining sohilida to'xtagan va shaharning yaratilishaga asos solgan. Siyovush Afrosiyob tomonidan o'ldirilganligidan keyin Buxoroning sharq darvozasi yonida ko'milgan degan rivoyatlar bor.

VII asrda Buxoro hokimi Bidun vayrona holiga kelgan arkni qayta tiklatgan. O'sha davrda ark oldida katta maydon - registon, uning atrofida savdogar va zodagonlarning yuzlab qo'rg'onlari bo'lган. Hokim va uning qarindoshlari qo'rg'oni yonida asosiy shahar – shahriston joylashgan.

Ko'plab me'moriy yodgorliklarni o'zida jamul-jam etgan ko'hna Ark qal'asi ko'p asrlar mobaynida amirlikning qarorgohi bo'lib kelgan. Bu yerda amir, uning bosh vazirlari, harbiy boshliqlar, amirning ko'p sonli xizmatchilari yashaganlar. Ark qal'asida hukumronlar uchun saroy, ko'rinishxona, masjid va turar-joy binolari barpo bunyod etilgan.



10.6-rasm. XIX asr oxirida Buxoro arkining umumiy ko'rinishi




10.7-rasm. Amirlik qulatilgan davrdagi Buxoro shahrining umumiy holati (1920-yil, sentabr)



1



2



3


10.8-rasm. Eng so'nggi restavratsiyadan avvalgi Buxoro Arkining umumiy ko'rinishi (1). 2-Ark darvozaxonasidan chap tomonni umumiy ko'rinishi; 3- Ark darvozaxonasi va o'ng tomonining umumiy ko'rinishi (1980-yil)



1



2



3

10.9-rasm. Buxoro Arkining mustaqillik davridagi ta'mirlashdan keyingi umumiv ko'rinishi (2007-yil). 1- Ark darvozaxonasi; 2-sharq tomonidagi qo'rg'on devori; 3 – janub tomonidagi devor



10. 10-rasm. Buxoro Arkidagi Turon zalining umumiy ko'rinishi

Ark qal'asi baland mustahkam peshtoq bilan ulug'langan. Registon maydonining salobati hokimiyatning buyukligini ko'rsatgan, uni bosib olish mumkin emaslik belgisini bildirgan. Uning devorlari tevaragida shahriston joylashgan. Shahristonni savdo-hunarmandchilik maskani – rabot qurshab turgan.

Ark qal'asida Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Farobi, Umar Xayyom singari ulug' insonlar yashab ijod qilganlar. Ark to'g'risida Abu Ali ibn Sino quyida keltirilgan fikrni bildirgan: «Men bu yerdagi kutubxonada shunday kitoblarni topdimki, ularni avval ko'rmaganman va umrimda boshqa ko'rmadim ham. Men ularni o'qidim va shundan keyin har bir olimning o'z fani bo'yicha o'rnini angladim. Mening oldimda fanlarning tubidagi shunday eshiklari ochildiki, men ularni tasavvur ham qilolmasdim. Arkdagi kitobxonaning keyingi taqdiri sir bo'lib qolgan. Kutubxona janglardan birida talab ketilgan bo'lsa ajab emas degan» ma'lumotlar bor.

Ark qal'asi to'g'risida birinchi yozuvlar Abu Baxr Narshaxiyning (899–939-yillar) «Buxoro tarixi» kitobida ham uchraydi. Buxoro podshosi Bidun bu qal'ani qurdi, ammo u tezda buzildi, yana yangidan qurdi, u yana buzildi. Shundan keyin uzoqni ko'ra biladigan dono kishilarni chaqiradi. Donishmandlar arkni katta ayiq yulduzi shaklida barpo etishni maslahat berdilar. Ark qal'asi ana shu shaklda quriladi, keyin esa u buzilmadi degan ma'lumotlar bor.

Ark qal'asi yer ustidagi katta balandlik, u balandligi 20 m cha bo'lgan tepalik ustiga qurilgan. Ark g'arbdan sharqqa cho'zilgan

noto'g'ri to'rtburchak shakliga ega. Janubi sharq burchagi bir oz kesilgan. U qadimiylar hamisha navqiron Buxoro shahrining g'arb tomonida joylashgan. Qal'a devorining uzunligi 789,6 m. balandligi 16–20 m, yer maydoni 3,96 ga ni tashkil etadi.

Ark qal'asi bir necha marta ta'mirlangan va qayta qurilgan. Ko'tarila boruvchi yo'l (pandus) orqali arkning g'arb tomonidan ulkan yog'och darvoza (XVI asr) orqali ichkariga kiriladi. Pandusning uzunligi 20 m ni tashkil etadi. Uning ikki yoni massiv toshli piramida bilan o'ralgan.

Ark qal'asi peshtoqining ikki tarafidagi burchaklardagi minorachalar – «guldastalar» konstruksiyasi va ular oralig'idagi uch qavatlari bino yaxshi saqlangan. Ark ichkarisiga olib kiradigan uzun dolon – yo'lakning chap devorida 12 ta va o'ng devorida 13 ta taxmon-tokcha joylashgan. Chap tomonidagi tokchalarning ba'zilarida zindonga kiradigan eshikchalar bor.

«Guldasta»lar tagida xavfli jinoyatchilar saqlanadigan zax va dim yerto'la – kanaxonalar bo'lgan. Dolonning o'ng tomonidagi o'rta tokchada afsonaviy qahramon Siyovush arvohiga Navro'z bayramlarida chiroq yoqilgan. Amir saysxonasiga (otxonasiga) ham shu yerdagi zinadan kirilgan (otxona mahbuslar joylashgan xonalar ustida bo'lgan).

Dolondan chiqaverishda to'pchi boshining mahkamasi, shu yerdagi ayvon tagidagi yerto'lada esa qynoqxona bo'lgan. Undan sal narida (g'arbiy burchakda) XVIII asrda peshayvonli Juma masjidi qurilgan. Masjid devorlarini ichki tomonidagi naqshlar orasiga qur'on oyatlaridan bitilgan. Peshayvon shipi murakkab girihi bilan bezatilgan.

Ark qal'asining shimoli-g'arb burchagida to'pchi boshining uyi joylashgan. Masjidning sharq tarafida oshxona, orqa tarafida zARBxona (oltin, kumush va chaqa tangalar zarb qiladigan xon) joylashgan. Zarbxonaning shimoli-sharqida zargarxona, janubida devonbegining mahkamasi va qushbegiga qarashli binolar bo'lgan (ba'zi binolar hozir ham bor). Juma masjididan boshlangan tor yo'lak qushbegi hovlisi orqali chorsuga tutashgan.

Chorsuning chap tomonida tosh yotqizilgan katta hovli-ko'rinishxona o'rnashgan. U yerda elchilar qabul qilingan va

amirlarning taxtga o'tirish marosimlari o'tkazilgan. Hovliga kiraverishdagi naqshli peshtoq 1605-yilda qurilgan. Hovlining uch quyosh tushar tomoni peshayvon bilan o'ralgan. Oldingi peshayvonda ikki qator naqshli ustunlar bo'lib, ularning qoshi pastdan yuqoriga yo'g'onlashib boruvchi muqarnaslar bilan bezatilgan. Nurota marmaridan qilingan taxt ana shu ayvondagi taxtiravon tagida turgan.

Hovlining janub tomonida Mehmonxonai Rahimxoniy va qorixona qurilgan (XVIII asr). Bu binolar tagida yerto'lalar bo'lib, ularda xazina saqlangan. Arkning g'arb tomonidagi hovlida mirzalar va xizmatchilar uchun ikki qavatli binolar qurilgan. Sal narida salomxona, undan sharq tomonda mehmonxonalar, mansabdorlarga qarashli boshqa binolar (miyon hovli) joylashgan. Janubroqda hammom, uning sharq tomonida kichkina masjid qurilgan. ular hozirgacha saqlangan.

Arkning markazida o'rda (amirning xotinlari turadigan uylar), shimolida qushbegi xotinlari turadigan uylar joylashgan. Hammomning sharqida duxtarxona – amir haramidagi qizlar uylari o'rashgan. Shimoli-sharqiy burchakda Chil duxtaron masjidi va Battol g'ozni mozori bo'lgan. Arkning sharqiy devori bo'ylab g'ulombachchalar (soqchilar) xonasi, janubi-sharqiy burchakda dorixona (o'q-dorilar xonalari) joylashgan. Hozirgi paytda bu binolarning taxminan 20 % saqlangan. Arkning g'arbiy devoridan boshqa hamma devorlari va ularning burchaklardagi minoralar buzilib ketgan. Ark ansambl mustaqillik yillarda so'nggi bor restavratsiya qilingan.

10.3. Ismoil Somoni maqbarasi

Markaziy Osiyo aholisiga islom dinini qabul qildirilishi, Somoniylar davrida uni davlat dini sifatida shakllanishi va mahalliy xalq uchun uni e'tiqodga aylantirilishi arxitekturada ham, binokorlikda ham o'z aksini topgan.

Ko'plab monumental binolar, diniy inshootlar, karvonsaroylar, jamoat binolari qurila boshlangan. Shaharlar va aholi punktlarida masjidlar, madrasalar barpo etilishi rivojlangan. Jome' masjidlar

oldida azon aytish uchun minoralar tiklangan. Turar-joy binolari qurish ishlari ham ma'lum tarzda rivoj topgan. Bu binolar qurilishida sinchli konstruksiyalar ishlatilgan. Bino va inshootlarning yog'och elementlari (ustun, eshik, shiftlar) o'ymakorlik, sir berish yo'llari bilan padozlangan.

Monumetal inshootlar barpo etishda avvallari xom g'ishtlar, keyinchalik esa pishgan g'ishtlar ishlatilgan. Binolar arxitekturasida gumbaz, ravoq va peshtoqli konstruksiyalar qo'llanila boshlagan. Bu konstruksiyalar, asosan ganch qorishmalari asosida pishgan g'ishtdan tayyorlangan. Gumbazimon tom yopma konstruksiyalaridan foydalanish juda ham rivojlangan.

O'sha davrdan hozirgacha saqlanib kelinayotgan katta ahamiyatga ega bo'lgan nodir va noyob inshootlardan – me'moriy yodgorliklardan biri bu Ismoil Somoni maqbarasidir (*10.11-rasm*).



10.11-rasm. IX – XII asrlarga mansub noyob arxitektura yodgorligi – Ismoil Somoni maqbarasining umumiyo ko'rinishi (2007-yil)

Agar Buxoro shahrining me'moriy yodgorliklarini o'rganmoqchi bo'lsangiz, ishni Ismoil Somoni maqbarasi (IX–XII asrlar) bilan tanishishdan boshlang desak xato bo'lmaydi. Ushbu maqbara Buxoro Arkining g'arb tomonida, undan uzoq bo'lmanan yerda joylashgan.

Ismoil Somoni maqbarasi jahon me'morchilik va binokorlik mактабларининг нойоб асари hisobланади. Tengi yo'q bu arxitekturaviy yodgorlikni arxitektorlar va binokorlar faxr bilan tilga oladilar, tarixchilar yaratilishini o'rganadilar, san'at ahli esa uning tasvirlarini turli xil buyumlarda sevib aks ettiradilar.

Ismoil Somoni maqbarasi IX asrda Buxoroda me'morchilik san'ati, binokorlik texnikasining naqadar yuksalganligini va rivojlanganligini ko'rsatadi. Ana o'sha davrdan boshlab binokorlikda yuqori sifatlari pishgan g'isht, albastri qorishmalar ishlatalig'an.


Ushbu nodir obidani tiklashgacha bo'lgan davrda Buxoroda matematik bilimlar, xususan geometriya juda yaxshi rivojlangan.

Professor M.Bulatov tomonidan uni barpo etishda qo'llanilgan handasa qoidalari va qonuniyatlarini o'rganish asosida doktorlik dissertatsiya yozilganligi ham bejiz emas. Hali inshootning o'rganilmagan qanchadan-qancha qirralari, qonuniyatları, qoidalari, qurilish usullari bor. Bu yog'i yoshlarga, kelajak mutaxassislarga havoladir.

Yuksak professional darajada barpo etilgan bu tarixiy yodgorlik o'sha davrdagi eng tajribali quruvchilarini, eng qobiliyatli me'morlarni loyihalash va qurilish usullari bilan qurollantirganligi, ularning bilim va malakalarini nechog'lik oshirganligi sir emas.

Ismoil Somoni maqbarasi markazlashma inshoot bo'lib, uning asosiy hajmini to'rt devori qo'tarilgan sari bilinar-bilinmas yengil qiyshaytirilgan kub va fazoviy gumbaz tashkil qiladi. Devor kvadratlari bilan gumbazni tutashtiruvchi konstruksiya inshootning o'ziga xos jihatlaridan hisoblanadi. Maqbaraning barcha fasadlari bir xilda bajarilgan. Devorlar ichkari va tashqi tomonidan bezakli qilib yuqori sifatlari pishgan g'ishtdan bejirim terilgan, qurilishda o'ymakorlik usullaridan ham foydalanilgan (*10.12-rasm*).

Dekorativ g'isht terimi inshootga yengillik ifodasini baxsh etgan. Kirish eshik proyomlari strelka shaklidagi arka ko'rinishida bajarilgan. Bu yechimlar, ayniqsa, strelkali arka va gumbazli tom



10.12-rasm. Ismoil Somoniy maqbarasi naqshli devorlarining elementlari
(tepada – arkali eshik joyi; pastda – inshoot tepasining o'ng burchagi)

konstruksiyalari, keyingi davrda nafaqat Buxoro me'morchiligidagi, balki butun Markaziy Osiyo me'morchiligidagi ham ko'p ishlataligani.

Zaruriyati tug'ilgan gumbazli yopmalarni ishlatishning ijobiy tomonlari ko'pdirlari. Ulardan biri shundan iboratki, o'sha davrda uzoq vaqtga chidaydigan konstruksiyalarning egilish qismlarida ham yaxshi ishlaydigan temirbetonga o'xshagan buyum va konstruksiyalar deyarli mavjud bo'limgan. Shu sababli ham tom yopma shunday ko'rinishda bajarilganki, u shakl bo'yicha bunyod etilgan har qanday konstruksiya asosan siqilishga ishlagan.

Natijada inshootlarning proyomlari ko'rsatkichli arka shaklida, tom yopmalari esa gumbaz shaklida g'isht terimidan mustahkam qilib tiklangan.

Boshqa tomondan, quruq va issiq iqlimli, quyoshning katta radiatsiyasi yerga tushadigan sharoitda gumbazli yechim samaralidir. Quyosh nuri gumbazli tomonning faqat qaysidir bir bo'lakchasiga tik tushib, o'sha qisminigina ko'p isitadi; shu vaqtda gumbazli yopmaning qolgan qismlariga radiatsiya tik tushmaydi va tom ko'p isimaydi. Gumbazli yopmaning uchinchi jihatni shundan iboratki, bunday sirdan issiqlik tez ketib, tom tezda sovuydi. Shamol esganda esa, bu jarayon yana ham intensivlashadi.

Ismoil Somoniy arxitekturaviy yodgorligi XI asrdan ortiq vaqt ichida yaxshi holda saqlanib qolgan. U jahon arxitekturasining takomillashgan asari, «Sharqning me'moriy durdonasi» degan nomlar bilan ham ataladi. Yodgorlik arablargacha bo'lgan davr an'anasi asosida bajarilgan bo'lsada, u nafaqat Buxoroda, balki Markaziy Osiyo me'morchiligidagi ham yangi stil, yangi shakl va yangi yechimlarni yaratishning keyingi taraqqiyotini aniqlab bergen.




1



2

10 13-rasm. Ismoil Somoniy maqbarasining to'rt devordan gumbuzga o tishdag'i sakkiz arkali g'ishili bezakdor konstruksiyasi (1-devor bo'ylab o'rnatilgan arka; 2-burchakda ishlangan arka)

Inshoot qabr vazifasini bajarganligi sababli, uning intereri uch pog'onalni (to'rtlik – to'rt devor, sakkizlik – devordan tomga o'tish qismi va gumbaz-tom ko'rinishdagi) bir xonali kvadrat shaklni shartlab bergan (10.13 – 10.14-rasmlar).



10.14-rasm. Ismoil Somoniy maqbarasining arkalar oralig'idagi bezakdog'ishtli konstruksiyasi (sakkiz arkali konstruksivاسining elementlari)

Binoning gumbazini o'rtasida yorug'lik tushishi va issiq havoning chiqib ketishi uchun gumbazcha bilan yopilgan baraban konstruksiya o'rnatilgan bo'lib, uning yon tomonlariga arkali proyomlar qo'yilgan. Inshoot devorlarining tashqi burchaklari naqshli ustunlardan, devorlar va kirish eshiklarining arkalari esa bezakli, jilo berilgan g'ishtlardan mohirona ishlangan. Gumbazli bino intereri bilan chuqurroq tanishilsa, uni yaratish san'ati oldingi vaqtlardan boshlanganligiga va an'anaga aylanganligiga ishonch

hosil qilinadi. Yodgorlikning arxitekturaviy tahlili uni Eron, Mesopotamiya me'morchiligi bilan genetik bog'liqlikda ekanligidan guvohlik beradi.

Bu inshootda bir necha tektonik yechimlar bir butunlikda, yaxlitlikda ishlab chiqilganligini inkor etib bo'lmaydi. Turar-joy va madaniy arxitektura asoslaridan ishonch bilan foydalanganlik ushu inshoot misolida Buxoro me'morchilik maktabining o'sha davrda yuksak darajada rivojlananligini ko'rsatib turibdi.

Demak, Ismoil Somoni maqbarasining hajm - samoviy va konstruktiv strukturasi undan keyin qurilgan gumbazli binolarning rivojlanishini aniqlab bergen. Me'moriy naqshlar, chiroyli jumjimador bezak elementlari, nihoyatda go'zal va bejirim badiiy ifodalar o'sha davrda g'isht terish san'atining gullab yashnaganligidan dalolat beradi. Maqbaradagi g'ishtlarning yuksak badiiy did bilan terilganligi uning jahon me'morchiligi ajoyib durdonalari silsilasidan o'rIN olishga asos yaratgan.

10.4. Minorai Kalon

Buxoroning belgisi hisoblangan Minorai Kalonning barpo etilish vaqtি va Rabot Malik karvonsaroyining qurilish davri Qoraxoniylar davriga to'g'ri keladi. Tarixdan ma'lumki, X asrning ikkinchi yarmida Somoniylarga qarshi turk g'ulomlaridan iborat harbiy boshliqlar ishtirokida fitna va qo'zg'olonlar boshlanib ketgan. Natijada 996-yilda turklar Buxoroda qo'zg'olon ko'targanlar va bu yerni egallaganlar. 999 yilda Nasr tomonidan shaharni egallab olinishi Movarounnahrda Qoraxoniylar hukmronligini o'rnatgan. Ular 1141 yilgacha davlat boshida turganlar.

Buxoroda 1127-yilda bunyod etilgan Minorai Kalon jahon me'morchiligining, me'moriy – muxandislik san'atining yuksak cho'qqiga chiqqan asarlaridan hisoblanadi (*10.15-rasm*). Keyinchalik bu yerda Poyi Kalon me'moriy ansamblı shakllangan (*10.16–10.18-rasmlar*).

Minorai Kalon Buxoro shahrining qiyofasini belgilab bergen va hozir ham u Buxoroning belgisidir. Minoraga noyob shakl berilgan


bo'lib, poypeshi qirrador, tanasi konussimon shaklda, yuqoriga qarab toraya boradi; muqarnasli qafasa bilan tugaydi. Balandligi 50 m (ba'zi adabiyotlarda 46 m, ba'zi manbalarda 47 m degan ma'lumotlar keltirilgan), devorlarini qalinligi 0,8–0,9 m, poydevor chuqurligi 10 m gacha ketgan. Poypesh qismida inshootning doira diametri 9 m ni tashkil etadi. Minorai ichidagi 105 pog'onadan iborat bo'lgan aylanma zina – rotonda orqali uning tepasiga chiqiladi. Minoraning tepasida ichidagi zinapoyani yoritish uchun 16 ravoqli darchalar o'rnatilgan, ular orqali atrofni kuzatish mumkin. Uning ustida esa bosqichma-bosqich chiqarilgan karniz ishlangan.



10.15-rasm. Naqshinkor tarzda 1127-yilda buniyod etilgan Minorai Kalonning bugungi umumiyy ko'rinishi



1



2

10.16-rasm. Poyi Kalon me moriy ansamblining (1). shu jumladan Minorai Kalon va Mir Arab madrasasining umumiyl ko 'rinishi, orqaroqda Toqi Zargaron undan keyinroqda Ulug'bek va Abdulazizxon madrasalari joylashgan (2)



10.17-rasm. Poyi Kalon me moriy ansamblining, shu jumladan Minorai Kalonning umumiyl ko'rinishi; orqaroqda Toqi Zargaron, undan keyin Ulug'bek (chap qo'lida) va Abdulazizxon (o'ng qo'lida) madrasalari joylashgan



10.18-rasm. Poyi Kalon me moriy ansamblini o'rta da Minorai Kalon.
orqada Ark qal'asi)

Minoraning o'zagi ham, bezagi ham chorsu g'ishtdan (27x27x4-5 sm) terilgan. Bezak g'ishtlar turli shakllarda yo'nilib, sirti silliq pardozlangan. Ustma-ust joylashgan turli xil geometrik shakldagi bejirim halqalar g'ishtin dandanalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarixiy va diniy mavzudagi kufiy yozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy rang sirkor halqa keyinchalik to'kilib ketgan.

Minorai Kalon Buxoro arxitektura yodgorliklari ansamblida markaziy o'rinni egallaydi.

Minorai Kalon qadimiy minoralar o'rtasida alohida o'ringa egadir. Ushbu noyob inshootdagi shakllarning o'zaro monandligi, mutanosibligi, geometrik uyg'unlik, ajoyib ko'rk va mahobatlilik unga chinakam go'zallik bag'ishlaydi. Puxta g'ishtlarga jilo berilib, mustahkam terilgan. Geometrik qoidalarga to'la rioya qilingan holda chiroqli va har tomonlama puxta ishlangan ushbu minora Buxoro me'morchilik matabining noyob asarlaridandir.

Kalon minorasi baland bo'lishiga qaramay o'tgan IX asr davomida ro'y bergen ko'plab yer silkinishlarga qarshilik ko'rsatib kelgan. U keyingi davrda dastlab 1924-yilda (tanasi va muqarnaslari) ta'mirlangan. Yer ostida qolib ketgan qismi 1960-yillarda ta'mirlangan. Ustuvorlik siri inshoot konstruksiyasining to'g'ri tanlanganligi, poydevor konstruksiyasi hamda g'isht terimining sifatliligi, zilzilbardosh yechim qabul qilinganligidadir.

Minora Kalon masjid bilan balandlikdagi o'tish joyi orqali tutashtirilgan. Minora poyida noyob me'moriy ansamblar – Masjidi Kalon, Mir Arab madrasasi hamda XX asrda tiklangan amir Olimxon madrasasi joylashgan. Ular barchasi birgalikda yaxlit Poyi Kalon me'moriy ansamblini tashkil etadi. Mir Arab madrasasining orqasida Toqi Zargaron (tillachilar bozori), uning yonida esa Ulug'bek hamda Abdulazizxon madrasalari salobat to'kib turibdi. Toqi Zargarondan janubga qarab shahar arxitektura yodgorliklarini joylashishi davom etgan.

Minorai Kalon inshooti masjid huzuridagi minora sifatida xizmat qilmagan, u kuzatuv minorasi vazifasini bajargan. Chingizxon lashkarlari va rus qo'shnulari hujumlaridan keyin ushbu inshoot turli yillarda joriy ta'mirlangan va restavratsiya qilingan.


Ismoil Somoniylari va Minorai Kalon arxitektura inshootlarini behuda «Sharqning me'moriy durdonalari» deyishmaydi. Ularning har ikkalasi ham takrorlanmas va noyob me'moriy obidalardir, eng yaxshi arxitektura va binokorlik san'atlaridandir.

Minorai Kalon buniyod etilgan davrda Rabot Malikda (hozir u joy Navoiy viloyatiga o'tgan) qurilgan karvonsaroy ham monumental arxitektura yodgorliklaridan biridir. Karvonsaroy inshooti bejirim, bezakli va naqshinkor yaratilgan. Uning old fasadida jilo berilgan yirik g'ishtlar ishlatilgan, devorlari puxta qilib terilgandir.

10.5. Mag'oki Attori masjidi me'morchiligi

Naqshinkor devorli inshootlardan yana biri Mag'oki Attori masjididir (10.19-rasm). U Minorai Kalondan sal keyinroq XII asrda qurilgan barpo etilgan, XIV asrda esa qayta tiklangan.

Mag'oki Attori masjidi uncha katta bo'limgan kvartal ichidagi inshoot hisoblanadi. U bino assimetrik qoidaga binoan tiklangan. Kirish eshigi arkasi hamda portal gumbazining shakli ham o'zgacha ishlangan.



10.19-rasm. Mag'oki Attori masjidining umumiy ko'rinishi

Masjidning dastlabki holatidan faqat bosh fasad arxitekturaviy elementlari bilan birga saqlangan. Devorlari kesilgan va kesilmagan,

o'yilgan va o'yilmagan g'ishtlardan, ularning to'plamidan bezakli qilib ishlangan. Inshootni barpo etishda kesilgan terrakotali plitkalar bilan to'idirilgan relyefli yechim qo'llanilgan. Arkaning kuchaytirilgan konstruksiyasi moviy sayqal holda ajratib ko'sratilgan, inshootga yozuvlar ham tushirilgan. Olti ustunli ko'p burchakli masjid intereriga bezak berilmagan.

Arxeologik qazishmalar asosida uning tagidan ganch oymakorligi qoldiqlari topilgan. Bu topilma pardoz ishlarida ganchkorlik usuli ishlatalilgan degan xulosaga olib kelgan.

Qoraxoniylar davlati yemirilgandan so'ng feodal-sadrlar hukumat boshiga kelganlar. Ular nafaqt yirik yerlar egalari, balki joy egalari ham bo'lganlar. 1219–1220-yillarda Markaziy Osiyoni, shu jumladan 1220-yilda Buxoroni ham Chingizxon lashkarlari ishg'ol qilganlar. Yerli xalqning mardona qarshiligiga qaramay shahar boshqaruvি qo'ldan berib qo'yilgan. Chingizxonga qarshi 1238-yilda Mahmud Tarobiy boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tarilgan, ammo bu qo'zg'olon tezda bostirib yuborilgan. Mo'g'ul bosqinchilarining Markaziy Osiyoga bostirib kirishi oqibatida (1219 – 1224-yillarda) bu yerda ham ko'plab me'morchilik obidalari yakson qilingan. Buxoro shahri yoqib yuborilgan, arxitektura va shaharsozlikning rivojlanishi deyarli to'xtab qolgan.

Buyuk sarkarda Amir Temur armiyasi mo'g'ul bosqinchilarini bu yurtdan chiqarib yuborgan. XIV asrda Amir Temur bobomiz buyuk davlat barpo etadi. Samarqand shahri buyuk davlatning poytaxtiga aylantiriladi. 1370-yildan e'tiboran Buxoro Amir Temurning buyuk davlati tarkibiga kiradi va diniy markaz bo'lib qoladi.

Amir Temur davrida Movarounnahr me'morchiligidagi koshinkorlik ishlari qo'llanila boshlaydi. Koshinkorli maqbaralar qurish rivoj topgan. Koshinkorlik bino va inshootlarni chiroyli bo'lishiga, ularni atrof-muhit bilan uyg'unlashishiga, namgarchilikka chidamli bo'lishiga olib kelgan.

10.6. Chashma Ayub maqbarasi

Chashma Ayub maqbarasi Amir Temur farmoyishi bilan 1379-yilda qurilgan (*10.20-rasm*). U hozirgi Somoniylar parki hududida, bog'ning shimoliy tomonida joylashgan.



10.20-rasm Chashma Ayub maqbarasi


Maqbaraning eng qadimgi qismi kvadrat tarhdagi ($4,5 \times 4,5$ m) go'rxona bo'lib, ziyoratchilar uchun o'z vaqtida ikki yonida ikkita eshigi ham bo'lgan. Old tomoniga toqli bino ($4,5 \times 4,5$ m) tutashtirilgan, u maqbaraga peshtoq bo'lib xizmat qilgan. Go'rxona qo'sh gumbaz, peshtoq va kichik gumbaz bilan qoplangan, uning ostida Chashma Ayub nomli payg'ambarga atalgan muqaddas quduq bor, binoning nomi ham shundan kelib chiqqan.

Keyinchalik maqbaraga taqab gumbazli zal, burchaklarida minorali dahliz qurilgan. Shunday qilib, maqbara g'arbdan sharqqa tomon cho'zilgan, u to'g'ri to'rtburchak shakliga (19×26 m) kelib, binoning qadimgi qismi ichkarida qolgan. To'rt binodan iborat maqbaraning har binosi gumbaz bilan qoplangan, ular bir-biriga o'xshamaydi.

Inshoot devorlar bilan o'rالgan va Xorazm me'morchiligi an'anasi – konussimon gumbaz bilan yopilgan bir necha xonalardan iborat bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklida ishlangan.

10.7. Sayfiddin Boxarzi va Buyan Qulixon maqbaralari

Temuriylar davriga mansub Buxorodagi me'moriy yodgorliklar qatoriga Sayfiddin Boxarzi va Buyan Qulixon maqbaralari ham kiradi.



10.21-rasm Sayfiddin Boxarzi maqbarasi

Sayfiddin Boxarzi Chingizxon lashkarlari tomonidan vayron etilgan xalqning sevimli masjid va madrasalarini saqlashga buyuk hissa qo'shgan insonlardandir. 1261-yilda Sayfiddin Boxarzining o'limidan so'ng diniy idora uning nomini muqaddas deb e'lon qilgan. Shundan so'ng Fatxobod qishloqchasida uning qabri ustida xonaqoh qurilgan. XIII – XIV asrlarda Sayfiddin Boxarzi - «jahon shayxi» qabri ustiga maqbara buniyod etilgan (10.21-rasm). Uning ulkan peshtoqi keyinroq tiklangan.

Shaklining ulkanligi, konstruksiyalarining kattaligi bilan Sayfiddin Boxarzi yodgorligi e'tiborga sazovordir. Bu inshoot X

asrda qurilgan Somoniylar maqbarasi bilan solishtirish imkoniyatini berib, Buxoro arxitekturasining evolutsiyasini belgilab bergen.



10.22-rasm. O'ziga xos peshtoq va arkaga ega bo'lgan
Buyan Qulixon maqbarasi

Somoniylar maqbarasiga o'xshab faqat maqbara emas, balki u ham daxmaxona, ham ziyoratxonalardan tashkil topgan. Demak, bu maqbaraning rejasi bir muncha murakkablashgan. Xonalarning ustida ikkita gumbazning yaratilishi maqbara binosi shakli va kesimini aniqlab bergen. Devorlarning ichki va tashqi tomonlarida bezaklar, naqshlar bo'lmasligi, ushbu inshootning yana bir farqli jihatidir. Shunga qaramasdan inshoot e'tiborga loyiq darajada puxta ishlangan.


Konstruktiv-stalaktitli parus konstruksiyasi kvadrat rejada olti va sakkiz qirrali yechimlarga ustalik bilan o'tish imkoniyatini yaratgan.

Sayfiddin Boxarzi maqbarasiga vaqt o'z ta'sirini ko'rsatgan, yuk ko'taruvchi devorlar asta-sekin yemirila boshlagan. 1976 yilgi zilzila o'z ta'sirini kuchliroq gumbazlarga ko'rsatgan, ular sezilarli darajada shikastlangan. Biroq buxorolik restavratorlar ushbu inshootni asray olganlar.

Ushbu maqbaraning yaqinida mo'g'ul xoni – Buyan Qulixon maqbarasi joylashgan (10.22-rasm). Maqbara go'rxona va u bilan tor koridor orqali bog'langan ziyoratxonadan iborat. Bosh fasadda peshtoq ajralib turadi. Intererni pardozlash ishlarida terrakota ko'proq ishlatilgan.

10.8. Ulug'bek madrasasining arxitekturasi

Temuriylar davrida Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarqanddan tashqari Buxoro (1417-yil) va G'ijduvonda (1433-yil) ham madrasalar qurdirilgan (10.23–10.24-rasmlar). Demak, Temuriylar davrida Buxoroda nafaqat din, balki maorif ham rivoj topgan.



10.23-rasm. Buxoro shahridagi Ulug'bek madrasasining umumiy ko'rinishi

Buxoro shahridagi madrasa Mirzo Ulug'bek barpo ettirgan uch madrasaning eng qadimiysiadir. Ushbu madrasa to'g'ri to'rtburchak

shaklida, old eshigi serhasham peshtoqli ishlangan. Kiraverish – yo'lak (miyon xona) ning bir tomonida darsxona, ikkinchi tomonida masjid joylashgan. Miyonxonaning ikkinchi qavatida kutubxona faoliyat ko'rsatgan. Madrasa hovlisida yana ikkita peshtoq bo'lib, ularning har ikkala tomonida minoralar qurilgan. Peshtoqlar pastidan yuqorisigacha bejirim g'ishtchalar, guldor koshinlaradan ishlangan hoshiyador naqshlar bilan bezatilgan. Madrasaning fasadi kishini hayratga solarli darajada uyg'un, shakli vazmin va tik, proporsiyasi e'tiborni tortadigan, konstruksiyasi va bezagi o'ziga mosdir.

Koshin bezaklari uch davrga oid: qo'ng'ir-ko'k va tilla rang fonga ishlangan oq va havo rang bezaklar Ulug'bek davriga borib taqaladi; ba'zi joylari nim rang oq va moviy rang, ba'zi joylari tiniq, yorqin bezaklar XVI asrga, qora fonga ishlangan havo rang guldor mozaika XVII asrga tegishli. Madrasaning ichki va tashqi bezaklari rangini yo'qotmagan. U tez-tez ta'mirlanib turilgan, naqshlarida yulduzsimon shakllar ko'p tasvirlangan. Ayvon ustunlari zarhallangan bo'lib, Masjidi Kalon ustunlariga o'xshaydi. Madrasa eshiklariga «Bilim olish har bir muslimmon va muslimanining burchidir» degan so'zlar bitilgan.

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, madrasaning 80 ta xonasi bo'lgan. Unda o'qish muddati 15 yildan 20 yilgacha davom etgan, o'qish uchun yiliga 3,5 tillo haq to'lagan. O'qish kun bo'yи davom etgan, darslar erkin suhbat shaklida o'tkazilgan.



10.24 - rasm. G'ijduvondagi Ulug'bek madrasasining umumiy ko'rinishi
(1433-yilda qurilgan, so'nggi marta 2003-yilda ta'mirlangan)

G'ijduvonda bunyod etilgan madrasa nisbatan kichik va soddaroqdir. Madrasa bir qavatli, tarhi kvadrat bo'lib, hovli, masjid, darsxona va yotoqxonalardan iborat (*10.24-rasm*).

Binoning old tomonida peshtoq, uning yonlarida minoralar barpo etilgan. Eshik qarhisida g'arbiy devorga ravoq ishlangan, uning ichi koshin bilan bezatilgan. Hovlining ikki yonida beshtadan hujra bor. Ushbu madrasa oxirgi marta 2003-yilda ta'mirlangan.


Temuriylar davri me'morchiligidagi peshtoqilarining ikki yonboshida minoralar o'rnatish odad tusiga aylangan, keyinchalik bu yechimdan qaytilgan va peshtoqilar proporsya qoidasi bilan ishlangan.

10.9. Masjidi Kalon arxitekturasi


XVI asr boshida o'troq va ko'chmanchi qabilalardan tarkib topgan yangi dinastiya – Shayboniyxonlar Buxoroni ishg'ol qilganlar. XVI asrning ikkinchi yarmida poytaxt Samarqand bo'lib qolsada, Buxoro Qoraxoniylar davlatining siyosiy markaziga aylangan. Bu davrga kelib shahar devorini yana qayta qurish zaruriyati tug'ilgan. Shaharda hunarmandchilik va savdo rivojlangan. Buxoro ko'p davlatlar bilan savdo va diplomatik aloqalarni o'rnatgan. 1557-yilda erkin savdoga ruxsat so'rash uchun Buxoro vakillari Rossiyaga yuborilgan.

XVI – XVII asrlarda Buxoro me'morchiligi va binokorligi gullab yashnagan. Shaharning bosh rejasи o'zgargan. Shahar qayta qurilgan. Bugunga qadar saqlanib kelinayotgan madaniy meros obyektlari, inshootlari tiklangan. Noyob arxitekturaviy yodgorliklarning barpo etilishi Buxoroning o'ziga xos me'morchilik maktabi borligidan va o'sha davrda bu maktabning naqadar rivojlanib ketganligidan guvohlik beradi.


Ana shu rivojlangan davrning noyob arxitektura yodgorliklaridan biri **Masjidi Kalondir** (*10.25–10.29-rasmlar*).




10.25-rasm. *Masjidi Kalonning umumiy ko'rinishi* (1121-yilda burvod etilgan,
1514-yili qayta qurilgan)




10.26-rasm. *Masjidi Kalon naqshinkor peshtoqining umumiy ko'rinishi*



10.27-rasm. *Masjidi Kalon* darvozaxonasi gumbazining tuzilishi



10.28-rasm. *Masjidi Kalon* hovlisi to'ridagi naqshli peshtoq



10.29-rasm Masjidi Kalonning 228 gumbazli intereridan bir ko'rinish

Masjidi Kalon joyida dastlab 1121-yilda Juma masjidi bunyod etilgan. Vaqt o'tishi bilan u inshoot vayronaga aylangan. 1514-yilga kelib, bu inshoot Masjidi Kalon sifatida qayta qurilgan. 1997-yilda Buxoroning 2500 yillik yubileyi munosabati bilan Masjidi Kalon obdon restavratsiya qilindi.


Masjidi Kalonning hajmi va binokorlik bezakchiligi u darajada bo'lmasa-da, rejaviy masshtabligi jihatidan Samarqanddagi va Hirotdagi masjidlardan qolishmaydi. Bu inshoot qadimiyligi va yirikligi tomonidan Samarqanddagi Bibixonim masjididan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Masjidi Kalonning bosh fasadi sharq tomonga qaragan. Yirik va mozaika bilan pardozlangan masjid peshtoqi bir oz balandda joylashgan. Masjid hovlisiga bir necha pog'onadan iborat zina bilan kiriladi. Hovlining ikki tarafida ikkita moviy gumbaz joylashgan. To'g'ri to'rtburchak shaklga ega bo'lgan bu hovlining atrofi 228 gumbazdan iborat galareya bilan o'ralgan. Binoning ichi tantanali va sirlidir. U o'zida ko'plab arxitektura topilmalarini saqlab qolgan.

10.10. Mir Arab madrasasining arxitekturasi

Mir Arab madrasası 1520–1536-yillarda Mir Arab nomi bilan tanilgan Abdulla Yamaniy rahbarligida qurilgan (10.30–10.31-rasmlar).

Tarixdan ma'lumki, ko'p yuz yilliklar davomida Buxoroda islom dinini o'r ganuvchi ahli toliblar tarbiyalangan. Feodalizm davrida Buxoroda juda ko'p monumental inshootlar qurilgan. Faqat XVI asrda o'ndan ortiq madrasalar barpo etilgan. Ulardan bir qanchalari bizgacha saqlanib qolgan.



2

*10.30-rasm Mir Arab madrasasining umumiyo ko'rinishi (1)
va darvozaxona ravogining konstruksiyasi (2)*

Bu davrda Buxoroning va butun Markaziy Osiyoning siyosiy va ma`naviy hayotida islam dinining roli oshgan. Ko`pchilik dingga sig`inuvchi xizmatchilar yirik feodallardan bo`lgan. Ular o`zlarini ko`rsatish, borliklarini bildirish, nomlarini ko`rsatish va ulug`lash maqsadida masjid va madrasalar qurdirganlar.



10.31-rasm. Mir Arab madrasasining yuksak san`at darajasida koshinkorlik bilan pardozlangan naqshinkor fasadining bir qismi

Mir Arab madrasasi jahonga tanilgan va musulmon dunyosining yirik diniy oliy maktablaridan hisoblanadi. U madrasa inson tafakkurining mahsuli bo`lgan ajoyib arxitektura yodgorligidir. Mir Arab madrasasining peshtoqi Masjidi Kalonning portali bilan yagona o`qda joylashgan. Biroq madrasa bir oz balandroqda bунyod etilgan. Manbalarda keltirilgan ma`lumotlarga ko`ra, u joy bir oz past bo`lgan, shuning uchun bino asosi tuproq bilan to`ldirilib ko`tarilgan.

Rivoyat qilishlaricha, o`sha davrdagi Buxoro podshosi uch ming nafar erkak va ayollarni qul sifatida pullagan. Bundan tushgan mablag`ni u Abdulla Yamaniy degan mashhur kishiga madrasa barpo etish uchun bergen.

Rejalashtirilgan madrasa qurilishi uchun an'anaviy hajm-rejaviy yechim qabul qilingan. Fasadning o'rtasida bиринчи bo'lib ko'zga tashlanadigan yirik peshtоq joylashtirilgan. Ichki hovli burchaklari kesilgan to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uning atrofida ikki qavatli ayvonli hujralar joylashgan. Bosh fasad bo'ylab peshtоqning o'ng va chap qanotida ikkita gumbazli zal joylashgan. Bosh fasad burchaklarida vazmin kichik minora – «guldasta» tiklangan.

Ba'zi bir yechimlar bo'yicha masjid loyihasi mumtoz yechimlardan farq qiladi. Kiraverishda o'ng qo'lда darsxona, chap qo'lда go'rخона joylashgan. Daxmalar tantanavor tarzda qurilgan, zal parusli konstruksiyalar bilan yopilgan.

Boshqa madrasalar qurilishidan yana farqi shundaki, bu madrasadagi yashash xonalarining rejasi bir muncha takomillashgan. Hujralar gumbazli dahliz va xonalardan tashkil topgan. Yashash xonasida tokchalar yasalgan. Shu bilan birga xonalari sal qorong'i, torroq bo'lgan.

Ushbu madrasada yoshligida o'qigan, buxorolik taniqli tojik adibi Sadreddin Ayniy o'zining Buxoro kitobida xonalarni izohlab, odam ham, havo ham, yorug'lik ham bирgina eshikdan kiradi. o'chog'ning tutuni ham o'sha yerdan chiqadi, dahlizdagi o'choqda ovqat pishiriladi, o'tin qo'yiladi, yuz-qo'l yuviladi, degan misralarni keltiradi.

Madrasaning arxitekturaviy bezagi Samarqandda bunyod etilgan so'nggi inshootlarning jilosiga mos keladi. Fasadda o'ymakorlik mozaikaning terilishi, ornamentlarga mayin, rango rang bezak berilishi, yozuvlarning ko'pligi o'z tabiatiga ko'ra serjilo tasvir yaratadi. Hovlidagi bo'ylama va ko'ndalang devorlab bo'ylab joylashgan portallar ham go'zallik namunasi sifatida xizmat qiladi.

Me'morchilik va shaharsozlikda Mir Arab madrasasini Masjidi Kalon va Minorai Kalondan alohida holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu uchala inshoot birgalikda markaziy monumental kompozitsiyani tashkil etgan.

Amir Olimxon madrasasi

XX asr boshlarida Mir Arab madrasasi yonida, Poyi Kalon ansambl tarkibida Amir Olimxon madrasasi ham bunyod etilgan. Uning peshtoqli darvozasidan ichkariga kiriladi. Madrasa ikki qavatli, to'rtburchak shaklidagi hujralar bilan o'ralgan. Katta xonasini gumbazli tom bilan yopilgan.

10.11. Labi hovuz me'moriy ansamblı


XVII asrda qurib bitkazilgan Buxorodagi noyob va yirik me'moriy ansamblardan yana biri Labi hovuzdir. Ansambl tarkibiga kiruvchi Ko'kaldosh madrasasi (10.32 -rasm) 1568–1569- yillarda, Devonbegi xonaqosi (10.33–10.34-rasmlar) 1622-yilda qurib bitkazilgan. Me'moriy ansamblning markaziy elementini Labi hovuz tashkil etadi (10.35–10.36-rasmlar).



10.32-rasm. Labi hovuz arxitekturaviy ansamblidagi Ko'kaldosh madrasasining umumiy ko'rinishi



10.33-rasm. Labi hovuz arxitekturaviy ansamblidagi Nodir Devonbegi xonaqohining umumiy ko'rinishi



10.34-rasm. Labi hovuz arxitekturaviy ansamblidagi Nodir Devonbegi xonaqohining janubiy fasadi



10.35- rasm Labi hovuzning shimoliy tomonida joylashgan yozgi va qishki choyxonalarining umumiy ko'rinish



10.36-rasm Labi hovuzning atrofidagi yozgi choyxonaning umumiy ko'rinishi (hovuzning janubi - sharq burchagi)

Hovuzning eni 36 m, bo'yisi 45,5 m, chuqurligi 5 m. Hovuz devorlari sinchlar bilan mustahkamlanib, shag'al va tuproq bilan to'ldirilgan va shibbalangan. Marmardan nishablar ishlangan.

Hovuzning o'zini ansamblni birlashtiruvchi elementi sifatida barpo etilishi Markaziy Osiyo shahar arxitekturasining yutug'idir. Hozir hovuz atrofi tut daraxtlari, chinorlar bilan o'rالgan, u yerda zamonaliv choyxona, oshxona va boshqa hordiq chiqarish joylari yaratilgan.

Labi hovuzning nomi bo'yicha ba'zi rivoyatlar bor. Buxoro amirining vaziri – devonbegi xonaqohini qurib bitkazgandan keyin uning yaqinida bir ayloga tegishli bo'lgan yerda yirik suv hovuzi qurmoqchi bo'lib, undan joyni olishga rozilik so'raydi. Ammo vazir u ayoldan rad javobini oladi. Shundan so'ng vazir ayolning hovli ostidan kanal o'tkazadi. Suv uyning devorlarini yemira boshlaydi. Bu hodisadan keyin ayol hovlisini vazirga berishga majbur bo'ladi. Bu yerning nomi ana shu zo'ravonlikdan kelib chiqqan va u o'z vaqtida «Xavuzi bazo'r» (Zo'ravonlik hovuzi) deb atalgan deyiladi.


Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, ansamblning shimoli-sharq tomonida Ko'kaldosh madrasasi barpo etilgan (10.32-rasm). Uni Buxoro amirining vaziri Qulbobo Ko'kaldosh qurdirgan. Bu madrasa Labi hovuz ansamblidagi eng katta imorat va Buxorodagi eng katta madrasa hisoblanadi.

Ko'kaldosh madrasasi ochiq maydonda. to'g'ri to'rtburchak shaklida barpo etilgan. Arxitektorlar madrasaning uzoqdan ko'zga tashlanishini nazarda tutib, ikki qavat balandligida qator ravoqlar qurdirganlar. Madrasaning bosh fasadi peshtoqli bo'lib, u ansambl maydoniga qaratilgan. Peshtoqni bezatib turgan koshinlar bizgacha saqlanib qolinmagan. Madrasa peshtoqidagi eshikka girih va islimiyl naqshlar ishlangan. Mix qoqmay, «tirnoq» qilib mahkamlangan pilakchalardan yasalgan eshik yaxlit taxtadan tayyorlangandek ko'rindi.

Madrasa hovlisiga bir necha xonadan o'tib kiriladi. Shu tufayli gumbazlar konstruksiyasi yaqqol ajralib turadi. Madrasa hovli uzun. Hovli tomondagи ikki qatorli ravoqlar qatorini yuzma-yuz qilib solingan baland ayvonlar ajratib turadi. Har bir ravoqdan


alohida hujraga kiriladi. Hujralarning umumiy soni 162 ta ni tashkil etadi.

Bino old tomonining bezak naqshlarida sirkor koshin ishlatalgan. Ravoqlar tepasi va ba'zi darchalar panjaralarini bezatishda koshin ancha tejalgan. Yo'lak va zinalar tor. Biroq, e'tiborli tomoni shundan iboratki, asosiy ikkita darsxona va masjid, tashqaridan ichkariga kiraverishdagi dahliz gumbazlarining konstruksiyalari va bezagi nihoyatda chiroyli ishlangan. Umumlashtirib aytildigani bo'lsa. Ko'kaldosh madrasasi o'zbek klassik me'morchiligidagi qadimiy an'analarni o'zida yaxshi aks ettirgan tarixiy inshoot hisoblanadi.




10.37- rasm. 1622-yilda qurilgan Nodir Devonbegi madrasasining umumiy ko'rinishi

Katta hovuz va xonaqoh qurilgandan keyin Labi hovuz kompleksi shakllana boshlagan. Hovuzning burchaklari qirqilgan, u yirik tosh bloklardan barpo etilgan. Hovuz pastga qarab chuqurlashib va torayib borishi pog'onali (zinali) inshoot hisoblanadi. Hovuz qurilgandan keyin Nodir devonbegi madrasasi qurilgan (10.37–10.39-rasmlar).



10.38-rasm. Nodir Devonbegi darvozaxonasi gumbazining
noyob shakldagi paruslari va naqshlari



10.39-rasm. Nodir devonbegi madrasasi portalining bezaklari
(Sherdor madrasasida ham tasvirdagi ba'zi naqshlar uchraydi)

Nodir Devonbegi madrasasi fasadning proporsiyasi, bezatilishi, fantastik qush tasvirining tushirilishi kabi jilolar bilan e'tiborlidir. Fasadda, uning burchaklarida vazmin kichik minoralar tiklangan, hovli ichi an'anaviy yechimda ishlangan.

10.12. Xo'ja Zayniddin va Baland masjidlari me'morchiligi

Xo'ja Zayniddin masjidi 1555-yilga qadar qurilgan. Buning arxitekturasi misolida monumentallikka sig'inish va maqsadga muvofiqlikning birinchi marta uyg'unlashganini ko'rish mumkin. U markazlashma - gumbazli masjidning ikki tomoni tor ko'chaga. qolgan ikki tomoni turar-joylarga qarab joylashgan. Tomonlarni soyali peshayvon va mahallani suv bilan ta'minlash maqsadida barpo etilgan tosh hovuz bog'lab turadi. Masjidning naqadar darajada qimmat qurilishi, bejirimligi va atrofida joylashgan oddiy uylarning ko'rinishidan feedallar va kambag'al xalq orasidagi keskin farq yaqqol bilinib turgan.

Gumbazning o'rta qismi qavariq qovurg'alar bilan tor sektorlarga bo'lingan. Interer moviy-ko'k va sariq-qizil ranglar majmui yordamida ishlangan, geometrik figuralar bilan to'ldirilgan va bezatilgan. To'g'ri to'rtburchakli shakkarga bo'lingan panellar noyob tarzda bajarilgan. Bosh gumbazli xonaga ikki tarafdan ayvонни tutashtirilishi uning an'anaviyligini va feodal davri me'morchiligining qadimgi namunasidan kelib chiqqanligini bildirib turadi.

1555-yilda Buxoroning g'arb tomonida Masjidi Baland qurilgan. U masjid Buxoro me'morchiligida guzar, mahalla tipidagi yangilik namunasidir (*10.40-rasm*). Bu yerda katta devor sirtlari o'ylab topilgan an'anaviy proporsional qoidaga ko'ra qismlarga bo'lingan: panellar, ularning ustida takrorlanadigan katta va kichik pannolar, so'ngra friz ishlangan.



*10.40-rasm Masjidi Balandning peshayvon tomonidan umumiyo ko'rinishi
(devor sirtlari qismlarga bo'lingan va bezalgan)*

Panel qator joylashgan to'g'ri to'rtburchakli ramalardan tashkil topgan bo'lib, ularning har biri mozaikali rasmlar bilan to'ldirilgan (ba'zan yozuv uchun kichik tor maydon bilan, ba'zan rama ostida figurali teshiklar bilan). Ular o'zaro takrorlangan va shu orqali shakl va rasm bo'yicha xilma-xil bo'lib ko'ringan. Panel o'rtasida chuqurlashtirilib yulduzli figura ishlangan yerda jonli bezak vositalar mahorat bilan yaratilgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, undan keyingi davrda bunday usullarga me'morlar qayta-qayta murojaat qilinganlar.

10.13. Toq, tim va hammomlar arxitekturasi

Toqlar bosh magistral yo'llarning chorrahalarida barpo etilgan. Ularning konstruksiyasi oddiy bo'limgan. Toqlar hozirgi vaqtda birinchi («Toqi Sarrafon»), ikkinchi («Toqi Telpakfuro'shon») va uchinchi («Toqi Zargaron») gumbazlar deb ham yuritiladi.


Toqi Zargaronning (10.41-rasm) arkali bosh gumbazi kvadrat asos ustidagi sakkizlik konstruksiyasining ustida o'rnatilgan. U chorrahada nafaqat yo'l harakatini tartibga solgan, shuningdek, uning ichki qismida chuqurlik bo'yicha 36 ta murakkab bo'limgan ishlab chiqarish inventarlari joylashgan ustaxona va tilla do'konlar ish yuritgan. Bu esa noyob va nodir me'moriy yechimdir.



10.41-rasm. Toqi Zargaronning sharq tomondan umumiy ko'rinishi

«Toqi Zargaron» shahriston bozorining taxminan bosh chorrahasinga mos keladi. U o'zining nomini bugungacha saqlab kelgan. Ushbu inshoot qatnov yo'lining ustida bonyod etilgan, qadimgi shahristonning markazida bo'lgan.

«Toqi Zargaron»dan janubga boraverishda chap qo'lda Abdulloxon timi (10.42-rasm), undan keyin ro'parasida «Toqi Telpakfuro'shon» joylashgan. **Abdulloxon timi** (usti berk savdo rastasi) 1577-yilda bonyod etilgan. Tim kvadrat shaklida, devorlariga ikki tomondan ravoqli tokchalar joylashgan. O'rtadagi miyon saroy baland gumbaz bilan yopilgan. Gumbaz ostidagi ravoqli teshiklar yorug' tushishi uchun mo'ljallangan.



10.42-rasm. Abdulloxon timining umumiy ko'rinishi

O'tmishda bu timda shoyi va jun gazlama bilan savdo-sotiq qilingan. Inshoot faqat kun yorug'ligida faoliyat ko'rsatgan. Kunduzlari xonalarni yoritishni yaxshilash maqsadida gumbaz va qator gumbazchalar tepasidagi baraban shaklida arkali fonar va fonarchalar o'rnatilgan. Bosh gumbaz sakkizlik konstruksiyasi

ustida o'rnatilgan. Bosh gumbaz osti maydoni usti kichik gumbazlar yordamida yopilgan galareyalar bilan birlashib, yaxlit yopiq bozorni tashkil etgan. Yopiq bozorning ichi doim salqin va nisbatan qorong'i bo'lgan.

Toqi Zargarondan Toqi Telpakfuro'shonga boraverishda yo'lning o'ng va chap tomonlarida XX asr oxiri va XXI asr boshida bunyod etilgan zamonaviy shaxsiy mehmonxonalar joylashgan. Ularning me'moriy yechimlarida zamonaviylik bilan milliylik uyg'unlashib ketgan.


«Toqi Telpakfuro'shon» (bosh kiyimlar bilan savdo-sotiq qilindigan bozor) arxitektura yodgorligi uzun bo'limgan ko'cha ustidagi gumbazlari hamda serrahadagi (uch yo'l kesishgan oy) arkali bosh gumbazi bilan e'tiborga loyiq takrorlanmas inshootdir (10.43-rasm).

«Toqi Telpakfuro'shon»dan chiqqach, janub tomonga yurilsa chap tomonda XII asrda bunyod etilgan Mag'oki Attori masjidiga, sal oldinga yurilib o'ng tomonga burilsa. Govkushon arxitekturaviy ansambliga (masjid va madrasadan iborat) duch kelinadi. Mag'oki Attori masjidining shimol tomonida milliy va zamonaviy me'morchilik uslubida 2005-yillarda barpo etilgan «Osiyo» mehmonxonasi joylashgan.

Mag'oki Attori masjididan janub tomonda «Toqi Sarrafon» joylashgandir (10.44-rasm).




10.43-rasm. «Toqi Telpakfuro'shon»ning shimol tomonidan umumiy ko'rinishi



10.44 - rasm. O'zgacha gumbazli takrorlanmas «Toqi Sarrafon»ning umumiy ko'rinishi

«Toqi Sarrafon» gumbazi (pul almashtirish bozori) qadimiy Shohrud arig'i ustida bunyod etilgan (10.45–10.46-rasmlar).



10.45 - rasm. Ostidan Shohrud arig'i o'tgan «Toqi Sarrafon»ning uzoqdan ko'rinishi



10.46 - rasm. «Toqi Sarrafon» barabani gumbazining naqshinkor to'rli proyomlari bilan ostdan ko'rinishi

Buxoro arxitekturasining tarkibiy qismiga aylangan Shohrud arig'i (10-45-rasm) shahristonning janubiy qismi bo'ylab o'tkazilgan muhandislik inshootidir. Ariq o'rta asrlarda shaharni Registon bilan bog'lovchi magistral yo'l bo'ylab o'tgan. Hozir u ariq betonlangan va toshdan terilgan.

O'tgan 400 yildan ortiq vaqt ichida gumbazli ushbu «Toqi Sarrafon» qariyb 2 m qalinlikdagi tuproq bilan ko'milgan bo'lgan. Arxeolog V.M.Filimonov rahbarligida o'tkazilgan yer qazish ishlaridan keyin bu savdo bozori inshootining ajoyib qirralari ochilgan. Uning rejaviy va konstruktiv yechimlari o'ziga xos qilib ishlangandir. Inshootning shimoli-g'arb tomonidan ariqqa tushadigan yog'ochli konstruksiyasi va tushish joyida, ariq bo'yida katta bo'limgan hovuz borligi aniqlangan. Izlanishlar natijalari bu bozor hududida IX asr – Somoniylar davrida aholi yashaganligini ko'rsatgan. XIII asrning birinchi yarmida bu yerda yong'in sodir bo'lganligini ko'rsatuvchi daliliy ashyolar topilgan, yong'in Chingizxon bilan bog'liq degan ma'lumotlar bor. XIV – XV asrlarga kelib bu yerda pishgan g'ishtdan yirik inshoot barpo etilgandir.

«Toqi Sarrafon»dan sharq tomonga yurilsa o'ng qo'lda qadimiy hammom, to'g'riga yurilsa Labi hovuz chiqadi. Labi hovuz ansamblidan sharq tomonda, uzoqroqda yana bir nodir me'moriy obida – Chor minor madrasasi joylashgan.

Buxorodagi tim, toq, chorus deb atalgan savdo rastalari me'moriy jihatdan ratsional ishlangan bo'lib, bezak berilmasa ham salobatliligi va ichki qulayliligi bilan alohida ajralib turadi. Tabiiy yorug'lik tushishi uchun mo'ljallangan muhandislik yechimlari binolarni yoritish va mikroiqlimni me'yoriga keltirish imkoniyatlarini yaratgan.

Hammomlar

Shahar me'morchilik va binokorlik tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, **hammomlar** odatda bozorlar oldida qurilgan (yuqoridagi 10.-45-rasmda toqqa boraverishda chap qo'lda ana shunday hammomlardan bittasini kirish joyi ko'rsatilgan). Hozirgi vaqtida ham birinchi va ikkinchi toqlar yonidagi hammomlardan amalda foydalaniylmoqda.

Hammomlar ko'chadan salobatli ko'rinnmasada, ichki rejaviy va hajmiy yechimlari e'tiborni o'ziga tortadi. Hammomlarga bevosita ko'chadan kiriladi. Arxitekturasi bir - biriga juda o'xshash bo'lgan hammomlarning yechinish, choy ichib hordiq chiqarish uchun yog'och ustunli ulkan zallari bo'lgan. Zaldan zinapoyalar orqali pastga tushilib, hammomning asosiy xonalari kirladi.

Hammomning o'rtasida ubti gumbaz bilan yopilgan katta zali (massaj joyi) joylashgan. Katta zal atrofida yuvinish xonalari joylashtirilgan bo'lib, ular kichik gumbazlar bilan yopilgan. Xonalarda g'isht, tosh terib ishlangan hovuzak (bak) larda issiq va qaynoq suv saqlanadi, xonalardan issiq havo bilan isitilib turiladi. Xonalardan xonalarga o'tgan sayin issiqlik osha boradi.

XVI asrda qurilgan bu hammomlarning yechimi Buxoroning an'anaviy fuqarolik binolari sifatida katta qiziqish uyg'otgan. Unda o'rta asr sharqining hammomlariga o'xshash boy tuzilish yo'q, biroq injener-texnik yechim nuqtai nazaridan zamonanining yutuqlari aks ettirilgan.


10.14. Qo'sh madrasa arxitekturaviy ansamblı

Qo'sh madrasa ansamblı Registon maydonining janubi-g'arb tomonida joylashgan. Bir o'q bo'yicha ro'para turuvchi ikki inshoot yaratish usuli Buxoro me'morchiligi uchun xos jihatdir. Ulardan biri – Modarixon madrasasi (10.47-rasm) 1566–1567-yillarda, ikkinchi – Abdullaxon madrasasi (10.48-rasm) 1588–1590-yillarda barpo etilgan.



10.47 - rasm. Qo'sh madrasa me'moriy ansambdidagi Modarixon madrasasining umumiy ko'rinishi (1566–1567-yillar yillarda qurilgan)

Modarixon madrasasi g'arbga qaratib joylashtirilgan bo'lib, Abdullaxonning onasi sharafiga qurilgan. Madrasa tarhi trapetsiya shaklida. Bosh fasad katta peshtoq, ikki qavatli ayvon va burj-guldastalar bilan bezalgan. Peshtoq va burchaklardagi guldastalar sirkor g'ishtlar bilan pardozlangan. Toqilar orasidagi bag'allarga koshinlar bilan geometrik shakllar berilgan. Madrasaning boshqa yerlari bezaksiz ishlangan.



10.48 - rasm. Qo'sh madrasa madaniy meros obyekti dagi Abdullaxon madrasasining umumiy ko'rinishi (1) va ayvonining ko'rinishi (2)
(1588-1590-yillarda qurilgan)

Madrasa o'rtasida to'g'ri to'rburchak hovli, uning atrofida peshayvonli hujralar mavjud. Bino burchaklarida darsxonalar joylashtirilgan. Inshoot konstruksiyasi o'sha asr Buxoro me'mor chiligiga xos ravishda ishlangan, ya'ni devorning ikki chekkasi pishiq g'ishtdan terilib, o'rtasi qurilish chiqindilari bilan

to'ldirilgan. Ba'zi fikrlarga ko'ra, bu yechim inshootni abadiyligiga salbiy ta'sir qiladi.

O'lchamlari bilan kishini hayratga soladigan, uzoqdan qaraganda chiziqlari takomillashgan, bezaklarning tugallangan shakli va tiniqligi bilan yaqqol ko'zga tashlanadigan arxitekturaviy ansamblning qoyilmaqom uyg'unlashganligi me'morchilik va qurilish texnikasining yuqori darajaga erishganligidan guvohlik beradi.

XVI asr arxitekturaviy inshootlari qurilish muddatining qisqaligi, qurilish ishlari narxining pastligi va avvalgi davr inshootlariga nisbatan kam salobatli bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Abdullaxon madrasasining tuzilishi odatdagilardan ancha farq qiladi. Hovli atrofini ikki oshyonli hujralar o'rab turadi. Har ikki tomonda baland peshtoq joylashgan. Peshtoqlar orqali ichkari xonalar va xonaqohga o'tiladi. Peshtoq qanotlari va guldastalar sirkor koshinlar bilan pardozlangan. Darvozadan o'tib, ikki yoqdagi katta xonalar – darsxona va masjidga kiriladi. Madrasani barpo etishda murakkab gumbaz va bezaklar qo'llanilgan.

Ushbu arxitekturaviy ansambl inshootlarini badiiy bezatishda yangilik borligi sezilib turadi. Gulli qimmat mozaika o'rniiga standart mayolika plitkalar ishlatilgan. Rasmlar nisbatan ochiq va jonli chiqqan, ammo mozaika singari aniq bo'lmay tarqoqroq yaratilgan. Shunday bo'lsada, madrasani ko'rinishi buzilmagan, u uzoqdan yaxlit bir gul iziday ko'rinishi buzilmagan. Madrasa eshiklari katta mahorat bilan yaratilgan. Darvoza ingichka qilib kesilgan yog'och pilikchalardan mixsiz, naqshinkor qilib tayyorlangan.

Arxitekturada Qo'sh madrasani Buxoro me'morlarining iqtisodli, puxta va chiroyli inshootlar yaratish borasida olib borilgan izlanishlarining mevasi deb izohlashadi.


Barpo etilganiga besh asrdan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, hali ham chiziqlarining xushbichimligi, aniqligi, bezaklarning behad chiroyliligi, ochiq yuvilmaydigan ranglar ishlata olinganligi bilan ushbu ansambl kishini hayratga soladi.

Buxoroda barpo etilgan tarixiy inshootlar hajm jihatidan Samarqaddagi ba'zi arxitektura yodgorliklaridan (masalan, Bibixonim masjidi) nisbatan kichikroq o'lchamlarga ega bo'lsa-da, biroq badiiy

kompozitsiyasi jihatidan ulardan qolishmaydi. ba'zi sohada hatto ilgarilab ketgan. Chirovli bejirim yechimlar Mir Arab, Adullaxon va boshqa ko'plab madrasalarda ham uchraydi.

Namozgoh masjidisi

XVI asrda Namozgoh masjidining qurilishi to'la bitgach, u 10.49-rasmida tasvirlangan umumiy ko'rinishga kelgan.



10.49-rasm . Namozgoh masjidining umumiy ko'rinishi (1119-yilda qurilgan, m. XIV va XVI asrlarda qayta tiklangan)

Namozgoh masjidisi uzun g'isht devor ko'rinishida, markaziv mehrob bilan buniyod etilgan. Mehrob markazi g'isht va mayin shaklda o'yilgan terrakotali plitkalar bilan pardozlangan. XIV asrda pardozlangan devor sirti rangli terrakota bilan ishlangan. XVI asrda devor oldida baland peshtoq bilan e'tiborni o'ziga tortadigan arka – gumbazli ayvon va unga yopishtirilib minbar qurilgan.

Govkushon madrasasi

1562–1566-yillarda Buxoroning ikkinchi gumbazi – «Toqi Telpakfuro'shon» bozori yaqinida Govkushon madrasasi barpo etilgan (10.50-rasm). Madrasa besh burchakli tarhga, hujralari to'g'ri bo'limgan geometrik shaklda ishlangan. Uning burchaklarida


darsxona va masjid mavjud. Masjidning peshtoqi alohida ajralib turadi. Fasadni tiklashda proporsiyaga amal qilingan, biroq ko'chaga qaragan ayvonlarning o'lchamlari har xil, o'ziga xos yechimda ishlangan. Peshtoqning yonidagi ayvonlar kichik, o'rtadagi ayvonlar katta va chekkadagi ayvonlarning o'lchami o'rtacha qabul qilingan.



10.50-rasm. Govkushon madrasasining umumiy ko'rinishi

Xo'ja Kalon masjidi

1573–1579-yillarda Xo'ja Kalon masjidi qurilgan (10.51-rasm). Uning tashqi burchagida Minorai Kalonning badiiy kompozitsiyasini takrorlaydigan kichik minora ham tiklangan.




10.51-rasm. Xo'ja Kalon masjidi; 1573- 1579 yillarda qurilgan
(o'ng qo'lda – uzoqdan Minorai Kalon ko'rinib turibdi)

Abdulazizzon madrasasi

Abdulazizzon madrasasi feodal tuzumi davrining so'nggi monumental me'morchilik namunalaridandir. Madrasa 1652-yilda buniyod etilgan (*10.52-rasm*). Uni yaratishda ilgari qo'llanilgan uslub – bezak ishlatilgan.

Inshootning fasadi an'anaviy baland peshtoq, sakkiz burchakli gumbaz va ayvonlardan tashkil topgan. Keng to'rt ayvonli madrasa hovlisi atrofida ikki qavatli peshayvonli xonalar barpo etilgan. Inshootning kirish qismida miyon xona, ikkita darsxona, ichkarida chuqurlikda masjid, qolgan joylarda hujralar joylashtirilgan.

Madrasaga kiraverishda darvozaxonaning o'ng tomonida joylashgan xonada, yorug'lik nurining o'ziga xos qonuniyat bilan tarqalishi natijasida boshiga salsa o'rالgan afsonaviy bir qariyaning tasviri hozirgi vaqtida ham paydo bo'ladi va bu tasvir kishiga yaqqol ko'rinish turadi.



10.52-rasm. Abdulazizzon madrasasi (2007-yil, ta'mirlanish davrida)

Fazoviy geometrik ko'rinishiga ko'ra madrasa konstruksiyasi murakkab ishlangan, gumbaz osti stalaktitlari quyma ganchdan bajarilgan. Fasad an'anaviy yechimda, uning burchaklari parus shaklida bunyod etilgan. Peshtoqda sakkiz qirrali konstruksiya ustida gumbaz o'rnatilgan. Inshootning intereri chiroyligi pardozlangan. Madrasa bezaklari yuksak san'at darajasida mahorat bilan ishlangan.

Fasad mayda gulli qilib, mozaikadan ishlangan; motivi vazaga qo'yilgan guldastra. Katta peshtoq nafis va nodir koshin naqshlar bilan ziynatlangan. Islimiyy naqshlar qatorida afsonaviy jonivorlar ham tasvirlangan. Madrasa hujralari, ayniqsa, janubiy ayvon peshtoqi turli-tuman naqshlar bilan bezatilgan. Gumbaz shiftining ganchli muqarnaslari orasida islimiyy naqshlar va zarhallik bezagi ham bor. Inshootning devor va shiftlari yozuvlarga boy. Devorlarida tabiat manzaralari va imoratlar tasviri ham uchraydi. Naqshlar, asosan moviy rang bo'yoqlar bilan ishlangan. Bu inshootni Buxoro monumental arxitekturasining yetuk namunalaridan hisoblashadi. Ayni vaqtida Germaniya davlati homiyligida madrasa peshtoqi ta'mirlanmoqda, o'ziga xos mayin gulli naqshlar qayta tiklanmoqda.

Fayzobod masjidi

XVI asrda shaharning shimoli-sharq qismida Fayzobod masjidi (*10.53-rasm*) qurilgan. Binoning o'ziga xos me'moriy jihatlari mavjud. Masjidning o'rta qismida katta peshtoq joylashgan bo'lib, inshootning yon tomonlari pasaytirilgan va pog'ona shaklida uyg'unlashgan holda barpo etilgan.



10.53 -rasm. Fayzobod masjidining umumiy ko'rinishi (XVI asr)

10.15. Bahouddin Naqshbandiy madaniy meros obyekti

Buxoroning shimoli-g'arb tomonida, shahardan 10 km uzoqlikda Bahouddin Naqshbandiy madaniy meros obyekti barpo etilgan.

Bahouddin Naqshbandiy madaniy meros obyektini barpo etilishiga Abdulazizzon ibn Ubaydulloxon 1544-yilda asos solgan. Abdulazizzon buyrug'i bilan mozor tartibga solinib, ansambl shakliga keltirilgan va 1544–1545-yillarda kompleksning eng katta binosi – xonaqoh qurilgan. Kompleksning asosiy qismiga daxmalar, maqbara, ikkita masjid, sakxona, hovuz, quduq, minora, madrasa va Abdullaxon xonaqohi kiradi. Hozirgi vaqtga kelib uning safiga baland peshtoq – gumbazli yangi darvozaxonada, muzey, choyxona singari imoratlar qo'shilgan.

Kompleks kichik gumbazli chortoq darvozaxonadan boshlanadi (10.54-rasm). Darvozaxonadan o'tgach, o'ngda kichkina masjid, chap tomonda ziyoratchilar uchun turli binolar bo'lganligi ma'lum. Yo'l davomida chapda xonlar mozori – Daxmai shohon joylashgan.



10.54-rasm. Bahouddin Naqshbandiy madaniy meros obyektidagi xonaqohni yodgorlik darvozaxonasi tomonidan umumiy ko'rinishi (XVI asr)

Daxmai shohon to'rtburchak, balandligi 2,5 m. usti kulrang marmar bilan qoplangan. Unda ko'plab marmar o'ymakorligi, xattotlik san'atining ajoyib namunalar mavjud. Marmarlarga tokchalar, ustunchalar, sharaflar, sarv sur'ati va boshqa bezaklar o'yilgan; ba'zida naqshlar yozuvlar bilan aralash holda ham bajarilgan.

Daxmai shohondan o'tgach, yo'lak nafis bezatilgan peshtoqqa olib keladi. Peshtoqning eshididan o'tgach, o'ngda gumbazli maqbara bor (unga kim dafn qilinganligi ma'lum emas). Chapda – kiraverishda olti ustunli, oldi ayvonli oddiygina qilib qurilgan Muzaffarxon masjidi joylashgan. Masjid yoniga ikki ustunli Hakim qushbegi masjidi tushgan. Uning janubida naqshdor, shimolida naqshsiz ayvonlar bor.

Bahouddin daxmasi marmar qoplangan kattagina kvadrat supa bo'lib (10.55–10.56-rasmlar), atrofi chiroyli marmar panjara bilan o'ralgan. Undan sal nari, shimolda – tomonlari 9,5 m keladigan aylana zinali marmar hovuz joylashgan. Daxma bilan hovuz orasida quduq bo'lib, uning yonidagi chiroyli shiypon – sakxona yaratilgan bo'lib, u yerda ziyoratchilarga «muqaddas» suv ulashilgan.




10.55-rasm. Bahouddin Naqshbandiy daxmalarining shimol tomonida sakxona, uning orqasida qadimiylar ayvon, chap qo'lda masjid, o'ng qo'lda (sharqda) 2003-yilda bunyod etilgan naqshli ayvon joylashgan

Hakim qushbegi masjidining shimolida minora, undan narida ichki hovlidagi hovuzdan uch marta katta boshqa bir hovuz joylashgan. Hovlining tashqarisida (shimoli-g'arbda) to'rtburchak supa ustiga qurilgan eni 37 m, bo'yisi 40 m li xonaqoh mavjuddir (10.57-rasm).

Markazida atrofi peshtoq ravoqli ayvonlar bilan o'rالgan masjid, uning to'rida chorzamin uslubda ishlangan qirma naqshli mehrob bor. Imoratning har ikki tomonida simmetrik qurilgan ikki qavatli katta-kichik hujralar bo'lган.

Kompleks tarkibiga undan 500 m shimoli - sharqda joylashgan Qasri Orifon masjidi ham kiradi. U Bahouddinning onalari ziyoratgohi. U yerda masjid yonida pastroq qilib yaratilgan minora bor. Masjid uch tarafдан ayvon bilan o'rالgan, shifti naqsh tushirilgan hovuzaklik qilib ishlangan.



10.56-rasm. Bahouddin Naqshbandiyning daxmalari, orqasida (janubda)
2003-yilda bonyod etilgan naqshli ayvon



10.57-rasm. Bahouddin Naqshbandiy me'moriy obyektidagi xonaqoh (XVI asr)
va minoranining umumiy ko'rinishi

Bahouddin Naqshbandiy kompleksining tuzilishi o'sha davrda barpo etilgan boshqa qo'sh binoli simmetrik ansamblardan farq qiladi.

2003-yilda hukumatimiz tomonidan bu kompleks yanada obod etildi. Buxoro shahridan to ushbu kompleksgacha bo'lgan yo'l jahon andozasiga mos qilib qurildi. Ziyoratgohda ulkan majmua bunyod etildi. Kompleksning janub tomonida ulkan gumbazli darvozaxona tiklandi. Qadimgi darvozalar – Xoja Dilovar, Bobus salom asl holiga keltirildi. Bahouddin Naqshbandiyning qabrlarini sharq va janub tomonlarida shimol tarafdag'i qadimgi ayvonga uyg'unlashtirilib ulkan va chiroyli ayvonlar tiklandi. Bu ayvonlarning ustunlari nihoyatda go'zal, shiftga bajarilgan bezaklar o'zining badiyili va milliyigli, ko'r kamligi bilan kishini e'tiborini tortadi. Xonaqoh, masjid va madrasa binolari bejirim ta'mirlandi. Bahouddin Naqshbandiy va u kishining onalarini yodgorliklari yagona arxitekturaviy majmuuga aylantirildi. Boshqacha qilib aytganda, Qasri Orifonda qadimgi noyob bino va inshootlar kompleksi bilan uyg'unlashgan zamonaviy chiroyli arxitekturaviy kompleks barpo etildi.

10.16. Chor Bakr arxitekuraviy ansamblı

Buxoro shahrining g'arb tomonida, undan 5 km uzoqlikdajoylashgan Sumitan qishlog'ida Jo'ybari shayxlarining shahardan tashqaridagi nekropoli – Chor Bakr qurilgan (*10.58 -rasm*). Ziyoratgohning bosh kompleksi 1560 – 1569-yillarda barpo etilgan.


Kompleks uzoq vaqt shakllangan. Daxmalar, darvoza, hovli, yo'lak, ko'p sonli qabrlar usti inshootlari bunyod etilgan. Chor Bakr oxirgi marta Mustaqillik davrida restavratsiya qilindi.

Me'moriy kompleks negizini tashkil etgan xonaqoh (shimolda), madrasa (janubda) va namozgoh (g'arbda) orasidagi sahn supa tarzida. 1900-yilda u yerda katta bo'limgan minora bunyod etilgan.

Xonaqoh gumbazli xona (9x15,8 m) va peshtoqdan iborat. Yon fasadning qo'sh qavat ravoqlari va peshtoq jozibador ishlangan bo'lib, peshtoqning ikki qanoti guldastalar bilan ulug'ver ko'rindi.

Peshtoq bezagida koshindan terilgan yirik kufiy xatlar diqqatni jalg etadi. Gumbazning ostki konstruksiyasi ancha murakkab. Xonani ikki ravoq ko'ndalangiga bog'lab, gumbaz uchun asos bo'lgan.

Madrasa peshtoqi kengroq, fasadni deyarli egallagan. Peshtoq dahanasi uch ravoqqa bo'lingan. Darsxona chortoqli, o'rtasi gumbaz bilan berkitilgan. Madrasaning yon fasadlari qo'sh qavat ravoqlar qatorini takrorlaydi.



10.58-rasm Chor Bakr nekropoli bir qismi va gumbazining umumiy ko'rinishi
(chapda madrasa, o'ngda masjid; XVI asr)

Masjid va xonaqohning bosh fasadlarini peshtoq keng gumbaz bilan egallashi, yon tomonlari ikki qavatli ayvonlardan tashkil topishi shu xildagi binolar uchun an'anaviy yechim hisoblanmagan. Kufiy xatlar va mayda koshinkorli bezaklar mahorat bilan ishlangan. Gumbazning tashqi ko'rinishi salobatli. Masjid maydoni sahnining to'rida joylashgan.

Masjid va xonaqohning bosh zallari baraban shakldagi gumbazlar bilan yopilgan. Ularning intereri jonli ishlangan. O'zaro kesishgan arkalar va chatishib ketgan paruslar ustida derazachali barabanlar, ularning usti esa gumbaz bilan yopilgan (10.58-rasm).

XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrda Buxoroda iqtisodiy va siyosiy jihatdan tushkunlik yuzaga kela borgan. Bu davrlarda qurilishlar davom etsa-da, biroq me'morchilik san'ati sezilarli darajada to'xtab qolgan. Yaratilgan inshootlarning sifatlari badiiy va texnik jihatdan avvalgilarga nisbatan pasaygan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib Buxoro xonligi o'zining iqtisodiy va madaniy mavqeini yo'qota boshlagan. Mang'itlar vaqtida (1753–1920-yillar) Buxoro uchun tushkunlikka tushgan davr bo'lган. Bu davrda qurilish ishlari deyarli to'xtab qolgan, me'morchilik ham aytarli darajada rivojlanmagan.

10.17. Chor Minor madrasasi arxitekturasi

XIX asr boshlarida siyosiy jihatdan mustahkamlanib, Markaziy Osiyo yerlarida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tashkil topgan. Shu davrdan boshlab, monumental va ommaviy binolar barpo etish yana rivojiana boshlangan. Feodal davrining so'nggi namunaviy shahar qurilishi hisoblangan Xivada ko'plab saroy, madrasa, masjidlar qurilgan. Xivadagi Tosh hovli, Qo'qondagi Xudoyorxon o'rdasi, Samarqanddag'i amir saroylari qurilish uslubiga ko'ra o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turgan. Buxoroda yangi turdag'i inshootlar, shu jumladan Chor-Minor (10.59-rasm) barpo etilgan. U o'zining to'rt ko'r kam gumbazi bilan boshqa obidalardan ajralib turadi.

Chor Minor madrasasini turkman Xalifa Niyozqul 1807-yilda qurdirgan. To'g'ri to'rtburchakli hovli atrofida bir qavatli ustun



10.59-rasm Buxorodagi Chor minor madrasasining kirish qismi (1807-yil)

ayvonli xonalar joylashtirilgan. Janubi-g'arb tomonidagi burchakda sinchli masjid qavatlari bo'lib, pastki qavati madrasaga kirish uchun yo'lak vazifasini bajarsa, tepadagi ikkinchi qavat kutubxona bo'lган.

Madrasaga kirish qismi noyob me'moriy yechimda ishlangan. Markazlashma yechim, arka gumbazli imorat, uning to'rt burchagida moviy gumbazli to'rt minora bunyod etilgan (nomi ham shundan olingan).

Minoralarning yuqori qismi geometrik shaklda koshin bilan naqshlangan va tepasi gumbazcha shaklda yakunlanib, koshin bilan qoplangan.

Chor Minor sodda arxitekturasi hamda ajoyib kompozitsiyasi bilan XIX asr me'morchiligidagi original ko'rinishiga egadir.

Abduraxmon A'lam madrasasi

Shahar markazida, «Toqi Telpakfuro'shon» bilan «Toqi Sarrafon» orasida, g'arb tomonda Xo'ja Kalon masjidining ro'parasida XIX asrda Abduraxmon A'lam madrasasi qurilgan (10.60-rasm).



10.60-rasm. Hovuz oldidagi Abduraxmon A'lam madrasasi (XIX asr)


O'sha davrda bu kompleksga «Toqi Sarrafon»dan g'arbga tomon boraverishda chap qo'lda Olimxon karvonsaroyi ham barpo etilgan.

Registon inshootlaridan ayvonli masjid, minora va hovuzni tarkibiga olgan me'moriy obyektlardan biri Buxorodagi Bolohovuz majmuasidir.


10.18. Bolohovuz masjidining arxitekturasi

Bolohovuz masjidi XVIII – XX asrlarda barpo etilgan (10.61–10.62-rasmlar). XVIII asrda hovuz oldida tomonlar o'lchами 11,5 m ni tashkil etgan gumbazli masjid qurilgan. Uning ro'parasida XX asrda buxorolik usta Qurbon Yo'ldoshev baland ayvon soldirgan, usta Shirin Murodov minora tiklagan. Nafis naqshlar ayvon shiftining avaylab saqlab kelinishini ta'minlagan. Masjid

baland ayvonli, naqshlar bilan ziynatlangan, shifti pog'ona-pog'ona muqarnaslarga ega.



10.61-rasm Bolohovuz masjidining umumiy ko'rinishi



10.62-rasm. Bolohovuz masjidi ayvonining me moriy konstruktiv va badiiy elementlari (1); 2-kichik minora

Bolahavuz masjidi qalqonsimon va murakkab relyeeflar bilan bezatilgan. Mehrobga nafis naqshlar ishlangan. Ganch shuvoqli peshtoq masjidning sharq tomonida bo'lib, bo'g'ot osti ganch naqsh bilan bezatilgan, shifti qandilli. Peshtoqning yon tomonlariga ikki qavatli baland tokchali hujralar qurilgan. Bolohovuz masjidining 20 ta baland va naqshinkor ingichka yog' och ustunli ayvoni kishini hayratga soladi. Ayvonning yon devorlaridagi tokchalari naqshlar bilan bezatilgan. Bu yerda juma namozi o'qilgan, shuning uchun ham masjidning ayvoni va qandil osilgan shipi, ayniqsa, serhasham ishlangan. Ansambl o'zining badiiy nafosati bilan Registon maydonining tarkibiy qismiga aylangan.

10.19. Sitorai Mohi Xosa me'moriy kompleksi

Buxoro shahrining shimoliy tomonida Sitorai Mohi Xosa madaniy meros obyekti – amirlikning yozgi qarorgohi, saroyi barpo etilgan (*10.63–10.68-rasmlar*).

Sitorai Mohi Xosa mang'itlar sulolasining saroyidir. Uning dastlabki imoratlari amir Nasrullo hukmronligi davri (1826–1860-yillar) qurilgan. Biroq bu yerda saroy va xushmanzara bog' barpo etish amir Abdulahadxon hukmronligi davrida (1885–1910-yillar) boshlangan. Amir Olimxon hukmronligi davrida (1910–1920-yillar) yangi saroy tiklangan va shu davrdan boshlab saroy kompleksi yangi va eski saroya ajratilgan.


Eski saroy uch hovlidan va ko'pgina xonalardan iborat ansamblidir. Bu yerdagi eng eski xona amir Muzaffarxon mehmonxonasi (1860–1885-yillar) keng va baland zal, ikki tomonidagi boloxonalni ayvonlar, evropacha eshik va derazalar bilan ajralib turadi. Mehmonxonaning devoriy rasmlari va ranglarida motivlar uyg'unlashtirilgan.

Uch qismga bo'lingan kvadrat xonani tashkil etuvchi Abdulahadxon zali boshqacharoq ishlangan. Bir-biriga ro'para joylashtirilgan va bir xilda bezatilgan ikkita zal o'rtadagi baland supa orqali birlashtirilgan. Supaning g'arb tomonida taxt o'rnatilgan. Abdulahadxon va Muzaffarxon zallarining badiiy bezaklarida o'xshashlik tomonlari ham ko'p.

Eski Sitorai Mohi Xosanining sharq tomonida amir Olimxon hukmronligi davrida qurilgan bosh qarorgoh alohida me'moriy ahamiyatga ega. Unga koshin va rangli shisha bilan bezatilgan tantanavor peshtoq – muhtasham toqli darvoza orqali kiriladi (10.63-rasm).



10.63-rasm. Sitorai Mohi Xosa me moriy kompleksining darvozaxonasi



10.64 -rasm. Sitorai Mohi Xosa zaliga kiraverishdagi xonaning intereri



10.65-rasm. Sitorai Mohi Xosa birinchi binosi zalining me'moriy-badiiy yechimi


Bu kompleksni tiklashdan avval Buxoroning eng yaxshi ustalari Rossiyaga rus me'morlarining tajribasini o'rganish uchun yuborilgan. Shundan keyin Xoja Hofiz rahbarligidagi buxorolik ustalar kuchi bilan hovlinig janub tomonida ansamblning birinchi binosini tiklashga kirishgan. Qurilish rus injenerlarinig nazoratida

bo'lgan. Bosh binoni barpo etish jarayonda Yevropa bilan Isfagan saroylari arxitekturasi va Buxoroning boy turar-joylari binolarining me'moriy yechimlaridan foydalanilgan.


Bino chiroyli me'moriy yechimga ega, biroq sintez ishi sohasida uncha tajribaga ega bo'lman ustalar uchun murakkab bo'lganligi sababli, binodagi tron zali antresol va arkalar bilan tig'izlashtirib yuborilgan.

Ushbu binoga kiraverishda eshikning ikki tarafiga o'sha vaqtida hali unchalik tajribaga ega bo'lman nuratolik ustalar tomonidan marmardan tayyorlangan sherning haykali o'rnatilgan. Biroq keyinchalik katta tajriba ega bo'lgan o'sha ustalar kompleksdag'i hovuzning suv tushishi uchun mo'ljallangan marmar novalarni kam-ko'stsiz taylorlab bergenlar.

Hovlining ikkinchi tomoniga, bu bino bilan yonma-yon, unga tik qilib g'arb tomonda 1912–1914-yillarda katta badiiy ahamiyaqiga ega bo'lgan noyob Oq zal qurilgan (10.66–10.67-rasmlar). Bu zal va uning dahlizi buxorolik ustalar tomonidan milliy uslubda ko'rakm ishlangan. Oq zal ganchkorlik va ganch o'ymakorligi san'atining eng so'nggi yutuqlari asosida usta Shirin Murodov rahbarligida 25–30 ta qo'li gul usta tomonidan ikki yil davomida ajoyib qilib ishlangan.



10.66-rasm Sitorai Mohi Xosa madaniy meros obyektining asosiy ichki hovlisi atrofida qurilgan milliy tusdagi «Oq zal» (chapda) va yevropacha uslubdagi peshayvonli bino (o ngda)



10.67-rasm Sitorai Mohi Xosa. Oq zalning naqshlangan intereri

Bino ichi noyob me'moriy yechimga ega. Oq zalning intererini bezatishda o'sha davrgacha ma'lum bo'lgan eng yaxshi tajribalar o'z aksini topgan. Devor va shiftlarda panno ko'rinishidagi oynalar ustida ishlangan ganchkorlik mahsuli kishi ko'zini qamashtirib yuboradi. Ishlatilgan oynalar devor va shiftda bejirim bezaklar ostidagi fon vazifasini bajargan.

Yangi saroy P shaklida bunyod etilgan. Saroy rejasida, bezak va jihozlarda sharq va yevropacha uslublar ma'lum darajada uyg'unlashgan. 1917–1918-yillarda zinali hovuz barpo etilgan, u ansambl me'morchiligidagi katta ahamiyat kasb etgan.

1917–1918-yillarda hovlining uchinchi – shimol tomonida basseyн oldida yevropacha uslubda ishlangan peshayvonli bino qurilgan. Demak, me'moriy kompleksni barpo yetishda aralash. milliy va evropacha usullardan foydalanilgan.

Sitorai Mohi Xosaga kiraverishda tashqi hovli, uning janubiy-g'arbiy tomonida kichik hovlili xazinaxona, janubiy-sharqdagi qarama-qarshi burchakda yozgi dam olish joyiga kiriladigan darvoza bor. Yozgi dam olish joyi bog'ning to'rida bo'lib (10.68-rasm), bino

kichik hovli va hovuzchaga ega. Dam olish joyining atrofi baland imorat bilan o'ralgan bo'lgan. Bino assimetrik yechimda milliy tusda chiroyli ishlab chiqilgan.



10.68-rasm. Sitorai Mohi Yosa Milliy va yevropacha tusdagি Buxoro amirligining peshayvonli yozgi dam olish binosi

Me'morchilikning keyingi tarixi Markaziy Osiyo, Turkiston, shu jumladan Buxoroni ham rus qo'shinlari tomonidan ishg'ol etilishi bilan bog'liq bo'lgan. Avvalo, ularning manfaatini ko'zlovchi ba'zi bir inshootlar qurilgan. Temir yo'l, 20 tacha kichik paxta tozalash zavodlari va boshqalar shular jumlasidandir.

O'sha davrda Buxoroda bir necha norozilik harakatlari bo'lib o'tgan. Ana shundaylardan biri 1919-yilda yuzaga kelgan. Biroq, 1920-yil 2-sentabrda rus qo'shinlari tomonidan amirlik qulatilgan. Buxoro amirligining 16 vagon oltin, kumush va shunga o'xshash boshqa qimmatli buyumlari tashib ketilgan.

Rossiya tomonidan Buxoro xalq sovet respublikasi (BHSR) tashkil qilingan. 1921-yil 14-martda BXSR bilan Rossiya o'rtaida ittifoq-chilik shartnomasi va iqtisodiy kelishuv imzolangan. Hujjatlarga muvofiq, Buxorodagi barcha asosiy fondlar va ikki milliard so'm pul BXSR mamlakat ehtiyoji uchun beriladigan bo'lgan. Buxoro Zarafshon okrugining ma'muriy markaziga aylangan. Sobiq

O'zbekiston SSR ning poytaxti 1925-yilda Buxorodan Samarqandga, 1930-yilda esa Toshkent shahriga ko'chirilgan.

Madaniy meros obyektlari, ulardag'i arxitekturaviy obidalar doim xalq e'zozidadir. Buxorolik hunarmandlar me'moriy yodgorliklarni o'z san'at asarlarida ifoda etib kelmoqdalar.

Ana shunday san'at hunarmandchilik mahsulotlaridan biri 10.69- rasmda aks ettirilgan. Unda Buxoroning me'moriy tarixi, ko'plab arxitektura yodgorliklari patnisda kandakorlik uslubida aks ettirilgan.



10.69-rasm Buxoroning arxitekturaviy yodgorliklari aks ettirilgan
(Tohir Qosimovning san'at asari)

Buxoroning qadimgi uylari bir qancha turlari bilan bir-biridan farq qiladi. Turar-joylarning maydoni kichikligi uchun bo'sha kerak, uylar ko'pincha ikki qavatli, ko'cha tomonidan quruq devor bilan o'rabi olingan. Hovlining ichki tomoni yashashga qulay qilingan. Abu Ali ibn Sino o'z vaqtida ta'kidlab o'tganidek, hovli ichidagi uylar qishki va yozgi xonalarga bo'lingan. Binoning har ikkala qavatida ham ayvonlar loyihalangan. Xonalarning ichida kishi e'tiborni o'ziga qaratadigan o'ymakorlik asosida yaratilgan tokchalar o'rnatilgan, interer ganch o'ymakor panjaralar bilan badiiy boyitilgan.

Xiva uylarinig markaziy o'zagi hovli bo'lib, unga ikki ayvon chiqib turadi. Ulardan biri baland va yozgi xonalardan iborat bo'lgan: biri ayvon bo'lsa, ikkinchisi uning qarshisida turgan bir qavatli qishki xonalardan iborat bo'lgan ayvondir.

Toshkent hovlilari kattaroq bo'lib, tevaragida uylar qurilgan: ular orasida bir ustunli ayvon, yarim berk boloxonalar barpo etilgan. Farg'ona vodiysining shahar uylari bog' bilan birqalikda qurilgan. Binoning ichki fasadi, odatda, bog' tomonga qaragan. Farg'ona turar-joy binolarining qashqarcha turi Xitoyning Qashqar viloyatidan kelgan. Bu uyning o'rta qismida tepadan yorug'lik tushishi uchun derazalar qo'yilgan. Loyihaviy yechim xona yorug'ligi va mikroiqlimini yaxshilash uchun xizmat qilgan. Barcha uylarda ayvon loyihalangan bo'lib, u ayvonlar odatda janub tomonga qaratilgan.

XX asrning oxiriga, mustaqillik yillariga kelib vatanimizda zamnaviy qurilish materiallari asosida barcha shart-sharoitlarni e'tiborga olgan milliy tusdag'i ko'plab betakror binolar va inshootlarni loyihalash va tiklash, bog'-rog'lar yaratish, ma'naviy hamda moddiy boyliklarimizni kelajak avlodlarga yetkazish ishlari jonlanib ketdi.

Yangi zamonda me'moriy yodgorliklar tez va soz, obdon restavratsiya qilinmoqda va asli holiga keltirilmoqda. Yangi-yangi turli xildagi binolar va inshootlar bunyod etilmoqda.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Milliy me'morchilik yodgorliklariga boy bo'lgan O'zbekistonning qadimiy shaharlari to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
2. Vatanimiz hududida me'morchilik san'ati qachondan boshlab shakllangan?
3. Qadimiy Buxoro shahri qachondan shakllana boshlagan?
4. Qadimiy Buxoro me'morchilik san'atining yuksak namunalariga misollar keltiring.
5. Qadimiy Buxoro shahrining me'morchilik tarixi to'g'risida o'z fikringizni bayon eting.

6. Buxoro viloyati hududida nechta madaniy meros obyektlari bor?

7. Mamlakatimiz Prezidenti 2007-yil 13–14-iyuldagagi tashriflarida Buxoro me'morichiligi to'g'risida qanday fikrlarni bildirganlar?

8. Qal'a devorlari va darvozalari to'g'risida qanday ma'lumotlarni bilasiz?

9. Ark me'moriy kompleksi to'g'risida o'z fikringizni bildiring.

10. Shaharlarning rejasini tuzishda qaysi mahalliy omillar hisobga olingan?

11. Somoniylar to'g'risida nimalarni bilasiz?

12. Ismoil Somoniy maqbarasining me'moriy – konstruktiv yechimi to'g'risida o'z fikringizni bildiring.

13. Poyi Kalon arxitekturaviy ansambliga, shu jumladan Minorai Kalon inshootiga xarakteristika bering.

14. Raboti Malikdagi karvonsaroy to'g'risida nimalarni bilasiz?

15. Mag'oki Attori masjidi arxitekturasiga tavsif bering.

16. Chashma Ayub maqbarasining arxitekturasini izohlang.

17. Tarixiy toq, tim, chorsi va hammomlarning arxitekturasi to'g'risida o'z fikringizni bildiring.

18. Labi hovuz me'moriy ansambli to'g'risida nimalarni bilasiz?

19. Qo'sh madrasa arxitekturaviy ansambliga izoh bering.

20. Bahouddin Naqshbandiy me'moriy kompleksi to'g'risida nimalarni bilasiz? XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoroda qaysi me'moriy obidalar tiklangan?

21. XVII – VIII asrlarda tiklangan me'moriy obidalar to'g'risida nimalarni bilasiz?

22. Bolohovuz masjidi arxitekturaviy ansambliga izoh bering.

23. Sitorai Mohi Xosa me'moriy kompleksiga xarakteristika bering.

24. Buxoroning qadimgi hovlilarining o'ziga xos jihatlarini izohlang.

25. Buxoroning me'moriy obidalari aks etgan san'at asarlari to'g'risida nimalar deya olasiz?

11-bob. XIVA SHAHRI ME'MORCHILIGI TARIXI

11.1. Umumiy ma'lumotlar

Xiva – O'zbekiston hududidagi qadimgi shaharlardan biridir. 1997 yilda shaharning 2500 yillik yubileyi nishonlandi.

Xiva shahri to'g'risida X asrlardagi qo'lyozmalarda ma'lumotlar berilgan. O'sha davr Xorazmda buyuk ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniy, dunyoga matematika va algoritmni taqdim etgan buyuk matematik Muhammad Muso al-Xorazmiy, buyuk tabib va mashhur olim Abu Ali ibn Sino singari taniqli allomalar ijod qilganlar.

Manbalarda keltirilishicha, eramizdan avvalgi III – II ming yilliklardan boshlab. Markaziy Osiyoning janubiy mintaqalarida shaharlarning shakllanishi boshlangan. Baqtriyada shaharlar shakllanishi boshlangandan keyin, avval janubiy (Naxshob), so'ngra markaziy (Samarqand), undan keyin g'arbiy So'g'd (Buxoro) va Xorazmda davom etgan.

Qadimgi Xorazmda, shu jumladan Xivada shaharlarning shakllanishi eramizdan avvalgi I ming yillikka borib taqaladi. Arab geograf olimlaridan Istaxri (1029–1087), Ibn Xavkala (X asr) va al-Muqaddasi (947–1000) larning asarlarida Xiva to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, al-Muqaddasi o'z asarida Xiva Amudaryo qirg'oqlari bilan cho'l orasida joylashgan yirik shahar, u yerda katta masjid bor, shaharda uzum, kishmish va shirinliklar, kunjut, kiyim, gilam, dori-darmonlar ko'p, u shaharda pishloq, tvorg va baliq ishlab chiqariladi degan ma'lumotlarni keltiradi.

Akademik Y. G. G'ulomov Xiva erta shahar sifatida qadimiy Xaykonik (hozirgi Polvonyob) arig'i qirg'og'ida paydo bo'lgan degan fikri bildirgan. Xivani yoshini aniqlash maqsadida akademik A. Asqarov Ichan qal'ada arxeologik qazishma ishlarini olib borgan. Tadqiqotlar davrida 7 m chuqurlikda shaharning qadimiy qatlamlari topilgan. Madaniy qatlarning 10 ta qurilish gorizontiga bo'linganligi va u qatlamdan olingen topilmalar natijalariga ko'ra Xivaning yoshi 2500 yilga teng ekanligi aniqlangan.

Buyuk ipak yo'lida joylashgan Xiva XVI asrdan boshlab Xorazm davlatining poytaxtiga aylangan. U shaharda so'nggi feodal davri

va zamonaviy arxitekturaning ajoyib madaniy meros obyektlari bir butunlikda joylashgan. Qal'aning ichki shahri – Ichan qal'adagi madaniy meros obyektlari o'rta asrlar arxitekturasining monumental va bir vaqtning o'zida sodda shakllarini ochib bergan. Qal'aning mustahkam devorlar bilan o'ralishi (11.1-rasm), minoralar, arxitekturaviy inshootlar va tekis tomli, yog'och sinchli loyshuvvoq uylar bir butunlikda hozir ham o'rta asrlardagi Markaziy Osiyo davlatlari shaharlarini eslatadiganday bo'ladi.



*11. I-rasm Xivaning eng qadimgi qismi – Ko'hnha Ark
(tepada Oq shayx buva hujrasi ko'rinish turibdi)*

Xivaning arxitektura qiyofasi asosan XVIII asrning oxirlaridan XX asrning boshlarigacha shakllangan. Dastlab hukmron doiralar maskani, ularning saroy, madrasa, maqbara, masjidlari to'plangan Xiva, Ichan qal'a (shahriston) arxitektura ansambllarining yaxlitligi bilan boshqa shaharlaridan ajralib turadi.

Xiva sharqning shahristonlari tarzida rejalashtirib qurilgan. O'zaro ko'ndalang kesishgan ikki katta ko'cha, shu jumladan to'rt darvoza orqali rabotga – Dishan qal'aga chiqilgan. Dishan qal'ada kosib - hunarmandlar, savdogarlar va boshqalar yashaganlar.

Xiva to'g'ri to'rtburchak tarqli shahriston – ichki shahardir. Markaziy Osiyoning boshqa shaharlaridan farqli o'laroq, devorlari deyarli butunligicha saqlangan. Shahriston tomonlarining o'ttalarida bittadan darvozalar qurilganki, bu yechim jahon shaharsozligining sinalgan usuli hisoblanadi. Qadimgi Rim istehkomlarida ham shu uslub qo'llanilgan.

Xivaning muhim arxitektura yodgorliklari qatorida Ko'hna Ark, Juma masjid, Oq masjid, Uch avliyo maqbarasi, Sherg'ozixon maqbarasi, Olloqulixon maqbarasi, karvonsaroyi va timi, Qutlug' murod Inoq madrasasi, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Muhammad amin Inoq madrasasi, 163 xonadan iborat Toshhovli saroyi va boshqa inshootlarni keltirish mumkin (*11.2-rasm*).



11.2-rasm. Qadimgi Xivaning umumiy ko'rinishi (orqada Islom hoji minorasi)

Xivalik naqqoshlar, koshinkorlar saroy, madrasa va maqbaralarni yuksak did bilan tosh, ganch, yog'och o'ymakorligidan foydalanib bezaganlar. Shahar minoralari (Islom Hoji, Juma masjid minoralari, Kaltaminor, Polvon qori, masjid va madrasalar minoralari) ham koshin, ganch, yog'och, tosh o'ymakorligi bilan jozibador bezatilgan. Shaharda turar-joylarning asosiy qismi bir qavatli cho'pkori uylar

bo'lib, sinchlar orasiga xom g'isht terilgan, usti somonli loy va ganch bilan suvalib pardozlangan.

Ko'hna Arkning saroy arxitekturaviy ansamblari, Toshhovli, Arab Muhammad madrasasi, Sherg'ozixon madrasasi (1719 -yil), musulmon dunyosida eng baland bo'lishi rejalashtilgan va oxirigacha qurilmay qolgan Kalta Minor va boshqalar me'morlarda katta qiziqish uyg'otadi.

II.2. Ichan qal'a

Ichan qal'ada me'moriy va shaharsozlik kompozitsiyalarini o'rganish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Ichon qal'a Xivaning ichki qal'a qismidir. U Dishan qal'adan kungurador devor bilan qisman ajratilgan. Dishan qal'adan baland qo'rg'ontepaga o'xshab ko'rindi. Ichon qal'aga Bog'cha, Polvon, Tosh va Ota deb nomlangan darvozalaridan kirilgan.

Ichan qal'aning yaratilish tarixi uch davrga bo'linadi: mo'g'ullar istilosidan keyingi tiklanish (Sayd Alovuddin maqbarasi va boshqalar). XVI–XVII asrlardagi tiklanish (Anushaxon hammomi, 1657-yil; peshayvonli Oq masjid, 1675-yil; Xo'jamberdibek madrasasi, 1688-yil; xonning qabulxonasi, 1686–1688-yillar), XVIII – XX asrlardagi tiklanish.

Uchinchi davrda mahalliy me'morchilik an'analari asosida masjid, madrasa, tim va toqlar qurilgan, Ota va Polvon darvozalari orasida katta yo'l o'tkazilgan, masjid qayta qurilgan, minoralar qad rostlagan. Qutlug' Murod Inoq madrasasiga qaratib tim va toqlar qurilgan. Muhammad Rahimxon (1806–1825-yillar), Olloqulixon (1825 – 1842-yillar), Muhammad Aminxon (1845–1855-yillar) hukmronligi yillarda bu erda qurilish avj olib ketgan. Muhtasham saroy, madrasa, maqbaralar barpo etilgan. Toshhovli saroyi qurilgan. Pahlavon Mahmud maqbarasi qad ko'targan. Kalta Minor yuzaga kelgan va hokazo.

Ichan qal'a qurilishida Markaziy Osiyoda qadimdan qo'llanib kelingan uslub – inshootlarni yuzma-yuz qurish uslubi (qo'sh) dan foydalilanigan.

Binolarning alohida ansambl holida qurilishi ham Xiva me'morchiliginining o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Masalan,

Juma masjid yonida ikkita kichik madrasa. Muhammad Amin Inoq va Muhammad Aminatpanoboy minorasi hamda Matniyoz Devonbegi madrasasi qurilishi ancha yirik ansamblni tashkil etgan. Polvon darvoza oldida bir necha masjid va madrasalar, hammom, toqi, karvonsaroy va xon saroyini barpo etilishi o'ziga xos ansamblni tashkil etgan. Qutlug' Murod Inoq bilan Olloqulixon madrasasi. Tosh hovli bilan Oq masjid o'rtasidagi maydoncha shu ansamblning kompozitsion markaziga aylangan. Xiva yodgorliklari yog'och o'ymakorligi, sangtaroshlik, ganchkorlik, sirkor sopol va boshqa rang-barang naqqoshlik bezaklari bilan bezatilgan.

Shaharning vertikal dominantı – koshinlari quyoshda yaltirab turuvchi Islom hoji minorasidir. Minora bilan uning yaqinidagi Pahlavon Mahmud maqbarasining gumbazi bilan birgalikda tevaraklaridagi pastroq inshootlarni yaxlitlikka keltirib turadi. Maqbara ro'parasida supa tarzli Sherg'ozixon madrasasi qurilgan.

Ichki shaharning asosiy ko'chalari Xivaning rabotida – tashqi shaharda, **Dishan qal'ada** davom etib, to'rt tarafidagi boshqa shahar va qishloqlarga olib boradi. Dishan qal'ada jami o'nta darvoza bo'lib, ulardan shimol tomondagı Urganchga olib boradigan ochiq qiyofali Qo'sh darvoza o'ziga alohida e'tiborni tortadi (*11.3-rasm*).



11.3-rasm. Dishan qal'aning ikki ravoqli naqshli Qo'sh darvozasi

11.3. Juma masjidining arxitekturasi

XVIII asrda barpo etilgan ko'p ustunli Juma masjidi alohida ajralib turadi. Uning konstruktiv yechimi Arabistonning qadimgi masjidlari bilan hamohang ekanligidan dalolat beradi. Juma masjid ilk bor X – XI asrlarda qurilgan. Juma masjidining dastlabki binosi buzilib ketgan va o'rniغا 1788-yilda xuddi shu usulda undan kattaroq yangi masjid qurilgan. Masjidning minorasi ham yangidan tiklangan.

Juma masjidi tekis tomli, bir qavatli imoratdir. Uni o'ziga xos o'yma naqshli ustunlar qo'riqxonasi deyishadi. Bino tomini 218 ta naqshinkor ustun ko'tarib turadi. X – XI asrlarda qo'yilgan naqshkor ustunlardan hozirgi vaqtga 25 tasi saqlangan. Masjidning avvalgi ustunlari Xorazmdagi turli binolardan yig'ilib kelingan.

Hamma ustunlar muayyan kompozitsiya asosida joylashtirilgan. Bu inshootning eng nodir tomoni uning ustunli yechimidadir. Ustunlar pastdan yuqoriga qarab qadahsimon shaklda yo'g'onlashib boradi. Ustun o'rtasi kufiy usulda yozuv bilan naqshlanib, pastki qismi juda qalin, ustki qismi nisbatan siyrak o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Eng qadimgi ustunlarga uchburchak shaklidagi chuqur relyefli, o'simliksimon naqshlar solingan. XII asr ustunlarida avvalgilarining shakl mutanosibligi takrorlangan, biroq naqshlar birmuncha qayta ishlangan. Ulardagi kufiy yozuvlari barg va gul naqshlari bilan chirmshtirib yuborilgan. Juma masjid ustunlarida Xorazm xalq o'ymakorligining boy ijodiy imkoniyatlari mujassamlashgan.


11.4. Toshhovlining me'moriy yechimi

Toshhovli arxitektura yodgorligi 1830–1838-yillarda Olloqulixon farmoyishiga ko'ra qurilgan. Dastlab haram, keyin mehmonxona va arzxonalar buniyod qilingan. Toshhovli mahalliy qurilish materiallari (marmar, pishgan g'isht, yog'och) dan foydalanib barpo etilgan. Saroy uch bo'limdan iborat – arzhovli, ishrat hovli va haram.

Devor va ayvonlari sirkor sopol, shiftlari esa naqshlar bilan bezatilgan. Devorlari koshinlangan, ganch, yog'och, tosh o'ymakorligi, bo'yama naqshlar bilan bezatilgan. Saroya mavjud 163 xonadan turli maqsadlarda foydalanilgan.

11.5. Ota darvoza yodgorligi

Ota darvoza – Ichan qal’aning bosh darvozasidir (11.4-rasm). Shaharning eng qadimgi tizimi – Ko’hna ark ham shu tomongan, g’arbdan o’rab olingan.



11.4-rasm. Ota darvoza oldining umumiyo ko’rinishi

Shimolda Bog’cha darvoza joylashgan, yaqinida quduq bor. Shahar shu yerdan boshlanadi degan rivoyat bor. Ota darvozadan sharq tomonga Polvon darvozagacha, Ichan qal’aning qoq o’rtasidan shaharning bosh ko’chasi o’tgan. Ko’cha bo’ylab ketgan Minora, Juma masjid va Saidboy minoralari qatori birgalikda chiroyli kompozitsiyani tashkil etgan. Kardo ko’chasi Bog’cha darvozasi bilan qarshisidagi, janubiy tomondagi Tosh darvoza oralig’ida joylashgan. Ikki asosiy ko’chaning chorrahasi shaharning geometrik va jamoat markazini tashkil etgan. Bunday markaz Juma masjidi va uning minorasi bilan qayd etilgan. Xiva me’moriy obidalarining ko’plari va e’tiborlilari mazkur ko’cha negizida vujudga kelgan. Ular Polvon darvoza tarafidagi qator inshootlar va ularning tarkibidagi Olloqulixon arki – toshhovlidir.

Nurillaboy saroyi

Dishan qal’ada majmular qatorida Nurillaboy saroyi muhim o’rin egallaydi. Uning va unga o’xshash binolarning yechimlarida jahon arxitekturasining XX asr boshlaridagi yangi naqshli jihatlari o’z aksini topgan (11.5-rasm).



11.5-rasm. Nurillaboy saroyining noyob naqshli ustuni

11.6. Muhammad Aminxon madrasasi me'morchiligi

1851–1852-yillarda Ichan qal'ada Muhammad Aminxon madrasasi qurilgan (11.6-rasm). Madrasa va minorani Xivadagi eng katta va go'zal ansambl qilish mo'ljallangan, biroq ishlar oxirigacha yetmay qolgan.



11.6-rasm. Muhammad Aminxon madrasasi va uning yonida koshinkorlik bilan jilo berilgan Kalta Minor

Madrasaning baland va bezakdor peshtoqi o'ziga xos mayda ravoqchalarga bo'lingan, burchaklaridagi mezanali burjlar binoga salobot va go'zallik bag'ishlab turibdi. Bino arxitekturasida Xiva me'morchiligidagi badiiy va konstruktiv uslublarning eng yaxshi namunalari qo'llanilgan. Madrasa ikki qavatli bo'lib, birinchi qavatda hujralar dahlizli, ikkinchi qavatda esa hujralar peshayvonli qilib bunyod etilgan.

Bu uslub Xiva madrasalarida ilk bor ushbu binoda qo'llanilgan. Ayvonlarning qurilishi sodda bo'lib hovlining umumiy arxitekturasiga mosdir. Ikki qavatli ayvonlardagi bag'allar va qarama-qarshi qo'yilgan peshtoqlar sirkor parchinlar bilan naqshlangan. Hujralar tepasi baxmal gumbaz bilan berkitilgan. Katta xonalarning gumbazlari burchaklardan chiqarilgan toqili qiya sath-qanosga (parusga) qo'yilgan. Peshtoqning yarim gumbaz tashkil etuvchi olti qirrali ko'r kam ravog'i ham sirkor parchinlar bilan bezatilgan. Masjidning baland gumbazi peshtoqdan ancha yuqori ko'tarilib turadi. Madrasaning umumiy ko'rinishidagi bunday assimetrik holat uning yonida baland minora ham bo'lislini taqozo etgandek tuyuladi. Bunday uslub keyinroq Islomxo'ja madrasasi va minorasi kompleksida takrorlangan.

11.7. Kalta Minor

Kalta Minor (*11.6-rasm*) Muhammad Aminxon madrasasi yonida 1855-yilda qurila boshlangan. Xonning fikricha, bu minora Markaziy Osiyodagi minoralarning eng go'zali, eng kattasi va eng balandi bo'lishi kerak edi, lekin uning xotinini bevaqt o'limi tufayli minora oxirigacha qurilmay chala qolgan; Kalta nomi ham ana shundan qolgan. Inshootning hozirgi balandligi 26 m, asosining diametri 14,2 m ni tashkil etadi. O'z salobati, ko'lami, oq, yashil, firuza rangdagi koshinli naqshlari bilan minora jozibadordir. Uning bezagida ko'k-firuza rangli koshinlar ko'p ishlataligan. shu tufayli u Ko'k Minor deb ham ataladi.

Muhammad Rahimxon madrasasi

Kattaligi jihatdan Muhammad Aminxon madrasasidan keyingi o'rinda Muhammad Rahimxon madrasasi turadi. Madrasa yozgi va

qishki masjid, darsxona, kutubxona va hujralardan iboratdir. Binoning old tomoni ikki qavatli, qolgan tomonlari bir qavatli. Bino burchaklarida burjlar ishlangan, sirti sirkor parchinlar bilan bezatilgan. Uning umumiy tuzilishi Xivaning boshqa madrasalaridan bir oz farq qiladi. Xushqad peshtoqning ikki yonida besh ravoqli galereyalari bor. Darvozaxona atrofidagi 9 ta xonaning usti gumbazlar bilan yopilgan. Binoning ichki tuzilishi ham boshqa madrasalardan bir oz farq qiladi. Hovli 76 ta bir qavatli hujralar bilan o'ralgan, tashqi ayvonning ko'cha tomoni past devor bilan to'silgan.

11.7. Pahlavon Mahmud maqbarasi

Xiva arxitektura yodgorliklaridan biri Pahlavon Mahmud maqbarasidir. U moviy gumbazli xonaqoh, maqbara va ziyyoratxonadan iborat kompleksdir. Maqbara Pahlavon Mahmud daxmasi ustida 1664-yilda qurilgan kichik sinch imorat o'rnidagi 1810 – 1835-yillarda bunyod etilgan. Unga peshtoqli darvozaxona orqali kiriladi, so'ng kichik hovliga o'tiladi. Qarshida buyuk peshtoq va gumbazli xonaqoh, maqbara, g'arbda qorixona, sharqda nafis o'ymakor ustunli ayvon joylashgan. Hovli sahnida «muqaddas» quduq bor.

Xonaqoh peshtoqining yuzasi g'ishtin; gumbazi moviy rang sirkor koshinlar bilan bezatilgan. Maqbaraning ichkarisi ham gumbaz qubbasigacha moviy rang sopol bilan juda nozik va nafis ishlangan. Bezak gullar orasidagi so'zlar Pahlavon Mahmud ruboiyalaridan keltirilgan.

1913-yilda Pahlavon Mahmud maqbarasi hovlisining g'arbiga ikki qavatli qorixona, uning qarhisiga ayvon qurilgan. Kompleks Xiva me'morchiliginining noyob namunasi bo'lib, unda XIX asrdagi badiiy san'at uslubi yorqin aks etgan.

11.8. Arxitekturaviy inshootlar zilzilabardoshligi

Qadimgi Xiva me'morlari tarixiy obidalarning zilzilabardoshligiga ham e'tibor bergenlar. Yerni tekislab bo'lгach, uni ganch yoki

gil qorishmasi bilan qoplaganlar (masalan, Xivada Sherg'ozixon madrasasi), so'ngra qum solganlar. Bu yo'l bilan, birinchidan – poydevorni yer osti sho'r suvlaridan himoya qilganlar, ikkinchidan – seymoizolyatsiya tadbirlarini amalga oshirganlar. Zilzila to'lqinlari bu qatlama ancha so'nib qolgan.

Geologik va gidrogeologik sharoitlardan kelib chiqib, poydevor qismi 0,5 m dan 2,0 m gacha chuqurlikda o'rnatilgan. G'ishtlarning poydevor konstruksiyasida yotiqlik qatorlar bo'ylab emas, balki yon tomoni bilan yuzma-yuz qilib terilganligi zilzila vaqtida seysmik kuchlarni bir tekisda taqsimlanishiga imkoniyat yaratgan.

Inshootning yer usti qismida, 0,5 m balandlikda yog'och g'o'la yoki toshlardan maxsus qorishma bilan prokladka qo'yilgan. Ko'pchilik hollarda prokladka sifatida bir necha qatlama qamish ishlatilgan. Bu tadbir seysmik to'lqin energiyasini ancha yutgan va tepaga deyarli kam qismini o'tkazgan, u gidroizolyatsiya vazifasini ham o'tagan.

Qadimiy mas'ul obyektlardan muhimi minoradir. Uni ustalaridan hisoblash matematikasi, geometriya, arxitekturaviy proporsiyalarning uyg'unligini sezalish malakalari talab etilgan. Injenerlik yechim nuqtai - nazaridan minorani zilzila vaqtidagi holatini tashhislash qiyin masala hisoblanadi.

Minora balandligining oshib borishi, uning inersiya massasini oshishiga, boshqacha aytganda, zilzila davrida seysmik kuchlarning kattalashuviga olib keladi. Minora balandligiga qarab zilzila inshootni egilish yoki ko'chishiga olib kelishi mumkin. Bu masalani hal qilish uchun me'morlar va binokorlar dono yechim ishlab chiqqanlar. Minora balandlashgan sari uning diametri kichiklasha borgan. Bu me'moriy yechim zilzila vaqtida inshootni ustivorligini ta'minlay olgan.

Xivadagi Islom hoji minorasining taxminan 1,2 m balandligida qalinligi 18 sm bo'lgan marmar toshlardan gidroizolyasiya qatlami, uning ostiga seysmik himoya vazifasini bajaruvchi qamish qatlami o'rnatilgan. Demak, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va odamlarni u yoki bu holatda qo'rquvg'a soladigan tabiiy va sun'iy hodisalarga inshootlarning qarshiligini oshirish masalasiga ham qadimgi me'morlar katta e'tibor berganlar.

Xiva shahrining ham madaniy meros obyektlariga munosabat mustaqillik yillarda yaxshilikka tomon keskin o'zgardi. Ularni kelajak avlodlarga bus-butunligicha yetkazish maqsadida madaniy meros obyektlarini avvalgi holatiga keltirish ishlari jonlanib ketdi. Me'moriy yodgorliklar sifatli va mustahkam restavratsiya qilinmoqda va asl holatiga qaytarilmoqda. Tarixiy yodgorliklardan ularning shaklini o'zgartirmasdan hozirgi zamon talablariga mos shart - sharoitlar yaratilgan imoratlar sifatida foydalanish va obidalar sifatida asralishini ta'minlashga katta ahamiyat berilmoqda.

Mustaqil ishslash uchun savol va topshiriqlar

1. Xiva shahrining shakllanishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Xiva tarixi to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
3. Xiva shahrining me'morchilik tarixi bo'yicha o'z fikringizni bildiring.
4. XVIII asrda barpo etilgan Xivaning arxitekturaviy yodgorliklariga xarakteristika bering.
5. Ichan qal'a to'g'risida nimalami bilasiz?
6. Xiva shahri yodgorliklarda bezakni qo'llanilishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
7. Xiva shahridagi yodgorliklarda zilzilabardoshlik masalasini hal etilishi to'g'risida o'z fikringizni bildiring.

12-bo'b. O'ZBEKISTON POYTAXTI – TOSHKENT SHAHRINING ARXITEKTURASI TARIXI

12.1. Umumiy ma'lumotlar

Qadimgi manbalarda mamlakatimizning poytaxti – hozirgi Toshkent o'mida 2200 yil ilgari yirik obod shahar bo'lganligi qayd qilingan. Arxeologik izlanishlar natijasida bu yerdan 2200 yil ilgari yasalgan sopol idishlar, bronza oyna va turli mamlakatlar tangaları, topilgan. V – VIII asrlarda bu shahar Choch, Shosh, Shoshkent, Binkat deb atalgan.

Buyuk ipak yo'lida joylashgan Toshkent Yevropa mamlakatlarining Hindiston va Xitoy bilan olib borgan turli aloqalarida muhim rol o'ynagan. VI asrda Toshkent Turk xoqonligi tarkibiga qo'shib olingan. Turklar shaharni zabit etgach, uning atrofini kuchli mudofaa devorlari bilan o'rabi olganlar hamda maxsus saroy-qal'a qurganlar.

O'zaro urushlar, qo'zg'olonlar, ko'chmanchi qabilalar hujumlari natijasida Toshkent bir necha marta vayron qilingan. IX asrda shahar oldingi o'rnidan shimoli - sharq tomonda - Bo'zsuv kanali etagida barpo bo'lgan. Abu Raydon Beruniy va Mahmud Qoshg'ariy ma'lumotlariga ko'ra, shahar XI asrdan Toshkent deb atala boshlangan.

Shaharning miloddan avvalgi arxitektura yodgorliklaridan hech narsa saqlanib qolmagan. X asrda Toshkent to'rt qismga bo'linganligi va ulardan har biri maxsus devor bilan o'ralganligi ma'lum. Shahar markazida - hozirgi Shayxontohur tumani hududidagi bozor hamda madaniyat va istirohat bog'i o'rniда tepalik bo'lgan, u yerda qal'a va shahriston joylashgan.

Shahriston va qal'a devorlaridan tashqarida rabodi dahil (ichki rabot) va rabodi xorij (tashqi rabot) qurilgan. Ichki va tashqi rabot devorlari oralig'i 4 km ni tashkil qilgan. Qal'ada hukmdor saroyi va qamoqxona bo'lgan. Uning bir darvozasidan shahristonga, boshqalaridan ichki rabotga chiqilgan. Shahar markazida bozor bo'lgan. Markaz bilan shahar darvozalari eni 5–10 m li ko'chalar orqali bog'langan. Turar joylar bir va ikki qavatli paxsa yoki sinch devorli, hovlili qilib qurilgan. X – XVI asrlarda yaratilgan me'morlik obidalari orasida Abu Bakr ibn Ismoil Kaffol Shoshiy maqbarasi (976), Shayx Xovandi Tohur maqbarasi, Xo'ja Ahror masjidi va madrasasi, Yunusxon maqbarasi (XIV asr oxiri va XV asr), Baroqxon madrasasi, Ko'kaldosh madrasasi kabilar diqqatga sazovor.

12.2. Baroqxon madrasasi me'morchiligi

Baroqxon madrasasi – XV oxiri XVI asr boshlarida qurilgan. Hovli atrofida hujralar va ichki tomonida peshtoq bo'lib, madrasanining g'arbiy qismi birmuncha chiqqan. Poydevori toshdan, devorlarining

qalinligi 3 m bo'lib, turli hajmdagi pishiq g'ishtlardan ishlangan (12.1-12.4-rasmlar).




12.1-rasm. Baroqxon madrasasining umumiy ko'rinishi



12.2-rasm. Baroqxon madrasasining old tomondan ko'rinishi

Toshkent hokimi Navro'z Ahmad Baroqxon hokimlik yillari (1551-1556) o'sha yerda mavjud ikki maqbarani o'z ichiga olgan madrasa qurdirgan.



12.3-rasm Baroqxon madrasasi peshtoqi gumbuzining naqshli
me 'moriy – konstruktiv yechimi



12.4-rasm. Baroqxon madrasasi yonidagi gumbazi naqshli ishlangan tarixiy
yodgorlik peshtoqi

Madrasaning sharq tomonidagi ulkan peshtoqqa rang-barang sirkor g'ishtchalaridan panno terilgan. U o'simliklar va geometrik naqshlar bilan hoshiyalangan. Asosiy peshtoqning orqa tomonida yana peshtoq va besh qirrali ravoq bor. G'arb tomonidagi ichki peshtoq ko'k gumbazning tarkibiy qismi bo'lgan. Madrasaning to'rt burchagida qorixonalar joylashgan. Uning 22 m li gumbazi ko'k sirkor g'ishtchalar bilan pardozlangan (gumbaz zilzila sababli qulab tushgan). Gumbaz ostidagi 4,5 m li barabanga turli rangdagi sirkor g'ishtchalaridan geometrik va o'simliksimon naqshlar terilgan, qur'on suralari bitilgan.

Ichki devorning tepe qismida ganchdan ishlangan naqshlar bo'lib, ularga oltin suvi yogurtirilgan, pastki qismida olti burchakli sopollardan terilgan keng izora bor (ular yashil sirkor, zarqalli g'ishtchalar bilan ajratilgan). Madrasaning go'zalligi, qurilish uslubi jihatdan Samarqandning eng yaxshi arxitektura yodgorliklaridan hisoblangan Ishratxonaga yaqinlashadi.


12.3. Ko'kaldosh madrasasi me'morchiligi

XVI asrda Toshkent shahrining Chorsu maydonida Toshkent hokimining vaziri – Ko'kaldosh tomonidan madrasa qurdirilgan (12.5–12.6-rasm). Ko'kaldosh madrasasining gumbazlari va peshtoqlari bilan bo'yи 20 m ga yetadigan ikki qavatli madrasa tepalikda qurilgani uchun uzoqdan ko'rinish turgan. Madrasa 1868-yilgi zilzilada qattiq zarar ko'rgan, 1902–1903-yillarda u qayta tiklangan. Biroq asosiy peshtoq va gumbazi tuzatilmay qolgan.

Peshtoqning yon tomonlari to gumbaz asosigacha va devorning kungurador qismi oddiy g'isht bilan tekis qilib ishlab chiqilgan, peshtoqning yonlariga yarim doira shaklidagi ravoqlar, burchaklarida guldstalar qurilgan. Biroq bular barchasi zilzilada tamomila qulab tushgan. Madrasa to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lib, tomonlari 45x65 m dir. Qurilish rejasи XVI asrdagi shu tipdagи binolardan deyarli farq qilmaydi.



12.5-rasm Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasining umumiy ko'rinishi (XVI asr)



12.6-rasm. Ko'kaldosh madrasasi naqshli peshtaoqisining ko'rinishi

Uning chorsi hovlisi bo'lib, atrofida hujralar va yozlik ayvonlar bor. Hovlining P simon yo'llari qishki darsxonalarini masjid bilan ulaydi. Darvozadan kiraverishda chapda masjid, o'ngda darsxona joylashgan. Ular xochsimon qilib qurilgan, tomi o'zaro kesishadigan ravoq shaklida gumbaz qilib ishlangan. Madrasanining poydevori va devorlari kattaligi 27x27x5,5 sm li pishgan g'ishtdan ishlangan. Devor g'ishtlari oddiy usulda terilgan, choklari ganch qorishmasi bilan pardozlangan.

Madrasani bezashda me'morlar asosan old tomoniga e'tibor qilganlar. Sirkor parchin va geometrik naqshlar bilan bezatilgan hashamatli kirish peshtoqida ikki qavatli ravoq ishlangan. Peshtoqning ikki tomonida feruza rangli parchinlar bilan qoplangan baland gumbazlar bo'lган. Madrasanining old tomonidagi darchalarga panjaralar o'rnatilishi binoning husniga-husn qo'shgan. Saqlanib qolining ba'zi naqsh parchalari binoning ichi ham yuksak did bilan bezatilganligidan darak beradi.

12.4. Toshkentning XIX – XX asrlardagi arxitekturasi

Toshkent Rossiyaga qo'shilgunga qadar (1865-yil) paxsa – devor bilan o'ralgan, maydoni 1,6 ming ga bo'lган (aholisi 80 ming kishi). 1865 yildan keyin Anhorning chap sohilida Turkiston o'lkasining ma'muriy markazi – yangi shahar tashkil topa boshlagan; qadimgi Toshkent esa (markazi hozirgi Oxunboboyev maydoni) Eski shahar nomini olgan. Yangi shahar qurilishlari 1866-1971-yillarda rus harbiy injenerlari loyihalari asosida bajarilgan. Bu loyihalarda rus va Yevropa shahar qurilishining an'analari mujassamlashgan (masalan, hozirgi Toshkent davlat yuridik instituti binosi). Ko'cha va magistrallarning radial – halqasimon, keng va to'g'ri shaklda olinishi ham shahar rivojida perspektiv ahamiyatga ega bo'lган. Eski shaharda xalq me'morchiligi an'analari asosida qurilgan ko'plab imoratlar puxta va shinamliligi, zilzilaga chidamliligi, issiq iqlimga moslashtirilganligi bilan o'ziga xos bo'lган.

1920-yillarga kelib shahar hududi 3.3 ming ga, aholisi 280 ming kishiga etgan. Undan keyin shahar qurilishi va arxitekturasida jiddiy o'zgarishlar ro'y bergan. «Eski» va «yangi» shaharni bir-biriga uzviy


qo'shib qurish, ular orasidagi farqni tugatish tadbirlari ishlab chiqilgan. 1938-yilda Toshkent shahrining bosh rejası yaratilgan. Bunga muvofiq, shaharda dastlabki ko'p qavatlari binolar, keng magistral ko'chalar qurila boshlagan. 1930-yillarda To'qimachilik kombinati, «Tashselmash» zavodi, shaharda birinchi 4 qavatlari turar-joy binosi – Mutaxassislar uyi qurilgan, yevropacha va mahalliy xalq me'morligi uslublarida jamoat binolari, markaziy telegraf binosi, «Anhor» kafesi, tarix muzeylari qad ko'targan.

Ikkinci jahon urushi yillari Muqimiyy nomli teatr binosi qurilgan. Unda qo'llanilgan yupqa g'ishtin ravoqlar keyinchalik turar-joy qurilishlarida ham keng foydalanilgan. Urushdan keyin Toshkent qurilishi yana rivojlangan, shaharning bosh rejası qayta ishlab chiqilgan (1954-yil). Yangi yirik turar-joy massivlari (Chilonzor, Oqtepa), magistral ko'chalar (Sh. Rustaveli, B. Xmelniskiy, Usmon Yusupov, Furqat), maydonlar (Navoiy, Pushkin, Teatr) yuzaga kelgan, muhtasham jamoat binolari (Alisher Navoiy nomidagi teatr binosi, 1947-yil; rekonstruksiya 1976-yil; «Toshkent» mehmonxonasi, «Paxtakor» stadioni, aeroportning eski binosi) qad ko'targan. Markaziy qo'mita, San'at saroyi (1964-yil) singari inshootlar qurilish materiallari, arxitektura uslubi jihatdan ham Toshkent shahar arxitekturasida yangilik bo'lgan.

12.5. Alisher Navoiy nomidagi teatr binosi

Ulug'ver va jozibali Alisher Navoiy nomidagi teatr binosi qiyofasida o'zbek xalqining qadimiy – badiiy an'analari o'z ifodasini topgan. Bino mashhur me'mor akademik A.V.Shchusev loyihasi va uning rahbarligida o'zbek xalq san'atkorlari bilan hamkorlikda 1947-yilda yaratilgan (12.7-rasm). Uning tuzilishida klassik sxema asos qilib olingan bo'lsada, milliy tusda ishlangan. Bino tashqi tomonidan maxsus pardozlangan g'ishtchalar bilan qoplangan. Uning bezaklarida ganch, marmar, yog'ochdan keng foydalanilgan. Binoga kiraverish peshayvon shaklidagi ravoqlar (3 tasi oldda, 2 tasi yonda) qatoridan iborat. Yon tomondagи ayvonlarning har biri to'qqiz ravoqdan tashkil topgan.

Binoning ichki qismi – foye, tomosha zali, sahna, artistlar uchun mo‘ljallangan xonalar va uch qavatda joylashgan zallardan iborat. Binoning mashhur bo‘lishida o‘zbek xalqining ganchkorlik san’ati katta rol o‘ynagan. Bezakchilikda asrlar davomida sayqal topgan qadimiy san’atning yetuk namunalari yaratilgan. Naqsh ishlarining turli xil uslublari namoyish qilingan.



12.7 -rasm Milliy uslubda barpo etilgan Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri binosi (umumiy ko‘rinish. reja; 1947-yil)

Buxoro xonasi qadimiy naqshlar, arxitektura detallari va ganch o‘ymakorligi ijodiy jamlanib, juda chiroyli ishlangan. Bu xona oynavand zaminda jimgimadorligi, o‘ymakorligi, barcha qismlarning

o'zaro monandligi, bezaklarning nozik va nafisligi bilan ajralib turadi.

Toshkent xonasida lavha(panno)lar, ravoq va ajoyib guldastalar ishlangan. Devorlar majnuntol va doira shaklidagi palaklar, nozik gullar bilan bezatilgan.

Xiva xonasida ganch, marmarga ishlangan shakl va naqshlar ilmiy uslubda yaratilgan.

Samarqand xonasi o'ymakorlik bezaklaridan yirik gul va barglar shakllarining bo'rtmali o'yilishi, muqarnasli gumbaz va jozibador lavhalar bilan go'zal ishlangan.

Farg'ona xonasida o'lkaning me'moriy bezaklariga xos bo'lgan o'simlik – gulsimon bezaklar asosiy o'rinn egallagan.

Termiz xonasi shaharning unutilib ketgan mayda davra va jangarilik tasvirlari o'ymakorligi bilan yangidan jonlantirilgan.

Bino ichidagi marmardan yasalgan ikki asosiy zina panjaralariga naqshlar o'yilgan. Pastki zal devorlarida to'rt xil san'at turi – musiqa, raqs, she'riyat va rassomlikni ifodalovchi majoziy obrazlar (go'zal ayollar) tasvirlangan. Ikkinchi qavatning o'rta zalida Navoiyning dostonlari asosida lavhalar ishlangan. Tasvirlarda zangori, pushti, kumush, sarg'ish kabi mayin ranglardan foydalанилган.

Shahar aholisi va sanoat tarmoqlarining tez o'sishi Toshkentning bosh rejasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etgan. 1964-yilda bu ish amalga oshirilgan, biroq 1966-yil 26-apreldagi Toshkent zilzilasi munosabati bilan bu loyiha ham qayta ko'rib chiqilgan va ba'zi o'zgarishlar kiritilib, 1967-yilda yangidan tasdiqlangan. Loyihada shahar (Sergeli tumani bilan) aholisi 1,5 mln., umumiyl maydoni 25,6 ming ga bo'lishi nazarda tutilgan.

Shu loyiha asosida Toshkentda yangi mikrorayonlar, muktab, bog'cha-yaslilar, poliklinika, kasalxona, ilmiy-tadqiqot va loyiha institutlari, oliy o'quv yurtlari binolari, ishlab chiqarish korxonalari, madaniy-maishiy muassasalar, 5 mln 794 ming m²-dan ortiq turar-joy qurilgan (1973-yil), ko'plab yangi maydonlar va bog'-parklar, keng va zamonaviy ko'cha va prospektlar foydalanishga topshirilgan. Shahar elektr quvvati, vodoprovod, kanalizatsiya, gaz, telefon va boshqa zarur injenerlik qurilmalari, maishiy xizmat muassasalari davr talablari darajasiga ko'tarilgan, metro qurilishining birinchi navbati ishga tushirilgan (1977-yil).

Zilziladan katta talafot ko'rgan Toshkentni qayta tiklashda, uni yirik zamonaviy shaharlardan biriga aylantirishda qardosh xalqlarining yordami katta bo'lgan. Moskva, Leningrad, Kiev va boshqa shaharlardan quruvchilar (250 mingdan ortiq kishi) va qurilish materiallari yuborilgan. Buning natijasida yuzlab binolar va inshootlar bunyod etilgan.

12.6. Toshkent shahar markazining arxitekturasi

Toshkent markazi rekonstruksiya qilinib, katta maydon va uning atrofidagi ma'muriy binolarni o'z ichiga oluvchi ansambl yaratilgan.



12.8-rasm Toshkent shahri markazi bir qismining umumiyo ko rinishi
Oldinda Alisher Navoiy teatri (1947), undan keyingi dasilabki ko p qavatl bino
Matbuot uyi (1975). keyingisi ma'muriy bino (1972). Matbuot uyining
chap tomonida muzey (1970). undan keyin hozirgi Vazirlar mahkamasining
avalgi binosi (1967)

Bosh maydon shaharning boshqa zonalari – aholi yashaydigan punktlari, sport markazlari bilan uzviy bog'lagan. Toshkentning turarjoylari mahalliy iqlim sharoiti va davr talablariga mos qilib qurilgan. Shaharda yangi mikrorayonlar, «Moskva», «Leningrad», «Ukraina», «Qoraqmis», «Yunusobod», «Visokovoltniy» «Shimol» «Shimoli-Sharq», «Talabalar shaharchasi», «Akademgorodok», «Aviagorodok» kabi massivlar, park va xiyobonlar vujudga keltirilgan. «Chilonzor» massivi kengaytirilgan. Komsomol ko'li, «G'alaba» bog'idagi ko'l, anhor va boshqalar rekonstruksiya qilingan. Sergeli yo'ldoshshaharchasi bunyod etilgan.




*12.9-rasm. Toshkent shahri markazi bir qismining umumiy ko'rinishi.
Oldinda «Toshkent» mehmonxonasi, keyingisi ko p qavatlari Matbuot uyi
binosi (1975), chap tomonda muzey binosi (1970)*


Shahar atrofiga magistral halqa yo'l solingan. Toshkent arxitekturasi muzey binosi, hozirgi Vazirlar Mahkamasining avvalgi binosi (1967), ma'muriy bino (1972), Matbuot uyi (1975), Sirk binosi (1975), San'at muzeyi binosi, «O'zbekiston» mehmonxonasi (1974), «Zarafshon» restorani, aeroportning yangi korpusi (1976) kabi ko'plab zamonaviy binolar bilan boyigan (12.8–12.10 rasmlar). Toshkent zilzilasining 10 yilligi munosabati bilan Toshkent aholisi

jasorati va matonatini, xalqlarning do'stligini madh etuvchi «Xalqlar do'stligi» memorial kompleksi (muzey bilan birga) bunyod etilgan.

1974-yilda poytaxtda «O'zbekiston» mehmonxonasi qurib bitkazilgan (12.12-rasm). Mehmonxona Amir Temur xiyoboni tevaragida joylashgan.



12.11-rasm. Poytaxtdagi muzey binosi (1970-yil)



12.12-rasm. «O'zbekiston» mehmonxonasining umumiyo' ko'rinishi va qavat rejasasi (1974-yil)

Bino konstruksiyasi metall karkasli. Qavatlar soni 17 ta, xonalar soni 495 ta, o'rinalar soni 930 ta. Ikki qavatlari 450 o'rinali ikki zaldan iborat restorani, 100 o'rinali banket zalini, 250 o'rinali kafesi, 100 o'rinali tungi bar va choyxonasi bor. Uning arxitekturasida zamonaliviy va milliy uslublar uyg'unlashgan.

Bo'zsuv arig'ining o'ng sohilida 1978 – 1985-yillarda **Toshkent teleminorasasi** buniyod etilgan (*12.13-rasm*). Uning balanligi 375 m bo'lib, SNG davlatlari ichida Moskvadagi Ostankino teleminorasidan keyin 2-o'rinda turadi.




12.13-rasm. Toshkent shahridagi teleminora (1978–1985-yillar)

Teleminora metall konstruksiyalardan ishlangan (metall harajatlari 6 ming tonna), 9 ballik zilzilaga bardosh beradi. Minora ustunidagi inshoot hajmi 15 ming m³ ni tashkil etadi. Minora ichida tezyurar lift, kommunikatsiya shaxtalari, xizmat xonalari, evakuatsiya zinalari, kuzatish va boshqa xonalari bor.


Toshkentda qurilish ishlari ko'lamini kengaygan Oxunboboyev maydonida ko'p qavatli turar-joy binolari (*12.14-rasm*), Toshkent mehmonxonasi yonida choyxona (*12.15-rasm*), Xadrada yirik gumbazli serhasham yopiq bozor binosi (*12.16-rasm*) barpo etilgan.



*12.14-rasm. Oxunboboyev maydonida qad rostlagan
ko'p qavatli turar-joy binolari*



12.15-rasm. Toshkent shahridagi birinchi eng baland bino – avvalgi 19 qavatli ma muriy binoning umumiyo ko'rinishi (1972-yil)




12.16-rasm. Toshkentdag'i «Moviy gumbazlar» choyxonasi binosi



12.17-rasm. Chorsu bozorining yirik gumbazli binosi




12.18-rasm. Noyob hujm-rejaviy va badiiy vechimga ega bo'lgan
Alisher Navoiy nomli metro bekati



12.19-rasm. Gumbazli metro bekuti



12.20-rasm Toshkentdagi sirk va turar-joy binolari



12.21-rasm. *Istiqlol (avvalgi Xalqlar do'stligi) saroyining umumiy ko'rinishi*



12.22-rasm. *Nihoyatda go'zal ishlangan badiiy-kompozitsiva yechimining fragmenti (1981-yil)*

Istiqlol (avvalgi Xalqlar do'stligi) saroyi Respublika poytaxtida shaharni rivojlantiruvchi element sifatida namoyon bo'lgan. Saroy maydonning bosh elementi sifatida gavdalangan. Istiqlol saroyida

4100 kishiga mo'ljallangan tomosha zali bor. Tarhi to'rtburchak shaklida, quyosh nurini to'suvchi jimjimador konstruksiyalar bino fasadini bezatib, uni yengil ko'rsatib turibdi. Bino 1980-yillar inshooti bo'lib, u davr qurilish ashyolari asosida milliy me'morchilikda an'anaviy badiiy kompozitsiya yechimlarining rivojlanganligini ko'rsatadi. Saroyning an'anaviy shakli kompozitsiyaning umumiy klassik sxemasi bo'yicha tashkil etilgan.

O'zbek milliy me'morchilik san'atining yangi bosqichga ko'tarilishi Vatan mustaqilligi yillarda amalga oshdi. Mamlakatimiz barcha shaharlarining, shu jumladan poytaxt – Toshkent shahrining qiyofasini o'zgarib ketishi, unda zamonaviy, milliy ruhdagi ko'plab binolar va inshootlarning yaratilishi, poytaxt Bosh maydonini obdon rekonstruksiya qilinishi, ko'rakm va serhasham binolar va inshootlar bilan boyitilishi, dam olish joylarining tashkil etilishi, avvalgi binolarni tubdan rekonstruksiya qilinib, bosh maydonga uyg'unlashishi, chiroyli favvoralarining barpo etilishi mustaqillik mevasidir. Toshkent shahri kundan kunga chiroy ochib, go'zallahib bormoqda.

13-bob. O'ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK DAVRI ARXITEKTURASI

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi qo'lga kiritilgach, hayotning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar ro'y berdi. O'tgan qisqa vaqt ichida O'zbekistonda asrlarga tatigulik bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

2002-yilda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Shaharsozlik» kodeksi kuchga kirdi. 2003-yilda kapital qurilish sohasida ham islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, 2003-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida» gi farmoni, shunga muvofiq Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari qabul qilindi va qurilish tizimi mexanizmi tubdan o'zgartirildi. Qurilish mexanizmi rivojlangan demokratik mamlakatlardagidek, to'la shartnomaviy narxlarga o'tib, inshootning asosidan boshlab, uni jihozlash va ishga tushirish tanlov savdolari g'oliblari bo'lган

pudratchi tashkilotlar zimmasiga yuklatiladi. «Yagona buyurtmachi xizmati-injiniring» kompaniyalari tashkil qilindi.

Mustaqillik yillarda 135 ming ga yangi yerlar o'zlashtirildi, 1138 km dan ortiq xo'jaliklararo kanallar tortildi, 414 ta gidrotexnik inshootlar va nasos stansiyalari qurildi (13.1-rasm). Hajmi 600 mln m³ ni tashkil etgan Arnasoy suv ombori qurib bitkazildi. Hajmi 200 mln m³ bo'lgan Rezaksaroy suv ombori bunyod etildi. Talimarjon GRES qurildi, ko'plab irrigasiya inshootlari barpo etildi. Qo'ng'irot soda zavodi (13.2-rasm) qurildi. Asaka shahrida 1996-yilda O'zbekiston tarixida ilk bor «O'zDEU avto» avtomobil zavodi qurilib ishga tushirildi (13.3-rasm). 1997-yilda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, keyinroq «Sho'rtangazkimyo» majmuasi, «Ko'kdumaloq» va «Sho'rtan» kompressor stansiyalari kabi o'nlab zamонави arxitekturadagi yirik sanoat korxonalari qurilib, foydalanishga topshirildi. Paxta tozalash zavodlari qurilishlari avj olib ketdi (13.4-rasm).




13.1-rasm. Arnasoy suv ombori I- nasos stansiyasining umumiy ko'rinishi



13.2-rasm. Qo'ng'irot soda zavodining umumiy ko'rinishi



13.3-rasm. Asaka shahri. Yengil avtomobillar zavodining umumiy ko'rinishi



13.4-rasm. Milliy yo'sinda qurilgan Yangiyo'l paxta zavodining darvozaxonasi

«Qobul-Farg'ona Ko LTD», «Bursel-Tashkent-Tekstil», Jizzaxda «UzEKSAYD», Jalolquduq tumanida «Oyim tekstil», Shahrixon tumanida «Anteks», Qashqadaryoda «QashTEKS», «Oqsaroyto'qimachi» singari qo'shma korxonalar, «Bayteks tidjaret» chet el korxonasi, «Alest Glass» sho'ba korxonasi, «Tashtekstil», «To'rtko'ltekst», «Ay Demir tekstil» va boshqa ko'plab chiroyli, ixcham to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarini yaratildi. To'qimachilik, pardozlash va tikuv ishlab chiqarish korxonalaridan iborat zamонавий to'qimachilik komplekslari barpo etildi.

Qo'shni davlat hududidan o'tgan 423 km li temir yo'li o'rniغا «Navoiy-Uchquduq-Sultonuizdag-Nukus» temir yo'li (358,1 km) Amudaryo ustidagi zamonaviy ko'prigi (**13.5-rasm**) bilan birga qurilib, 2004-yil mart oyida foydalanishga topshirildi.



13.5-rasm. Amudaryo ustida barpo etilgan zamonaviy ko'pri

Yangi zamonaviy temir yo'l qurilishi tufayli respublika ichida yuk tashish harajatlari hisobidan yiliga 20 mln AQSh dolloridan ortiq, xalqaro yuk tashish inobatga olinadigan bo'lsa. 36 mln AQSh dolloridan ortiq mablag' tejalib qolinmoqda. «Uchquduq-Misken-Sultonuizdag» temir yo'l tarmog'ida milliy va zamonaviy me'morchilik uslublari asosida infrastruktura obyektlari qurilib, ishga tushirildi. «Tashguzar-Boysun-Qumqo'rg'on» temir yo'l tarmog'i qurildi, bu esa janubiy mintaqalarning rivojlanishiga katta turki bo'ldi va mamlakatimiz temir yo'l mustaqilligini mustahkamlashga katta hissa qo'shdi. Bu temir yo'lning loyihibaviy uzunligi 221,6 km ni tashkil etadi. Tog'li noqulay va murakkab sharoitdan, balandlik va egriliklardan o'tgan yo'lning umumiy uzunligi 123 km ni tashkil etadi. Bu muhandislik inshooti tog'li hududlarda qurilgan O'zbekiston dagi birinchi temir yo'l sifatida tarix sahifalariga bitildi.

O'zbekiston temir yo'llari bo'ylab ko'plab inshootlar yangilandi (**13.6 – 13.7-rasmlar**), infrastrukturalar zamonaviylashtirildi.



13.6 -rasm. Termiz shahrining yangi temir yo'l vokzali



13.7 -rasm. Guliston shahrining zamonaviy temir yo'l vokzali

Mustaqillik yillarida zamonaviy va ravon sement-beton qoplamali yo'llar 21 km ga, asfalt-beton qoplamali yo'llar 1553 km ga, qora qoplamali yo'llar 353 km ga uzaytirildi. "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining «Qamchiq» va «Rezak» devonlarida 2,5 km li tunnellar turgan holda, yo'llarning 94–214-kmlari qayta qurildi (13.8–13.11-rasmlar).



13.8-rasm. Qamchiq dovonidagi tunellarning kirish joyi



13.9-rasm. Tog'lardagi egri-bugri, qiya avtomobil yo'llari



13.10-rasm. Urganch shahriga kirishdagi tekis avtomobil yo'li




13.11-rasm. Buxorodan Bahouddin Naqshbandiy me'moriy kompleksiga boruvchi yangi ravon yo'l

«Toshkent-Termiz» avtomobil yo'lidan jami 135 km ta'mirlandi.
«G'uzor-Buxoro-Nukus-Beynov» xalqaro avtomobil yo'lining
«Qo'ng'irot-Beynov» oralig'idagi 348 kilometri yangidan qurildi.
«Toshkent-Chorvoq dam olish zonasasi» yo'nalishida 100 km li yo'l

zamonaviy talablar asosida qayta qurildi. Chirchiq daryosi ustiga uzunligi 232 m ni tashkil etgan ulkan ko'pri, 72 m li yo'l o'tkazgich barpo etildi. 1991–2006-yillarda 290 joyda jami uzunligi 9642 m bo'lgan ko'priklar va yo'l o'tkazgichlar qurildi, 412 joyda – 10325 m bo'lgan ko'priklar qayta qurildi va ta'mirlandi.

Binolar va inshootlarni zamonaviy arxitektura talablari asosida barpo etishda tarkibiga 70 dan ortiq yirik, o'rta va kichik korxonalarining birlashishi asosida tuzilgan «O'zqurilishmateriallar» aksiyadorlik kompaniyasini o'rni alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Hozirgi vaqtida kompaniya korxonalarida 100 dan ortiq nomdag'i qurilish materiallari ishlab chiqarilmoqda (13.12-rasm). Cement, ohak, gips, shifer, shisha, tom materiallari, quruq aralashmalar, gips karton, keramik plitkalar, marmar va boshqalar shular jumlasidandir.



13.12-rasm «O'zqurilishmateriallar» aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiruvchi Quvasoydag'i zamonaviy kvars zavodining umumiyo ko'rinishi

Sement ishlab chiqarish yiliga 5,1 mln tonnaga yetdi. Mamlakatimizda 40 tadan ortiq marmar, 16 ta granit, 5 ta gabbro, 1 ta travertin konlari mavjuddir. Ularning umumiyo zahirasi 80 mln m³ dan ortiq bo'lib, hozirgacha izlab topilgan konlardagi mahsulot 100 yildan ortiq vaqtga yetishi aniqlangandir.

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin milliy me'morchilik va shaharsozlikning rivojlanishiga ham keng yo'llar ochildi. Arxitektura va shaharsozlik masalalariga katta ahamiyat berilib. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Trezidentining 2005-yil 30-avgustdagi 165-sonli «Shaharlар, shaharchalar va qishloq aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida»gi qarori chiqdi.

Bunga javoban mamlakatimizda loyihalash va loyihalash ilmiy - tadqiqot institutlarida me'morlar va muhandislarning ijodiy faoliyati yanada rivojlanib ketdi. «Toshkentboshplan» LITI da Toshkent shahri va uning tevarag - atrofini 2015-yilgacha rivojlantirishning bosh reja sxemasi ishlab chiqildi (*13.13-rasm*). Shuningdek, Toshkent viloyati shaharlarining rejaviy sxemasi tuzildi. Toshkent viloyati tumanlarining 2020-yilgacha qurilish bosh rejasining sxemasi ishlab chiqildi. Chimgan – Chorvoq dam olish zonalarining rivojlanish sxemalari (*13.14-rasm*), Samarqand shaharining 2025 yilgacha (*13.15-rasm*) va viloyatdagi 3 ta shaharning rivojlanish bosh rejalarini ishlab chiqildi, shu viloyatdagi 980 ta qishloq aholi hududi bosh rejalar va sxemalar bilan ta'minlandi. «O'zshaharsozlik LITI» tomonidan Namangan, Navoiy, Qo'qon, Termiz va boshqa ko'plab shaharlarning ham bosh rejalarini ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etilmoqda.



13.13-rasm. Toshkent shahri bosh rejasining sxemasasi



13.14-rasm. Chimgan dam olish zonasining planirovkasi



13.15-rasm. Samargand shahrining 2025-yilgacha mo'ljallangan bosh rejası

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimiz rahbariyati siyosatida millat o'zligini anglash manbai bo'lgan ulug' ajdodlarimizning ma'naviy merosiga e'tibor kuchaydi. Tarixiy shaharlarda ulkan restavratsiya ishlari amalga oshirildi. Samarqandda Bibixonim, Buxoroda Kalon masjidlari, Termizda Sulton Saodat diniy ma'muriy ansamblı ta'mirlandi. Qarshi, Shahrisabz, Xiva, Qo'qon, Toshkent, Termiz, Navoiy va boshqa shaharlarda ham restavratsiya ishlari rivojlanib ketdi. Toshkent shahrida tarixiy Baroqxon madrasasi joylashgan hududda milliy uslubdagi ulug'vor inshoot – Hazrati Imom arxitekturaviy ansamblı xalqimizga taqdim etildi (13.16–13.22-rasmilar). Ta'kidlash joizki, ushbu yangi masjid binosi atigi 100 kun ichida qurib bitkazildi.


YUNESKO ning butun insoniyat uchun bebaño bo'lgan tarixiy shaharlari ro'yxatidan o'rın egallagan Buxoro va Xiva shaharlari qatoriga Samarqand va Shahrisabz kiritildi. 2007-yilda Toshkent shahri islom madaniyatining poytaxti deb e'lon qilindi.



13.16-rasm Toshkentda milliy uslubda yangi qurilgan Hazrati Imom masjidining umumiy ko'rinishi (2007-yil)




13.17-rasm Milliy uslubda qurilgan Hazrati Imom masjidining noq'si (2007-yil)




13 18-rasm. Milliy uslubda qurilgan Hazrati Imom masjidining
orqa tomondan ko'rinishi (xonani yoritish uchun sonarlari bo'lgan baraban
shaklidagi gumbaz o'rnatilgan



13.19-rasm Milliy uslubda qurilgan Hazrati Imom masjidining
katta hajmli intereri



13.20-rasm Milliy uslubda baraban shaklida
bajarilgan provomli gumbazning ichki ko'rinishi



13.21-rasm. Hazrati Imom masjidi kompleksidagi milliy uslubda ishlangan
zamonaviy binoning umumiy ko'rinishi



13.22-rasm Hazrati Imam masjidi noyob naqshli darvozasining tavaqasi

Toshkent, Shahrisabz va Samarqand shaharlariga Amir Temur haykallari o'rnatildi (13.23-rasm). Imam al-Buxoriy, al-Farg'oniy, al-Moturdiy, al-Marg'inoniy, at-Termiziylarga bag'ishlangan me'moriy majmualar. Toshkentda «Shahidlar xotirasasi» yodgorligi va boshqa obidalar barpo etildi. Bu inshootlarning buniyod etilishida an'anaviy shakllar (arka, qobiqli hajm, gumbaz va hokazo) qo'llanildi va rivojlantirildi, bog'-rog'lar yaratish san'ati takomillashdi. arxitektura va san'atning tarixiy an'anaviy bog'liqligi rivoj topdi (ornamentli pardozlash, fasadlarga plastik ishlov berish, ganch, yog'och o'ymakorligi va hokazo).



13.23-rasm. Samarqand shahrida o'rnatilgan Amir Temur haykali

1988-yili Umumjahon islam madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligini nishonlandi. Shu munosabat bilan Prezidentimizning tashabbusi va rahbarligida. Poyariq tumanining Xo'ja Ismoil, Eski Xartang qishlog'ida qo'nim topgan allomaning qadamjoyalarida milliy uslubdagi ulkan majmua bunyod etildi (13.24–13.26-rasmlar).

2005-yilda Shohi Zinda. Bibixonim majmualari orasidagi buyum bozori o'rnida obodonlashtirilgan yangi xiyobon tashkil etildi. Samarqand viloyat hududida joylashgan boshqa tarixiy, me'moriy obidalarga ham, katta hajmdagi ilmiy izlanishlar va ta'mirlash ishlari olib borildi.



13 24-rasm. Samarqand. Imom al-Buxoriy majmuasidagi masjid (chapda)



13 25-rasm. Imom al-Buxoriy me'moriy majmuasi ichidagi maqbara




13.26-rasm *Imom al-Buxoriy majmuasi hovlisining bir qismi*


Buxoro viloyati hududida 2003-yilda buyuk alloma Abduxoliq G'ijduvoniying 900 yillik yubileyi nishonlanishi munosabati bilan G'ijduvon shahri markazi hamda allomaning me'moriy majmuasi, shuningdek, buyuk pir Bahouddin Naqshbandiy va ul zotning validasi Orifa ona ziyoratgohlari qaytadan ta'mirlandi va atrof hududlar obodonlashtirildi (13.27–13.31-rasmlar).



13.27-rasm *2003-yilda ta'mirlangan Bahouddin Naqshbandiy me'moriy majmuasining kirish joyidan umumiy ko'rinishi*



13.28-rasm. 2003-yilda ta'mirlangan Bahouddin Naqshbandiy me'moriy majmuasining katta hovuz tomonida ko'rinishi



13.29-rasm. Bahouddin Naqshbandiyning daxmalari, orgasida (sharq tomonida) 2003-yilda buniyod etilgan milliy uslubdagi naqshli ayvon



13.30-rasm 2003-yilda bunyod etilgan milliy uslubdagi ayvонlardan birining naqshli shifti



13.31-rasm. Bahouddin Naqshbandiy me'moriy kompleksi ichki hovlisidagi 2003-yil bunyod etilgan nihoyatda bezakli qilib ishlangan ayvon ustunlari va shiftining umumiy ko'rinishi




13.32-rasm. Milliy me morchilik uslubida ishlangan naqshli yog' och eshiklar

Buxoro shahrining 2500 yillik yubileyi o'tkazilishi munosabati bilan shahardagi 52 ta tarixiy yodgorlik ta'mirlandi. Jumladan. Registon maydoni qaytadan obodonlashtirildi. Poyi Kalon me'moriy majmuasi, Toki Sarrafon, Toqi Telpakfuro'shon, Toqi Zargaron, savdoga, hunarmandchilikka mo'ljallangan toqlar va boshqalar qayta ta'mirlanib, hozirgi vaqtida Buxoroning eng gavjum hududlaridan biriga aylantirildi. «Fitrat», «Istiqlol» nomli bog'lar barpo etildi. Somoniylar istirohat bog'i qayta o'zlashtirilib foydalanishga topshirildi. Xotira xiyoboni tashkil etilib, Motamsaro ona haykali o'rnatildi. Yetti pir silsilasiga kiruvchi Xoja Orif Moxitobon ar-Revgariy, Xoja Maxmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, Xoja Said Amir Mirkulol kabi mutafakkir ulamolar va avliyolarning ziyyaratgohlari milliy me'morchilik uslublari asosida ta'mirlandi.

Surxondaryoda «Alpomish» dostoni yaratilganligining 1000 yilligi. Termiz shahrining 2500 yilligi nishonlandi. Bunday

tadbirlar tufayli viloyatdagi al-Hakim at-Termiziy, Qirqqiz, Sulton Saodat majmualari, Kokildor Ota xonaqohi, Imom Iso at-Termiziy maqbarasi, Qoratepa. Fayoztepa kabi Budda ehromlari ta'mirlandi, yangi-yangi inshootlar tiklandi (13.33-rasm).



13.33-rasm Termiz shahrida milliy uslubda buniyod etilgan tarix muzeyi binosi

Farg'onada Marg'ilonning 2000 yillik yubileyi nishonlandi, al-Farg'oniy oromgohi barpo etildi, ko'plab zamonaviy binolar va inshootlar yaratildi, tarixiy yodgorliklar ta'mirlandi (13.34 –13.35-rasmlar).

«Sharq gavhari» deb tan olingen Xiva shahrining 2500 yilligi (13.36-rasm), Jaloliddin Manguberdining 800 yillik yubileyi va «Avesto» ning 2700 yilligi nishonlandi.



13.34-rasm. Qo'qondagi restavratsiya qilingan Xudoyorxon o'r dasi



13.35-rasm. Quva shahri. Yangi qurilgan al-Farg'oniy me'moriy ansamblı



13.36 -rasm. Ichon qal'a muzey – qo'riqxonasining umumiy ko'rinishi

Navoiy viloyatida «Qosim Shayx» tarixiy majmuasi, «Mir Said Bahrom» maqbarasi, Chashma, «Sardoba», «Mavlono Orif Dexgorroniy», «Shohimardon» tarixiy yodgorliklari, «Oqmachit», «Toshmachit», «Karvonsaroy» va boshqa tarixiy yodgorliklar qayta ta'mirlandi, 2006-yilda «Xotira maydoni» tashkil etildi, Navoiy shahrida yangi Jome masjidi qurilib foydalanishga topshirildi (13.37-rasm).



13.37-rasm. Navoiy shahrida bunyod etilgan Jome masjidining umumiy ko'rinishi

Milliy me'morchilik tarixiy an'analari qator jamoat binolarining arxitekturaviy badiiy qiyofasida o'z o'rmini topdi. Toshkentdag'i Oqsaroy (13.38-rasm), Temuriylar muzeyi (13.39-rasm; 1996-yil), Qatag'on qurbanlari muzeyi (2001-yil). O'zbekiston milliy akademik drama teatri (2001-yil), Nukusdag'i Berdaq muzeyi (2001-yil) va boshqalar ana shular jumlasidandir. Mumtoz yo'nalishdagi milliy me'morchilikning o'ziga xos yechimi Toshkent shahari hokimiyati binosi (12.40-rasm; 1996-yil), Oliy Majlis binosi (13.41-rasm). Toshkentdag'i forumlar binosi (2009-yil) arxitekturasida o'z o'rmini topgan. Birinchi ikkala binoda bayroq shtokli yirik gumbazlar qo'llanilgan. Binolarning intereridan ganch, yog'och o'ymakorlik ishlari va tasviriy san'at namunalari o'z o'rmini topgan.



13.38-rasm. Toshkent shahri. Milliylik va zamonaviylikni o'zida jo etgan Oqsaroy binosining umumiy ko'rinishi

1936-yil 9-aprelda Shahrisabzning Xo'jailg'or qishlog'ida buyuk sohibqiron, yirik davlat arbobi Amir Temur dunyoga kelgan edi. 1996-yilda uning 660 yillik yubileyi nishonlandi. Shu munosabat bilan Toshkent shahrida Amir Temur muzeyi binosi (13.39-rasm) bunyod etildi. Muzey Amir Temur xiyoboni tevaragida joylashtirildi.



13.39-rasm. Toshkent shahridagi Temuriyalar muzeyi binosi

Toshkent shahri hokimligi binosi (13.40-rasm) Mavarounnahr ko'chasida joylashgan. Bu binoda milliy va zamonaviy uslublar uyg'unlashgan, noyob me'moriy yechim o'z o'rmini topgandir.



13.40-rasm. Toshkent shahri hokimligi binosining noyob arxitekturasi

Oliy Majlis binosi qator ustunlar bilan qurshalgan gumbazli qilib ishlangan (13.41–13.42-rasmlar). U Toshkent shahrining Xalqlar

do'stligi maydonida joylashgan. Binoning bosh elementi majlislar zali bo'lib, markazlashma hajm-rejaviy me'moriy yechimda bunyod etilgan. Barcha fasadlari bir xil, bu jihatdan to'rttala fasadi ham bir xil bo'lgan qadimgi Ismoil Somoniy arxitekturasiga mos keladi. Shakllar yaqqolligi, ranglar tiniqligi kishini e'tiborini tortmasdan qolmaydi.



13.41-rasm To'rttala fasadi ham bir xil bo'lgan Oliy Majlis binosining umumiy ko'rinishi



13.42-rasm. Oliy Majlis binosining intereri



13.43-rasm. Milliy uslubda zamonaviy qurilish materiallari asosida Chorsuda buniyod etilgan jamoat binosi

Mustaqillik davrida zamonaviy arxitekturada yangicha uslub yuzaga keldi. 1998–2001-yillarda buniyod etilgan «Interkontinental» mehmonxonasi, biznes markazi, O'zbekistonning milliy banki, «Radisson» mehmonxonasi va qator boshqa binolarda yangicha stil o'z ifodasini topgan (13.44–13.53 rasmlar).

«Interkontinental» mehmonxonasi Amir Temur ko'chasida joylashgan bo'lib, u 10 qavat, 246 xonadan tashkil topgan.

Milliy bank binosi mamlakatimiz mustaqil rivojlanishining ramzi sifatida ko'kkka bo'y cho'zgan. Zamonaviy hajmiy kompozitsiya va dizaynga ega. Mamlakatimiz me'morchiligidagi yangi yo'nalishlarni belgilab berdi.




13.44-rasm. Toshkent shahridagi milliy bank binosining tunda ko'rinishi



13.45-rasm. Toshkent shahridagi «Radisson» mehmonxonasining umumiy ko'rinishi

Toshkentning noyob me'moriy va konstruktiv yechimdagи teleminorasi yaqinida Tennis korti binyod etilgan (13.46–13.47-rasmlar). Uch ming o'ringa mo'ljallangan bu yopiq tennis korti binosi o'ziga xos arxitekturaviy va funksional yechimi bilan jahonning eng yaxshi sport inshootlaridan qolishmaydi. U o'ziga xos shaklda metall konstruksiyalardan binyod etilgan. To'siq konstruksiyalarida zamonaviy materiallar ishlatalig'an.



13.46-rasm. Toshkent shahridagi ustunsiz yopiq tennis kortining tashqi ko'rinishi
(orgada teleminora)



13.47-rasm. Yopiq tennis kortining intereri




13.48 -rasm. Qiyoysi tubdan yangilangan Toshkent shahridagi ma'muriy binoning umumiyo ko'rinishi.

«Interkontinental», «Sheraton», «Meridian», Buxoroda «Buxoro», Samarcanda «Afrosiyob», Toshkentda rekonstruksiya qilingan «O'zbekiston», «Yoshlik», «Dedeman» singari mehmonxonalar dunyo standartlariga to'la javob beradi. Ularda o'ziga xos milliylik va umum-bashariy umumiylig o'z aksini topdi (13.49 – 13.52 -rasmlar).



13.49-rasm. Dedeman mehmonxonasining umumiyo ko'rinishi



13.50-rasm. «Sheraton» mehmonxonasining umumiy ko'rinishi



13.51-rasm. Buxoro shahridagi «Buxoro palas» mehmonxonasi



13.52-rasm. Samarqand shahridagi «Afrosiyob» mehmonxonasi

Samarqand shahrida shuningdek zamonaviy «Prezident-otel» mehmonxonasi (13.53-rasm) buniyod etildi. Uning 164 ta nomeri (48 ta 1 o'rinli 1 xonali, 100 ta 2 o'rinli 1 xonali, 12 ta 2 o'rinli 2 xonali, 4 ta nomer prezident apartamenti hukumat boshliqlarini joylashtirish uchun) bor. O'rtasi 7 qavat balandlikda keng atriumdan iborat. Bu yerda uchrashuv va dam olish joylari, restoran, buset, ma'muriyat xonasi, xizmat ko'rsatish xonalari, suvenir magazini, sartaroshxonalar joylashgan.



2

13.53-rasm. Samarcand. «Prezident-otel» ning umumiy ko'rinishi (1) va intereri (2)



13.54 -rasm Milliy uslubda buniyod etilgan Buxoro shahridagi
«Osyo» mehmonxonasining umumiy ko'rinishi

«Ta'lif to'g'risida»gi qonunga javoban mamlakatimizda ta'lif tizimida tub islohotlar ro'y berdi. Ta'lif va tarbiya, kadrlar tayyorlash sifatini keskin oshirish o'z navbatida yangi tipdagi o'quv yurtlarini, zamonaviy binolar va inshootlar yaratishni taqozo etdi. Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari binolarini yaratish zaruriyati paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 23-sentabrdagi 406-sonli qarori bilan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va ularni mablag' bilan ta'minlash dasturi tasdiqlandi. Ishlab chiqilgan loyihalar g'oyasi, shakli va mazmuni bilan davlatimiz Prezidenti shaxsan tanishib, ularni yanada mazmunli bo'lishi borasida o'zlarining qimmatli maslahatlarini berdilar.

Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 14-avgustdagli 338-sonli va 2003-yil 29-oktabrdagi 473-sonli qarorlarga muvofiq, 1998-2009 yillarda 118420 o'quvchi o'rinci 176 ta akademik litsey va 1 014 504 o'quvchi o'rinci 1691 ta kasb-hunar kollejlari qurish va rekonstruksiya qilib foydalanishga topshirildi. 1998-2005-yillar mobaynida mamlakatimizda 54585 o'rinci 76 ta akademik litseylar va 533155 o'rinci 730 ta kasb-hunar kollejlari qurilib, foydalanishga topshirildi (13.55-13.64-rasmlar). 2007-yilga kelib ularning soni 1200 taga yetdi. Shu jumladan, Andijonda 70 ta, Buxoroda 50 dan ortiq. Qoraqalpog'stonda 52 ta, Samarqandda 53 ta kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar qurildi.



13.55-rasm. Toshkent davlat konservatoriyaning yangi binosi



13.56-rasm. Toshkent davlat konservatoriyaning intereri



13.57-rasm. Qarshi shahridagi Olimpiya zahiralari kollejining umumiy ko'rinishi



13.58-rasm Toshkent xalqaro aloqalar va diplomatiya universiteti akademik litseyining umumiy ko'rinishi

- 294 -



13.59-rasm. Buxoro shahridagi akademik litsey binosining bosh fasadi

- 295 -




13.60- rasm. Qo'qon shahridagi akademik litsey binosining old tomoni

- 296 -




13.61- rasm. Namangan shahridagi akademik litseyning bosh fasadi


- 297 -



13.62- rasm. Qoraqalpog'iston. Bo'ston shahridagi musiqa kolleji
binosining umumiy ko'rinishi



13.63- rasm. Urganch shahridagi turizm kolleji binosining umumiy ko'rnishi



13.64- rasm. Chirchiq shahridagi Olimpiya zahiralari kolleji sport zalining intereri

Yangi tipdagи kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar arxitekturaviy yechimlarini o'ziga xos xususiyatlari o'quv va ishlab chiqarish xonalari, sport-sog'lomlashtirish inshootlari, xo'jalik komplekslarini loyihalash bilan bog'liqdir. Ba'zi birlari qishki bog'va uch tomonlama yoritish tizimi bilan ham barpo etilgan (masalan, Toshkent qurilish va kommunal xo'jalik kolleji, Andijon sport kolleji).

Talaba yoshlarning "Universiada" sport o'yinlariga atab Buxoroda 22 ming. Samarqandda 24 ming tomoshabinga mo'ljallangan va foydalanish har taraflama qulay bo'lgan zamonaviy stadionlar, sport zallari barpo etildi (13.65–13.68-rasmlar). Qarshi shahrida ham bunday o'yingoh qurib foydalanishga topshirildi.



13.65- rasm. Qarshi shahri o'yingohining umumiyy ko'rinishi



13.66- rasm. Qarshi shahri o'yingohining ichki qismi



13.67- rasm. Nukusdagi tennis korti binosining old fasadi



13.68 - rasm Nukusdagi universal sport zalining umumiy ko'rinishi

Istiqlol yillarida mamlakatimiz poytaxti – Toshkent shahri ham tom ma'noda kundan kunga rivojlanib, o'zgacha chiroy ochdi. Toshkentda ko'plab zamonaviy ishlab chiqarish korxonalar, turarjoy binolari, madaniy-maishiy obyektlar, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, bolalar sport maskanlari, banklar, bozorlar, to'yxonalar, supermarketlar, minimarketlar va boshqa xildagi binolar va inshootlar bunyod etildi. O'nlab bog'lar, oromgohlar va dam olish maskanlari yaratildi. Toshkentning eski shahri ham yanada ko'rkalamlashdi. Toshkent shahrining obro' - e'tibori butun dunyoga taralib «Sharq darvozasi» deb tan olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi va bevosita rahbarligida mazmunan va shaklan tamomila yangi Mustaqillik maydoni barpo etildi. Bu yerda keng ko'lAMDAGI qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi binolari tubdan rekonstruksiya qilindi. O'zbek milliy me'morchiligining elementlarini o'ziga jo etgan salobatli Senat binosi O'zbekiston poytaxtining Bosh maydoniga o'zgacha me'moriy mazmun baxsh etdi (13.69-rasm). Senat, Vazirlar Mahkamasi va Moliya vazirligi binolari (13.70-rasm) birgalikda maydonning me'moriy kompleksini shakllantirdi. Maydon

kompozitsiyasi takrorlanmas tashqi qiyofaga ega bo'lib, arxitektura kompozitsiyasining markazini tashkil etdi.



13.69-rasm. Mustaqillik maydonidagi. Senat binosi

Bosh maydonga kiraverishda «Ezgulik arkasi» bунyод etildi (13.71-rasm). O'n olti marinar ustunni tutashtirib turgan mahobatli arka tomon eltuvchi oppoq yo'lak, tepasida charx urayotgan turnalar, behadik laylaklar katta ma'noni ko'zlab ishlанди. Istiqlolning dastlabki kunlarida o'rnatilgan yer sharining ramziy timsoli – «Mustaqillik monumenti» dunyoda O'zbekiston degan yangi davlat paydo bo'lganining, o'zbek xalqini chin ozodlikka erishganinig yorqin ifodasi bo'ldi.



13.70-rasm. Mamlakatning Bosh maydonida joylashgan tubdan rekonstruksiya qilingan Moliya vazirligining zamonaviy binolari



13.71-rasm. Mustaqillik maydoni. O'n olti ustunli Ezgulik arkasi

O'zbekiston Respublikasining yoshlik belgisi, ezgulikning ramzi sifatida ushbu monument ona bilan bola aks ettirilgan «Baxtli ona» bronza haykali bilan boyitildi (13.72-rasm). Mustaqillik va ezgulik monumenti bosh maydonga o'zgacha fayz kiritdi.



13.72-rasm. Bosh maydondag'i Mustaqillik va ezgulik monumenti

Ezgulik arkasi maydonining yangi mazmunini kashf etdi, u mustaqil O'zbekistonning pok va ezgu maqsadlarining ramzi bo'ldi.

Maydon obodonlashtirildi va ko'kalamlashtirildi, gullar va yam-yashil maysazorlarga bo'lindi. Mikroiqlimni yaxshilash maqsadida ko'plab favvora yaratildi (13.73-rasm).



13.73-rasm. Mustaqillik maydonida qurilgan zamonaviy favvoralar

Quyidagi 13.74 - rasmda poytaxt bosh maydonining tarixiy rivojlanishiga oid tasvir keltirilgan bo'lib, unda bu maydonning 1950, 1960, 1970-yillardagi holatlari va 2005-yildagi chiroy ochgan davri tasvirlangan.



13.74-rasm. Poytaxti bosh maydonining tarixiy rivojlanishiga oid lavha

Mustaqillik maydonining shimol tomonida Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan vatandoshlarimizga bag'ishlangan Xotira maydoni (13.75-rasm) Motamsaro ona haykali bilan barpo etildi.



13.75-rasm. Noyob me'moriy yechimda bezakli ishlangan Xotira maydoni.
Bir qismining umumiy ko'rinishi

Bosh maydon ezgulik arkasining shimoli-sharq tomonida 10 yillab qurilishi tugallanmagan bino o'rniga ko'p qavatli baland zamonaviy biznes-markaz binosi binyod etildi (13.76-rasm).



13.76-rasm. Toshkent shahridagi biznes-markaz binosi (orqadagi baland bino)

Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog'ni (13.77-rasm) tashkil etilishi munosabati bilan (1991–1994-yillar) Toshkent shahrining markaziy maydonlaridan biri to'la rekonstruksiya qilindi. Bu yerda Mustaqillik va Navro'z bayramlari tadbirlari tantanali ravishda o'tkaziladigan bo'ldi. Bog' manzarasi sun'iy ko'l bilan yanada go'zallahshdi va so'limlashdi.

Bog'ni rekonstruksiya qilishdan maqsad aholi va shahar mehmonlarini dam olishi uchun odatiy qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat edi. Davlatimiz Prezidenti takliflariga ko'ra bog'ning g'arb tomonida, ya'ni tinch dam olish joyida tasviriy va amaliy san'at, kiyimlar modelini ko'rgazma qilish va boshqa maqsadlar uchun ko'rgazma paviloni bunyod etildi (13.78-rasm).



13.77-rasm. Alisher Navoiy nomli milliy bog'ning umumiy ko'rinishi



13.78-rasm. Alisher Navoiy nomli milliy bog'dagi ko'rgazma paviloni

Pavilon to'g'ri burchakli ayvon tipidagi inshoot bo'lib, perimetrlari bo'yicha yog' och ustunlarga o'rnatilgan. Atrof-muhit bilan aloqani yaxshilash va xonalarni yorug' qilish maqsadida inshootning tashqi devorlari o'rniغا vitraj qo'llanildi.



13.79-rasm. Toshkent shahridagi zamonaviy o'ziga xos me moriy yechimdag'i akvaparkning unumiy ko'rinishi

Bog'-rog' yaratish san'atining an'anaviy yechim usullariga murojaat qilish boshqa joylar shaharsozligidan ham o'rin egalladi. Andijonda «Bog'i Bobur», Urganchda Amir Temur va shoirlar bog'lari. Namanganda Bobur skveri. Qo'qonda Muqimiy va Furqat nomli bog'lar. Navoiy shahrida Alisher Navoiy nomli. Buxoroda Somoni nomli bog' va Madaniy markaz shular jumlasidandir (masalan, 13.80–13.81-rasmlar). O'zbekistonning zamonaviy shaharlarida, xususan ularning loyihibalarida sifat jihatdan yangicha yechim – tabiiy muhitni landshaft bilan boyitish masalasiga katta e'tibor berildi (13.82–13.83-rasmlar). Vatanimizda ko'plab oromgohlar yaratildi (13.84–13.85- rasmlar).



13.80-rasm. Sononiylar bog'ida buniyod etilg'an Xotira maydoni
Motamsozo ona haykali bilan




13.81-rasm. Urganch shahri. Avesto bog ining umumiy ko'rinishi



13.82-rasm. Jizzax shahrida sun'iy soy bo'yidagi «Istiqlol» bolalar bog'i

- 312 -



13.83-rasm. Noyob shaklda suv havzası bilan birga buriyod etilgan Andijon shahri amfiteatrining umumiy ko'rinishi

- 313 -



13.84-rasm Bo'stonliq tumani Chorvoq sohilida barpo etilgan «Piramida» mehmonxonalar kompleksi



13.85-rasm. Toshkent viloyatidagi Oqtosh oromgohuning bir qismini umumiy ko'rinishi

Mamlakatimizda turli xildagi jamoat binolari, soliq idoralari qurish ishlari rivojlandi (masalan. 13.86–13.87-rasmlar).



13.86-rasm Jizzax shahridagi Soliq inspeksiyasi binosi



13.87-rasm. Urganch shahridagi soliq inspeksiyasi binosining
ko'cha tomondag'i fasadi

Mamlakatimiz shaharlarida ko'plab zamonaviy bank binolari qurilib, foydalanishga topshirildi (masalan, 13.88–13.90-rasmlar).



13.88-rasm Toshkent shahridagi zamonaviy uslubda ishlangan banklar
assotsiatsiyasi binosining umumiy ko'rinishi



13.89-rasm. Buxoro shahridagi zamonaviy uslubda ishlangan yoy shaklidagi sanoat - qurilish banki binosining umumiý ko'rinishi




13.90-rasm. Guliston shahridagi Asaka banki binosining bosh fasadi

Mamlakatimiz Prezidenti bozorlar qurilishi ishlariiga jiddiy e'tibor berdilar. Natijada barcha shaharlar va tumanlarda zamonaviy bozorlar komplekslari qaror topdi (masalan, 13.91–13.92-rasmlar).



13.91-rasm. Namangan shahridagi Jahon bozorining kirish qismi



13.92-rasm. Guliston shahri Markaziy bozorining umumiy ko'rinishi

Mustaqillik-sharofati bilan Toshkent shahrida metroning ko'plab bekatlari (masalan, Yunusobod yo'nalishida oltita bekat) ishga tushirildi.

Mamlakatimizning barcha shaharlarda turar-joy va yangi - yangi jamoat binolari, savdo inshootlari, oshxona, choyxona, to'yxonalar, sport komplekslari qurish, servis xizmati ko'rsatish, mahsulotlar ishlab chiqarish va boshqa turdag'i maishiy xizmat obyektlari bunyod etish ishlari rivoj topdi (masalan, 13.93-13.97-rasmlar).

- 318 -



13.93-rasm. Zamonaliviy qurilish materiallariidan Buxoro shahrida bunyod etilgan o'ziga xos uslubdagi shaxsiy turar-joy binolaridan birining bosh fasadi

- 319 -



13.94-rasm. Toshkent shahrida bunyod etilgan o'ziga xos yechimindagi ko p qavatli turar-joy binolaridan birining bosh fasadi



13.95-rasm Toshkent shahrida bunyod etilgan o'ziga xos yechimdag'i ko'p funksiyali binolaridan birining umumiyo ko'rinishi



13.96-rasm. Zamonaviy uslubda ishlangan Buxoro shahridagi avtomobil yonilg'isi quyish shaxobchasining umumiyo ko'rinishi



13.97-rasm. Buxoro shahridagi to'xxonalaridan birining bosh fasadi

Ushbu darslikning ikkinchi bo'limida biz ba'zi misollarnigina keltirish bilan cheklandik, xolos. Ularning soni ko'pligi sababli hammasini bitta kitobda keltirishning imkoniyati bo'lmadi. Biroq, yuqorida bayon etilgan fikrlar va keltirilgan misollardan ko'rindaniki, mustaqillik davrida O'zbekiston milliy me'morchilik san'ati juda tez sur'atlar bilan yanada o'sdi, arxitekturaning yashiringan yangidan - yangi qirralari kashf etildi.

Me'morlar shaharlarni yanada ko'rkar qilish, binolar va inshootlarning zamonaviy va an'anaviy yechimlarini uyg'unlashtirish yo'lida tinimsiz ijod qildilar. Ular izlanishlar olib borib, betakror loyihalar yaratdilar va yaratmoqdalar. Arxitektorlar, muhandislar, binokorlar va xalq ustalarining ijodiy hamkorligi yangi pag'onaga ko'tarildi. Yurtimizda haqiqiy arxitektura asarlarini, binolar va ularning komplekslarini barpo etib. Vatanimizning yanada obod bo'lishida kattadan katta hissa qo'shmaqdalar.

Kelgusida O'zbekiston milliy me'morchiliginini yanada rivojlantirish, arxitekturada mahalliy shart-sharoitlarni to'la hisobga olish, qadimiylarimizning afsonaviy qiyofalarini tiklash maqsadida Yurtboshimizning bevosita tashabbuslari bilan avval ochilgan Toshkent arxitektura-qurilish va Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti qatorida, Xiva davlat universiteti va Buxoro texnologiya instituti tarkiblarida arxitektura - qurilish

fakultetlari tashkil qilindi. Ushbu fakultetlar ham yosh arxitektorlarni amaliyotga yetkazib berish va tarixiy me'morchilik maktabalarini qaytadan tiklash borasida samarali faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda hozirgi vaqtida rivojlangan demokratik mamlakatlar arxitekturasi yutuqlarini hisobga olgan holda, zamonaviy qurilish materiallari (metall, beton, g'isht, yog'och, plastik, shisha singari zamonaviy materiallardan) va konstruksiyalaridan oqilona foydalanib, yangicha binolar va inshootlar barpo etilmoqda, rekonstruksiya ishlari rivojlanmoqda, me'moriy yodgorliklar restavratsiyasi tubdan yaxshilanmoqda.

Milliy shart - sharoitlar, demografik holatning o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olib, an'anaviy zamonaviy uslublarni mohirona uyg'unlashtirib kelayotgan me'morlar va xalq ustalari, an'anaviy va zamonaviy konstruksiya va materiallarni qo'llab ish ko'rayotgan muhandislar. O'zbekiston milliy me'morchiligi va binokorligining ravnaqi, Vatan obodonchiligi yo'lida ijodiy faoliyat ko'rsatmoqdalar. Tinimsiz izlanishlar olib borib, vaqt silsilasiga bardosh beradgan, keyingi avlodlarga ham xizmat qila oladigan mustahkam, g'ururlansa arzigulik yangidan yangi binolar va inshootlar, ularning ansambllarini yaratish, shahar va qishloqlarimizning yanada ko'rakm va obod qilish yo'lida ijodiy mehnat qilmoqdalar.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. O'zbekistonning 1920–1990-yillardagi arxitekturasiga izoh bering.
2. 1920–1990-yillar arxitekturasi to'g'risida sizning fikringiz?
3. Arxitekturaviy konstruktivizm deganda nimani tushunasiz?
4. Arxitekturadagi keyingi yo'nalishlar to'g'risida fikringizni bildiring.
5. XX asr arxitektura inshootlaridan qaysi birlari sizga ko'proq ma'qul tushgan?
6. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi arxitekturasining rivojlanish tarixini qisqacha sharhlang.

7. Mustaqillik yillarda mamlakatimizda bunyod etilgan qaysi korxonalarini, irrigatsiya va gidrotexnika inshootlarini bilasiz?
8. Avtomobil va temir yo'llari qurilishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
9. O'zbekiston milliy arxitekturasi qaysi yo'nalishlarda rivojlanmoqda?
10. «Ta'lif to'g'risida»gi qonunni bajarish yo'lida mamlakatimizda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari to'g'risida fikringizni bildiring.
11. Barpo etilgan akademik litsey va kasb - hunar kollejlарining arxitekturasi to'g'risida sizning fikringiz?
12. Mustaqillik sport inshootlari bo'yicha nima deya olasiz?
13. Mehmonxonalar, magazinlar, banklar, to'yxonalar va boshqa turdagи xizmat ko'rsatish inshootlarini qurilishi to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
14. Yangi uslubda yaratilgan jamoat binolariga o'z munosabatingizni bildiring.
15. Madaniy me'ros obyektlarini ta'mirlash va yangidan yaratilgan qadamjoylar to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
16. Mustaqillik yillarda mamlakatimizda, viloyatlarda yaratilgan siz biladigan zamonaviy binolar va inshootlarni sharhlang.
17. Mustaqillik maydoni to'g'risida nimalarni bilasiz? Maydonda mustaqillik va ezzulik ramzini qaysi monumentlar ifoda etgan?
18. Mustaqillik yillarda bunyod etilgan o'zingiz bilgan binolar va inshootlarni qisqacha izohlang.
19. Zamonaviy binolar va inshootlarning me'moriy - konstruktiv yechimlariga qisqacha tavsif bering.
20. Zamonaviy arxitekturada milliylik va zamonaviylikni uyg'unlashganligiga misollar keltiring.
21. O'zbekiston milliy arxitekturasining kelajakdagi taraqqiyoti to'g'risida o'z fikringizni bildiring.

14-bob. O'ZBEKISTON MILLIY ME'MORCHILIGIDA NAQSHNING QO'LLANILISHI

Qadimiy turar-joy binolari, masjidlar, madrasalar, maqbaralar, so'nggi asrlarda bunyod etilgan qator boshqa xil binolar va inshootlar me'morhilida singib ketgan rango-rang naqshlar, asrlar davomida yuzaga kelgan nafosat durdonalari, yorqin va quvnoq rangli gullar, yuksak did bilan ado etilgan bezaklarni o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Zamonaviy tafakkur asosida milliy an'analarni o'zlashtirish jarayoni g'oyat murakkab ijodiy muammolardan biridir. Bu borada ikki yo'l bor: birinchisi – mazkur an'analarni xalq ustalari san'atida saqlab qolish; ikkinchisi – olis ajdodlarimizning badiiy barkamol ijodiy merosini hozirgi zamonda ijod etayotgan me'morlar ishlariga singdirib yuborish. Aslida har ikkala yo'l to'g'ri ko'rinsa-da, masalaning qaltis tomonlari bor: birinchisida – ma'lum darajadagi konservtizm tursa, ikkinchisida – o'tgan zamon me'morlari ishiga ko'r-ko'rона taqlid etish. Bu to'siqni eski uslubga yangilik kiritish bilan emas, balki eski uslubning shakl va mazmunini yangilatish bilan hal qilish mumkin.

O'zbekiston hududida qadimgi rassomlik san'ati O'rta tosh asriga borib taqaladi. Masalan, Zarautsoy qoyasida chizilgan rasm milodan avvalgi 10 ming yillarga mansubdir. Markaziy Osiyoda qadimiy madaniyatning shakllanishi devoriy tasvir paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Milodan avvalgi VI – III ming yilliklarda odamlar yashagan qadimgi uylardan tasvirlar topilgan. Tasvir ikki yo'nalishda bajarilgan: birinchisi – bir syujetli (hayvonlar surati), ikkinchisi – naqshli sur'atlar.

Bundan uzoq vaqt o'tgach, devoriy sur'atlar antik davr (eramizdan oldingi IV asrdan to eramizning IV asrigacha bo'lgan davr) arxitekturasida yana shakllangan. Bunga ellenizm sababchi bo'lgan. Mahalliy zaminda uning o'z mavzusi va o'z uslubi yaratilgan.

Me'morhilikda monumental naqshu nigorning rivojlanishiga tabiiy-iqlim sharoitlarining ta'siri kuchli bo'lgan. Qisqa muddatli qish fasli bilan yilning jazirama issiq fasli bu mintaqaga me'morhilida

uy-joylarning keng va bahavo bo'lishini taqozo etadi. Bunday sharoitda har qanday turar-joy va jamoat binosini ayvonsiz va hovlisiz tasavvur qilish qiyin edi. Uylarda yashovchilar yilning juda ko'p qismini ayvonda o'tkazganlar. Ayvonlarga ko'proq oro va jilo berishning ma'nosi ham ana shundan kelib chiqqan. Shu boisdan turar-joy, masjid, madrasalarning ayvonlarida rango-rang, ko'zni qamashtiruvchi naqshu nigorlar ko'plab uchraydi. Binolar panno, hoshiya singari bezaklar bilan bezatilgan.

Devordagi naqshu nigorlar ikki yo'nalishda bo'lgan: diniy va dunyoviy oqimlar.

Ilk o'rta asrlardagi bezakchilikni xususiyati – rasmlarda odatdagi kenglik, bo'shliq degan gaplar uchramaydi, soya yo'q, biroq ulardagi hajm jonli ko'rinadi. Odatda, ko'p miqdordagi jonli maxluqlarning tasviri birgina rang bilan ifoda etilgan, tagi yo ko'k, yo qizil rangda, rasmning tarhlari esa goh qora, goh to'k qizil tusda bo'lgan.

Rassomlik san'ati maktablari o'rta asrlar davrida (V – VII asr) rivojlanganligi qayd etilgan. Devoriy tasvirlar, asosan, mavzuli xarakterga ega – naqshlar faqat bo'rtma va hoshiyalarda namoyon bo'lgan.

Afrosiyob va Varaxshadagi qasrlarning zebu ziynatlari, Bolalik tepadagi qo'rg'onning bezaklari (*14. I-rasm*) ham naqshu – nigor ham haykaltaroshlik, ham ganchga o'yib ishlash san'atidan namuna bo'lib qolgan, o'sha davr madaniy hayotidan shohidlik beradi.



14 I-rasm. Bolalik tepa saroyi devoridagi tasvir (VII – VIII asrlar)

Bolalik tepa qal'asi (V – VI asr) devoridagi sur'atda sanoqsiz odamlar tasviri tushirilgan, bu ulkan san'at asari saroya o'zgacha tantanavorlik baxsh etgan. Afrosiyob shaharchasi saroyi devorida bizning davrimizgacha saqlanib kelgan so'g'd yozuvlari yordamida tafsilotini bilish mumkin bo'lган chorsi saroy devorlaridagi naqshu nigorlarda Chag'oniyon elchilar, og'ir yukli karvon, son-sanoqsiz parrandayu jonivorlar tasviri aks ettirilgandir (9. I-rasm).

Sur'atlardagi odamlar va ularning libosi o'ta aniqlik bilan tasvirlangan. O'sha olis zamonalarda kechgan tarixiy voqealarni aks ettirgan musavvir so'g'd tasviriy san'atining tom ma'nodagi durdonasini bunyod etgan. Varaxsha shaharchasi saroyi devoridagi sur'atlar o'zining shikor manzaralarini naqadar aniq tasvirlash bilan kishilarda chuqur taassurot qoldiradi (10. I-rasm).

Sur'atlar shon-shavkat va mardonavorlik timsolini o'zida tajassum etgan. Chipor qoplolar va jangovor fillar tasviri o'zining ijrosidagi nazokati va betimsol nafosati bilan qoyil qoldiradi.

Umuman olganda, Afrosiyob, Bolalik tepe, Varaxshadagi tasviriy san'at namunalari o'zlarining monumental kompozitsiyalari, uyg'unligi va mutanosibligi yoki aksincha, manzaralardagi shiddatli harakat, tasvirning mohirona ijro etilishi hamda ranglar uyg'unligining aniqligi bilan xarakterlanadi.

VIII asr o'rtaida Markaziy Osiyoda qaror topgan islom dini o'zidan avvalgi madaniyatning ildizini chopgan. Yangi din va yangi g'oya bezakli tasviriy san'atga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Voqeaband naqshu nigorlar yo'qolib ketib, faqatgina tabiat manzaralari hamda bezakli naqshlar qolgan.

Dastlabki paytlarda shariatda jonli mavjudotning aksini tushirishni man etuvchi hech qanday qoida bo'limgan. Qur'on esa bu borada faqat ogohlantirish bilan cheklangan bo'lib, sharob ichish, qimor o'ynash va odam shaklini yasash – «shayton vasvasasi» deb dindorlarni hushyorlikka chaqirgan. Ammo, keyinchalik yaratilgan diniy sharhlar va hadislar ko'proq murosasiz yo'l tutib, qat'iy ravishda: «Tangri yoki odamzot sur'atini chizishdan tiyiling, faqatgina daraxtlar, gullar va jonsiz mavjudotlarning rasmini soling», aks holda bu qoidani buzgan kishi gunohi azim qilgan bo'ladi», deb odamlarni qo'rqtigan. Jonli mavjudotlarning sur'atini chizish man etilishining ma'nosi xudodan boshqa hech kim biror narsa yaratish u yoqda tursin, hatto xudo yaratgan narsani qayta gavdalantirishi ham mumkin emas va uning qo'lidan kelmaydi ham, aks holda musavvir xudo bilan bas boylab, uning irodasiga shak keltirgan bo'ladi deb izohlangan.

Islom talablariga bo'y sunish natijasida bezakli san'atda monumental naqqoshlik rivoj topgan, arab yozuvining o'zlashtirilishi bilan bezaklarda unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'lgan. Yozuvlar ma'lum darajada barcha bezaklarning umumiylariga bo'y sundirilib, yozuvning o'zi ham naqsh vazifasini bajargan.

Demak, IX asrdan boshlab, islom dinining kirib kelishi munosabati bilan tasviriy san'atda naqshning ahamiyati o'sa boshlagan. Binolarning yog'och konstruksiyalariga o'yib gul solish va ganchkorlik, g'ishtlar va sopollarga (terrakota) bezak


berish, g'isht terimi bilan devorga jilo berish keng qo'llangan (14.2-14.3-rasmlar).

O'rta asr bezak san'atida rang va naqsh ramziyligi yuksaklikka ko'tarilgan. Tasvirlarda qandaydir bir ramziy ma'no yashiringan. Naqshdagi ranglarning o'zlariga xos ma'nolari bo'lgan. Masalan. gulsafsar osoyishtalik va umr uzoqlik, to'lqinsimon gul poyasi boylik va faravonlik, novda va yaproqlar to'kinchilik hamda tabiatni bahor chog'ida uyg'onish timsoli bo'lgan. Ona tabiatga chuqr muhabbat, jo'shqin hayot bilan hamnafaslik bezaklarda o'z ifodasini topgan.


Gullar va naqshlar borasidagi xalq tasavvuri doim sehrujodu, aqidalar, urf-odatlar va pand-nasihatlar bilan qorishib ketgan. Masalan. oq rang baxt va omadni, zangori rang oliv e'tiqodni, qizil rang xushchaqchaqlik va shodlikni bildirgan. Ranglar bir-biri bilan chaplashtirilmay, har biri o'z holicha g'oyat tiniq berilsa-da, hatto bir-biriga eng zid ranglar ham qandaydir yaxlitlikka ega bo'lgan. Bu ramziylik xalqimizning liboslari, zargarlik buyumlari, uy-ro'zg'or ashyolari kabi uy-joy bezaklariga ham uzviy ravishda ko'chib o'tgan.

Bezakli amaliy san'atning keng tarqalgan shakli bo'lmish ornament (naqsh, gul, rasm) bashariyat madaniyatining barcha bosqichlarida unga hamroh bo'lib kelgan. Uning eng oddiy tamoyillari uyg'unlik, bir-biriga mutanosiblik, yo'sin va usullarning qayta takrorlanishiga amal qilingan. Naqshdagi yo'sinlar aksariyati barqaror bo'lib. o'zining ornamentlik shaklini yo'qotmagan holda bir buyumdan boshqa buyumga ko'chib o'tgan. Bu qoida mebellar, uy-joy, ro'zg'or ashyolarida, devor va shiftlarga ishlangan bezaklarda yaqqol ko'rindi.

Turar - joylar va sajdagohlarda ko'p uchraydigan kunguralar shakli aslida istehkom va qal'a devorlarini gir aylantirib tiklangan kungurador to'siqlardan olingen. Inshootning mudofaa vositasini o'ynovchi element naqshga ko'chgan, keyinchalik u sehru-jodu kuchiga ega bo'lib qolgan. Naqshlar bilan xalqning fe'l-atvori, go'zallikni sevishi, ongu fikri aks ettirilgan.



14.2-rasm Ismoil Samoniy moqharasiga kirish arkalarining q'ishlariiga bezak berilish (IX asr)




14.3-rasm. Arslonxon davrida usta Baqo rahbarligida g'ishiga solingen betakror naqshlar bilan bunyod etilgan Minorai Kalon (1127-yil)

XI – XII asrlardagi naqshu nigorlar to'g'risida ma'lumotlar juda kam uchraydi, ular deyarli saqlanib qolmagan. Girih yetakchi rol o'ynagan degan ma'lumotlar bor. Girih bu geometriyani obdon bilishni taqozo etuvchi murakab geometrik naqshdir. Naqshlar boy

plastikaga ega bo'ladi. Bu davrning naqshlari ganch o'ymakorligi san'atiga yaqin turgan.

XII asrdan boshlab esa naqsh rangli koshinlarga ko'chgan. Naqsh bilan binoning ichki devorlari va ayvonlari bezatilgan. Asrlar mobaynida to'plangan naqqoshlik yo'sinlarining boyligi, ranglar uyg'unligiga erishish mahorati, tasvirlarni ishslashdagi texnik usullar xalq ustalari tomonidan asralib, shu kungacha yetib kelgan.

XIII asrda Chingizzon bosqini madaniy hayotni izdan chiqarib yuborgan. Temur va temuriylar davrida san'atning barcha turi kabi bezakli naqshlar yuqori darajaga ko'tarilgan (*14.4-rasm*).



*14.4-rasm. Ganchkorlik va sirli parchinlar bilan noyob shaklda pardozlangan
Amir Temur maqbarasining peshtoqi*


Temuriylar davrida islom ta'qiqlari bartaraf etila boshlangan, voqeaband tasvirlar qaytadan jonlangan. Devorlarda to'yilar, mashshoqu mutriblar, amirning o'z rasmi, malika va ularning qarindosh urug'lari, olimlarni qabul qilish marosimlari singari tasvirlar ishlangan.

Ulug'bek rasadxonasida ham tasviriy manzaralar yaratilgan, ularda to'qqiz qavat osmonu yetti qavat yer, sobitu sayyoralar, tog'lar, dengizlar, sahrolar va hokazolar aks ettirilgan. Bu davr tasviriy san'atining asosiy vazifasi hukmronlarning kuch-qudrati, sarvati va harbiy shavkatini ulug'lashdan iborat bo'lgan.


Afsuski, vayronagarchilik keltiruvchi ba'zi urushlar va vaqt taqozosi bilan qasrlar va boshqa jamoat binolaridagi rasmlar yo'q bo'lib ketgan. U davrga oid bo'lgan tabiat manzarasi aks ettirilgan rasmlarning ayrim qismlari qadimiylar shaharlar yodgorlik binolarining ichkarilarida saqlanib qolgan.

Ko'k bo'yoq bilan oppoq ganch ustiga daraxtlar, butoqlar, qushlarning shakllariga hal berib nihoyatda nafis ifoda etilgan. Musavvirlar tomonlaridan naqshlar bilan chatishtirib yuborilgan tabiat manzaralarini yaratilar ekan, ularda tabiatning ilk bunyodga kelgan chog'idagi osoyishtalik g'oyasi singdirilgan, jannatdagi bog'-rizvon aks ettirilgan. Bu esa, o'z navbatida, tasviriy san'atning islom aqidalari bilan chambarchas bog'liq bo'lishini yana bir karra ko'rsatgan.


XV asrda naqshu nigoring mozaika va mayolika bilan pardozlash ishlari yanada rivoj topdi (*14.5–14.8-rasmlar*), kundal san'ati paydo bo'lgan. Kundal bu maxsus gil ustidan qizil loy bilan bo'tiq naqshlar solingan, tagi to'q ko'k bo'yoqqa bo'yalib, naqshi yuqa tilla qatlami bilan qoplangan, tillaning ustidan esa naqshu nigorlar tushirilgan bezak turi.




14.5-rasm Guldastra va gullar o'z ifodasini topgan sirkor parchinlardan
ishlangan Mir Arab madrasasi peshtoqisining bitta paneli



14.6-rasm. Inson yuzi, hayvonlar, gullar va geometrik shakllar o'z ifodasini
topgan sirkor parchinlurdan ishlangan Sherdor madrusasi
peshtoqisining fragmenti




14.7-rasm. Sirkor parchindan išlangan Buxorodəgi Abdulloxon mudrasasi fasudining fragmenti



14.8-rasm. Turli materiallarga (ganch, sirli parchin va g'ishtga) naqsh solingan
Nodir Devonbegi madrasasining darvozaxonasi gumbazi

Samarqanddagi Ishratxona, Tillakori madrasa - masjidi, Oqsaroy maqbaralarining ichki qismi xuddi shu usulda bezatilgan (masalan, 14.9-rasm).

14.9-rasm. Tillakori madrasasining gumbazida ishlangan bezaklar



Ornamental kompozitsiya bilan kundal usulida ishlov berish binokorlikda rivojlangan. Buxorodagi masjidi Baland, Xoja Zayniddin xonaqohi va Abdulazizxon madrasasi, Samarqanddag'i Tillakori madrasasi va boshqalarda shu yo'sindan foydalananilgan. Bu davrga kelib kelib syujetli devoriy rasmlar deyarli chizilmagan.

1647–1660-yillarda qurilgan Tillakori madrasasining katta xonasi ichidagi badiiy bezaklar jilosiga halning hamda rangorang naqshlarning tovlanishiga asoslangan bezaklarning me'moriy shakllarni tuzilishiga qarab taqsim etilgan. Burchak-burchaklaridagi mehroblar kundal uslubida islimiylar naqshlar bilan bezatilgan (14.9-rasm).


O'rta asrning eng yaxshi binolari naqqoshlik va bezak san'ati uyg'unligining, naqshu nigorlar hamohangligining chinakam namunasi bo'lib xizmat qilgan. Oddiygina oro berilgan panelning yuqorisidagi gir atrofi chiroyli gul shakli bilan o'ralgan turli-tuman pannolar savlat to'kib turadi, qubbalarda esa devor gumbaziga mos ravishda yuqoriga chiqqan sari torayib boruvchi ornamentlar aqlini lol qoldiradi. Har bir kompozitsiya hajm va shakl e'tibori bilan o'zi mustaqil bir tugal asar.

XVII asr oxiriga kelib, devoriy naqsh san'ati tanazzulga uchragan. Xonalarning jihozlanishi ma'lum bir qolipga tushib qolishi, mavzular takrorlanmasligi, tillani ortiqcha sarflanishi bundan guvohlik beradi.


XIX asrga kelib o'zbek xonliklari iqtisodiy jihatdan mustahkamlangan. Madaniy hayotda, naqsh san'atida yana rivojlanish yuzaga kelgan. XIX – XX asrlarda Buxoro, Xiva, Qo'qon xonlarining saroylari, aholi uchun markaz vazifasini bajargan masjidlar, mehmonxonalar va shu kabi boshqa inshootlar naqshlar bilan bezalgan (14.10–14.13-rasmlar).

Xivadagi Tosh hovlida (1830–1836-yillar) xon saroyi uch bo'limdan iborat – arz hovli, ishrat hovli va haram. Devor va ayvonlari sirkor sopol bilan, shiftlari esa naqshlar bilan bezatilgan (14.10-rasm).

Qo'qondagi Xudoyorxon saroyida Farg'onan naqqoshligining tub badiiy uslublaridan foydalanganlar (14.11-rasm).




14.10-rasm Xivadagi Toshkhovlining shiftidagi naqsh




14. II-rasm. Xudoyorxon saroyi salomxonasi dagi naqsh

Xudoyorxon saroyining (1871-yil) qabulxona qismi ichkarisi goyat bezaklarga boydir. Zaminiga archadan farsh to'shalgan, devorlariga o'yma naqshli ganchga mutanosib tarzda shisha va sopoldan gullar tushirilgan. Shiftlarning gir aylanasi bo'ylab ganchdan sumalaksimon hoshiya (friz) yopishtirib chiqilgan va uning butun yuzasiga zikh qilib rang-barang naqsh chizilgan.



14.12-rasm. Bolohavuz masjidi ustunlari va karnizidagi naqshlar

Buxorodagi Bolohavuz masjidida (XVIII – XX asrlar) bajarilgan nafis naqshlar ayvon shifitingin avaylab saqlab kelinishini ta'minlagan (14.12–14.13-rasmlar). Ansambl o'zining badiiy nafosati bilan Registon maydoning tarkibiy qismiga aylanib ketgan.



14. 13-rasm Bolohavuz masjidi ustunlari va markaziy shiftidagi naqshlar

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mahalliy badiiy me'morilik maktablari yuzaga kela boshlagan. Ular yaratgan bino va inshootlar nafaqat o'zlarining hajm-rejali kompozitsiyalari bilan, balki bezaklarining g'oyat nafisligi bilan ajralib turgan. Masalan, Xorazmda musavvirlar butun yuzani geometrik naqshlar bilan to'ldirib, moviy rangli bo'yoqlarni ma'qul ko'rghanlar. Bu davrdan kishini hayratga soluvchi ko'p naqshu nigor namunalari saqlangan. Gul butoqlar, daraxtlar, guldonga qo'yilgan guldastalar va turli tuman naqshlar aks ettirilgan san'at mahsullari shular jumlasidan bo'lgan (masalan, Buxorodagi Sitorai Mohi Xosa saroyi).

Binoning ichki qismidagi har bir me'moriy bo'lak ornamental bezaklarning ma'lum tipini tashkil etgan. Devorlar uzunasiga uch qismga bo'lingan: panel qismi, o'rta qismi va yuqori qismi – friz. Yirik hajmdagi manzarali yoki naqshli kompozitsiyalar, odatda, devorning


o'rta qismida yaratilgan. Unvonli yozuvlarni bitish ham devorlarning ana shu qismda bajarilgan. Devorlarning friz qismi sidirg'a rangli geometrik chizmalardan iborat bo'lgan. Devorning shiftga tutashgan yerida ganchli karniz (sharafa) o'rnatilgan. Tep-tekis taxta shift bir necha ayrim-ayrim bo'laklarga bo'linib, uning o'rtasi o'yib ishlangan ganchli qubbalar (havzak) bilan bezatilgan. Havzaklarga turunjlar. islimiy yoki geometrik naqshlar tushirilgan. Ba'zi joylarda havzaklarga silliq vassa juftlar bilan ishlov berilib, taram-taram yuza hosil qilingan. Bolorlarga (to'sinlarga) ikki yoki uch tomonidan soch o'rimi shaklida naqsh tushirilgan.

Uylarining ichlaridagi gulga boy gilamlar, rango-rang adyol va choyshablar, kashtalar, idish-tovoqlar, naqshli yog'och xontaxtalar hamda boshqa uy-ro'zg'or buyumlari, devoriy manzara, rasm-panno, hashamdon shiftlar - bular barchasi birgalikda o'zbek xalq bezak san'atining yaxlit bir serjilo asarini tashkil etgan. Yaratilgan naqshu - nigorlar o'zlarining puxta mutanosibligi, ranglarning uyg'unligi va bichimlarining o'ta nafisligi bilan e'tiborga loyiqdirdir.

XX – XXI asr bezakchiligidagi binolar devorlari va shiftlarini bezashda ustalar tomonidan ko'pincha hashamdon to'garak ichida nozik majnuntol nihollari, anor butog'i va boshqa o'simliklarning tasvirlari tushirilgan. Biror naqsh bir necha bor takrorlangudek bo'lsa, har gal yo boshqacha fon berish, yo ma'lum detallni yangicha talqin qilish orqali bir xillik chetlab o'tilgan.

Monumental - dekorativ tasvirming mashhur o'zbek ustalari tomonidan xalqni badiiy merosidan ilhomlantiruvchi qator asarlar yaratilgan (Toshkentdagi Alisher Navoiy teatri intereri, Alisher Navoiy nomidagi metro bekti, Hazrati Imom masjidi intereri, «Bahor» konsert zali devori, Samarqanddagi Ulug'bek muzeyi, Imom Buxoriy arxitekturaviy ansamblı bezaklari, Buxorodagi Bahouddin Naqshbandiy madaniy me'res obyektidagi yangi ayvonlar naqshlari va boshqalar).

Toshkent shahrining markazida joylashgan ma'muriy bino oshxonasining katta zali devorlari va ustunlari ganch o'ymakorligi namunalari bilan shiftlari esa gulor naqshlar va ganch qandillar bilan bezatilgan (14.14-rasm). Umuman bezaklar zalga bayramona tus berib turibdi.




14. 14-rasm Oshkona zalidagi naqshning bir qismi (Toshkent, XX asr)

Bahor konsert zalida mashhur o'zbek raqqosasi Mukarrama Turg'unboyeva hamda Bahor raqs ansamblı bir guruh qızlarining hayratomuz obrazlari yaratilgan (14.15-rasm).




14. 15-rasm Bahor konsert zalidagi raqqosa qizlar tasvirining bir qismi

Hozirgi zamon o'zbek rassomlarini tasvirlari psixologik ma'nodorlikka, ichki jo'shqinlikka, joziba va ruhiy nafosatga boydir. Odam qiyofalarining havoda muallaq aks etishi, chiziqlarning dutor toridek musiqiyligi, bo'yqlarning shaffof tiniqligi o'zbek ustalari mo'yalamiga xos xususiyatdir. Asarlarda o'zbek xalqining asriy estetik orzu-umidlarini badiiy ifodalagan va qadimgi zamon san'ati an'analariga hozirgi zamon uchun xos bo'lgan shiddatkorlik va qat'iyat g'oyalarni singdirilgan. Bu g'oyalarga doir ba'zi misollar 14.16–14.23-rasmlarda keltirilgan.




- 346 -


14. 16-rasm. Toshkent arxitektura-qurilish instituti vestibyuli shifida gullar va geometrik shakllar tasvirlanib ishlangan bezak



- 347 -




14. 17-rasm. Mustaqillik davrida (2003) Bahouddin Naqshbandiy me'moriy kompleksi yangi qurilgan ayvoni ustunining pastki qismiga qo'llanilgan bezakli marmartosh va uning ustki naqshinkor kallagi



- 348 -


14.18-rasm. Bahouddin Naqshbandiy me'moriy kompleksi yangi qurilgan ayvonining hovuzakli naqshinkor shifsi



- 349 -


14.19-rasm. Buxogo shahrida buniyod etilgan betakror shakl va bezakdagisi Imom al-Buxoriy muzeyi binosi

- 350 -




14.20-rasm. Hazrati Imam masjidining yog'ochdan ishlangan o'zgacha naqshinkor ustunlari


- 351 -



14.21-rasm. Hazrati Imam masjidi gumbazining betakror bezaklari



14.22-rasm. Hazrati Imom masjidining peshtoqida arabcha harflarning bezak sifatida ishlatalishi



14.23-rasm. Hazrati Imam masjidining yog'och o'ymakorli kirish eshigi

O'zbek me'morlari va ustalarining mustaqillik davri asarlari zamirida ozod va obod vatan, erkin va farovon hayat yaratish, olamni butun nafosati bilan chuqur his etish, inson ichki dunyosini bilish. xalqning serqirra iste'dodli samaralaridan bahramand bo'lish,

an'anaviy va zamonaviy naqshlarni uyg'unlashtirish g'oyalari ilgari surilgan. Ana shu va boshqa istiqbolli sohalarda me'morlar va badiiy san'at ustalari hamkorlikda mamlakat mustaqilligi yo'lida ijodiy faoliyat ko'rsatmoqdalar, zamonaviy go'zal va betakror binolar va inshootlar yaratish g'oyalari ustida ishlamoqdalar.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Binolar bezakchiligining rivoji to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
2. Me'morchilikda bezakchilik milliy an'analarini o'zlashtirish jarayonining ikki yo'nalishi to'g'risida nima deya olasiz?
3. Monumental bezakchilikning rivojlanishiga tabiiy-iqlim sharoitlarini ta'siri to'g'risida o'z fikringiz bildiring.
4. Afrosiyob, Bolalik tepa, Varaxshadagi tasviriy san'at namunalari to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
5. Binolar va inshootlarda sur'at solishning vatanimizda tarixiy rivojlanishi to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
6. IX-X asrlarda bezakchilikning qaysi turi yuzaka kelgan, uning shakllanish sabablari to'qrisida nima deya olasiz?
7. Me'morchilikdagi ganch va yog'och o'ymakorligi, ornamet yaratish usullarini shakllanishini va tarixiy rivojlanishini izohlab bering.
8. Me'morchilikda kundal san'ati qachondan boshlab ishlatilgan, qaysi yodgorliklarda bu usulda ishlov berilgan?
9. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kela boshlagan qaysi mahalliy badiiy me'morchilik maktablarini bilasiz?
10. Zamonaviy me'moriy bezakchilikning g'oyasi nimalardan iborat?
11. Mustaqillik davri me'moriy bezakchiligi qaysi yo'nalishlarda rivojlanmoqda?

ATAMALAR LUG'ATI

Ayvon (fors) – yon tomonlarining barchasi yoki ba'zilari ochiq usti bostirilgan (yopilgan) inshoot

Akveduk (lot.) – arkadalar shaklidagi ko'pri

Akropol (grek.) – tepalikda joylashgan shahar qal'asi

Amfiteatr (grek., lot.) – ommaviy tomosha joyi

Antresol (fr.) – qavatlar o'rtaida joylashgan yoki xonani hajmini ko'paytirish uchun unga yopishtirib qurilgan yarim qavatli joy

Anfilad (fr.) – bir – biri bilan bir o'qda joylashgan eshiklar orqali bog'langan zallar, xonalar

Ark – feodal davlatining qal'a ichida mudofaa qilingan joyi

Arka (it., lat.) – prolyotni yon tomonga bosim beruvchi alohida elementlar (toshlar, g'ishtlar) bilan yopilishi; hozigi talqinida har qanday egri chiziqli prolyot yopmasi. Farqlanadi: konstruksiyasi buyicha – ponali, yashirin; shakli bo'yicha – yarim sirkulli ko'p markazli; vazifasi bo'yicha – yuk ko'taruvchi, yukni kamaytiruvchi va hokazo. Shakli bo'yicha strelkali arka bir-biri bilan burchak ostida kesishadigan ikkita yoydan tashkil topgan; milliy me'morchilik tarixida to'rt markaz strelkali arka uchraydi. Yarim sirkulli arka yarim aylana shaklida bo'ladi. Ikki markazli arka bir xil radiusli ikkita yoydan tashkil topadi. Nurli arka - yopiladigan prolyot yarim aylanadan kichik arka.

Arkada (fr.) – ustun yoki tayanchga o'rnatilgan arkalar qatori

Arkbutan – gumbaz tortqich kuchini kontrofosga uzatadigan yarim arka

Axta – naqsh tarhi igna bilan chekilgan andoza

Bazilika (grek.) – 1) ustunlarning bo'ylama qatori bilan xonalari qismlarga (nef, naos) ajratilgan bino; yon tomonlaridagidan ko'ra o'rtadagi xona odatda keng va baland bo'ladi, yon tomonidan

yoritiladi; 2) qadimgi rimliklarda - sud, savdo, birja binolari; 3) erta xristian cherkovi;

Balkon – perila bilan mustahkam to'silgan va xona bilan bog'langan, fasadda chiqib turuvchi maydoncha

Baraban – binoning tomida (cho'qqisida) joylashgan silindrik yoki ko'p qirrali shaklga ega bo'lgan qismi. yuk ko'taruvchi gumbaz; yorug'lik barabanida derazalar ham bo'ladi.

Bordyur (fr.) – nimanidir chetini yakunlovchi polosa

Vassa – ayvонни yopishda bolorlar (to'sinlar) ustidan teriladigan yarim silindr shaklidagi taxtacha

Vestibyul (lot.) – rim uylarining old qismi

Villa (lot.) – xizmatchilar bo'lgan uy yoki saroy; shahardan tashqarida joylashgan ko'kalamzor hovli

Vitraj (fr.) – oyna yoki boshqa shaffof materiallar bilan yopilgan chiroyli bezakli proyom

Galareya – bo'yi enidan ancha katta bo'lgan yopilgan yorug' xona, odatda bo'ylama devorlardan bittasi ustunlardan iborat bo'ladi

Gimnasiy (grek.) – o'qish suhbatlari va jismoniy mashg'ulotlar o'tkaziladigan jamoat binosi

Ziyoratxona – marosimlar o'tkaziladigan katta xona

Dolmen – yotiq plita bilan yopilgan bir necha tik toshlardan tashkil topgan ibridoiy jamoa inshooti

Ieroglyph (grek.) – butun so'z yoki tushunchani ifodalovchi yozuv belgilari

Impost (lot.) – arkani tayanishi uchun ishlataladigan devor yoki ustunning tepasidagi tosh

Islimiyy – o'simlik shoxlari ko'rinishidagi naqsh turi

Qal'a – feodal davridagi shahar qo'rg'oni

Kapella (lot.) – uy cherkovi

- Kapitel** (lot.) – ustunning tepe qismi, kallagi
- Karvonsaroy** – shahar va savdo yo'llaridagi savdogarlar va yo'lovchilar turadigan joy
- Karniz** – devorning tugallanish joyi, tepe qismi (devorni yomg'irdan asraydi)
- Kesson** (fr.) – odatda, kvadrat shaklidagi shiftni chuqurlashgan joyi
- Kolonnada** (it.) – joylashtirilgan ustunlar qatori
- Konsol** (fr.) – karniz, balkon, ustunni tutib turish uchun devor yoki ustundan chiqarilgan tosh. balka cheti
- Kontrofos** – tik yoki tepaga qarab torayib boruvchi devormi chiqqan joyi
- Kreml** – odatda, balandlikda joylashgan rus feudal shaharlarining markaziy kuchaytirilgan qismi
- Kromlex** – aylana bo'ylab yoki tutashmagan aylana shaklida joylashtirilgan tosh ustunlar guruhi
- Kundal** – ichki devorlarda bo'rtiq yuzaga zarhal berib ishlangan naqsh turi
- Kupol** (it.) – gumbazli (osmonsimon, yarim shar shaklidagi) yopma. Yashirin, ponali, sferik, sfera konussimon, parusli (parusga tayanadigan). zont shakllaridagi turlari mavjud.
- Lodjiya** (it.) – bir yoki bir necha tomoni ochiq xona; ochiq tomoni arkada yoki kollonada bilan mustahkamlanadi va to'siladi.
- Lotok** –yarim silindrik sirt shaklidagi bo'lak, gumbazning qismi
- Mavzoley** yoki maqbara – daxma (o'lgan insonning tanasi ko'milgan joy) ustida tiklangan monumental inshoot. yodgorlik
- Mayolika** (it.) – yaltiramaydigan glazur bilan qoplangan gulli chinni buyum
- Megalit** (grek.) – katta tosh

Megaron – greklarning turar-joy binosi chetidan kiriladigan to'rtburchakli bosh xonasi

Madrasa (arab.) –musulmon diniga mansub oliy maktab

Menger – ibtidoiy jamoa davriga tegishli toshli arxeologik yodgorlik

Masjid (arab.) – musulmoncha diniy inshoot

Order (lot.) – tartib, tuzum; ustun to'sinli konstruksiyaning ma'lum bir badiiy tizimi

Palata – ko'p xonalardan iborat bo'lgan toshli turar-joy binosi

Pandus (fr.) – yengil qiyalashtirilgan zinani almashtiruvchi sirt

Panno (fr.) – devor, eshik yoki shift sirtining ramkaga olingan va odatda, badiiy tus berilgan bir bo'lagi

Parapet (it.) – tom, ayvon, sohil, zinapoya, katta qiyalikdagi yo'llarda to'siq sifatida ishlatiladigan past devor

Parus – to'rtburchakli asosdan gumbazli yopmaga o'tishni ta'minlaydigan konstruksiya; ular konstruksiyasi bilan farq qiladi: to'sin-kansolli (balkali, zina-teshikli, kansolli, stalaktitli-dekorativ); arka-gumbazli (voronkasimon, voronkasimon zinapoyali, konxovli, gumbazli, arkali, zinapoyali-arkali, arkali-gumbazli, to'rli).

Pergola (lot.) –ochiq galareya, veranda, ya'ni yengil material bilan yopilgan, ko'kliklar tortilgan joy

Peshtoq – masjid, madrasa yoki karvonsaroya kirish eshigi – darvozaxona joylashgan, baland arkasimon portal

Portal (lot.) – jamoat binosi, saroy, masjid va shunga o'xshash binolarning me'moriy bezatilgan darvozaxonasi

Pilon (grek.) – 1) darvoza, tepaga qarab torayib boradigan minorasi bo'lgan bezatilgan monumental qal'aga kirish joyi; 2) ko'priq, gumbazning tayanch ustunlaridan biri

Pilyastir (it.) – devar yoki ustunning rejada tekis, to'rtburchakli chiqqan joyi

Piramida – Qadimgi Misrdagi qabr usti inshooti
Postament (it.) – poyi, yodgorlik asosi
Propiley (gek.) – monumental darvoza, akropolga kirish
Pedestal – ustunning poyi
Rabot – shahar tevaragi, shaharning hunarmandchilik qismi
Rizolt (it.) – fasadning asosiy o'qidan chiqib turuvchi bino qismi
Rotonda (it.) – aylana bino, odatda gumbaz bilan yopilgan aylana bino
Sandrik – deraza yoki'eshik ustidagi kichik karniz
Sarkofag (grek.) – monumental, tantanavor bezatilgan, toshli, metalli, yog'ochli yoki terrakotali qabr
Svod – pastdan qaraganda qavariq bo'lган egri sirtli yopma
Sklep – qabrning ichki xonasi
Sleznik – karnizning tepasidagi yon tomonga chiqib turadigan plitasi
Stalaktit (grek.) – karniz, gumbaz va binoning boshqa qismlarida ishlatalidigan dekorativ shakl
Substraksiya (lot.) – inshootning asosi sifatida xizmat qiluvchi konstruksiya
Terma (lot.) – Rim hammomi
Tim – savdo inshooti
Fasad (fr.) – bino yoki uning qismini tashqi ko'rinishi
Faxverk (nem.) – devorlari yog'och g'ulalardan tashkil topgan imorat
Filyonka (nem.) – devor, eshik maydonini ramkaga olingen qismi
Forum (lot.) – dastlab bozor, so'ngra Rim shahrining jamoat maydoni
Fronton (fr.) – fasadning karniziga tutashuvchi uchburchak shaklidagi tepe qismi

Xonaqoh- darvishlar uchun qo'nalg'a bo'lib xizmat qiladigan katta xonasi mavjud masjid binosi

Xavzak- tekis shiftda mehrobdor naqsh bilan to'ldirilgan bezakli chuqurlik

Sitadel (it.) – qal'a ichida mustahkam mudofaa qilinadigan joy

Sokol (it.) – bino, yodgorlik, ustun, pilyastr poyi

Shatyor – to'rt yoki sakkiz qirrali piramida shaklidagi baland yopma

Sharafa-shift bilan devorni tutashtirib turuvchi mehrob

Erker (nem.) – tashqi devordan chiqarilgan binoning ichki hajm qismi; u foydali maydonni ko'paytiradi, yorug'likni yaxshilaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksi. Toshkent, Adolat, 2004.
2. Архитектура гражданских и промышленных зданий, Учебник в 5 томах, том 1, История архитектуры. Гуляницкий Н. Ф.. Москва, Стройиздат, 1986.
3. Bulatov M. S., Geometricheskaya garmonizasiya v arxitekture Sredney Azii IX – XV vv. M., 1978.
4. Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligiga bag'ishlangan «Nauchnoe i kulturnoe nasledie chelovechestva - tretemu tisyacheletiyu» mavzusidagi dokladlar tesizlari. Toshkent, 1997.
5. Vohidov M.M.. Mirzayev Sh.R. Binolar va inshootlar konstruksiyalari. Toshkent, Mehnat, 2003.
6. Vohidov M.M. Samarqand arxitektura yodgorliklari. «Buxoro», 2009.
7. Vohidov M.M. Buxoro arxitektura yodgorliklari. «Buxoro», 2009.
8. Vohidov M.M. Xiva me'moriy obidalari. «Buxoro». 2009.
9. Vohidov M.M. O'zbekiston milliy me'morchiligi. «Buxoro», 2009.
10. Vohidov M.M. Binokorlik bezakchiligi. «Buxoro», 2009.
11. Zasipkin B.N. Arxitektura Sredney Azii. M., 1948 .
12. Захидов П. Самарканд. Школа зодчих XIX - начало XX вв. Т., 1965.
13. I.M.Azimov. O'zbekiston naqshu-nigorlari. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
14. Куликов В., Бергамолцев Л.. Китай. Москва, Планета. 1989.

15. Кадырова Т.Ф., Бабиевский К., Турсунов Ф. Архитектура советского Узбекистана, М., 1972.
16. Кадырова Т.Ф. Направленность архитектуры и градостроительства Узбекистана в годы независимости (1992-2006 гг.). Архитектура. Строительство. Дизайн. Ташкент, издательство «ТАСИ», 2006, №1.
17. Penson M. Rango-rang O'zbekiston. Toshkent, Mehnat, 1989.
18. Pugachenkova G. A., Samarqand. Buxara. M., 1968.
19. Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И., История искусство Узбекистана с древнейших времен до середины девятнадцатого века. М., 1965.20. Ratiya Sh.E. Mechit Bibixalym v Samarqande, M., 1950.
21. Ремпель Л. И. Выдающиеся памятники архитектуры . Узбекистана, Т, 1969 .
22. Ремпель Л. И. Далёкое и близкое. Бухарские записки. Ташкент. Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1981.
23. Teshaboev R.D. Fuqaro binolarining me'morchilik konstruksiyalari va qismlari. Toshkent. O'qituvchi, 1992.
24. Шишкун В.А. Архитектурные памятники Бухары. Ташкент, 1936.
25. O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. Toshkent, 2006, №3.
26. O'zbekiston ensiklopediyasi. 1-14 tomlar. Toshkent, 1971-1980.
27. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-12 tomlar. Toshkent, 2000-2006.
28. QMQ 2.01.01-94. Loyihalash uchun iqlimiylar va fizik-geologik ma'lumotlar. Toshkent. 1994.
29. QMQ 2.03.01-96. Zilzilaviy hududlarda qurilish. Toshkent. 1996.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

I BO'LIM. ME'ΜORCHILIK TARIXI

1-BOB

UMUMIY MA'LUMOTLAR	6
--------------------------	---

2-BOB

IBTIDOY - JAMOA DAVRI ME'ΜORCHILIGI	9
---	---

3-BOB

QULDORLIK DAVLATLARINING ME'ΜORCHILIGI	11
--	----

3.1. Qadimgi Misr arxitekturasi	11
---------------------------------------	----

3.2. Qadimgi Yunon arxitekturasi	17
--	----

3.3. Qadimgi Rim me'morchiligi	22
--------------------------------------	----

4-BOB

FEODALIZM DAVRI ME'ΜORCHILIGI	31
-------------------------------------	----

4.1. Sharqiy Evropa mamlakatlari va Vizantiya arxitekturasi (V-XIV asr).....	31
---	----

4.2. Roman arxitekturasi	33
--------------------------------	----

4.3. Gotika arxitekturasi	34
---------------------------------	----

5-BOB

XV – XIX ASRLARDA YEVROPA ME'ΜORCHILIGI.....	38
--	----

5.1. XV - XVI asrlar Italiyada uyg'onish davri me'morchiligi	38
--	----

5.2. Barokko me'morchiligi	43
----------------------------------	----

5.3. Rus me'morchiligi	48
------------------------------	----

6-BOB

KAPITALISTIK DAVLATLAR ARXITEKTURASI (XIX-XX asr)	56
---	----

7-BOB

SOTSIALISTIK MAMLAKATLAR ARXITEKTURASI	67
--	----

II BO'LIM. O'ZBEKISTON MILLIY ME'MORCHILIK TARIXI

8-BOB

UMUMIY MA'LUMOTLAR	94
--------------------------	----

9-BOB

SAMARQAND SHAHRINING ME'MORCHILIK TARIXI	109
--	-----

9.1. Umumiy ma'lumotlar	109
9.2. Afrosiyob yodgorliklari	115
9.3. Shohi Zinda arxitekturaviy ansamblı	118
9.4. Bibixonim masjidining arxitekturası	121
9.5. Amir Temur maqbarasi me'moriy yodgorligi	126
9.6. Registon maydonining me'moriy ansamblı	133
9.7. Ulug'bek rasadxonasi	140
9.8. Ishratxona arxitekturaviy yodgorligi	142
9.9. XVIII –XIX asrlar arxitekturası	154

10-BOB

BUXORONING ME'MORCHILIK TARIXI	144
--------------------------------------	-----

10.1. Umumiy ma'lumotlar	144
10.2. Ark qal'asi	154
10.3. Ismoil Samoniy maqbarasi	160
10.4. Minorai Kalon	167
10.5. Mag'oki Attori masjidi me'morchiligi	172
10.6. Chashma Ayub maqbarasi	173
10.7. Sayfiddin Boxarzi va Buyan Qulixon maqbaralari	175
10.8. Ulug'bek madrasasining arxitekturası	177

10.9. Masjidi Kalon arxitekturasi	179
10.10. Mir Arab madrasasining arxitekturasi	183
10.11. Labi hovuz me'moriy ansamblı	186
10.12. Xo'ja Zayniddin va Baland masjidlari me'morchiligi	192
10.13. Toq, tim va hammomlar arxitekturasi	194
10.14. Qo'sh madrasa arxitekturaviy ansamblı	200
10.15. Bahouddin Naqshbandiy madaniy meros obyekti	207
10.16. Chor Bakr arxitekturaviy ansabli	211
10.17. Chor Minor madrasasi arxitekturasi	213
10.18. Bolohovuz masjidining arxitekturasi	215
10.19. Sitorai Mohi Xosa me'moriy kompleksi	217

11-BOB

XIVA SHAHRINING ME'MORCHILIGI TARIXI	226
11.1. Umumiylar	226
11.2. Ichan qal'a	229
11.3. Juma masjidining arxitekturasi	231
11.4. Toshhovlining me'moriy echimi	231
11.5. Ota darvoza yodgorligi	232
11.6. Muhammad Aminxon madrasasi me'morchiligi	233
11.7. Kalta Minor	234
11.7. Pahlavon Mahmud maqbarasi	235
11.8. Arxitekturaviy inshootlar zilzilabardoshligi	235

12-BOB

O'ZBEKISTON POYTAXTI – TOSHKENT SHAHARINING ARXITEKTURA TARIXI	237
12.1. Umumiylar	237
12.2. Baroqxon madrasasi me'morchiligi	238
12.3. Ko'kaldosh madrasasi me'morchiligi	241
12.4. Toshkentning XIX – XX asrlardagi arxitekturasi	243
12.5. Alisher Navoiy nomidagi teatr binosi	244
12.6. Toshkent shahar markazining arxitekturasi	247

13-BOB	
O'ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK DAVRI	
ARXITEKTURASI.....	56
14-BOB	
O'ZBEKISTON MILLIY ME'MORCHILIGIDA.....	324
ATAMALAR LUG'ATI.....	355
ADABIYOTLAR	361

Texnika fanlari doktori, professor
VAXITOV MUBIN MUMINOVICH

ME'MORCHILIK
I QISM. ME'MORCHILIK TARIXI

(Oliy o'quv yurtlari uchun darslik).

Muharrir I.SHOYMARDONOV
Badiiy muharrir O.MUXTOROV
Texnik muharrir H.SAFARALIYEV
Sahifalovchi D.AKROMOV

Bosishga 18.11.2010-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 1/16. Times New Roman garniturası.
Hajmi 15,0 b.t. Adadi 500.
Bahosi shartnoma asosida.
Buyurtma № 06.

«Tafakkur» nashriyoti. www.tafakkur.uz
E-mail: maktub@tafakkur.uz

Original-maket
«TAFAKKUR» nashriyoti
media markazida tayyorlandi.

«TAFAKKUR» nashriyoti bosmaxonasi.
Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Chilonzor ko'chasi, 1-uy.

